

Rasim Xayrov
Zolimxon o'gli



Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassis.

"Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga individual yondashuv" (2021) monografiyasi, "Dekorativ rangtasvir" (2022) hamda "Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish" mavzusidagi maqolalar, uslubiy ko'rsatmalar muallifi. Bugungi kunda Guliston davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik" kafedrasida faoliyat yuritmoqda.

ISBN 978-9910-740-45-9



4649



"METODIST NASHRIYOTI"

TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH METODIKASI

R.Z. Xayrov

TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH METODIKASI



**Bakalavrning "60111200 – Tasviriy san'at
va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun mo'ljallangan darslik**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

RASIM XAYROV

**TASVIRIY SAN’AT FANINI
O‘QITISH METODIKASI**

Darslik

Bakalavrning “60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik
grafikasi” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan darslik

**Toshkent
“METHODIST NASHRIYOTI”
2023**

УДК: 371.3
КБК:74.266.4
X 18

R.Z.Xayrov

Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi. - Toshkent.: "METHODIST NASHRIYOTI", 2023, 276 b.

Mazkur darslik tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi predmeti o'qitiladigan oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilariga mo'ljallangan bo'lib, dastur asosida tasviriy san'at fanini o'qitishning nazariy mazmuni va uni o'qitish metodikasi, didaktik masalalari yoritilgan. Shuningdek, tasviriy san'at o'qituvchisining tashkiliy, metodik va ijodiy ishlari, umumiy o'rta ta'lim maktab tasviriy san'at dasturi, uni rejalashtirish, har bir mashg'ulot turlariga dars ishlanmasini hamda ko'rgazmali qurollar tayyorlash, xonalarni jihozlash, na'munaviy darslarni tashkil etish va o'tkazish, tahlil qilish, pedagogik tasvirlar ishlash uslublari, tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish haqida metodik tavsiyalar o'z aksini topgan. Tasviriy san'at darslarida qo'llaniladigan turli materiallar va ish qurollari, o'quvchining kasbiy bilim va mahoratini oshirishga mo'ljallangan ma'lumotlar keltirilgan.

Darslik oliy o'quv yurtlarining 60111200 - "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan, shuningdek umumiy o'rta ta'lim maktablari tasviriy san'at o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Ma'sul muharir:

R. Hasanov - pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

D. Omonov - pedagogika fanlari nomzodi, professor.

B. Oripov - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

S. Qulmamatov - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25 avgustydagi "391"-sonli buyrug'iga asosan chop etildi.

ISBN 978-9910-740-45-9

© R.Z. XAYROV, 2023.

© "METHODIST NASHRIYOTI", 2023.

KIRISH

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, amaliy tajriba va tashkilotchilik qobiliyati ko'nikmalarini shakllantiradi, dastlabki tarzda ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga va kasbga yo'naltirishga yordam beradi. O'quvchilarda ijodiy fikrlaydigan, tashabbuskor va nostandart yechimlarni topa oladigan qobiliyatlar kabi muhim fazilatlarga ega bo'lgan, hayot davomida o'z ustida ishlay oladigan shaxslarni shakllantiradi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning estetik, emotsional sezgirligini o'stirish, tasviriy savodxonlik va badiiy tafakkurini yuksaltirish kabi sifatlarini rivojlantirish, tasviriy san'at darslari orqali didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish, mazkur jarayonga kompetent yondashuvni tatbiq etish, darslarda o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishning me'yori asoslari va moddiiy texnika bazasi yaratilmoqda.

Davlat ta'lim standarti o'qituvchilar oldiga o'quvchilarda "universal ta'lim faoliyati, o'rganish qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatini rivojlantirish" vazifasini qo'yimoqda. Bularning barchasiga o'quvchining ijtimoiy muhitni ongli, faol egallashi orqali erishiladi.

Shu bilan birga, bilim, ko'nikma va malakalar (BKM) maqsadga muvofiq harakatlarning tegishli turlarining hosilalari sifatida qaraladi, ya'ni ular o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol harakatlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Shuning uchun tasviriy san'at o'qitish jarayonini o'quv-uslubiy ta'minoti bazasini boyitish alohida ahamiyatga ega.

Darslikda umumiy o'rta ta'lim maktabi tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasiga oid sinflar bo'yicha yillik darslarni rejalashtirish, dars ishlanmalar namunalari, maktab

o'quvchilarining badiiy faoliyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan eng samarali pedagogik shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan. Darslikda tasviriy san'atning fanini o'qitishda muammoli vaziyatlar, mashg'ulotlarining zamonaviy ta'limi tabaqalashtirilgan va individual yondashuvni va turli o'yinlar o'tkazishga e'tibor berilgan. Kompleks o'qitishda tasviriy san'at fanining imkoniyatlari turli tushuncha va yondashuvlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan.

Ma'lumki, tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy faoliyati o'quv, ilmiy-metodik, madaniy-ma'rifiy ishlarni o'z ichiga oladi. U o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va tasviriy san'at vositasida rivojlantirishga qaratilgandir. Tasviriy san'at o'qituvchisi qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, tasviriy san'at tarixini, turli badiiy bezak texnikasini puxta egallashi, psixologiya va pedagogikani chuqur bilishi kerak. Har qanday yaxshi rassom muvaffaqiyatli o'qituvchi bo'la olmasligi mumkin, ammo o'qituvchilik mahorati maxsus tayyorgarlik va mashaqqatli mehnatni talab qiladi.

Tasviriy san'at o'qituvchisi o'quvchilarni ijodkorligini rivojlantirishga, ularning tasviriy san'atni tushunishi, tasviriy san'at mahoratini ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni egallashi kerak bo'ladi.

Pedagogik mahorat o'qituvchining o'z fanini bilishi, pedagogika, psixologiya, fiziologiyaning asosiy qonuniyatlarini o'zlashtirishni va o'quv jarayonini tashkil etish usullarini tushunishni va bu bilimlarning barchasidan pedagogik faoliyatda ijodiy foydalanish qobiliyatini talab qiladi.

Pedagogik mahorati tez namoyon bo'ladigan hodisa emas, u kundalik mashaqqatli mehnat jarayonida paydo bo'ladi. O'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, yangi metodlarni o'zlashtirishi, ilg'or tajribani o'rganishi kerak. Ta'lim berish

qachon san'at darajasiga aylanadi!? Qachonki o'qituvchi sezgirlik ko'rsata olib, kutilmagan vaziyat bilan bog'liq bo'lgan holda o'quv jarayonini qayta qurishni bilsa, masalaga ijodiy yondashsa, shunda o'qitish butun bir san'atga aylanadi.

O'qituvchining kasbiy va pedagogik tayyorgarligi uchun unga kreativ fikrlash fazilatlari kerak, chunki o'qituvchining pedagogik faoliyati davomida hal qiladigan amaliy vazifalari ko'p qirrali va murakkab vazifalardir. Ularni hal qilishda o'qituvchi faoliyatning muayyan holatini tashkil etuvchi barcha ko'p qirrali shartlarni hisobga olishi muhimdir. Shuning uchun nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda; u yaxlit va ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lgan muayyan amaliy muammo atrofida birlashgan va o'qituvchining amaliy harakatlari tiliga o'girilgan qator o'tish bo'g'inlarini o'z ichiga oladi. Ijodiy fikrlaydigan o'qituvchi, agar kerak bo'lsa, bir metodikadan ikkinchisiga o'tishi, o'qitish usullarini nazorat qilishi va to'g'ri baholay olishi, o'quvchilarning aqliy faoliyati jarayoni va natijalarini, turli ta'lim muammolarini hal qilishning yangi usullarini tezda topishi mumkin. Darsda o'qituvchi o'quvchilarning bilim va ijodiy faoliyatiga bevosita va bilvosita rahbarlik qiladi: ko'rgazmali materialni namoyish etadi, aytib beradi, tushuntiradi, ish usullarini ko'rsatadi, muammoli vaziyatlar yaratadi, o'quvchilarning mustaqil ishlarini kuzatadi va nazorat qila oladi.

Maktabda tasviriy san'atni fanini o'qitish didaktikaning asosiy tamoyillariga javob beradigan o'qitish metodikasini talab qiladi. Kontseptsiya yoki o'quv dasturi qanday tuzilmasin, qanday usullardan foydalanilmasin, o'quv jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi bilim, ko'nikma va malakalarni yagona, izchil tizimda egallashi kerak bo'ladi.

O'quvchilar bilimini baholashga qanday yondashish kerak? Ushbu muammo bo'yicha yangi qarashlar ham ushbu darslikda

ko'rib chiqilgan. Turli mavzular bo'yicha o'quvchilar bajargan ishlarni baholashning original usullari berilgan, ularni baholashning obyektiv mezonlari ishlab chiqilgan. Borliqni idrok etish, badiiy qurish-yasash, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsion faoliyat, san'atshunoslik asoslarining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan.

Darslikda tasviriy san'atni fanini o'qitishning zamonaviy metodlari (o'yinli, kompyuterdan foydalanish, tabaqalashtirilgan ta'lim, individual yondashuv va boshqalar)ning dolzarb masalalari ham yoritilgan bo'lib, ularni 60111200 - "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlashga ta'lim standartlariga muvofiq o'rganish talab etiladi.

Darslik nafaqat oliy o'quv yurtlarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda, balki o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda malaka oshirish tizimida ham qo'llash mumkin bo'ladi.

1-bob. TASVIRIY SAN'AT FANINI NAZARIY MAZMUNI

1.1. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi, uning maqsad va vazifalari.

Reja: 1. Ta'lim tizimi jarayonida yangi professional ta'lim tizimining o'rni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon. 2. 2020 yil 23 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. "Dual ta'lim" modeli mazmuni. 3. Umumiy va xususiy metodika. 4. Metod turlari. 5. Tadqiqot usullari. 6. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasiga o'z hissasini qo'shgan rassomlar.

Tayanch iboralar: Dual ta'lim, kasbiy-metodik, metodika, ta'lim metodlari, usullar, fan, og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, tajriba sinov.

O'zbekiston Respublikasi mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda Respublikamiz mehnat bozorida yuqori malakali kadrlarga bo'lgan haqiqiy ehtiyojni aniqlash tizimi rivojlantirilmoqda va ish o'rinlari uchun o'rta bo'g'in mutaxassislarini yetkazishning xalqaro tajribalarga asoslangan yangi uslublari joriy etildi.

Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada

takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bu farmondan kelib kelib chiqib, professional ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish, uni takomillashtirish, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash va mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish belgilangan. Respublikamizda ta’limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etildi.

Shu bilan birga, 2020-yil 23-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq ta’lim tizimi, uning shakllari va turlari belgilandi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi qonuni ta’lim tizimining huquqiy asoslarini mustahkamlash va uning transformatsiyasini ta’minlashga xizmat qildi.

Bu qonunda professional ta’limni alohida moddalar bilan yoritilganligi jahon mehnat bozorida yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji doimiy mavjuddir, shundan kelib chiqib O‘zbekiston sharoitida yuqori malakali va o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masala ekanligini ko‘rsatmoqda.

Ta’lim hamda amaliyot jarayoni bilan uyg‘unlashtirilgan holda mehnat bozori talablariga mos kadrlarni tayyorlash va ish beruvchilarning ehtiyojlarini qondirishda eng samarali usullardan biri “Dual ta’lim” modeli jarayoni hisoblanadi.

“Dual ta’lim” modeli, malaka hamda kompetenttsiyalarni shakllantirish bo‘lib, ta’lim dasturining nazariy, o‘quv-amaliy qismi professional ta’lim muassasasida, ishlab chiqarish bilan

bog'liq amaliy qismini ta'lim muassasida tashkil etiladigan ta'lim jarayoni hisoblanadi. Ya'ni, bugungi kun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini, xususan tasviriy san'at fani va uni o'qitish metodikasini oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan davrda shakllantirish zarur bo'ladi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tasviriy san'at fani o'qitish metodikasini o'rganish davomida umumta'lim maktab dasturi asosida barcha tasviriy san'at turlarining: grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik, dekorativ-amaliy san'atning nazariy asosi sifatida bo'lajak pedagog rassomlarga borliqni ko'rib-kuzatishni va idrok etishni, yetuk rassomlarning ijodini o'rganib, tahlil qilishni, san'atshunoslik asoslarida jahon tasviriy san'atini o'rganishni, tasviriy san'at oqimlari va yo'nalishlari haqida ma'lumotlarni berishni asosiy **maqsad** qilib qo'yadi.

Shu bilan birga tasviriy san'at fanining kelib chiqishi va rivojlanish tarixi, tasviriy san'at qonun-qoidalari, tasviriy san'at turlari, janrlari, taniqli tasviriy san'at rassomlari haqida bilimlarini hosil qilish, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini pedagogik jarayonga puxta tayyorlashda umumta'lim va kasb-hunar maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanining ahamiyati, talabalarda badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, ko'rib eslab qolish, bilim, malaka, ko'nikmalar va fazoviy tasavvurni shakllantirish; san'at asarlariga nisbatan estetik munosabatni, go'zallikka bo'lgan muhabbatni rivojlantirish **vazifasi** qo'yiladi.

Metodika yunoncha so'z bo'lib, "tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li" kabi ma'nolarni anglatadi. Falsafa lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda "maqsadga erishish usullari" deya nomlangan. Ayrim pedagogik manbalarda "ta'lim metodi" tushunchasiga berilgan ta'riflarning xilma-xil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Pedagogikada ta'lim metodlarining o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi belgilangan

tartibli faoliyat metodlari ekanligi to'g'risidagi g'oyalar ham mavjuddir. Ta'lim usullari dastlab o'qituvchi ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'lib, keyinchalik bu loyiha amaliyotga o'qituvchi va talabalar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi.

Yuqorida aytib o'tilayotgan tushuncha mohiyatini to'laqonli aks etuvchi ta'rifni aniqlashga bo'lgan urinishlar bugungi kunda ham davom etmoqda, yangi g'oyalar ilgari surilmoqda. Ammo, "ta'lim metodi" tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlicha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o'zaro yaqinlashtiruvchi umumiylik mavjud. Aksariyat mualliflar "ta'lim metodlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari" degan qarashni ilgari surishadi. Ta'lim samarasini ta'minlovchi usullar to'plami, ta'lim jarayonida qo'llanilib "ta'lim metodlarini" tashkil etadi.

O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati natijasida, ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritib boradi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi. Metod, ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'ladi hamda boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

O'qitish metodikasi deganimizda, biz ta'lim va tarbiyaning samarali usullari majmuini qo'llashni tushunamiz. Metodika umumiy bo'lishi mumkin - u barcha fanlarga xos bo'lgan o'qitish usullari, xususiy - ma'lum bir o'quv faniga qo'llaniladigan o'qitish usullarini anglatadi.

O'qitish metodikasi o'quv materialiga mos ravishda ishlab chiqilganligi sababli, har bir maktab o'quv predmeti o'qitish usullarining o'ziga xos xususiyatlariga ega. O'qitish usullarini tanlash o'quv maqsadlariga, o'quvchilarning yoshiga bog'liq

bo‘lib, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishlash usuli, buning yordamida o‘quv materialini yaxshiroq o‘zlashtirishga erishiladi va o‘quv samaradorligini oshishi tushuniladi.

Pedagogik adabiyotlarda “usul” (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) atamasi ham uchraydi. Usul - bu o‘qitish metodining tashkil etuvchi alohida bo‘lagidir. Umumiy yo‘nalishda birlashtirilgan metod va o‘qitish usullarining majmuasidan o‘quv tizimi shakllanadi.

Albatta, o‘qitish jarayonida har bir o‘qituvchi o‘z ish uslubini ishlab chiqadi, lekin u o‘zboshimchalik, tasodifiy bo‘lishi mumkin emas. Har bir o‘qituvchining individual tizimi maktab oldiga qo‘yilgan umumiy vazifalarga, tasviriy san’atning zamonaviy rivojlanishining maqsad va yo‘nalishlariga mos ravishda tuzilishi kerak. Bundan tashqari, individual pedagogik tizim va ish metodikasi zamonaviy pedagogika darajasida bo‘lishi kerak.

Pedagogik nazariyada o‘qituvchilarning amaliy tajribasini o‘rganish va umumlashtirish asosida ta’lim metodlarini tanlashga o‘quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog‘liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy didaktikaning yetakchi g‘oyalari, ta’lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;
- o‘rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o‘ziga xosligi;
- xususiy fanlar metodikasining o‘ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo‘yiluvchi talablarning o‘zaro aloqadorligi;
- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;
- u yoki bu mavzuni o‘rganishga ajratilgan vaqt;

- o'quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;
- o'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;
- o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;
- o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darajasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatлари;
- o'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi.

O'qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda **og'zaki (nutqiy), ko'rgazmali (namoyish etish)** yoki **amaliy** metodlarni qabul qiladi.

O'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan ta'lim metodlari majmuasi boshlang'ich sinflardan yuqori sinflarga o'tish asosida o'zgarib hamda murakkab xususiyat kasb eta boradi. Ta'lim metodlaridan foydalanish ko'lami, holati o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog'liq holda o'zgaradi.

Shuni ham qayd qilish lozimki, shakllangan har bir metod shaklan bir xil bo'lsa-da, uni bir o'qituvchi, ikkinchi o'qituvchidan o'rganib, shundayligicha qo'llayvermaydi. Uni o'qituvchi o'z maktabidagi moddiy-texnikaviy shart-sharoitlar, bolalarning bilim va malakalarining saviyasi, dars mavzusining o'ziga xos xususiyatlari va boshqa shu kabilarni hisobga olgan holda tuzishi lozim. Shunga ko'ra boshqa o'qituvchi qo'llayotgan va yaxshi samara berayotgan bir metod boshqa o'qituvchi faoliyatda yaxshi natija bermasligi mumkin. Shuning uchun o'zlashtirish uchun tanlangan har bir metod ta'lim jarayonida **tajriba sinovdan** o'tkazilishi yaxshi natijalar beradi. Tajriba-sinov bir marta emas, bir necha marta o'tkazilishi mumkin, chunki bir sinfga mo'ljallangan bir metod boshqa sinfdan boshqacha natija

berishi mumkin. Ayniqsa, tanlangan va qo'llanilib kelinayotgan har bir metod shaklan o'zgarib ham mazmunan o'zgarib turishi mumkin. Pedagogning to'xtovsiz tajribalari va izlanishlari asosida uning yangidan-yangi qirralari ochib boriladi.

Bizga ma'lumki, ko'p rassom-pedagoglar umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni samarali o'qitish metodlarini taklif qilishgan. Bu metodlar tajriba-sinovidan o'tkazilgan. Har bir davrda pedagoglarning taklif etgan metodlari o'zini oqlagan, ammo vaqt o'tishi bilan qo'llanilayotgan o'qitish metodlari o'z dolzarbligini asta-sekin yo'qotib borgan. Shunga qaramasdan mumtoz o'qitish metodlarini takomillashtirishda, tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasiga o'z hissasini qo'shgan rassomlardan: Ch.Chenini, L.Da Vinchi, L.B.Alberti, A.Dyurer; pedagoglardan: I.G.Pestalotstsi, J.J.Russo, P.Shmidt, A.Sapojnikov, N.Kramskoy, P.Chistyakovlar katta hissa qo'shishgan, XX asrda rus pedagoglaridan: A.V.Bakushinskiy, E.V.Shoroxov, N.N.Rostovtsev, V.S.Kuzin, G.K.Beda, Sokolnikova, S.A.Amanjollovlar, Vatanimiz umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilariga tasviriy san'at sir-asrorlarini o'rgatishda, tasviriy san'at o'qitish metodikasi bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirishda I.Ikromov, O'.Tansiqboev, A. Abdullaev, M.Nabiev, Ch. Ahmarov, R.Hasanov, B. Oripov, B.Boymetov, S.Bulatov, H.Egamov, S.Abdirasilov, A.Sulaymonovlarning xizmatlari diqqatga sazovordir.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekiston ta'lim tizimi jarayonida yangi professional ta'lim tizimi nima?
2. "Dual ta'lim" modeli mazmunini yoritib bering.
3. Tasviriy san'at fanining o'qitish metodikasi maqsadi nimadan iborat?

4. Tasviriy san'at fanining o'qitish metodikasi vazifalari nimalardan iborat?
5. Umumiy metodika nima?
6. Xususiy metodika haqida ma'lumot bering.
7. Tasviriy san'atdan ta'lim metodlari haqida ma'lumot bering.
8. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasiga o'z hissasini qo'shgan rassom-pedagoglardan kimlarni bilasiz?

1.2. Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitish tarixidan.


Rossiyada qalamtasvir o'qitish metodlari.

Reja: 1. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi» fanini o'qitishga doir eng qadimgi va o'rta asr boshlaridagi ma'lumotlar va ularning xarakteri. 2. Ibtidoiy jamoa davri. 3. Qadimgi Misr. 4. Qadimgi Yunoniston va Rim. 5. O'rta asrlar. 6. Yevropa uyg'onish davri. XVII-XVIII asrlar. 7. XIX - XX asrlarda tasviriy san'atni o'qitilishi. 8. XVIII-XIX va XX-XXI asrlarda Rossiyaning pedagogika o'quv yurtlarida tasviriy san'at fanining o'rni.


Tayanch iboralar: Devoriy su'ratlar, yozuv, san'at, maktab, tizim, amaliyot, qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik, "Erkin tarbiya", geometrik va natural tasvirlash metodlari, predmet.

Ibtidoiy jamoa davri. Bizni o'rab turgan olamni tasvirlashga bo'lgan intilish qadim zamonlardan beri kuzatilgan. Bunga ibtidoiy jamoa davri odamlari katta muvaffaqiyatlarga erishganlar, ular mamontlarning suyaklari va tishlariga chizilgan rasmlar, g'orlardagi devoriy su'ratlar buning tasdig'idir. Ibtidoiy jamoa rassomlari atrofni qanday ko'rsalar, uni shundayligicha, ya'ni borliqni o'zlari ko'rganlaridek tasvirlaganlar. Buni Kombarels (*1-rasm*), Altamira (*2-rasm*) g'orlarida va Sahroi Kabirning tog'li hududlarida saqlanib qolgan shift va devorlarning

rasmlari bunga yaqqol misoldir. Bu tasvirlar o'sha davrda inson fikrini uzatishning o'ziga xos shakli bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan shu asosda keyinchalik yozuv ham paydo bo'ldi. Ushbu rasmlarning qachon bajarilganligi hanuzgacha aniq emas. Olimlar ularni insoniyat jamiyati rivojlanishining eng dastlabki davriga - qadimgi tosh (paleolit) davriga borib taqalishini aytishadi.



***1-rasm. Kombarels
g'orlarida topilgan devoriy
su'ratlar***



***2-rasm. Altamira g'oridagi
su'ratlar***

Devorlar va shiftlarga ishlangan ushbu o'txo'r va yirtqich hayvonlarning aniq tasvirlarini dastlabki rangtasvir ishlari deb atashimiz mumkin. Shuni ta'kidlashimiz lozimki, aksariyat tasvirlar afsonaviy va turli marosimlar asosida ishlangan (ritual) xarakterga ega bo'lib, insonlarning o'sha davrdagi dunyoqarashlarining dastlabki ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirgan. Bu tasvirlar ko'pincha g'orlarning qorong'u burchak va shiftlarga chizilgan. Bunday tasvirlar g'orlarni bezash uchun yoki diniy, sehrli talismanlar sifatida yaratilgan bo'lib, tasvirlar qabila ajdodlarining "totemlari" ham hisoblangan.

Vaqt o'tishi bilan ibtidoiy odamlarning har qanday bajargan ishlarida tajribalari ortib bordi, uni o'z avlodlariga yetkazishga intilganlar. Ming yillar davomida inson chiziqlar va naqshlarni chizish, qushlar va hayvonlarning siluetlarini tasvirlash tajribasini

to‘plashdilar.



3-rasm. Zarautsoy su'ratlari 3a-rasm. Sarimishsoy petrogliflari

Neolit davrida hunarmandchilik va dehqonchilik ishlab chiqarish tabiati insonning san'atga bo'lgan munosabatini o'zgartirdi. Odamlar o'zlari yasagan hunarmandchiligi buyumlarini, asosan kulolchilik buyumlarini bezash uchun tasvirlash qobiliyatidan foydalana boshladilar. O'qitish uslubi ham o'zgara boshladi. Bu hol rassom-hunarmandning paydo bo'lishiga olib keldi, natijada ustoz va shogird tushunchasi paydo bo'ldi.

Shu davrlardan ustoz uchun shogirdining o'z san'atini o'zlashtirib, yordamchi, keyinchalik uning ishining davomchisi bo'lib, mahoratini egallashi muhim bo'la boshladi. Asta sekin usta o'z shogirdiga qanday ishlashni, u yoki bu naqshni, tasvirni qanday tasvirlashni bir necha bor ko'rsatib, o'rgatib borish tushunchasi paydo bo'ldi.

Hozirgi O'zbekiston hududidan ham ana shunday ibtidoiy jamoa davriga mansub bo'lgan o'nlab rangtasvirda ishlangan devoriy su'ratlar qoldiqlari topilgan. O'zbekiston hududiga mansub qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos bebaho na'munalarga ega. Bulardan eng qadimgilari Zarautsoy, Sarimishsoy tasvirlari hisoblanadi. (3-3A-rasm)


Shunday qilib, qadimda o'qitishning dastlabki metod va usullari ishlab chiqila boshlandi. Ammo o'qitishning aniq ishlab chiqilgan ta'lim tizimi tamoyillari hali yaratilmagan edi. Haqiqiy tasviriyl san'atni o'qitish va tashkil etish maktablari faqat insonning keyingi taraqqiyoti davrida paydo bo'la boshladi.

Qadimgi Misr. Tasviriyl san'atni o'qitish to'g'risida gap borganda dastavval Qadimgi Misrning yuksak rivojlangan tasviriyl san'ati va madaniyatini misol qila olishi mumkin. Bizga ma'lumki aynan Qadimgi Misrda ilk tasviriyl san'at o'qitila boshlangani. Bizgacha yetib kelgan manbalardan xulosa qilishimiz mumkinki, Qadimgi Misrning tasviriyl san'atida puxta va tugallangan san'at asarlarini yarata olganliklariga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bunga misol sifatida ov manzaralari, baliq va qushlar ovi, dehqonlar va hunarmandlarning kundalik hayoti, botal janrida ishlangan manzara tasvirlari bilan bezatilgan syujetlarini miloddan avvalgi uchinchi ming yillikdagi dafn etish inshootlarida uchratishimiz mumkin. (4-rasm)




4-rasm. Qadimgi Misr manzaralari.

Qadimgi misrliklarning tasvirlari shartli xarakterga ega bo'lib, odamning yuzi va oyoqlari profil tomondan ishlanib, ko'z va yelkalari old tomondan ishlab ko'rsatilgan (5-rasm).



5-rasm. Qadimgi Misrda inson proportsiyalari

Ushbu shartliklarga qaramay, Misrliklarning tasvirlarida inson figuralarining harakati, inson yuzlari, hayvonlar va qushlarning tasvirlarini o'ziga xos ifodalanishida realizm ishtirok etadi. Bunga, Qadimgi Misr maktablarida rasm chizish bilan bir qatorda chizmachilik ham o'qitilganligidan tarixiy hujjatlar guvohlik beradi. Qadimgi Misrda o'quvchi maktabni tamomlagach, rasm solishni bilishi kerak bo'lgan, u yer maydoni, kanal sxemasi, bino rejasini chizish, o'lchash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak edi. Shunday qilib, biz qadimgi misrliklarda tasviriy san'atni ilk maktab o'quv predmeti sifatida o'qitilishini ko'rishimiz mumkin. Ieroglif yozuvi barcha turdagi obyektlarni tasvirlashni talab qilgani uchun bolalarni o'qish va yozishni o'rgatishda asosiy e'tibor rasm chizishga qaratilgan.



6-rasm. Qadimgi Yunon freskalari.



7-rasm. Qadimgi Yunon vazasi

Qadimgi Misrliklar mashg'ulotlarni tasodifiy emas, balki tizim asosida o'qitganlar. Podsholik sulolalarining barcha davrlarida rassom-o'qituvchilar uchun o'qitish usuli va tizimi bir xil bo'lib kelgan, chunki tasdiqlangan qonunlar-qoidalar barcha

belgilangan me'yorlarga qat'iy rioya qilishni belgilab qo'yilgan edi. (5-rasm) Shundan xulosa qilish mumkinki, misrliklar rasm chizish amaliyotiga nazariy asos solishgan. Ular birinchi bo'lib tasvirlash qonunlarini ishlab chiqdilar va ularni o'zidan keyingi yangi avlodga qoldira boshlagan.

Qadimgi Yunoniston. Qadimgi Yunon rassomlari ta'lim va tarbiya muammosiga yangicha yondashgan. Tabiatni o'rganish, hayotdagi go'zallikni kuzatish, ular o'zlarining tasviriy san'at qoidalarini ishlab chiqishga kirishdilar. (6-rasm) Yunonlar dunyoda qat'iy qonuniyat hukmronlik qiladi, simmetriya, qismlar



8-rasm. Miron. "Diskobol"
haykali. Mil.av. V asr.



9-rasm. Ayol. Qadimgi Rim. Pompey devoriy su'rati.

va yaxlitlikning uyg'unligida, to'g'ri matematik munosabatlar yotadi, deb ta'kidlaganlar (7-rasm). Miloddan avvalgi 432 yilda Sikionada haykaltarosh Poliklet inson tanasining qismlari o'rtasidagi mutanosib munosabatlar borligi ilk bor yozib qoldirgan. Keyinchalik, o'sha davrlarda yashagan taniqli haykaltaroshlar Poliklet va Miron tomonidan yaratgan asarlarini o'ziga qarab tasvirlash rasm chizishni o'rganayotgan yoshlarga

majburiy ravishda ta'lim tizimiga kiritilganligini ko'ramiz. (8-rasm)

Qadimgi Yunonistonda eramizdan oldingi IV asrda Efess, Sikion, Fivan kabi mashhur rassomlar maktablari bo'lgan. Tasviriy san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, rasm chizish metodlarini takomillashtirishgan hamda yoshlarga tasviriy san'atni o'rgatish orqali go'zal tabiatni sevishga, uning qonuniyatlarini ilmiy jihatdan o'rgatishga qaratilgan bu maktablarda tasvirlash jarayonida yoshlar tabiatni kuzatish bilan bir qatorda mavjud narsalarning tuzilish xususiyatlarini ham o'rgatishgan. Maktabning

asoschilaridan biri Pamfil rasm chizishni fan sifatida barcha o'quv dargohlarida o'qitilishini birinchilardan ishlab chiqib, tasviriy san'at faniga ilmiy nuqtai nazardan qarashni birinchilardan bo'lib ilgari surgan. Maktablarda to'liq



10-rasm. O'rta asrlar kitob miniatyurasi.

o'qish davri 12 yil davom etgan. Ta'lim berish asosida yoshlardan ko'plab amaliy mashg'ulotlar bajarish va nazariy bilimlarni egallash talab etilardi. Qadimgi Yunon rassomlari o'z shogirdlariga o'ziga qarab haqqoniy tasvirlashni va tabiatni ko'proq kuzatib idroklashni, uning takrorlanmas va beqiyos go'zalliklaridan ilhomlanib rasm chizishini birinchi bo'lib tushuntira boshlaganlar.

Qadimgi Rim. Qadimgi Rim rassomlari Yunoniston rassom-o'qituvchilarining yutuqlarini o'zlashtirishgan va uni yanada takomillashtirishgan. Rimliklar tasviriy san'atni juda yaxshi ko'rganlar. (9-rasm) Ko'pgina zodagonlar va

patritsiylarning o'zlari masalan, Fabius Pictor, Pedius, Yuliy Tsezar, Neronlar rasm chizish va rangtasvir bilan shug'ullanishgan. Ular, Yunon rassomlarining asarlarini yuqori baholaganlar.

Lekin, Yunonistonlik san'atkorlardan farqli o'laroq, Rim rassomlari tasviriy san'atni o'qitish tizimiga yetarlicha yangilik kiritishga qodir bo'lmadilar. Rim imperiyasi rassom-o'qituvchi badiiy ijod muammolari bilan shug'ullanmas edilar. Asosan o'qitish tizimida yunon rassomlari yaratgan namunalarga esa rassom-ijodkor sifatida emas, hunarmand nuqtai nazaridan nusxa ko'chirish, ularni namoyish qilishni odat qilganlar xolos.

O'rta asrlar. Bu davr Yevropada realistlik san'at yutuqlari rad etilgan. Qadimgi Yunonlar tomonidan ishlab chiqilgan tasviriy san'at yutuqlarini, o'qitish metodlarini, tekislikda tasvirni qurish yo'llarini ham O'rta asr rassomlari yaxshi bilishmagan. Yunoniston rassomlarining ishlab chiqqan tasviriy san'at qonuniyatlarini, ko'plab mashhur tasviriy san'at asarlarini cherkov ruhoniylari cheklashgan. (*10-rasm*)

Shunga qaramasdan, O'rta asrlar san'atining o'ziga xosligi va badiiy qiymati haqida ko'plab kitoblar yozilgan, tasviriy san'atni o'qitish usullarida hamda tasvirlashda zaiflik, o'sha davr uchun turg'unlikni qayd etish kerak. Tasvirlar odatda shartli va sxematik tarzda ishlangan. Ayniqsa, tasvirlashni o'rgatish metodikasi tabiatdan chizish emas, balki namunalarni mexanik nusxa ko'chirishga asoslangan edi. Tasvirlarda tabiatning realligiga emas, balki uning hissiy, ruhiy holatiga qaratilgan edi.

Uygʻonish davri. Bu davr tasviriy sanʼatning rivojlanish tarixida ham, tasviriy sanʼat oʻqitish metodikasi sohasida ham yangi davr boshlandi. Qalamtasvir oʻquv predmeti sifatida maktablarda alohida oʻquv dasturiga kiritilmagan, ammo Uygʻonish davri umumtaʼlim va kasbiy taʼlim uchun tasviriy sanʼat oʻqitish metodikasi nazariyasiga katta hissa qoʻshildi. Oradan ming yill turgʻunlikdan soʻng, tasviriy sanʼatdan bilimlar va uni rivojlantirish muammolari asta-sekin qaror topa boshladi.

Tasviriy sanʼat, xususan qalamtasvir bajarishning yangi metodlari, uning qonuniyatlari bilan Chennino Chennini, Leonardo da Vinchi, Chellini, Rafael Santi, Leon Batista Alberti, Albrect Dyurer kabi koʻplab buyuk sanʼatkorlar shugʻullana boshladilar. Ular tasviriy sanʼat sohasida ilmiy izlanishlar tabiat qonunlaridan kelib chiqadi deb qaraganlar. Bu rassomlar ilmiy



***11-rasm. Leonardo da Vinchi.
Anatomik rasmlar. 1490 y.***



***12-rasm. B.Chellini.
Qoralamalar.1543 y.***

izlanishlar yoʻliga faol kirishadi, tabiat hodisalari qonuniyatlarini tushunishga, sanʼat va fan oʻrtasida aloqa oʻrnatishga intilishadi.

Qalamtasvir - meʼmorchilik, haykaltaroshlik, plastik anatomiya, rangtasvirning haqiqiy asosi sifatida tan olindi. Shuning uchun ham uygʻonish davri buyuk rassomlari rasm

chizish metodlariga katta e'tibor berishdi. (11 va 12 rasm)

Bu davr san'ati nazariyotchilari va amaliyotchilarining diqqat markazida nisbatlar, perspektiva va plastik anatomiya ta'limotlari turardi. Uyg'onish davri rassomlari san'atning eng dolzarb muammolarini nafaqat nazariy jihatdan asosladilar, balki ularni o'z asarlarida amaliy hal qilish imkoniyatlarini yoritib berdilar. (13-14-rasm)



13-rasm. Mikellanjelo Buanarroti. Freska uchun eskiz. 1512 y.




14-rasm. Rafael Santi. Anor ushlagan Bibimaryam. Kartinaga ishlangan qoralama. 1504 y. Vena sh.

Chizmatasvir o'qitish metodikasi sohasida "Uyg'onish davri" rassomlari tomonidan ko'plab qimmatli fikrlar bildirilgan. Ular badiiy ta'limning asosini naturadan tasvirlash kerakligini ta'kidladilar. Bu fikrni deyarli barcha risolalarda uchratishimiz mumkin. Florentsiyalik me'mor Leon Battista Albertining "Rangtasvir to'g'risida uchta kitob" risolasida qimmatli uslubiy qoidalar ilgari surilgan. Alberti o'qitish uslubini ilmiy asoslab


bergan holda, rasm chizishni mexanik mashq sifatida emas, balki aqlning mashqi deb biladi. Uning fikrini davom yetib keyinchalik Mikelanjelo shunday degan: “Siz qo‘lingiz bilan emas, aqlingiz bilan chizasiz”. Rasm chizish metodlarini takomillashtirishga buyuk Leonardo da Vinchi ham o‘z hissasini qo‘shdi. Uning “Rangtasvir haqidagi kitob”ida olamning tuzilishi, tabiatdagi o‘zgarishlar, haykaltaroshlik, chiziqli va fazo perespektivasi haqida ko‘plab ilmiy asoslangan fikrlarni ko‘rish mumkin.

Leonardo da Vinchi inson a‘zolari tuzilishini anatomik nuqtai nazari darajasida o‘rgandi. Insonning har bir mushak to‘qimalarini o‘rganib, ularning tasvirlarini ishlab chiqqan. (*11-rasm*)

Uyg‘onish davrining usta rassomlari orasida qalamtasvir bajarish metodlarini takomillashtirish muammolari bilan shug‘ullangan rassomlaridan Alberxt Dyurer va Shonlardir. A.Dyurer birinchi bo‘lib rasm ishlashni yengillashtirish uchun geometrik metodni ishlab chiqdi (*15-rasm*). Uning fikricha, rasm ishlashda har qanday turli qism va yuzalar asosida geometrik shakllar yotadi. (*16-rasm*) Shuning uchun rasm chizishda, u yoki bu narsalar tasviri asosiga geometrik shakllar tasvirlanishi lozim, keyin ularni umumlashtirish va haqiqiy tasvirni hosil qilinadi, hamda to‘g‘ri tasvirlashga zamin yaratadi. Keyinchalik uning bu metodi Dyupyui, Ashbe, P.Chistyakov kabilarni pedagogik faoliyatlarida keng qo‘llanila boshladi. Hozirgi kunlarda ham bu metod o‘z kuchini yo‘qotganicha yo‘q. Ular tasvirlashda perespektivaning asosiy qonun-qoidalari ustida ko‘plab tajriba sinovlar o‘tkazdilar.



15-rasm. A.Dyurer. “Lutni tasvirlovchi rassom” grafiyurasi. Perspektivani chizish uchun qurilma ko‘rsatilgan. 1525 y.



16-rasm. A.Dyurer. Bosh konstruksiyasi tasviri

Uyg‘onish davri rassomlari jahon tasviriy san’atining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdilar. Ularning tasviriy san’at bo‘yicha ishlab chiqqan perespektiva qonunlari keyinchalik ijodkor rassomlarga, misli ko‘rilmagan darajada yordam beradi. Agar o‘rta asrlarda tasvirlash metodikasi buyumlar shakl-u shamoyilining o‘xshashligini e‘tiborga olgan holda bajarilgan bo‘lsa, endi bu davr qalamtasvir ilmiy asoslangan anatomiya qonunlarini chuqur o‘rganish, perespektiva qoidalariga to‘la-to‘kis rioya qilish, yorug‘likning buyumlarga tushish qonuniyatlarini hisobga olib aks ettirilgan tasvirlash metodlari rivojlangan davr


bo‘ldi. Lekin, ular o‘qitishning didaktik negizlariga kam e‘tibor berdilar. Bu muhim vazifani XVI asrning oxiriga kelib turli davlatlarda tashkil etilgan badiiy akademiyalar davom ettirib, hal eta boshladilar.

XVII-XVIII asrlar. XVII asrda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi qalamtasvirning fan sifatida to‘la-to‘kis uning akademik tarzda davom etishi uchun zamin yaratdi. Akademik qalamtasvirni pedagogik amaliyotda o‘qitishning tizimi dastlab Florentsiyadagi “Qalamtasvir akademiyasida” ishlab chiqildi.



17-rasm. Aka-uka Karrachilar o‘quv qo‘llanmasidagi tasvirlar


Keyinchalik tasviriy san’atni hamma umumiy ta’lim maktablarida o‘qitilishining foydali ekanligi buyuk cheh pedagogi Ya.A.Komenskiy tomonidan o‘zining **“Buyuk didaktika”** asarida rivojlantirildi. Aka-uka Karrachilar tomonidan tashkil etilgan Boloniyadagi yosh musavvirlarga quyidagi usulda saboq berilgan. Dastlab qalamtasvir chizish metodlari, qonun-qoidalar bilan tanishgach, so‘ngra gips na‘munalarini tasvirlaganlar, shundan keyin inson qiyofasini o‘ziga qarab rasmini chizganlar. (17-rasm)



18-rasm. Piter Paul Ruben. Yosh bolaning boshini sxematik tasviri.

Bu mashg‘ulotlarda u insonning anatomik tuzilishlarini ham

chuqur o'rganish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Boloniya akademiyasi o'z davrida yoshlarga badiiy ta'lim berish borasida eng maqbul namunali oliy o'quv dargohi hisoblanganligi tufayli uning metodikasini davom ettirib, 1648-yilda Parij qalamtasvir va haykaltaroshlik bo'yicha qirollik akademiyasi, 1660-yili Rimda badiiy akademiya, 1696-yili Berlinda, 1753-yili Madridda San-Fernando akademiyasi, 1757-yili Peterburg akademiyasi, 1768-yili London badiiy akademiyasi tashkil etilgan.




19-rasm. Ferdinand va Aleksandr Dyupyuilarning geometrik metod asoslangan rasm chizish usullari

Davlat tomonidan tashkil etilgan akademiyalar bilan bir qatorda xususiy san'at maktablari mavjud edi. O'quv adabiyotlari bilan to'liq ta'minlangan maktablardan biri taniqli Flamand rassomi Rubensning xususiy maktabi alohida o'rin egallaydi. Rubens o'z zamonasining yirik namoyondasi edi. U buyuk rangtasvir, qalamtasvir ustasi, Flamand rangtasvir maktabi asoschilaridan bo'libgina qolmay, balki san'at asarlarini yuksak qadrlay biladigan olim-tadqiqotchi, davlat va jamoat arbobi, shogirdlarning mehribon ustози bo'lgan. (18-rasm)

Umumiy ta'lim tizimida rasm ishlashni takomillashtirishda fransuz olimi J.J.Russoning fikrlari diqqatga sazovordir. U o'zining "Emil yoki tarbiya haqida" nomli kitobida borliqni bilishda naturaga qarab rasm ishlashning ahamiyati katta

ekanligini yozdi. Uning fikricha, rasm chizishni ko‘proq tabiat qo‘ynida amalga oshirish samaralidir. Chunki, bolalar tabiat qo‘ynida narsalarni haqiqiy rangi, perspektiv qisqarishlarini ko‘rgazmali ravishda o‘z ko‘zi bilan ko‘radilar, uning qonunlarini ongli ravishda tushunib yetadilar.



20-rasm. Baumgart o‘quv qo‘llanmasidan olingan tasvirlar

XIX asr. Yevropa pedagoglari orasida rasm chizishni umumiy ta‘lim maktablarida alohida o‘quv predmeti sifatida o‘qitilishi va uni takomillashtirishda I.V.Gyote (Germaniya), I.G.Pestalotstsi, I.Shmidt va P. Schmidt (Shvetsariya), A. Dyupyui va F. Dyupyui (Frantsiya) katta hissa qo‘shdilar. (19-rasm).

Umumiy ta‘lim maktablarida rasm chizishni naturadan ishlashdan ko‘ra geometrik metodlarni afzalliklarini Pestalotstsi, P.Schmidt va I.Shmidt kabi pedagoglar yoqlab chiqdilar. Natijada maktablarda rasm chizishga o‘rgatishda ikkita qarama-qarshi natural va geometrik metodga asoslangan ikki oqim paydo bo‘ldi. Naturaga asoslangan rasm chizishni ustunliklarini Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.V.Gyotelar yoqlashga harakat qildilar.

XIX asr ikkinchi yarmida geometrik metod Yevropaning ko‘p mamlakatlarida qo‘llanila boshladi. Shunday qilib, XIX asr o‘rtalariga kelib, Yevropada rasmni umumiy ta‘lim maktablarida o‘qitilishi ancha rivoj topdi. Bu sohada rassom va muallimlardan tashqari san‘atshunoslar, psixologlar, vrachlar shug‘ullana boshladilar. Rasm chizishni o‘qitish metodologiyasiga doir bir



21-rasm. Bashkirtseva M. Badiiy akademiya studiyasi. 1881 y.

qator adabiyotlar nashr etila boshlandi. Bu borada Kulman, Prang, Elsner, Baumgart, Ausberg, Braunshvig, Tedd kabilar jonbozlik ko‘rsatdilar.

Bu adabiyotlarda rasm chizish qoidalari, uning metodikasida qarama-qarshi fikrlar bo‘lsa-da, biroq natural metod borasida bunday qarama-qarshi fikrlar ro‘y bermadi. (20-rasm)

Antik davr san‘atini chuqur o‘rganib o‘z shogirdlariga o‘sha davrda yaratilgan haykallarni to‘g‘ridan - to‘g‘ri ko‘chirish emas,

balki ushbu namunalarni aks ettirish orqali inson a'zolarini tasvirlashda ilmiy tomondan yondashishga da'vat etgan.

Qalamtasvir metodlarini rivojlantirishda aka-uka Aleksandr va Fernand Dyupyular ham katta hissa qo'shdilar. 1835-yil ular Parijda rassom hunarmandlar uchun bepul maktab ochib, shogirdlariga tasviriy san'at bo'yicha saboq berdilar.



22-rasm. Kubizm uslubida ishlangan natyurmort.

Diqqatga sazovor joyi shundaki, ushbu maktabda o'qitishning metodik bosqichlari o'ziga xosdir. Bu yerda boshqa san'at dargohlardan farqli o'laroq eng murakkab bo'lgan inson qomatini tasvirlashni mukammal o'rganib bo'lganidan keyin gips naqsh namunalarni chizishga o'tilgan.

Aka-uka Dyupyularning ta'kidlashicha o'simliklardan tashkil etilgan naqsh bo'laklari tabiatning barcha eng murakkab shakllarini o'zida mujassamlashtirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi. Bu davrdan boshlab xususiy akademiyalar yanada ko'payib bordi. Ba'zi akademiyalar ko'p yillar davomida tajriba va sinovlardan o'tib, ta'lim berishda amaliy jihatdan to'plangan tajribalarni inkor etish asosida qurilgan edi. O'qituvchi-professor o'zining xususiy maktabini targ'ibot etish maqsadida, o'tmishda tashkil etilgan va mavjud akademiyalarni "Eskirib, bir yerda qotib qolgan" deb hisoblab, ko'p hollarda o'zlari yoshlarga hech qanday tizimga ega bo'lmagan usulda ta'lim beradilar.

Xususiy akademiyalarga 40-50 ga yaqin o'quvchilar tashkil etilib, ularni na kurslarga va na guruhlarga bo'linmagan holda mashg'ulotlar olib borilgan. Mashg'ulotlar quyidagicha tarzda

edi: Katta xonaning bir necha joyda natura qo'yilgan bo'lib, o'quvchilar hech bir yo'nalishga ega bo'lmagan holda tahsil olar edilar. (21-rasm) Shuni ta'kidlash kerakki, xususiy tarzda tashkil etilgan akademiyalar orasida ham aniq yo'nalishlarga ega bo'lgan o'quv dargohlar mavjud bo'lgan: Jumladan, Venger rassomi Shimon Xollosi (1857-1918) va Sloven pedagog-rassomi Anton Ashbelar (1862-1905) maktabi diqqatga sazovordir.

Yaxshi yo'lga qo'yilgan metodika va o'ziga xos ravishda tuzilagan dastur asosida o'qitish tizimi ularni butun jahonga mashhur qilgan bo'lib, ushbu maktabdan o'nlab iste'dodli rassomlar yetishib chiqqanlar.

XX asr boshlari. Bu davrda bolalar tasviriy ijodi borasida biogenetik nazariya yuzaga keldi. Bu borada nemis olimi G.Kershenshteyner, rus san'atshunosi A.Bakushinskiy, amerikalik J.Dyuilar faollik ko'rsatdilar. Ularning fikriga qaraganda, "Bolalar badiiy ijodiga aralashmaslik kerak. Ular erkin ijod qilishlari lozim. Ularni ijodiga aralashib ta'limni tezlashtirib bo'lmaydi. Chunki har bir bola o'z yoshiga yarasha avvaldan belgilab qo'yilgan bosqichlarni bosib o'tadi. Bu bosqichni o'tmasdan ikkinchisini o'zlashtirib bo'lmaydi yoki ularning ijodiga aralashib, ularning fikrlari, xis-tuyg'ularini o'zgartirib bo'lmaydi. Shuning uchun bolalarning ijodiga rahbarlik qilish, aralashish jinoyatdir", - deb yozdilar. Keyinchalik bu g'oya "**Erkin tarbiya**" nomini oldi.

XX asrga kelib akademik tarzda o'qitish tizimi o'z yo'nalishi jihatdan yangi zamon talablariga javob bera olmay qoldi. Qisqa vaqt ichida turli badiiy oqimlar paydo bo'la boshladi. Neorepressionizm, kubizm, ekspressionizm, daizm, syurrealizm va turli tarmoqli oqimlarning o'zaro ziddiyatlari o'qitish metodikasiga ayniqsa, qalamtasvirning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. (22-rasm)

San'atshunoslik akademik tarzda o'qitish tizimiga qarshi


bunday shaklda ta'lim-tarbiya berish yoshlarning ijodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi deb hisoblanar edi. XX asrning boshlariga kelib G'arbiy Yevropa va Amerika Davlatlarining badiiy maktablarida qalamtasvir ishlash uslublari keskin o'zgardi. Tasvirlanajak namuna qiyofasini noizchil o'rganish, uning tuzilish qonun-qoidalarini yengil-yelpi egallash oqibatida uzoq muddatli akademik qalamtasvirlar ishlash o'rnini qoramalar bilan almashinildi.

XVIII-XIX va XX-XXI asrlarda Rossiyaning pedagogika o'quv yurtlarida tasviriy san'at fanini o'qitish metodlari. Rossiya maktablarida rasm chizish umumiy talim o'quv predmeti sifatida XVIII asrning boshlarida paydo bo'ldi. Rasm chizish u davrda asosan dengiz akademiyasi, xirurgiya maktabi, harbiy kadetlar maktabida, fanlar akademiyasi qoshidagi gimnaziyada, qizlar tarbiya bilim yurtida o'qitilgan. Bu o'quv yurtlarida rasm chizish bu o'quv yurtlarida rassomlar tayyorlash uchun emas, yoshlarni kasbiy faoliyatida va kelajak hayotida foydalanishlari uchun elementar bilim va malakalar berilar edi. XIX asr boshlarida umumiy ta'lim maktablarida rasm chizish ommaviy tarzda o'qitila boshlandi.

Maxsus o'qituvchilar tayyorlash maqsadida 1825 yilda Moskvada Strogonov nomidagi texnikaviy rasm ishlash bilim yurti tashkil etilib, uni bir bo'limida rasm o'qituvchilari tayyorlana boshlandi.

Pedagog-rassom Sapoznikov Andrey Petrovich (1795 - 1855) davlat maslahatchisi, Badiiy akademiyasining faxriy a'zosi, u 1834-yilda birinchi bor umumiy ta'lim maktablari uchun "Kurs risovaniya" (Rasm chizish kursi) nomli darslikni yaratdi. Mazkur darslik naturaga qarab, rasm chizishga asoslangan edi. Darslik realistik rasm ishlash asosida qurilgan bo'lib, unda perspektiva, yorug'soya qonunlari ham o'z aksini topgan edi. Shu bilan bir

qatorda Sopoynikov sim, karton, gips kabi materiallardan narsalar tuzilishi, perspektiv qisqarishi, hajmiga doir metodik ko'rgazmali qurollar majmuasini ham yaratdi. A.Sapoynikovning darsligida rasm chizishda uning boshlang'ich asosi turli geometrik shakllar (uchburchak, to'rtburchak, kvadrat, doira v.b) dan iboratligi aytib o'tilgan. Muallifning fikricha, bizni o'rab turgan olamdagi barcha mavjudotlarning qismlari asosida u yoki bu geometrik shakl yotadi. (23-rasm)



23-rasm. A.Sapoynikov qo'llanmasidan olingan rasmlar.1834 y.

XIX asr oxirida maktablarda rasm chizishni o'rgatish bo'yicha mutaxassislar ikkita lagerga bo'lingan edi: geometrik usul tarafdorlari bir guruhga birlashgan, ikkinchisida esa tabiiy (natural) usul.

Geometrik tasvirlash metodi bilan rasm chizishni o'rgatish geometriyaga asoslangan edi. Ushbu usul tarafdorlarining fikriga ko'ra, geometrik uslubda rasm ishlash tasvirning to'g'riligi va aniqligiga olib keladi, shuningdek, tasvirni o'lchash orqali tekshirishga imkonini beradi, deb hisobladilar. Ya'ni, atrofdagi voqelikning barcha obyektlari geometrik nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi: har bir obyekt shaklining negizida geometrik shakl yoki

jism yotadi. Masalan, olma chizishda o'quvchi avval sharning shaklini chizadi, so'ngra uni tabiatiga ko'ra aniqlaydi; chelakni chizishda, o'quvchi birinchi navbatda, kesilgan konusni tasvirlaydi, so'ngra shaklni tabiatga ko'ra aniqlashtiradi.

O'qituvchi exizmatasvir san'atida asosiy yo'l-yo'riq sifatida o'quvchilarda ko'zda o'lcham olishning rivojlanishiga e'tibor berishi, turli chiziqlar xossalari va ularning o'zaro mutanosibligini tushuntirishi kerak. A.P.Sapojnikovning o'qitish usullarining ijobiy tomonlari bizning davrimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, ular rassom-pedagoglar tomonidan qo'llanilib kelinmoqda.


1879-yilda Sankt-Peterburg badiiy akademiyasi qoshida rasm o'qituvchilari tayyorlovchi kurs ochildi. Bu kurslar uchun dastur, metodik materiallar tayyorlashda badiiy akademiya professori P. Chistyakov katta ishlar qildi. Keyinchalik, bu davrda tuzilgan dastur va qo'llanmalarda A.Sapojnikovning geometrik metodi va ko'chirish metodlari amaliyotdan chiqarilib, maktabda rasm darsi faqat naturadan rasm ishlashdan iborat ekanligi qayd qilindi. Mazkur dastur va qo'llanmalarda bolalar tasviriy faoliyatlariga erkinlik berish lozimligi belgilab qo'yildi.

Qalamtasvir texnikasi tarixini o'rganishda G.A.Gippiusning yaratib qoldirgan fundamental ishi alohida o'ringa ega. 1844-yilda u fundamental asari "Ocherk teorii risovaniya kak obshego uchebnogo predmeta" (Rasm chizish nazariyasi umumiy o'quv predmeti sifatida) nomli asarida o'sha davrdagi rasm chizishga o'rgatishdagi eng ilg'or g'oyalar o'z aksini topgan edi. Bu umumta'lim maktablarida rasm o'qitish metodikasi bo'yicha birinchi yirik ish hisoblanadi.


1888-yildan boshlab Rossiyada barcha umumta'lim maktablarida tasvirlashda geometrik usul joriy etiladi. Bu usul boshqa usularga nisbatan bir qator afzalliklarga ega edi. Bu usulda

o'quvchilar ongliroq rasm chizishga o'rganib, nafaqat obyektни, uning shaklini kuzatishadi, shu bilan birga, tahlil qilishni ham o'rganishadi.

Bu vaqtga kelib rassom-pedagoglar orasida rasm chizishga



**24-rasm. Katakalar bo'yicha
rasm
chizish.**



**25-rasm. Stigmo-
grafik chizish.**

o'qitish masalalariga katta qiziqish uyg'otishga qaramasdan bu sohada turli xil g'oyalar o'qitish metodikasida ham kuchaydi. Shu davrning taniqli pedagogi Bakushinskiy, Kershenshteyner va Dyupyuilarning g'oyalarini Rossiyada tashviqot qildi. Uning fikricha "Badiiy tarbiyada "Maktab" va bolalarni o'qitish kerak emas, hoxlagan ishlarini bajarsinlar, o'qituvchi faqat kuzatib turishi lozim", - degan fikrni ilgari surgan. Bu oqim ta'limda "formalistik" oqim, deb atalar edi.

Keyinchalik geometrik tasvirlash usullari buzila boshladi. Ba'zi metodologlar geometrik usulni nusxa ko'chirish usuliga o'tkazishga muvaffaq bo'lishdi. Katakalar bo'yicha rasm chizishni o'rgatish usullari taklif qilina boshlandi. (24-rasm) Stigmo-grafik chizish, ya'ni oldindan qo'yilgan nuqtalarga ko'ra tasvirni qurish usuli keng tarqaldi. (25-rasm) Bularning barchasi rasm

o'qituvchilarining asosiy qismi natural, tabiiy (natural) usul tarafdorlari tajribasiga murojaat qilishlariga olib keldi.

Tabiiy (natural) tasvirlash metodi shundan iborat ediki, o'quvchi obyektlarni qanday ko'rsa, shakllarni soddalashtirmasdan shundayligicha chizishi kerak edi. Bu usul tarafdorlari geometrik tasvirlash metodidan farqli o'laroq, o'quvchini hayotga, tabiatga yaqinlashtirishini isbotlar edilar. Ular geometrik tasvirlash metodi faqat kasbiy ta'lim uchun mos va umumiy ta'lim maktabi uchun mutlaqo yaroqsiz deb hisoblashgan, chunki u go'yo bolalarning yosh xususiyatlarini va ularning qiziqishlarini hisobga olmaydi, deb hisoblar edilar.

Tabiiy (natural) tasvirlash usul tarafdorlarining fikriga ko'ra, mavhum geometrik shakllar, o'quvchilarning atrofdagi dunyo haqidagi taassurotlarini grafik usullarda yetkazish zaruriyatiga mos kelmaydi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida o'qitishda tasvirlashning tabiiy metodi vakillari - F. Kulman, Prang, Elsner, Baumgart, Ausberg, Braunshvig, Tedd - cxizmatasvir usuli bo'yicha keng ko'lamli adabiyotlar nashr etadilar. Ushbu mualliflarning ilmiy adabiyotida cxizmatasvirning asosiy qoidalarida ham, uslubiy ko'rsatmalarida ham bir-biriga zid keladi. Ba'zi mualliflar cxizmatasvirni o'rganishda qat'iy ketma-ketlik haqida fikr yuritisa (Baumgart, Braunshvig), boshqalari o'yin tarzida o'qitish tamoyilini ilgari surdi va qat'iy ta'lim tizimidan voz kechdi (F. Kulman). Lekin tabiiy (natural) tasvirlash metodida qarashlar birligi yo'q edi.

Qalamtasvir o'qitish metodikasining rivojlanishiga atoqli rassom-pedagog P. P. Chistyakov katta ta'sir ko'rsatdi. Chistyakovning rus san'ati tarixidagi rolining eng yaxshi dalili, taniqli rassomlar galaktikasi – V.Surikov, I.Repin, V.Polenov, V. Vasnetsov, M.Vrubel, V.Serov.

Umumta'lim maktablarida rasm chizishni o'qitish bo'yicha sho'rolar davri metodikasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan taniqli rassom-pedagoglar orasida D. N. Kardovskiy alohida e'tiborga loyiqdir.

Kardovskiy o'z uslubini qulaylik prinsipiga asosladi, chunki u o'quvchilar uchun obyektning murakkab shaklini dastlab tushunish va tasvirlash qiyin deb hisoblagan. Shuning uchun dastlab o'quvchi topshiriqni yengillashtirishi, shaklni soddalashtirishi kerak; uning asosini tushunganida, unga takomillashtirishga o'tishga ruxsat berish mumkin, deb hisoblagan. Ushbu usuldan foydalanib, Kardovskiy ikki o'lchovli tekislikda uch o'lchamli shaklning tasvirini to'g'ri va muntazam ravishda qurishga erishdi. Aytaylik, naturadan ko'za chizib, o'quvchi birinchi navbatda ushbu shaklning asosini - tsilindr va sharni ajratib ko'rsatishi kerak, so'ngra uni naturaga ko'ra takomillashtirishi kerak.

Keyinchalik D.N.Kardovskiy rus sovet badiiy ta'limini shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatganlardan biri bo'ldi. Uning badiiy ta'lim tizimi realistik san'at prinsiplariga asoslangan edi. D.N.Kardovskiy tashabbusi va sa'y harakati bilan 1942-yilda Moskva pedagogika institutida badiiy-grafika fakulteti ochildi.

Bu davrda bolalar ijodiyotiga bag'ishlangan bir qator ilmiy san'atshunoslik asarlari paydo bo'ldi.

Shular ichida italiyalik K.Richchi "Bolalar - rassomlar" kitobini nashr etadi; Germaniya Leyptsig universiteti professori Lamprext bolalar rasmlarini yig'ish va o'rganish uchun harakatga rahbarlik qiladi; Rossiyada o'qituvchi K. Lepilov, psixiatr L. Orshanskiy, san'atshunos A. V. Bakushinskiy va boshqalar nazariy ishlarni bolalar ijodiyotiga bag'ishlaydilar.

Bu davrda biogenetika nazariyasi ham ta'limda keng qo'llanila boshladi. XX asrning 30-yillarga kelib bolalarni badiiy

tarbiyalash masalalari bo'yicha yetakchi nazariyotchilardan germaniyalik G.Kershenshtayner, amerikalik J.Dyui, rossiyalik A.V.Bakushinskiy salmoqli hissa qo'shdilar.

Muammoni hal qilishda turlicha yondashuv va uni turlicha talqin qilishiga qaramay, ularning barchasi umumiy g'oyadan - "Erkin tarbiya" g'oyasida, bolaning shaxsiyatini o'z fikri bilan tasdiqlashdan ilhomlangan, his-tuyg'ularini va fikrlarini ifoda etish huquqi ega, degan fikni suradilar. Grafik savodxonlikni o'zlashtirish, ayniqsa, ta'limning dastlabki bosqichida, ularning fikriga ko'ra, bolalar uchun kerak emas, deb hisoblaydilar. O'sha yillardagi olimlarning nazariy pozitsiyalaridagi farqqa qaramay, ularning ba'zilar bolalar ijodiyoti erkinligini tan olish va o'qituvchini rahbarligini qisqartirish bilan birlashtirilgan. Erkin ta'lim nazariyasi muxlislari hali ham o'quvchiga va o'qituvchiga to'liq erkinlik berish usulini rivojlantirmoqda, o'qituvchining rolini ikkinchi planga o'tkazmoqda.

Rossiyada rasm chizish metodikasini takomillashtirishda 1930-yillarda P.Pavlinov, N.Radlov, Ya.Bashilov va E.Kandaxchanlarning bolalar ijodiga bag'ishlangan qo'llanmalar chop etildi. Rossiyada rasm chizishni rivojlanishida 1943-yilda tashkil topgan Rossiya pedagogika fanlari akademiyasi katta rol o'ynaydi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng samarali faoliyat ko'rsatganlardan E.Kondaxchan Rossiyada 1925-50-yillarda keng tashviqot qilib, kelingan Bakushinskiyning "Erkin tarbiya" nazariyasi qarshi chiqib, ta'lim va tarbiyada o'qituvchining katta rahbarlik faoliyatini qattiq turib himoya qildi.

XX asrning ikkinchi yarmida o'qitish metodikasiga doir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Natijada, 1963-70-yillarda I-VI sinflar uchun sinov darsliklari tayyorlanib, nashr etildi. Bu darsliklar V.V.Kolokolnikov, S.A.Fyodorov, M.N.Semyonova,

E.E.Rojkova, E.L.Xersonskaya, L.L.Makaedlar muallifligida tayyorlandi.

Rossiya maktablarida ta'lim mazmunini isloh qilish borasida hukumat qarorlari asosida rasm chizish o'quv predmetini maqsad va vazifalari va ta'lim mazmuni bir necha bor qayta ko'rib chiqildi. Natijada, 1970 yilda "Risovanie" (Rasm) o'quv predmetining nomi "Tasviriy san'at" deb o'zgartirildi.

Rossiyada XX asrning ikkinchi yarmida "Tasviriy san'at" o'quv predmetini o'qitilishini yaxshilashda bir qator pedagog olim va metodistlar faollik ko'rsatdilar. Natijada tasviriy san'at darsliklaridan tashqari ko'plab ilmiy-metodik va metodik adabiyotlar nashr etildi. Bunda G.V.Labunskaya, V.V.Alekseeva, V.S.Sherbakov, A.G.Shimanskaya, A.V.Karlson, G.I.Orlovskiy, R.I.Korguzalova, A.S.Brajnikova, T.V.Belyaev, V.S.Kuzin, E.V.Shoroxov, T.Ya.Shpikalova, B.P.Yusov, N.N.Rostovtsev, V.S. Sherbakov, A.G.Shimanskaya, B.P.Yusov, B.M.Nemenskiy A.V.Karlson, R.I.Korguzalova, G.I.Orlovskiy kabilar samarali mehnat qildilar.

Rossiyada 1990-2022-yillar davomida olib borilgan ishlar mazmuni nihoyatda turli-tuman bo'ldi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda G.Yu.Ermolenko, S.I.Makrousov, A.A.Irincheev, V.R.Oskolkova, L.L.Malinskaya, P.V.Paydukov, T.P.Terenteva, J.O.Nebesaevalar katta hissa qo'shdilar. Shu bilan birga oxirgi yillarda estetik va badiiy tarbiyaga doir xalqaro, federatsiya miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish, ilmiy-metodik to'plamlar nashr etish, o'quvchilarning ijodiy ko'rgazmalarini tashkil etish yo'nalishlarida amalga oshirildi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ibtidoiy jamoa davri tasviriy san'atining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Qadimgi Misrda tasviriy san'atni o'qitishga doir ma'lumotlarni izohlab bering?
3. Qadimgi Yunoniston tasviriy san'at maktablari.
4. Qadimgi rimliklarni tasviriy san'atga bo'lgan munosabatlari qanday?
5. Yevropada Uyg'onish davri rassomlarining qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
6. XVI-XVIII asr Yevropa mamlakatlarida tasviriy san'atni o'qitishga doir turli qarashlarni sanab o'ting.
7. XIX asr Rossiya maktablarida tasviriy san'atni o'qitilishiga doir ma'lumotlar.
8. XX asr mutaxassislar orasida tasviriy san'atni o'qitish metodlariga tegishli qanday qarashlar mavjud bo'lgan?

1.3 O'rta Osiyo va O'zbekistonda, mustaqillik yillaridagi tasviriy san'atning o'qitilishi

Reja: 1. O'rta Osiyoda tasviriy san'atni o'qitilishi haqida dastlabki ma'lumotlar. 2. Sharq miniatyura maktablarining rivojlanishi va ularning uslublari. 3. Kitoblarga bezak ishlash maktabi (K.Behzod). Samarqand, Buxoro maktablari. 4. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishiga doir dastlabki ma'lumotlar. 5. O'zbekistonda XX asr boshlarida tasviriy san'atni o'qitilishi. 6. Mustaqillik yillarida tasviriy san'atning o'qitilishi haqida umumiy tushuncha berish.

Tayanch iboralar: O'zbekiston, badiiy, Amir Temur, miniatyura, musavvir, nafis san'at, Turkiston, rasm darslari, pedagogika instituti, "Ta'lim to'g'risida" gi qonun, o'quv qo'llanma, darslik.



26-rasm. Afrosiyob devoriy su'ratlari.



27-rasm. Xolchayon haykaltaroshligi

Eramizdan avval, O'zbekiston hududida tasviriy san'atning haykaltaroshlik, rangtasvir, me'morchilik turlari rivojlangan, buni biz Halchayon, Varaxsha, Afrosiyob, Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Ayrtom, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Ajinatepa, Qo'yqirilganqal'a,

Teshikqal'adan topilgan asar na'munalaridan ko'rishimiz mumkin. (26,27-rasm) Bu na'munalarning yoshi 5-6 ming yilga to'g'ri kelib, asarlar eramizdan avvalgi IV-I asrlarda yaratilgandir.



28-rasm. Kamoliddin Behzod. Zulayhoning Yusufga iltijosi. 1488.



29-rasm. Mahmud Muzahhib. Sulton Sanjar. 1538.


Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o'sha davrda to'plangan ilg'or tajriba, tasviriy san'at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustaning shogirdga o'tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so'zsiz umumiy badiiy ta'lim yo'nalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston hududida ma'lum davrlarda tasviriy san'at taraqqiyotida Iskandar Zulqaynarn, arab, mo'g'ullar istilollari sababli uzilishlar ro'y bergan. Shularga qaramay, Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san'atning miniatyura turi gullab-yashnagan. **Sohibqiron Amir Temur davrida** kitob grafikasi va miniatyura san'ati shunchalik tez rivojlandiki, u nafaqat Sharq, hattoki Yevropa mamlakatlari san'atiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Keyinchalik Buxoro, Samarqand, Hirot miniatyura maktablari rivojlandi va shakllandi.

Tasviriy san'at tarixida buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Hirotlik Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o'rgatgani haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, ustoz Mirak naqqoshning Hirotidagi San'at akademiyasi "Nigoristoni" bo'lganligi va unda Kamoliddin Behzod tahsil olganligi ham ma'lum (28-rasm).

Taniqli Professor Orif Usmonovning "Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi" nomli kitobida Behzod Tabrizda o'z atrofiga eng iste'dodli yoshlarni to'plagani, ularga san'atining sir-asrorlarini o'rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mirzo Amir, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Shomuhammad Nishopuriy, Sulton Muhammad Nur, Mir Ali, Rizo Abbosiy, Mahmud

Muzahhib, Mavlono Yoriy, Yusuf Mullo, Abdulla Sheroziy, Darvesh Muhammad singari o'nlab iste'dodli musavvirlarni



***30-rasm. Z.Kovalevskaya.
P.Benkov Shoxi-Zindada
etyudda. 1940 yy.***

tarbiyalaganligi va o'sha davrda nafis tasviriy san'at maktabini yaratganligi yozib o'tadi. Bu maktabda musavvirlar Kamoliddin Behzodning nafis san'at uslubini davom ettirganlari tarixiy ma'lumotlarda keltirilgan (29-rasm).

XX asrning birinchi choragida O'zbekistonda hozirgi zamon ta'lim tizimi paydo bo'ldi. Bu

Turkistondan rassomlar, fan va madaniyat vakillaridan bir guruhi Moskva va Sankt-Peterburg shahriga o'qishga yuborilishiga sabab bo'ladi. Keyinchlik bu rassomlar Turkistonning bir qator yirik shaharlarida bevosita badiiy studiyalar, ijodiy asarlarining ko'rgazmalarini tashkil etdilar. (30-rasm)

Turkistonda tasviriy san'atni rivojlantirish maqsadida 1918-yilda Toshkentda ilk badiiy kommuna ochiladi, bir oz vaqtdan so'ng, 1919-yilda Samarqandda Turkiston o'lka badiiy xalq maktabi tashkil etiladi.

Uning davomi sifatida Andijon shahrida 1920-yilda rangtasvir maktabi, keyinchalik Buxoroda tasviriy san'at to'garagi va tasviriy san'at kurslari ochiladi. Shu davrda respublikada 29 ta



31-rasm. Tansiqboev O'. Tog'da bahor (Brichmulla). 1961.

badiiy maktab va studiyalar faoliyat olib boradi, undagi o'quvchilar soni 500 kishiga yetadi.

XX asrning 20-yillarida badiiy politexnikumlarida o'quvchilar soni 170 tani tashkil yetib, ulardan 150 tasi o'zbeklar edi. 1924-yilda Toshkent tasviriy san'at muzeyi qoshida badiiy studiya tashkil etiladi. Unga taniqli Kukrinikslar guruhi rassomlaridan M.Kupriyanov, S.Chuykov, yosh rassomlardan O'.Tansiqboevlar boshchilik qilishadi. Ular ijod qilish bilan birga tasviriy san'at sir-asrorlarini o'rgatib borishadi (*31-rasm*). Rassomlar tayyorlash, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlash borasida 1920-yillarda Toshkent, Samarqandda badiiy bilim yurtlari ochiladi. Natijada maktab o'quv dasturlari qayta ishlanib chiqiladi, natijada ta'lim tizimida badiiy va estetik ta'lim masalalariga ham e'tibor beriladi.

O'zbekistonda tasviriy san'at fanini o'qitishda, bolalar tasviriy ijodini rivojlantirishga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan rassomlardan biri Iskandar Ikromov edi. (*32-rasm*) 1925-yilda iqtidorli yosh grafik rassom "Maorif va o'qituvchi", keyin "Alanga" jurnallarida rasm chizishga doir bir qator

maqolalarini e'lon qildi. 1930-yillarda uning “Rasm chizishni o'rganish qo'llanmasi”, “Harf yozishni o'rgan” kitobi, “Kitob va jurnallar qanday nashr etiladi” albomi nashr etiladi.

1929-yilga kelib, o'quv rejalarida san'atga doir o'quv predmetlariga tegishli o'rin ajratilib maktablarda maxsus rasm o'quv predmetlari o'qitila boshlandi. Bu davrda O'zbekiston maktablarida, Rossiya maktablarida yaratilgan dasturlar asosida o'quv predmetlari olib borilar edi. Dasturlarning ma'lum qismi O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan edi. Rasm darslarida narsaga qarab rasm chizish mashg'ulotlarida, Respublikamizga xos bo'lgan tabiat mahsulotlari, predmetlari va dekorativ ishlarda o'zbek amaliy san'at namunalari chizdirilar edi.

1939-yillar kelib maktablarda rasm darslarining asosiy vazifasi: o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni o'stirish, asosan rasm chizishni o'rgatish edi. Darslarning tarbiyaviy tomonlariga yetarlicha e'tibor berilmas edi.

Keyinchalik ikkinchi jahon urushi yillarida, undan keyingi yillarda ham rasm darslarining mazmunida ta'limdan ko'ra tarbiyaviy tomonlariga e'tibor qaratilib, darslarning vazifalari o'zgardi, undagi asosiy e'tibor vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyaga qarqtila boshlandi. Rasm darslarida baynalmilal va vatanparvarlik mazmunidagi tasviriy san'at asarlari o'rganilardi.

XX asrning 1947-48-o'quv yillarida “Rasm” darsi 1-sinfdan 5-sinfgacha o'tilar edi. Bu predmetning o'quv rejasida rasm darsi



32-rasm. I.Ikromov Navoyi “Lirika” asaria ishlangan kitob muqovasi. 1965.

haftasiga 1-sinfda 1 soat, 2-sinfda 1 soat, 3-4-sinflarda 0,5 soat va 5-sinfda esa 1 soatdan vaqt ajratilib, umumiy haftalik soat 4 soatni tashkil etar edi.

O'zbekistonda o'quv dasturlarida "Rasm" o'quv predmetining vazifasi 1950-60-yillarga kelib oldin tuzilgan dasturlardan bir muncha farq qildi. Ya'ni, 1953-yilda nashr etilgan dastur "Rasm solish" deb nomlandi, unda o'quvchilarni tarbiyalashga alohida urg'u berildi, 1956-yilda "Rasm" dasturida esa rasm darslarining vazifasi o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashga va o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradigan o'quv predmetlaridan biri deb ko'rsatila boshlandi. 1958-59-o'quv yilining rejasida rasm darslariga 1-4-sinflarda haftasiga 1 soatdan vaqt ajratildi.

Maktabda tasviriy san'at ta'limini rivojlantirish ko'p jihatdan pedagogik kadrlarga bog'liq bo'ladi. 1950-yillarda Respublikamiz hukumati tomonidan maktablarda rasm darsining o'qitilishiga alohida e'tibor qaratilgani bois, maktablarga rasm o'qituvchi kadrlarni tayyorlash masalasi dolzarbligi bu davrda o'z aksini topdi. Bu masalani hal etishda Samarqand va Toshkent badiiy bilim yurtlarini birlashtirish natijasida tashkil topgan P.P.Benkov nomidagi badiiy bilim yurti shug'ullana boshladi. Bu badiiy bilim yurti maktablarda rasm o'quv predmetlaning o'qitilishini sifat jihatidan yaxshilashga ma'lum miqdorda ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir maktablar bilan bir qatorda, maktabdan tashqari olib boriladigan seminar, konferentsiya, yig'ilishlarda ham o'z ifodasini topdi. Shuningdek, badiiy bilim yurtini bitiruvchilar maktablarda tashkil etilgan ko'rgazmalarda ham ishtirok etdilar.

1955-yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutida tashkil etilgan badiiy-grafika fakultetining ochilishi, Respublikamizda tasviriy san'atni o'qitilishini takomillashtirishda katta rol o'ynadi. Mazkur oliy o'quv yurtining badiiy-grafika

fakultetida kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlar orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlandi. Fakultetda dastlabki yillarda kadrlarni kasbiy tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlarni Respublikamizning yirik rassomlari olib bordilar. Ulardan, O'zbekiston xalq rassomi A.Abdullayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan rassomlar M.Saidov, A.Yurovskiy, Yu.Elizarov, T.Oganesov hamda Leningrad badiiy akademiyasini va Moskva badiiy institutini endi bitirib kelgan yosh, iste'dodli rassomlardan R. Choriev, N.Kovininalar tasviriy san'atning sir-asrorlarini bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga o'rgatishdilar.

1960-yildan boshlab Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining estetik tarbiya bo'limida maktablarga tasviriy san'at fanini o'qitish bo'yicha darsliklar yaratishga kirishildi. O'zbekistonda tasviriy san'at fanini o'qitilish samaradorligini oshirishda o'sha yillar pedagoglardan A.Shohamidov, M. Nabiev, O. Apuxtinlarning o'quv qo'llanmalari bevosita shu davr tasviriy san'at o'qituvchilari uchun ahamiyatli bo'ldi. 1965-yildan boshlab tasviriy san'at fanini o'qitish bo'yicha birinchi darsliklar yaratildi. Bunga A.Jiltsova, R.Hasanov, B.Oripovlar tomonidan "Tasviriy san'at" darsliklarini ta'kidlashimiz mumkin.

1970-yillar davomida tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilari tayyorlana boshlandi. Bu mutaxassislik yo'nalishlari Toshkent va Buxoro pedagogika institutlari badiiy-grafika fakultetlari, Andijon, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Angor, Xiva, Xo'jayli, Shahrixon pedagogika bilim yurtlarida ham kadrlar tayyorlay boshlashdi.

1970-yildan maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitish muammosi yuzasidan Toshkent va Buxoro pedagogika institutlarining o'qituvchilari, Ushinskiy nomidagi o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash Markaziy instituti hamda viloyat o'qituvchilari malakasini oshirish institutining metodist

o'qituvchilari, O'zbekiston maorif vazirligining metodistlari ilmiy-tadqiqot ishlarini R.Hasanov, B.Oripov, X.Egamov, K.Qosimov, A.Vosiqov, S.Bulatov, O.Xudoyorova va boshqalar olib bordilar.

1980 yil boshlariga kelib tasviriy san'at o'qituvchisi ixtisosligi bo'yicha yiliga tayyorlangan pedagog kadrlar soni 800 kishidan ortdi. Bu yillarda Respublikamiz tasviriy san'at o'qitilishi sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi, pedagog-kadrlar tayyorlandi, ilmiy-amaliy konferentsiyalar o'tkazildi, seminarlar tashkil etildi, o'qituvchilar o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlandi, tasviriy san'at bayramlari, tanlovlar o'tkazildi. Bu holatlar tasviriy san'at fanini o'qitilishini ma'lum miqdorda yaxshilashga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shu bilan birga umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanining o'qitilishi yetarlicha talablar darajasida bo'la olmadi. Chunki maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitishda moddiy-texnikaviy baza, tasviriy san'at kabinetlaring yetishmasligi, darslar uchun zarur bo'lgan o'quv jihozlari ko'pchilik maktablarda mavjud emas edi.

Mustaqillik yillaridagi tasviriy san'atni o'qitilishi.

Respublikamiz mustaqilligidan so'ng yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, kasbga o'rgatish, aqliy va ma'naviy kamol topishlarini tashkil etishda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim jarayonida ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari yangilandi. Ta'lim mazmunining o'zgarishi ta'lim jarayoni tarkibiy qismlarini yangicha tartibda namoyon bo'lishini taqoza etdi. An'anaviy ta'lim qonuniyatlari va tamoyillariga mos holda yangi tamoyillarga amal qilish, ta'lim metodlarining paydo bo'lishi, ta'lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakllari keng ko'lamda joriy etildi. Shu maqsadda 1992-yilda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun e'lon qilindi. Shu qatori umumiy

oʻrta taʼlim maktablaridagi barcha oʻquv fanlari qatori “Umumtaʼlim maktablarida tasviriy sanʼat taʼlimi kontsepsiyasi” ham ishlab chiqildi va u Oʻzbekiston xalq taʼlimining 1993-yilgi 5-maydagi 5-sonli qarori bilan tasdiqlandi. Kontseptsiyadan kelib chiqqan holda tasviriy sanʼat fani uchun tegishli davlat taʼlim standarti va dasturlarni ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi.

1993-yilda 1-4-sinflarda 270 soatga moʻljallangan “Tasviriy sanʼat va badiiy mehnat”, 1-7- sinflarda 245 soatga moʻljallangan “Tasviriy sanʼat” dasturlari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, 1-8-sinflar uchun moʻljallangan 560 soatli “Tasviriy sanʼat” dasturi ham tayyorlandi. Bu dasturlar milliy istiqlol va mustaqillik mafkurasi asosida tayyorlangan boʻlib, uning ifodasi tasviriy sanʼat oʻquv predmetining maqsad va vazifalari, taʼlim mazmuni, moddiy-texnikaviy asoslarida koʻrsatildi. Tasviriy sanʼat darsliklarini yaratish bilan bir qatorda oʻqituvchilar uchun oʻquv metodik adabiyotlar ham tayyorlandi. Bularga 1997-yilda R.Hasanov va X.Egamovlarning birinchi sinf oʻqituvchilari uchun “Tasviriy sanʼat va badiiy mehnat darslari”, R.Hasanovning 5-sinf oʻqituvchilari uchun “Tasviriy sanʼat darslari” nomli qoʻllanmalari misol boʻla oladi.

1996-98-yillar davomida yangi dasturlar asosida 1-4-sinflar uchun “Tasviriy sanʼat va badiiy mehnat” darsliklari taqdim etildi. Biroq ulardan 1998-yilda 1-sinf darsligi nashr etildi. Darslik Oʻzbekiston maktablari uchun qoraqalpoq, rus, qozoq, turkman, qirgʻiz, tojik, tillarida ham chop etildi. 1999-yilda yangi taʼlimning davlat standartlari va oʻquv rejalari ishlab chiqildi, natijada qolgan darsliklar chop etilmay qoldi. Taʼlimning davlat standartida bu oʻquv predmetiga har bir sinfda haftasiga bir soatdan vaqt ajratilgan edi.

1997-yilda Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”

hujjatlari e'lon qilindi. Bu hujjatga asosan ta'lim sohasini 1997-2006 va undan keyingi yillar uchun ish rejasi va taraqqiyot yo'li belgilab berildi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berildi, xususan, uning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi.

Ushbu milliy dastur asosida "Tasviriy san'at" o'quv predmetidan ta'limning davlat standarti ishlab chiqildi. Davlat ta'lim standartida 1-7-sinf o'quvchilari uchun tasviriy san'at fanidan o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilim va malakalar belgilab berildi. Shu bilan birga; tasviriy san'at faning maqsad va vazifalari, faoliyat turlariga doir ko'rsatmalar bayon etildi, tasviriy san'at mashg'ulotlarining turlari sifatida 1-4-sinflar uchun borliqni idrok etish, 1-4-sinflar uchun badiiy qurish-yasash, 1 naturaga qarab tasvirlash, 1-7-sinflar uchun san'atshunoslik asoslari, 7-sinflar uchun kompozitsiya mashg'ulotlari belgilab berildi.

Davlat ta'lim standarti bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999-yilda o'quv rejalarida o'zgartirishlar amalga oshirildi. Unga ko'ra 1-7-sinflarda tasviriy san'at o'quv predmeti o'qitilib, uning nomi "Tasviriy san'at" bo'lib qoldi. Buning natijasida 2001-yilda yangi darsliklar tayyorlandi.

Mustaqillik yillarida oliy o'quv yurtlarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash, ularning kasbiy-metodik tayyorgarligi, didaktik va metodik o'quv qo'llanmalari, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga alohida e'tibor berildi. Tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha Toshkent, Buxoro, Andijon, Namangan, Guliston davlat universitetlarida, Jizzax Nukus, Angren davlat pedagogika institutlarida 2000-2022-yillarda mahsus badiiy grafika fakultetlari va bo'limlari tashkil

etildi. Shu bilan birga oʻrta maxsus bilim yurtlarida ham tasviriy sanʼat oʻqituvchilari tayyorlandi, bulardan Xiva, Denov, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, Kattaqoʻrgʻon, Jizzax, Andijon pedagogika bilim yurtlarida amalga oshirildi. 2019-2022-yillarda Respublikamizning koʻp viloyatlarida xususan, Chirchiq, Shahrisabz, Navoiy, Guliston davlat pedagogika institutlarida ham “Tasviriy sanʼat va muhandislik grafikasi” taʼlim yoʻnalishlari tashkil etilib, bu oliy taʼlim dargohlarida ham tasviriy sanʼat oʻqituvchilari tayyorlana boshlandi. Shu bilan birga, tasviriy sanʼat yoʻnalishi boʻyicha magistratura boʻlimlari ham yuqorida koʻrsatib oʻtilgan universitet va institutlarida ochildi. Uning davomi sifatida bir qator universitet va institutlarda tasviriy sanʼat yoʻnalishi boʻyicha tayanch doktoranturalar ham oʻz faoliyatini boshlab yuborishgan.

Mustaqillik yillari oʻzgarishlar asosida yangi darsliklar 2001-yilda

R.Hasanov tomonidan 1-3-sinflar uchun tayyorlandi. Bulardan birinchi sinf darsligi 2001-2002-yillarda chop etildi. Tasviriy sanʼatni oʻqitilishi, mashgʻulotlarni takomillashtirib borilishi sababli, 2-3-sinflar uchun darslik M.Isoqova, R.Hasanov, B.Haydarov, A.Sulaymanov, S.Jumaniyozova, B.Azimovlar tomonidan 2009-2010-yillari chop etildi. 2011-yili yangi darsliklar yaratish boʻyicha 4-5-sinflar uchun tender eʼlon qilindi. 4-sinf darsligi A.Sulaymonov, I.Rahmonov, Z.Sulaymonovalar tomonidan tayyorlandi.

2015-yilda 5-sinf darsligi T.Qoʻziev, S.Abdirasilov, Oʻ.Nurtaevlar tomonidan nashrga chop etish uchun tayyorlandi. 2016-yilda umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻquvchilarining kontingentini oshishi sababli, 2-3-sinflar uchun darslik M.Isoqova, R.Hasanov, B.Haydarov, A.Sulaymanov, S.Jumaniyozova, B.Azimovlar tomonidan qayta nashr etildi. 2017

yilda R.Hasanov tomonidan 1-sinflar uchun “Tasviriy san’at” darsligi tayyorlanib chop etildi.

Shu bilan birga, 2017 yilda Q.Mirahmedov, B.Karimov, I.Nurullaevlar tomonidan 6-sinf uchun tasviriy san’at darsligi tayyorlanib, chop etildi.

2017-yilda A.Sulaymonov, N.Abdullaev, Z.Sulaymonovalar tomonidan 7-sinflar uchun qayta ishlangan tasviriy san’at darsligining 3-nashri chop etildi.

2022-2023-o‘quv yili uchun mamlakatimizda Milliy o‘quv dastur asosida 1-7-sinflar uchun yangi avlod darsliklari yaratila boshlandi. Yangi darsliklar avvalgi darslikdan farqli bo‘lib, unda aynan o‘quvchilarning yoshi bilan bog‘liq qiziqishi, individual psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olingan holda ishlab chiqildi. Hali qo‘liga endi qalam ushlagan o‘quvchi uchun oldingi darsliklardagi ko‘p mavzular murakkablik qilar edi. Yangi darslik o‘quvchida chiza olish ko‘nikma va malakalarni sodda amallardan boshlab o‘rgatadi. Endilikda darslik bilan birga qo‘shimcha ish daftaridan ham foydalaniladi. Tasviriy san’at darslarida o‘quvchiga avval turli chiziqlar, keyin shakllar, undan so‘ng raqamlar asosida turli tasvirlarni chizish va bo‘yash o‘rgatiladi. Darslikda maktabgacha ta’lim muassasasi dasturi bilan integratsiya qilingan bo‘lib, 1-sinf o‘quvchisi tasviriy san’atni bog‘chada o‘zlashtirganlarini davom ettiradi. Darslik yangi uslubda, xalqaro tajribalarga tayangan holda mutlaqo yangicha dizaynda yaratildi. Darslikning har bir mavzusiga mashhur rassomlar tomonidan illyustratsiyalar ishlangan. Darslik “Grafika”, “Haykaltaroshlik”, “Rangtasvir” va “Kompozitsiya” kabi tasviriy san’atning asosiy bo‘limlariga ajratilgan bo‘lib, tasvir ishlash va yasash bosqichlari mavzular bo‘yicha keltirilgan.

Oldingi darsliklarda fanlararo bog‘liqlikka ko‘p e’tibor qaratilmagan edi. Tasviriy san’atning yangi darsligida “**STEAM**”

ta'limiga alohida e'tibor qaratilgan. O'quvchilar endilikda matematika darsida o'rgangan raqamlaridan, tasviriy san'at darslarida turli shakllardan foydalangan. Darslikda o'quvchini mantiqiy fikrlashga undaydigan o'quv topshiriqlari berilgan. Yangi tasviriy san'at darsligi o'quvchi ish daftari, o'qituvchi kitobi, media ilovasi bilan birgalikda ishlab chiqilgan.

Darslikka AR to'ldirilgan borliq tizimi joriy etilgan. Darslik muqovasiga smartfon tutilsa, undagi tasvir harakatlanadi va o'quvchi qo'shimcha ma'lumotlarni ovoz orqali eshitish hamda chizish bosqichlarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday keltirilgan qo'shimcha ilovalar, darslikning imkoniyatlarini bir necha barobarga oshiradi.

Xullas, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari, ixtisoslashtirilgan san'at va kasbiy-hunar maktablari uchun tasviriy san'at fanini o'qitilishi, olib borilayotgan mashg'ulotlarning takomillashtirib borilishi, darslar samaradorligining o'sib borishiga bir qator ilmiy-metodik asoslarni ishlab chiqilganligi sabab bo'lib, ular tasviriy san'at fani o'qituvchilarining mashg'ulotlari samaradorligi uchun qator ilmiy-metodik imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekiston hududidagi dastlabki tasviriy san'at na'munalari qayerdan topilgan?
2. Sharq miniatyura maktablarining rivojlanish tarixi nechanchi asrga borib taqaladi?
3. O'rta Osiyo miniatyura maktablarining namoyondalari yaratgan maktablar qanday metodika asosida ish olib borgan?
4. Temuriylar davri tasviriy san'atning rivojlanishi.
5. Turkistonda ilk badiiy maktablar qachon tashkil etilgan?

6. XX asr boshlarida O‘zbekiston rassom-pedagoglaridan kimlarni bilasiz?
7. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti qachon tashkil etilgan?
8. Mustaqillik yillarida tasviriyl san’at darsligi mualiflari kimlar?

1.4 O‘zbekiston tasviriyl san’atining turlari va janrlari

Reja: 1. O‘zbekiston tasviriyl san’ati. 2. O‘zbekistonda tasviriyl san’atning turlari va uning mazmuni. 3. Tasviriyl san’at janrlari. 4. Mustaqillikdan keyingi yillar O‘zbekiston badiiy hayotidagi o‘zgarishlar. 5. O‘zbekiston Prezidentining Badiiy Akademiya tashkil etish haqidagi farmoni.

Tayanch iboralar: Rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, natyurmort, portret, manzara, turmush, tarixiy, animal, afsonaviy, marina, interer.

O‘zbekiston Mustaqilligining 33 yilligida arafasida bosib o‘tgan yillar mobaynida barcha sohalarda erishgan yutuqlarini sarhisob qilib, bosib o‘tilgan mashaqqatli, shu bilan birga sharaflil yo‘lga nazar tashlar ekanmiz, san’at va madaniyat sohalaridagi islohotlar, yangiliklar asosida xalqimizning shijoati, mehnati va iste’dodi bilan qo‘lga kiritilgan madaniyat yutuqlarini e’tirof etishimiz mumkin.

Bugungi kun O‘zbekiston tasviriyl san’ati jahonda alohida mavqega ega. Uning o‘ziga xos koloriti, o‘ziga xosligi, betakrorligi yurtimizga kelgan mehmonlarning hayratida ko‘rishimiz mumkin. Hozirda tasviriyl san’at yurtimizda keng tarqalgan san’at turlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda tasviriyl san’at asosiy uch turga bo‘linadi, bulardan: 1. Rangtasvir. 2. Haykaltaroshlik. 3. Grafika. (33-rasm)



33-rasm. Tasviriy san`at turlari

Rangtasvir - turli rang va materiallar yordamida turli xil tekis yuzaga tasvirlanadigan san`at turiga aytiladi. Rangtasvirga asosan bo`yoqlar - akvarel, guash, moybo`yoq, tempera shuningdek, rangli qalamlar, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallarda bajariladi.

Haykaltaroshlik - turli uslub, tasvirlash texnikasi va materiallar yordamida hayotiy voqea va hodisalarni ifodalaydi. Haykaltaroshlikda gips, granit, marmar, metall, yog`och, tosh, metal, vosk (mo`m) kabi materiallardan foydalaniladi. Bu san`at turida kesish, yopishtirish, ulash va o`yish, quyish kabi texnikalarda tasvirlanadi. Haykallar asosan ikki turda ifodalanadi, ularning birinchisi to`liq yumaloq haykallar, ikkinchisi relefli haykallardir.

Grafika – lotincha “yozaman, rasm ishlayman” degan ma`noni bildirib, tasviriy san`at turlaridan biridir. Grafika ham o`z navbatida bir qator turlarga bo`linadi. Shunday turlaridan biri gravyuradir. Gravyura fransuzchada, “kesish” ma`noni anglatadi. Gravyurada rasmlar qattiq yuzalarga chiziladi, so`ng u kesish va o`yish orqali bajariladi. Tasvirlar linoleum, metall, yog`och, tosh kabi materiallarda bajariladi va ulardan qog`ozga ko`p nushada ko`chiriladi. Ofort - metallda tayyorlanadigan gravyura, ksilografiya – yog`ochda tayyorlanadigan gravyura, linogravyu –

lenoliumga ishlanadigan gravyura, toshga tayyorlanadigan gravyura esa litografiya deb yuritiladi. Tasviriy san'atning grafika turi ko'p sohalarda qo'llaniladi. Masalan, kitob illyustratsiyalari, estamp, plakat, gazeta-jurnal bezaklari, pochta markalari, karikaturalar, (hajviy rasmlar) upakovka va etiketkalar, kino va teatr afishalari, tovar va yo'l belgilari, muassasa va tashkilotlarning ish blankalari bunga misol bo'la oladi.

Tasviriy san'at janrlariga: natyurmort, portret, manzara, turmush, tarixiy, animal, afsonaviy, marina, interer kiradi. Rassom nimani tasvirlayotganligiga qarab janr belgilanadi. (53,54-betga qarang)

Natyurmort janri. "Natyurmort" so'zi fransuzcha bo'lib "jonsiz tabiat (natura)" ma'nosini anglatadi. Unda rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik asarlarida foydalaniladi. Tasviriy san'atning bu janrida mevalar, sabzavot va gullar, qushlar, baliqlar, oziq - ovqatlar, turli jonsiz predmetlar tasvirlanadi.

Portret janri. "Portret" fransuzcha "portrait" so'zidan olingan, insonlarni chehrasini xuddi o'ziga o'xshatib tasvirlash ma'nosini bildiradi. Portret yakka yoki guruhli bo'lishi mumkin. Portretda odamlarning boshi, beligacha yoki butun bo'yi-basti bilan tasvirlanishi mumkin. Rassom o'zini – o'zi tasvirlashi avtoportret, deyiladi.

Manzara janri. Tabiat, shahar, industrial, interer ko'rinishlarini tasvirlanishi tasviriy san'atda manzara janri deyiladi. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiat manzarasini haqiqiy ko'rinishini tasvirlasa, boshqalari ijodiy tarzda xayolan ifodalangan bo'ladi.

Turmush janri. Kishilarning hayoti, mehnati maishiy bilan bog'liq bo'lib, undan ko'proq dam olish, oila, maktab, shaxsiy va jamoatchilikdagi hayot turmushi aks etgan bo'ladi.

Tarixiy janr. Bu janrda insoniyat tarixidagi qahramonlar hayoti va muhim voqealar aks etadi. Janrning asosiy xususiyatlaridan rassom tarixiy voqealar ko‘rinishini tasvirlashda, avvalo o‘sha voqea haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi lozim.



Manzara



Natyurmort



Turmush



Portret



Tarixiy



Batal



Animal

Batal janri. Bu janrda rassomlar o‘z asarlarida urush, jang tasvirlarini ko‘tarinlik, shavq-zavq, qahramonlik kabilarni ifodalaydi. Asarlarda ko‘proq vatanparvarlik g‘oyalari ilgari suriladi. Ularda harbiylarning jangdan tashqari vaqtdagi turmushi bilan birgalikda jang ko‘rinishlari tasvirlanadi.

Afsonaviy janr. Bu janrdagi tasviriy san‘at asarlarida real hayotda uchramaydigan, xalq tomonidan xayolan o‘ylab topilgan odamlar, hayvonlar, baliqlar, hodisa hamda voqealar tasvirlanadi.

Animal janr. Animal lotincha “anima” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “hayvon” degan ma‘noni anglatadi. Bu janr tasviriy san‘atning deyarli barcha turlarida mavjud bo‘lib, hayvon va qushlar tasvirlanadi.



Afsonaviy



Marina



Interer

Marina janri. Marina fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, “dengiz va katta suvlar ko‘rinishi” ma‘nosini bildiradi. Bu janr

dastavval Yevropada vujudga kelib, dengiz, dengiz hayotidagi muhim voqealar, harbiy kemalar tafsilotini aynan tasvirlashda bezak sifatida xizmat qilgan.

Interer janri. Binolarning ichki ko‘rinish, yo‘lak, foie, xonalarning ichki ko‘rinishlari, ulardagi mebellar, jihozlar tasvirlanadi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, O‘zbekiston jahonda shuhrat qozongan tasviriy san’atning noyob merosi, an’analarini avaylab asrash, uni o‘rganish, boyitib, to‘ldirib borish, milliy tasviriy, amaliy san’atimizning nodir asarlarini dunyoga tanitish va olib chiqish, uni targ‘ib qilish, ulardan xalqimiz ongida iftixor va milliy g‘urur, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytirish yo‘lida keng foydalanish, badiiy ta’lim tizimini rivojlantirish, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida, 1997-yil 23-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1701-sonli Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, Rassomlar uyushmasi, atoqli san’at namoyondalari va keng jamoatchilikning takliflarini inobatga olgan holda, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tashkil etildi. (34-rasm)

Badiiy Akademiya asosan targ‘ibot-tashviqot ishlari, o‘quv, ilmiy, ijodiy yo‘nalishlarda faoliyat olib borishi ekanligini e’tiborga olinib, unga quyidagi asosiy vazifalar belgilandi:

o‘zbek xalqining boy madaniy, badiiy merosi, uning jahon san’ati tarixidagi o‘rni, taraqqiyot bosqichlari, zamonaviy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan hamda chuqur o‘rganish, rivojlanish istiqbollari belgilash, metodik qo‘llanmalar va darsliklarni ishlab chiqish;



34-rasm. O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi ko‘rgazmalar zali

tasviriyy va amaliy san‘at turlari bo‘yicha ijod etuvchi ijodkorlarni, avvalo yoshlarni xalqimizning serqira ma‘naviy dunyosi, ozod va obod Vatanimiz kelajagi oldidagi mas‘uliyat, milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarini tarannum etuvchi yorqin asarlar yaratishga yo‘naltirish hamda bu yo‘ldagi harakatlarni rag‘batlantirish;

iqtidorli yoshlarni, ijodkorlarni, ijtimoiy-iqtisodiy muhofaza qilish hamda san‘at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash;

tasviriyy va amaliy san‘at, xalq hunarmandchiligi, dizayn, sohalari bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish;

xalqaro ilmiy, ijodiy aloqalarni o‘rnatish va mustahkamlash, xorijda va O‘zbekistonda tasviriyy va amaliy san‘at ko‘rgazmalari orqali o‘zbek milliy san‘ati yutuqlarini dunyo hamjamiyatiga tanitish, konferensiyalar, simpoziumlar, seminarlar o‘tkazish kabi vazifalar belgilangan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Mustaqil O'zbekiston tasviriy san'atining mavqeiy nimada?
2. O'zbekistonda tasviriy san'atning turlari va ularning mazmuni.
3. Tasviriy san'at janrlari mazmunini yoritib bering.
4. Mustaqillikdan keyingi yillar O'zbekiston badiiy hayotidagi o'zgarishlar.
5. O'zbekiston Prezidentining Badiiy Akademiya tashkil etish haqidagi farmoni.
6. O'zbekiston Badiiy Akademiyasining asosiy vazifalari.
7. O'zbekistonda tasviriy va amaliy san'at ko'rgazmalari.

Bobni mustaqil o'rganish bo'yicha tavsiyalar:

Bobni diqqat bilan o'qing, yangi atamalariga alohida e'tibor bering, pedagogik, psixologik, san'atshunoslik lug'atlarida ularning ma'nosini aniqlang. Tasviriy san'at o'qituvchisi rahbarligida qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya bo'yicha natural va geometrik metodlari bo'yicha topshiriq va mashqlarni bajaring. San'at tarixiga oid adabiyotlari, Sharq miniatyura maktablarining tarixi, O'rta Osiyo va O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitish metodlari bilan tanishish tavsiya etiladi.

2-bob. TASVIRIY SAN'ATNI FANINI O'QITISHDA METODIKA VA DIDAKTIKA MASALALARI

2.1. Umumta'lim va kasb-hunar maktablarida tasviriy ta'limining maqsad va vazifalari, mashg'ulotlarining mazmuni

Reja: 1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarining maqsadi. 2. Tasviriy san'at mashg'ulotlarining ta'lim-tarbiyaviy vazifalari. 3. Tasviriy san'at faning fanlararo bog'liqligi. 4. Tasviriy san'at fanining estetik tarbiya berishida ahamiyati va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. 5. 1-4 va 5-7 sinflarda tasviriy san'at darslarining mazmunining o'ziga xos xususiyatlari.



35-rasm. Muzeylar milliy merosni o'zlashtirish hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishtiradi .

Tayanch iboralar: O‘quvchi, tasviriy faoliyat, tafakkur, estetika, his-tuyg‘u, idrok, xotira, bilim, malaka.

Tasviriy san‘at fani orqali o‘quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirishga, aniq va tabiiy fanlari qatori o‘zlashtirish jarayonida kreativ fikrlashga, dars jarayonida badiiy-estetik tafakkur va emotsional sezgirlikni o‘stirish, uni rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo‘lgan bilim va malakalarni egallashga qaratilgan. Shu qatori umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tasviriy san‘at o‘quv predmeti avvalo komil, barkamol insonni har tomonlama, ayniqsa, uning badiiy madaniyatini va estetik dunyoqarashini shakllantirish orqali yoshlarni kelajak hayotga tayyorlashga yordam beradi. (35-rasm)



36-rasm. Tasviriy san‘at badiiy madaniyatga doir bilim va malakalar beradi

Kelajakda bugungi maktab o‘quvchisi ishchi, dizayn-konstruktor, muhandis, shifokor, sportchi, o‘qituvchi, harbiy, yurist yoki biron-bir boshqa soha mutaxassisi bo‘lishi mumkin.



37-rasm. Tasviriy san'at insonni shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi.

Bugungi har bir o'quvchi kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, u ishdan tashqari bo'sh vaqtlarida dam oladi, hordiq chiqaradi, ishda sarflangan

quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Buni yuksak badiiy saviyada ishlangan tasviriy san'at asarlari, muzey, ko'rgazmalarga tashrif buyurishi, u yerda san'at asarlari bilan tanishish, ulardan zavqlanish, ularni idrok etish orqali erishadi. Har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementlar, bilim va malakalarni tasviriy san'at o'quv predmeti beradi. Shu bilan birga har bir o'quvchi kelajakda qaysi kasb egasi bo'lmasin, ular rasm ishlashlariga to'g'ri keladi. Rasm chizish barcha kasb egalari faoliyatida kerakli bo'lgan malakadir.

Bundan qariyb 300 yillar avval, fransuz faylasufi Didro, "Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o'qish-yozish kabi o'rgatilsa, bu mamlakat barcha sohalar bo'yicha boshqa barcha mamlakatlardan o'zib ketadi", degan edi. Jahon tarixidan bizga ma'lumki, mashhur olimlar, geograflar, tarixchilar, shoirlar, yozuvchilar, adabiyotchilar, konstruktorlar va boshqa soha vakillari rasm chizishni juda yaxshi bilganlar. Buning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga boshqa fanlar qatori tasviriy va amaliy san'atning umumiy elementlarini o'rganishni vazifa qilib quyadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida malakali rassomlar tayyorlanmaydi. Lekin tasviriy san'at fani bo'yicha istedadli o'quvchilar bilan ishlash, maktab fakultativ

darslarida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda ixtisoslashtirilgan maxsus san'at maktablarida va oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi.

O'quvchilarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida haddan ziyod qiynab qo'yadigan, yuqori darajada talab etiladigan topshiriqlarni berish to'g'ri kelmaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tasviriy savodxonligini oshirishda beriladigan elementlar bilim va malakalarga yarasha o'qitish metodlarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tasviriy san'at fanning **maqsadi** - o'quvchilarda tasviriy savodxonlik, badiiy-estetik, badiiy-ijodiy fantaziyaning va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni, milliy, umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlarni, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. (36-rasm)

Shu qatori maktab o'quvchilarning milliy madaniy merosini hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishlari va o'rganishlari uchun mezon bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanidan olib boriladigan mashg'ulotlar quyidagi **vazifalarni** amalga oshirishni nazarda tutadi:

1-jadval.

№	Tasviriy san'at fanidan mashg'ulotlar vazifalari.
1.	O'quvchilarning badiiy tafakkurini shakllantirish orqali ularda tasviriy va amaliy san'at asarlarini estetik idrok etish kompetenttsiyalarini takomillashtirish;
2.	O'quvchilarda san'at asarlarini ijtimoiy mohiyati va ahamiyatini anglash, idrok etish va baholash, ularga estetik munosabat bildirish malakalarini tarkib toptirish;
3.	Atrof-muhit, borliqdagi va san'at asarlaridagi estetik holatlarni anglashga oid bilim va malakalarni shakllantirish (37-rasm);

4.	O'quvchilarni tasviriy va amaliy san'at, badiiy hunarmandchilik, me'morlik va dizayn san'ati namunalari bilan tanishtirish orqali ularning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi nazariy bilim va amaliy malakalarini tarbiyalash;
5.	O'quvchilarni tasviriy san'atning turlari va janrlari, tasviriy san'atning qonuniyatlari, ifodaviy vositalari bilan tanishtirish orqali ularda tasvirlash malakalari, ijodkorlik ko'nikmalarini tarkib toptirish (38-39-rasm);
6.	Tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslari haqidagi bilim va malakalarni tarkib toptirish vositasida barkamol shaxs tarbiyasining muhim komponentlari – o'quvchilarda estetik did, estetik ong, badiiy tafakkur va tasviriy savodxonlikni shakllantirish.
7.	Tasviriy san'at (grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik), amaliy bezak va milliy hunarmandchilik, arxitektura va dizayn, kompyuter grafikasi va animatsiya, fotografiya, sintetik san'at (teatr va kino) sohasidagi badiiy tajribani rivojlantirish;
8.	San'at asarlari bilan aloqa qilish ehtiyojini rivojlantirish, semantik, estetik va shaxsan muhim ahamiyatga ega bo'lgan badiiy madaniyat an'analariga faol munosabatni shakllantirish. ¹


Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan deyarli barcha o'quv fanlari bilan tasviriy san'at fani bog'lanadi va boshqa fanlar bo'yicha o'quv materiallarni o'zlash-tirishga samarali ta'sir etadi. Tasviriy san'at fani geografiya, tabiatshunoslik, o'qish, adabiyot, biologiya, tarix, matematika, texnologiya, fizika, kimyo, musiqa, jismoniy tarbiya darslari

uchun ham foydalidir. Shu bilan birga tasviriy san'at o'quvchilarda estetik tarbiya bilan birga, u mehnat, ekologik,

¹ Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi loyihasi. –T.: 2021

axloqiy, jismoniy tarbiyani shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqotlar va tajriba sinovlar shuni ko'rsatadiki, tasviriy va amaliy san'at o'quvchilarga faqat go'zal estetik



38-rasm. Kartina tekisligida ufq chizig'ini aniqlash sxemasi.



39-rasm. Tasviriy san'atda bo'yoqlar bilan ishlash.

ideallar, ilm-tafakkurni beribgina qolmasdan, inson uchun zarur bo'lgan muhim jihatlarini, ya'ni ko'rish, kuzatish, idrok qilish hamda tafakkur-fantaziyalarini rivojlantiradigan asosiy mexanizm ekanligini ko'rsatmoqda. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar turli xil narsalar bilan tanishib, uning shakli, katta-kichikligi, naturadagi xunuk va chiroyli elementlarini kuzatadilar, naturalar

shaklini anglash, idrok etish, rang va tuslarini o‘zlashtiradilar. Tasvirlanayotgan natura shaklini idrok etadilar, uni tahlil qiladilar, tasvirlash faoliyati natijasida naturani tasvirga aylantiradilar, uni tekislikga joylashtirish malakalari rivojlanadi. Shu asosida tasviriy san’atdan o‘quvchi naturani rasm daftari yuzasiga tushirishni o‘rganadi.

(40-rasm) Psixologiya fani nuqtai nazaridan, bu jarayon murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun tasviriy faoliyatni amalga oshirishda o‘quvchi bola uchun sog‘lom muhit, to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim jarayoni kerak bo‘ladi. Aks holda, o‘quvchi

tasviriy san’at mashg‘ulotlarida oldiga qo‘yilgan maqsadni amalga oshira olmaydi, berilgan topshiriqni uddasidan chiqqa olmaydi.

Bugungi kunda tasviriy san’at fani o‘quvchilarga o‘zining 5 ta turi bo‘yicha tasviriy faoliyatda bilim va malaka beradi. Bular (2-jadval qarang):



40-rasm. Predmetlar shakli tuzilishini tahlil qilish.

2-jadval

1.	Borliqni idrok etish: O‘quvchilarning estetik didini, idroki, shu faoliyatga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarini o‘stirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu mashg‘ulotlarda asosan tabiatdagi va tevarak-atrofdagi nafislik va go‘zallikni ko‘ra bilish, idrok etish, natijada olgan taassurotlaridan amaliy badiiy-ijodiy faoliyatlarida foydalanishni nazarda tutiladi.	1-4 sinflarda
----	---	---------------

2.	Badiiy qurish-yasash: Badiiy qurish-yasash mashgʻulotlarida oʻquvchilarning qiziqishlari va ijodkorliklarini oshirish va rassomchilikda ishlatiladigan turli materiallar bilan tanishtiriladi.	1-4 sinflarda
3.	Naturaga qarab tasvirlash: Naturaga qarab tasvirlashda oʻquvchi tasvirlashning eng asosiy elementi - koʻrinib turgan narsaning rasmini chizishga oʻrganadi. Bunda oʻquvchi, eng avvalo, shakl birligini, soʻngra rangini, yorug-soyalarni tasvirlaydi. Naturaga qarab tasvirlash boshqa barcha oʻquv mashgʻulot turlarining asosi boʻlib, ularga ilmiy va amaliy zamin yaratadi. Bu rasm chizishning “alifbosi” va realistik rasm chizishning asosi deyiladi.	1-7 sinflarda
4.	Kompozitsion faoliyat: Kompozitsion faoliyatda oʻquvchi narsa, voqea, obyektlarni erkin, ijodiy ruhda tasvirlaydi. Narsa va voqeani oʻzgartirib, oʻzining bilimi, tasavvuri va tushunchalari asosida rangtasvir, dekorativ, haykaltaroshlik naʼmunalarini ishlaydilar. Bu mashgʻulot oʻquvchilarni tasviriy bilim va malakalarini mustahkamlaydi, badiiy ijod qilishda realistik rasm chizishning nazariy va amaliy asoslarini oʻrgatadi.	1-7 sinflarda

5.	San'atshunoslik asoslari: San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida tasviriy, amaliy-bezak, me'morchilik san'at asarlari va nazariy asoslarini o'rganishadi. Unda o'quvchilar tomonidan san'at asarlarini ongli idrok etish va baholash, uning jamiyat va odamlar hayotidagi ahamiyatini tushunishga qaratiladi va tasviriy san'atning nazariy asoslari o'rgatiladi. (41-rasm)	5-7 sinflarda
----	---	---------------

Tasviriy san'at darslarida narsalarni e'tibor bilan kuzatish va ularni idrok etish o'rgatilib, bolaning diqqat-e'tiborini bir nuqtaga qaratish malakasi o'rgatiladi. Shu bilan birga, tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarni zehnli, barcha his-tuyg'ularini jamlab o'zida bo'lgan barcha nazariy va amaliy bilimlarni ishlatishga o'rgatadi.²



***Borliqni idrok etish
(1-4 sinflarda)***



***Badiiy qurish-yasash
(1-4 sinflarda).***

² Oripov B.N. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. –N.: “NamDU”, 2012. - 202 b.



Naturaga qarab tasvirlash (1-7 sinflarda).

Kompozitsion faoliyat (1-7 sinflarda).



41-rasm. San'atshunoslik asoslari (1-7 sinflarda)

Kasb-hunar maktablarida ta'lim oluvchi o'quvchilarning tasviriy san'at fanidan badiiy-ijodiy qobiliyatlarini, badiiy didini, rangshunoslik bilimlarini rivojlantiradi, o'tmishda va bugungi kunda buyuk rassomlar tomonidan yaratilgan san'at asarlari go'zalliklarini ko'ra bilishga, tasviriy san'atdan maxsus bilim va malakalarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga tasviriy san'atning nazariy asoslari, rangtasvir, qalamtasvir, kompozitsiya, san'at tarixi, plastik anatomiya, haykaltaroshlikdan bo'yicha keng va chuqur bilimga ega bo'lish. Manzarali, mavzuli kompozitsiya yaratish, odam shaklini turli harakatlari va kiyimlarda tasvirlash usullari, haykaltaroshlik, dizayn san'ati haqidagi ko'nikma va

malaka hosil qilish, kasb-hunar maktabi o'quvchisi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san'at ta'limi kasb-hunar maktablarida maxsus fanlardan biri hisoblanadi va o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi: (3-jadval)

3-jadval

№	Kasb-hunar maktablari vazifalari
1.	O'quvchilarni tasviriy va amaliy bezak san'ati, me'morlik asoslari bilan tanishtira borib, ularda ushbu san'at turlarining o'ziga xos xususiyatlarini idrok etishga o'rgatish vositasida, ularni badiiy fikr doirasini kengaytirish;
2.	O'quvchilarga tasvirlash asoslarini chuqur o'rgatish, amliy ishlarni amalga oshirishda badiiy ijodiy, kuzatish qobiliyatlarini shakllantirish;
3.	O'quvchilarning tasviriy-ijodiy malakalarini shakllantirish; ularning badiiy didini tarbiyalash, borliq va san'atdagi klassik va hozirgi zamon san'at go'zalliklarini ko'ra bilishga o'rgatish;
4.	O'quvchilarda ko'rish xotirasini, chamalash qobiliyatini, rang sezishni, kompozitsion madaniyatni, fazoviy fikrlash, obrazli tasavvur va kombinatsiyalash kabi xususiyatlarni rivojlantirishdan ibodatdir.

Kasb-hunar maktablari tasviriy san'at darslari o'quvchilarga bizni o'rab turgan borliqni, hayotni kuzatishga, bilishga yordam beradi. O'quvchilar natura rasmini chizishga kirishdan avval ularning tuzilishi shakli, o'lchovlari, rangi, perspektiv qisqarishini, fazoviy holatlarini o'rganadilar, ularni tahlil qiladilar, tasvirlaydilar. Shu qatori jonli narsalarni ham kuzatadilar, ularni o'rganadilar, tahlil etadilar, ularning hayoti haqida ham tasavvurga ega bo'ladilar, natijada bolalarning tirik dunyo haqidagi tasavvurlari, xotiralari rivojlanadi.

Tasviriy san'at fanidan ta'lim jarayonida qo'yiladigan beriladigan topshiriqlar o'quvchilarni individual, betakror o'z shaxsini, aqliy imkoniyatlarini namoyon etishga yo'llaydi. O'quvchilar o'quv topshiriqlarini bajarishda o'zlarini ijodkor-rassom bo'lishiga intilishadi.

Kasb-hunar maktablari tasviriy san'at dasturida Vatanimizning buyuk o'tmishi, ma'naviy-madaniy merosi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, O'zbekistonning nafosatga to'la go'zal tabiati, xalqlar do'stligi, bag'rikenglik g'oyalarini ifoda etuvchi tasviriy san'at asarlari o'rganiladi. Bu san'at asarlarini o'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlarida tasviriy san'at asoslarini shakllantiradilar. Yuqorida qayd qilingan mavzular asosida amaliy tasviriy san'at turlarida ijod etishadilar, O'zbekistonning rango-rang mevalari, gullaridan natyurmort janrida rasmlar tasvirlaydilar, natijada, Vatan tug'usi, o'z xalqiga nisbatan mehr - muhabbat, milliy g'urur sifatlar shakllantiriladi.

Har bir bolada u yoki bu hunarga, ilmga, ma'lum o'zlarini qiziqtirgan kasbga havasi bo'ladi. Bu havas har doim har bir bolada ochiq namoyon bo'la olmaydi, ayrimlarida yaqqol sezilsa, boshqalarida yashirinchan bo'lishi mumkin. Shuning uchun maktab jamoasining, har bir o'qituvchi, tarbiyachining asosiy vazifasi har bir boladagi mavjud yashirincha havasni rivojlantirish, uni ro'yobga chiqarish, ularni san'atni tushunishga o'rgatishdan iborat.

Tasviriy san'at ta'limi, bu o'quvchilarning ko'ngil ochuvchi o'quv predmeti emas, balki bolalarga badiiy estetik didni, ijodkorlikni, individual psixologik va fiziologik xususiyatlarni rivojlantiruvchi, shuningdek hayotni bilishga, uni kuzatishga, yaxshilikni yovuzlikdan farqlashga o'rgatuvchi o'quv fani sifatida qarashimiz lozim.

Takrorlash uchun savollar:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limining maqsadi nimada?
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at vazifalarini sanab o'ting?
3. O'quvchilar tarbiyasida tasviriy san'at faning o'rni qanday?
4. Tasviriy san'at darslari o'quvchilarning psixologik ruhiyatiga qanday ta'sirlarni ko'rsatadi?
5. Nima uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atdan haddan ziyod og'ir topshiriqlarni berish to'g'ri kelmaydi?
6. Ixtisoslashtirilgan maktablarda tasviriy san'at fanining o'tilishi.
7. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi qanday xislatlarga ega bo'lishi lozim?
8. Maktabda o'quvchilarni tasviriy san'at darslarida jahon tasviriy san'at durdonalari bilan tanishtirishdan maqsad nima?

2.2. Tasviriy san'at fanining davlat ta'lim standarti mazmuni

Reja: 1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari davlat ta'lim standarti va uning mohiyati. 2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari tasviriy san'at fanlaridan o'quvchi bilimiga qo'yiladigan minimal talablar. 3. Davlat ta'lim standartini nazorat qilinishi. 4. Tasviriy san'at fanidan davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etilishi.

Tayanch iboralar: Standart, hujjat, mashg'ulotlar mazmuni, o'quv soati, minimal bilimlar, ko'nikma, malaka.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdagi qaroriga asosan 1999-2000 - o'quv yilidan boshlab barcha fanlar qatori tasviriy san'at bo'yicha ham davlat ta'lim

standarti joriy etildi. Umumiy oʻrta taʼlim maktablari davlat taʼlim standartlarini ishlab chiqish, eng avvalo, Oʻzbekistonning mustaqillikka erishganligi va jahon hamjamiyatiga faol kirib borishi bilan bogʻliq.

Ayni paytda har bir fan, jumladan, badiiy-estetik fanlar boʻyicha davlat taʼlim standarti yaratilgan, hukumat tomonidan tasdiqlangani katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega boʻlgan voqeadir. Bu standartlar Oʻzbekiston tarixida ilk bor yaratilgan boʻlib, respublikamiz maktablarida taʼlimni yuksak ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish va jahon andozalari darajasiga olib chiqish uchun sharoit yaratadi.

Standart maktablarda taʼlim ishlarini boshqaradigan tashkilotlar uchun asosiy hujjat boʻlib xizmat qiladi. U nafaqat davlat tomonidan belgilangan talablarini toʻgʻri va benuqson bajarish imkonini beradi, balki amaliyotda qoʻllanilayotgan dasturlar, darsliklar va oʻquv-metodik qoʻllanmalardagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish, shuningdek, unga qoʻyiladigan talablar darajasini belgilash imkonini beradi. Davlat taʼlim standartiga muvofiq umumiy oʻrta taʼlim maktablarida tasviriy sanʼat fani mazmuni quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha tavsiflanadi (4-jadval):

4-jadval

№	Sinflar	Mashgʻulotlar mazmuni
1.	1-4 sinf	Borliqni idrok etish.
2.	1-4 sinf	Badiiy qurish-yasash.
3.	1-4 sinf	Naturaga qarab tasvirlash.
4.	1-7 sinf	Kompozitsion faoliyat.
5.	1-7 sinf	Sanʼatshunoslik asoslari
6.	1-7 sinf	Naturaga qarab tasvirlash.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich sinflarda to‘rt yo‘nalishda, beshinchi-yettinchi sinflarda esa u uch yo‘nalishda o‘z aksini topgan.

Tasviriy san‘at fanini o‘qitishda har bir o‘qituvchi ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha nimalarga e‘tibor qaratish kerakligini bilishi kerak. Tasviriy san‘at fanini o‘qitishda o‘qituvchi e‘tibor berishi kerak bo‘lgan asosiy jihatlar (5-jadval):

5-jadval

	Mazmuni
1.	O‘quvchilarni atrof-muhitdagi, borliqdagi va san‘at asarlaridagi nafosatni ko‘rish, idrok etish, undan bahramand bo‘lishga va qadrlashga o‘rgatish.
2.	O‘quvchilarni ijodiy, mavhum, mantiqiy fikrlashga yo‘naltirish, ayniqsa, ularning ijodi va tasavvurlarini rivojlantirish.
3.	O‘quvchilarda kuzatish, ko‘rish xotirasi, idrok etish, fazoviy tasavvur kabi inson uchun muhim sifatlarni rivojlantirish.
4.	Tasviriy, amaliy va me‘morchilik san‘atidan nazariy, lekin umumiy elementar bilimlarni berish.
5.	Tasviriy san‘atga qiziqishni shakllantirish va mehrni tarbiyalash.
6.	Tasvir, haykal va naqsh ishlash bo‘yicha tasvirlashning malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish.
7.	Estetik didni tarbiyalash va rivojlantirish.

Bu vazifalar maktabda tasviriy san‘at darsini o‘tayotgan har bir o‘qituvchi mutaxassis bo‘lishini taqozo etadi. Chunki, davlat ta‘lim standart mazmuni professional o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan.

Tasviriy san‘at fani davlat standarti tasviriy, amaliy va me‘morchilik san‘atining mazmunini o‘zida aks ettirib, birinchi

navbatda milliy o'zbek san'ati, uning badiiy an'analari, taniqli o'zbek tasviriy, amaliy va me'morchilik san'ati ustalarining hayoti va ijodini qamrab oladi. O'zbekistonda tasviriy san'atning turlari, O'zbekistonning madaniy markazlari, yirik san'at muzeylarini bilish tasviriy san'at fanining vazifalaridan biri ekanligini qayd etadi. Shu bilan birga Qadimgi Misr, Yunoniston, Hindiston me'morchiligi, Afg'oniston, Iroq, Turk miniatyuralari, Yevropa Uyg'onish davri tasviriy san'ati, g'arbiy rivojlangan mamlakatlarning zamonaviy tasviriy va me'moriy san'ati namunalarini o'rganmay, bilmay turib, yoshlarimiz madaniyatli inson bo'lib yetisha olmasligi mumkin.

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq, boshlang'ich 4-sinfni tugatgan o'quvchilar bevosita quyidagilarni bilishlari kerak (6-jadval):

6-jadval

№	Mazmuni
1.	Tasviriy san'at fani darslarida ishlatiladigan ish qurollari va materiallar - albom, qalam, mo'yqalam, stek, cho'tka, palitra, guash, akvarel bo'yoqlari;
2.	Rang nomlari - oq, qora, qizil, sariq, ko'k, yashil, tilla, binafsha, ko'k, jigarrang, kulrang, och qizil, to'q qizil, moshrang, sabza, pushti, qirmizi, pistoqi, lojuvard;
3.	Tasviriy san'at darslarida qo'llaniladigan o'quv qurollarini to'g'ri ishlata olish malakalari;
4.	15 ga yaqin rassom va haykaltaroshlarning ism-shariflari, ularning yaratgan asarlarining nomlarini;
5.	Loydan yasalgan 4-5 ta xalq o'yinchoqlar va kulolchilik buyumlarni yaratuvchi kulollarning nomi va familiyasi;
6.	Asosiy va qo'shimcha ranglar, xromatik va axromatik ranglar, issiq va sovuq ranglar;
7.	Naqsh turlari - chiziqli naqsh, kvadrat naqsh,

	to'g'rito'rtburchak naqsh, aylana naqsh;
8.	Amaliy san'atda qo'llaniladigan naqsh nomlari - barg, dubarg, se barg, oyigul, bodom, shobarg, paxtagul;
9.	Amaliy san'atda qo'llaniladigan atamalar - rassom, rang, chizma, shakl, aplikatsiya, ritm, simmetriya, assimetriya, tasvir, format;
10.	Badiiy qurish-yasashda ishlatiladigan - badiiy, tabiiy va tashlandiq materiallar.

Boshlang'ich sinflarning to'rtinchi sinfini tamomlagan o'quvchilar quyidagi ko'nikma va malakalarni egallashlari kerak:

Oddiy qalam, mo'yqalam, qaychi stek bilan ishlash qobiliyati; tekis, egri va og'ma chiziqlarni chizish; oddiy narsalarning shaklini qalam, mo'yqalam steklar bilan tasvirlay olish; ma'lum o'lchamdagi chiziqni bir nechta teng qismlarga bo'lish; akvarel va guash bo'yoqlaridan to'g'ri foydalana olish - bo'yoqni eritib aralashtirish; asosiy ranglarni aralashtirish orqali hosila ranglarini olish; oddiy naqsh chiza olish; tabiat hodisalarini (fasllar, ob-havo), qushlar, hayvonlar va odamlarni o'ziga xos va harakatchan holatida tasvirlab bera olish; turmush va manzara janrlarida elementlarni aks eta olishi, tasavurga ega bo'lishi (yoqdi, eng ko'p yoqdi, yoqmadi); loy va plastilin, tabiiy, badiiy va chiqindi materiallar bilan ishlay olish; qog'ozning belgilangan yuzasini tekis bo'yash; tabiat manzaralarining go'zalligini idrok etish va zavqlanish; haykal ustida ishlashda ulardagi obrazlarini bir-biriga nisbatan to'g'ri tasvirlash; loydan yasalgan o'yinchoqlarni guash bo'yoq bilan bo'yash; tasvir bilan ishlashda qog'ozning to'g'ri hajmi va formatini olish; atrofdagi tabiat manzaralari va mehnat jarayonlarining go'zalligini ko'rish va zavqlana olish; taklif etilayotgan ertak va hikoyalar mazmuniga ko'ra rasm va haykaltaroshlik buyumlarini ishlash; yo'lsimon, kvadrat,

to'rtburchak, doira shaklidagi naqshlarni ijodiy ishlay olish; naqsh kompozitsiyalarini ishlashda geometrik va o'simlik elementlardan erkin foydalana olish; rasmdagi narsa va hodisalarning fazoviy holatini tasvirlay olish; bola o'zi yasagan haykal uchun dekorativ elementlarni tasvirlashi; mavzu asosidagi rasm ishlashda kompozitsiyaning asosiy va qiziqarli elementlarini joy, hajm va rangga bo'lish orqali tasvirlash.

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq 7-sinfni tugatgan o'quvchilar bevosita quyidagilarni bilishlari kerak (7-jadval):

7-jadval

Tasviriy san'at yuzasidan	
1.	Rangtasvirchi rassomlar ishlatadigan asosiy ish qurollari va materiallari: molbert, eskiz albomi, xolst, qalam, mo'yqalam, mastika, bo'yoqlar (moy, akvarel, guash va boshqalar), pastel, sous, ko'mir, sanina va boshqalarni;
2.	Haykaltaroshlar tomonidan ishlatiladigan asosiy ish qurollari va materiallari: dastgoh, bolg'a, steck, loy, tosh, yog'och va boshqalarni;
3.	Grafik rassomlar ishlatadigan asboblari va materiallar: molbert, eskiz albomi, xolst, qalam, mo'yqalamlarni.
4.	Rangtasvirda qo'llaniladigan atamalar: natura, fon, perspektiva, chiziqli perspektiva, rang perspektivasi, havo perspektivasi, ufq chizig'i, eskiz, yorug'lik, soya, refleks, shaxsiy soya, tushuvchi soya, janr, kompozitsiya, reproduksiya, avtoportret, freska, mozaika, vitraj, dastgohli rasm, miniatyura, monumental rangtasvir, dekorativ rangtasvir, ranglama, etyud, slayd, kolorit, gamma, klassik san'atni;
5.	Haykaltaroshlikda qo'llaniladigan ayrim atamalar: dastgohli, monumental, dekorativ, mayda plastik haykaltaroshlik, relef, gorelef, barelef, istirohat-bog' haykaltaroshligi, real

	haykaltaroshlikni;
6.	Grafikada qo'llaniladigan asosiy atamalar - gravyura, linograyura, litografiya, ksilografiya, estamp, gazeta jurnal grafikasi, karikatura, plakat, zarhal harf, boshbezak, yakuniy bezak, zarvaraq, illyustratsiya, etiketka, upakovkani;
7.	O'zbekiston hududidan topilgan eng qadimiy rangtasvir va haykaltaroshlik namunalari, O'zbekiston va jahonning 5-6 nafar jahonga mashhur rassomlarining hayoti va ijodini;
8.	Tasviriy san'at janrlari - manzara, portret, afsonaviy, turmush, natyurmort, tarixiy, batal, animal, marinani;
9.	Rang nomlari - barikaram, gulnor, nilgun, siybob, malla, sadaf, lojuvard, shingob, novvoti, ahmar, to'tiya, firuza, novshadil, totigul, nilobi, tilla hal, kumushrangni;
10.	50-60 nafar rassom, haykaltarosh, grafik rassomlarning ismi va familiyasi, ularning asarlari nomlarini;
11.	Tasviriy san'atning asosiy yo'nalishlari, Sharq miniatyura rassomligi maktablari, Movarounnahr miniatyura rassomchilik maktabi, O'zbekiston va jahonning mashhur san'at muzeylarini.
	Amaliy-bezak san'ati yuzasidan
12.	Amaliy bezak san'ati ustalarining asosiy ish qurollari va ularning ishlatadigan materiallarini: amaliy san'atda qo'llaniladigan ayrim atamalar - naqqoshlik, o'ymakorlik, yog'och o'ymakorligi, misgarlik, kashtachilik, sopoldo'zlik, zardo'zlik, ko'pbarg, chinnigul, gullola, bodomgul, marg'ula, gulsafsar, qo'shband, stilizatsiya, islimiy, girix, gulli girix, namoyon, ochiq naqshlar, cheksiz naqshlarni;
13.	O'zbekiston xalq amaliy san'atini rivojlantirish markazlari, Toshkentdagi O'zbekiston xalq amaliy san'ati muzeyi, 10-15 ta mashhur amaliy san'at va hunarmand ustalarining ismi

	va familiyasi, 3-4 ta jahonga mashhur amaliy san'at ustalarining hayoti va ijodini;
	Me'morchilik san'ati yuzasidan
14.	Me'morchilikda foydalaniladigan asosiy asboblari va materiallarni;
15.	Me'morchilikda ishlatiladigan ayrim atamalarni - me'mor, jome, minora, rovoq, mezana, ark, gumbaz, maket, muqarnas, navo, koshin, maqbara, mehrob, peshtoq, poydevor, vassa (toqi), poyustun, ehrom, order, gotika, romantizm, barakko, klassitsizm, renessans, registron, inter'er, ekster'erni;
16.	O'zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi me'morchilik obidalarini - Afrosiob, Varaxsha, Bolaliktepa, Tuproqqal'a va boshqalarni;
17.	O'zbekistonning IX-XIX asr asrlari va hozirgi kundagi mashhur me'morchiligini;
18.	Qadimiy va zamonaviy dunyoga mashhur arxitektura. Me'morchilikda ijod etayotgan 10-15 nafar me'morning ismi va familiyasi. Jahonning 2-3 mashhur me'morlarning hayoti va ijodini;

Yettinchi sinfni tugatgan o'quvchilar quyidagi ko'nikma va malakalarni egallashlari kerak:

- atrof-muhit rang-barang shakllarga nihoyatda boy va go'zal ekanligini his qilish: tasvirlangan obyektlarning shakli, tuzilishi, rangi, hajmi, fazoviy holatini mustaqil tahlil qila olish;

- tasviriy san'at asarlarini idrok etish va ularni sodda tahlil qilish (mazmun, g'oya, ifoda vositalari);

- har bir tasviriy san'at asari san'atning qaysi turi va janriga mansubligini mustaqil aniqlay olish;

- 2-3 ta elementdan iborat natyurmort janrida ishlash;
- yorug‘-soya, rang va perspektiva qonunlariga ko‘ra tasvirlay olish;
- mavzu bo‘yicha rasm chizish uchun qiziqarli mazmun tanlay olish;
- adabiy asarlar uchun Sharq mo‘‘jaz rangtasviri uslubida chiza olish;
- haykaltaroshlikda odamlar, hayvonlar va narsalarning tuzilishi, shakli va ularning xarakterli belgilarini, o‘lchamlari va nisbatlarini ko‘ra bilish;
- haykal yasashda hayvonlar va odam shakllarining xarakterli xususiyatlarini tasvirlay bilish;
- loydan yoki plastilindan odamlar va hayvonlarni shakli, hajmi va nisbatlarini hisobga olgan holda modellashtirish;
- harakatdagi odamlar va hayvonlarning haykallarini yasay olish.
- amaliy san‘at predmetlarining eskizi ustida ishlashda ularning vazifasi, shakli va dekorativ birligini tavsiflash;
- amaliy bezak ishlarida aktual shakllarni stilizatsiya qilish;
- iliq va sovuq ranglarda badiiy va bezak ishlarini bajarish;
- bir nechta ranglarni aralashtirish orqali murakkab rang kombinatsiyalarini yaratish;
- arxitektura inshootlarini dastlabki loyihalash ustida ishlash;
- rang va havo perspektivaga asoslangan mavzuli rasmlar tasvirini ishlash;
- qalamtasvirda natura shakliga mos chiziqlar bilan narsalarning tasviri;
- ranglamalar, qoralamalar ishlash.³

Tasviriy san‘at yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan majburiy minimal talablar davlat ta’lim standartida

³ Hasanov R. Maktabda tasviriy san‘atni o‘qitish metodikasi. -T.: Fan. 2004.-250 b.

belgilangan. Buni o'qituvchi to'liq bajarishi kerak. Lekin o'qituvchi bu bilan cheklanib qolmasligi va uni chuqurlashtirishga harakat qilishi kerak. Biroq, ta'lim mazmunini yanada yuqori bosqichga olib chiqish uchun bolalarga ortiqcha talablar qo'yish, ularni qiynash kerak emas. Maktablarimizning nomi umumta'lim maktabi deb atalishini unutmasligimiz kerak. Shunday qilib, maktablarimizda umumiy, asosiy bilim va ko'nikmalar berilishi kerak.

Takrorlash uchun savollar:

1. Davlat ta'lim standartining mohiyati nimada?
2. Davlat ta'lim standartining tasdiqlanishi ahamiyati nimada?
3. Davlat ta'lim standartining maqsadi.
4. Davlat ta'lim standartiga muvofiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fani mazmuni qaysi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda?
5. Tasviriy san'at fanini o'qitishda o'qituvchi e'tibor berishi kerak bo'lgan asosiy jihatlar qaysilar?
6. Boshlang'ich sinflarning to'rtinchi sinfini tamomlagan o'quvchilar qanday ko'nikma va malakalarni egallashlari kerak?
7. Yettinchi sinfni tugatgan o'quvchilar qanaqa ko'nikma va malakalarni egallashlari kerak?
8. Tasviriy san'at fani davlat standarti mazmunida nimalar aks etgan?

2.3. Tasviriy san'at fanini o'qitishda didaktik prinsiplar

Reja: 1. Ta'lim sohasidagi islohotlar asosidagi mavjud prinsiplar. Didaktikaning shakllanishi va uning tarixiy rivojlanishining tasviriy san'at fanini o'qitishdagi ahamiyati. 2. Tasviriy san'at fanini o'qitishda didaktik prinsiplarning o'ziga xos

xususiyatlari. 3. Ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi. 4. Ilmiylik prinsipi. 5. Onglilik va faollik prinsipi. 5. Ta'limni o'quvchilarning yoshi va kuchiga mosligi prinsipi. 6. Muntazamlilik va ketma-ketlik prinsipi.

Tayanch iboralar: Didaktika, pedagog, ta'lim, tarbiya, ongli, tamoyil, prinsip, sinf, dars, ilmiy, ko'rgazma, muntazam.

Didaktikaning shakllanishi va uning tarixiy rivojlanishi. Inson zoti borki, u o'z faoliyatida ma'lum darajada hayotiy tajribaga ega bo'ladi va bu tajribani keyingi avlodlarga o'tkazadi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ta'lim-tarbiya aqliy va jismoniy turlarga ajralgan. Quldorlik jamiyatida bolalarga inshootlar qurish, yerni o'lchash, ekinlarni hisobini olish, odamlar bilan muomala qilish kabi ko'nikmalar berilgan. Davlat



**42-rasm. Ya. A. Komenskiy
(1592-1670)**

maktablari birinchi marta Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. Bu maktablarda bolalar 7 yoshdan o'qishni boshladilar. 18 - 20 yoshli o'quvchilardan bilim va yaxshi malakaga ega o'quvchilar yuqori bosqichli maktablariga o'tkazilgan. Bu bosqichda o'quvchilarga harbiy fan, falsafa, notiqlik fanlari o'rgatilar edi. O'rta asrlarda maktablar ancha takomillashtirildi. Bu davrda maktablar turli ma'lum

mazmundagi texnologiyalar asosida tashkil etildi. Bu maktablarda dunyoviy va diniy bilimlar, shu jumladan o'qish, matematika,

yo'zish, siyosat, adabiyot, falsafa, astronomiya kabi fanlar o'rgatilgan. XII-XIII asrlar diniy mavzudagi she'rlar mazmuni o'rgatadigan didaktika va texnologiyalar shakllandi. O'rta asrlarda Yevropadagi iqtisodiy taraqqiyot ham jamiyatda keng bilimga ega bo'lgan kishilarga ehtiyojni yuzaga keltirdi. Olimlar tashabbusi bilan tashkil etilgan qator mamlakatlardagi universitetlar tashkil topishiga olib keldi. Bu davrda G'arbiy Yevropada ham hunarmandlar maktabi, savdogarlar maktabi, cherkovlar maktabi kabi maxsus maktablar faoliyat ko'rsatgan. Bu maktablar kitobni o'qish, so'ngra uning mazmunini takrorlash texnologiyasidan foydalanishgani bizga ma'lum. Sharq mamlakatlarida VIII-asrdan boshlab maktablarda islom qonunlari o'qitila boshlandi. Bu maktablarda diniy ta'lim bilan birga dunyoviy ta'lim ham berilgan. Bu maktablarda o'qitish, yo'zish, xattotlik, arifmetika, geometriya, lug'at va imlo, notiqlik fanlari o'qitilgan.

XI-XVI-asrda G'arbiy Yevropada Fransiya, Italiya, Angliya, Shvetsariya, Chexiya kabi mamlakatlarda turli mazmundagi maktablar mavjud bo'lib, ulardagi ta'lim texnologiyasi ham turlicha edi. Faqat XVII-asrga kelib buyuk chex pedagog-olimi Ya.A.Komenskiy (1592-1670) haqiqiy dunyoviy maktablarni ilmiy asoslab berdi. (42-rasm) Ya.A.Komenskiy 1632-yilda "Onalar maktabi", "Didaktika", "Astronomiya", 1633-1638-yillarda "Buyuk didaktika" kabi ilmiy asarlari orqali sinf tizimida bolalarni o'qitish texnologiyasi va didaktik tamoyillarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Ya.A. Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning pedagogik asoslarini batafsil ko'rsatib berdi. "Buyuk didaktika" asarida didaktika - barcha mamlakatlarning shahar va qishloqlaridagi barcha o'g'il-qizlarning bilim olishi, axloqini oshirishi, butun hayoti uchun zarur bo'lgan hamma narsani sodda, qisqa, oqilona va

uyushqoqlik bilan o'rganish holatidir, deb yoritilgan. Ya.A. Komenskiydan keyin Jan-Jak Russo (1712-1778), Iogan Geynrix Pestalotsi (1776-1827), Adolf Disterveg (1790-1866), Konstantin Dmitrievich Ushinskiy (1824-1870) kabi Evropaning taniqli pedagog-o'qituvchilari didaktikani rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shishdi. Shuningdek, o'qitishning didaktik tamoyillarini ishlab chiqishda buyuk rus yozuvchisi L.N.Tolstoy (1829 - 1910), pedagog-olimlardan M.Danilov, I.Lemer, Ya.Babanskiy, I.Ogorodnikov, V.Bespalkolar ta'lim tizimi, o'qitish texnologiyasi va didaktik tamoyillarini ilmiy asoslab berishdilar.

XX asrga kelib, sinf-dars tizimi va uning o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va o'qitish usullari ishlab chiqildi va takomillashtirildi.

Bugungi kunda yangi pedagogik ta'lim texnologiyalari jahon maktablariga, jumladan, Mustaqil O'zbekistondagi umumiy o'rta ta'lim maktablariga ham to'liq kirib keldi. O'zbekiston mustaqillik yillarida yangi, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, ijodiy yetuk pedagog kadrlar tayyorlashni mamlakatimiz xalq ta'limining asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda. Bu vazifani amalga oshirish uchun mamlakatimizda 2020 yil "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Milliy o'quv dasturi kabi qaror va ko'rsatmalar ishlab chiqildi. Mamlakatimizda mazkur hujjatlar asosida maktabning barcha fanlari bo'yicha o'qitish kontseptsiyalari, Davlat standart va dasturlari yaratilib, pedagogik faoliyatga joriy etilmoqda.

Didaktika yunoncha "didaska" – "men o'rgataman" va "paideva" – "ta'lim beraman" so'zlari bilan sinonimdir. "Didaktika" so'zi ayni vaqtda o'qitish nazariyasini talqin etadi. (8-jadval) Xususan:

Sinf-dars tizimi asosida didaktika yotadi va har bir dars didaktik qonun-qoydalari va didaktik prinsiplarga asoslanadi. U normativ- huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgan va didaktik

talablarga javob beradi. U darsning barcha qismlari uchun ilmiy-pedagogik asoslarini beradi.⁴ Yuqoridagi barcha ko‘rsatmalar maktabda tasviriy san’at fanini o‘qitilishida amal qilinishi asosiy shartlaridan biridir.

8-jadval

Didaktika				
Ta’lim-tarbiya tizimi va uning ilmiy asosining nazariy qismidir.	O‘quvchilar uchun oson, ixcham, asosiy bilim-malaka berish tizimi hisoblanadi.	Ta’lim-malaka berishning tashkiliy shakli va, didaktik shart-sharoitidir.	O‘qitish va malaka oshirishning tashkiliy shakli; bilimlarni uzatishning didaktik shartidir.	O‘quvchilarga puxta, izchil, ilmiy, asosli, qiziqarli, tizimli, zamonaviy bilim va malaka berish.

Bugungi kunda ta’lim didaktikasi tasviriy san’at fanini o‘qitishning maqsadi va vazifasini belgilaydi, uning mazmun mohiyatini, ularni amalga oshirish qoidalarini ifodalaydi.

Ta’lim va tarbiyaning birligi prinsipi asosiy didaktik tamoyillardan biri bo‘lib, tasviriy san’atni o‘qitish jarayonida alohida ahamiyatga ega. Ma’lumki, bugungi kunda ta’limning asosiy qismlaridan biri o‘quvchilarni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalashdir. O‘. Tansiqboevning “Jonajon o‘lka”, N. Karaxanning “Oltin kuz”, X. Rahmonovning “May tongi”, Yu.Elizarovning “Natyurmot”, Z. Inog‘omovning “Choyga”, kabi asarlarida O‘zbekiston go‘zalligi yorqin aks ettirilgan. Maktab o‘quvchilarini ana shunday asarlar bilan tanishtirilsa, bolalarda

⁴ Oripov B.N.Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, didaktika va tasviriy san'at o'qitish metodikasi. - N .: "NamDU", 2012. - 124 b.

Vatanga bo'lgan ilk mehr-muhabbat kuchayadi Vatanga, yurtimizga muhabbat tuyg'ulari yanada ortadi.

Turli mavzularda kompozitsiyalar yaratish, boshqa millatlar va xalqlar hayotini aks ettiruvchi reproduksiyalar, xalq ertaklariga illyustratsiyalar namoyish etish orqali amalga oshiriladigan tasviriy san'at darslarida millatlararo totuvlik va baynalmilal tarbiya uchun katta imkoniyatlar ochadi. Asar mazmunini ochib berishga yordam beruvchi suhbatlar, turli millat va elatlarning obrazlarini tasavvur qilish bolalar ijodiyotini yuksaltirishga, tasavvurlarini boyitishga olib keladi.

Tasviriy san'at darslarida millatlararo do'stlik va totuvlik respublikamiz va xorijlik rassomlar tomonidan yaratilgan asarlar orqali amalga oshiriladi. Q.Husniddinxo'jaevning "Navoiy va Jomiy", P.Benkovning "Dugonalar", A.Abdullaevning "Shomahmudovlar oilasi", A.Tsiglintsevning "Mening uyim, sizning ham uyingiz", O'.Tansiqboevning "Issiqko'l oqshomi" va boshqa bir qator asarlari millatlararo totuvlik va do'stlik g'oyalarini o'zida aks ettirgani bilan ajralib turadi. Tasviriy san'at dasturiga yana boshqa bir qator jahon tasviriy san'at durdonalari ham o'rin olgan. Bularga Sharq va G'arbning qator mamlakatlari buyuk rassomlari. Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo, Rembrandt, Rubens, Kent, Pikasso, Matiss va boshqa xorijiy rassomlarning asarlari hamkorlik va do'stlik g'oyalarini amalga oshirishda boy materiallar qatoriga kiradi.

Tasviriy san'at asarlarini o'rganish orqali o'quvchilar xorijiy mamlakatlar xalqlarining mehnati va jasorati, tabiati, san'ati va madaniyati bilan yaqindan tanishadilar.

O'quvchilar mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tasviriy san'at darslari katta imkoniyatlarga ega. Bu masala tasviriy san'atning barcha turlariga tegishli rangtasvir, grafika,

haykaltaroshlik, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari darslarining mazmunida ko'rib chiqiladi.

Naturani o'ziga qarab tasvirlash jarayonida o'quvchilar kundalik hayotda qo'llaniladigan turli buyumlar, sabzavot va mevalar tasviri ustida ishlaydilar. Tabiat va naturani tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini predmetlar shaklining nafisligi, qismlarning mutanosibligi, mazmun, rang uyg'unligi, shakllarning uyg'unligi kabilarga qaratadi. Natijada o'quvchilarning tabiatga nisbattan hissiy-estetik munosabati oshadi.

O'zbek xalq amaliy san'ati bo'yicha dars-suhbatlarda o'qituvchi ularning turlari va ustalarning mehnat odob-axloqining xususiyatlari haqida gapirib beradi. Tasviriy san'at dasturida O'zbek xalq ertaklari va badiiy asarlarga illyustratsiyalar ishga alohida soatlar ajratilgan. Bulardan 3-sinfda "Ur to'qmoq" ertagi, 6-sinfda "Badiiy asarlarga illyustratsiyalar ishlash" mavzusida Li Galinaning "Ertaklarga ishlangan illyustratsiyalari", X.To'xtaboevning "Sariq devni minib" illyustratsiyalarini o'rganish ham o'rin olgan.

Kompozitsiya va borliqni idrok etish darslarida tabiatni kuzatish, uni rasmlarda tasvirlash bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqori badiiy saviyada yaratilgan tasviriy san'at asarlarini o'rganishda o'quvchilar ulardan estetik zavq oladilar. Asar kompozitsiyasining muvaffaqiyatli yyechimi, ranglar uyg'unligi, chinakam obraz bolalarni hayajonga soladi. Bu nafaqat estetik tarbiyani, balki bolalarning tasviriy san'atga qiziqishini tarbiyalashga ham bevosita bog'liqdir.

Ilmiylik prinsipi - eng asosiy didaktik prinsiplaridan biri bo'lib, u fan asoslarini chuqur o'zlashtirmasdan turib o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish mumkin

emasligini bildiradi. Boshqa o'quv fanlarida bo'lgani kabi tasviriy san'at darslarida ham bu tamoyil amalga oshiriladi.

Tasviriy san'at atrof-muhitni his qilishni, unda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarning xususiyatlarini bilishni talab qiladi. Shuning uchun tasviriy san'at darslarida o'quvchilardan chiziqli, havo, rang perspektivasi, rangshunoslik, yorug'-soya, kompozitsiya qonuniyatlari bilan tanishish talab etiladi. Shuningdek, tasviriy san'at darslarida o'quvchilar odamlar va hayvonlarning plastik anatomiyasi haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi va ushbu qonunlarni o'zlashtirishlari kerak bo'ladi.

Rassomlar kabi o'quvchilarda ham "Rassom husnihatini" bo'ladi, ya'ni har bir o'quvchining chizish uslubi bir-biridan farq qilishi mumkin. Ammo rasm yoki badiiy asarning qurilishi bir xil ilmiy asoslangan bo'lishi kerak. Bunda perspektiv qonuniyatlari, ufq chizig'i, kesishish nuqtasi, kuzatish nuqtasi, simmetriya, assimetriya, o'lcham, yorug'lik, soya, blik, rang munosabatlari, kontrast, refleks, rang gormoniyasi va boshqalar tasviriy san'atning asosini tashkil etadi.

Ilmiylik prinsipi dars davomida va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarga beriladigan barcha materiallar va ma'lumotlar ilmiy bo'lishini, maktab amaliyotida sinab ko'rilganligini, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishini talab qiladi.

Ko'rgazmalilik prinsipi - tasviriy san'at fanini o'qitishda narsa va hodisalarning mohiyatini tushunishga, uning xarakterli belgilari va qonuniyatlarini o'rganishga yordam beradi.

Sinfda yoki plenerda naturani o'rganish vaqtida o'quvchilarning kuzatish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

O'quvchilar kuzatuvchanlikni rivojlantirishda naturadan rasm chizish, uni kuzatish, taqqoslash, uning tuzilishi, hajmi,

shakllari va ranglarini o'rganadi. Tasviriy san'atning qoidalari aniq dalillar, misollar va tasvirlar bilan namoyish etilsa, o'quvchilar tomonidan material oson o'zlashtiriladi.

Boshqa o'quv fanlaridagi kabi tasviriy san'at fani bo'yicha sinfda o'quvchilarda tushuncha va tasavvurni shakllantirishda ko'rgazmalilik asosiy prinsiplardan biridir. Tasviriy san'at fanining borliqni idrok etish, badiiy qurish-yasash, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsion faoliyat, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida ko'rgazmalilik o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ko'rgazmali qurollar orqali illyustrativ rasm ishlash darslarida kishilarining hayoti va mehnati, tabiat va me'morchilik ko'rinishlari, mavzuga oid tabiat obyektlari ko'rsatiladi.

Ko'rgazmalilikdan darslarida tasviriy san'atdan oqim va yo'nalishlar, badiiy maktablar, mashhur rassomlar asarlarining reproduksiyalari, axborot kommunikativ texnologiyalarida tayyorlangan prezentatsiyalar, slaydlar, internet orqali tasviriy san'at xonalarida san'at muzeylarini namoyish etish mumkin.

Tasviriy san'at o'qituvchisi sinf doskasida mohirona rasm chiza olishi zarur. Sinf doskasida rasm chizish, o'quv materialini bosqichma-bosqich o'quvchilar ko'z o'ngida bajarib bera olish, darsning samaradorligini nihoyatda oshiradi.

Tasviriy san'at fanini o'qitishda o'qituvchi nutqi ko'rgazmalilik prinsipining ham asosiy mezonlaridan biridir. Masalan, narsaning o'ziga qarab rasm ishlashda, o'qituvchi qonun va tushunchalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Shuning uchun o'qituvchi nutqi ravon, tushunarli va mazmunli bo'lishi kerak.

O'qitishning ongli bo'lish va o'quvchilarning bilish faolligi prinsipi o'quv jarayonining ta'lim va tarbiyaviy rolini oshirishga olib keladi. Fan, texnika va madaniyat jadal rivojlanib borayotgan zamonaviy davrda ong tamoyilining ahamiyati o'rinli bo'lib hisoblanadi.

Bu prinsiplar o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni ongli, tushunarli o'zlashtirishni anglatadi. O'quvchilar bu bilimlarni ko'r-ko'rona o'zlashtirmasdan, balki bu ma'lumotlarning ma'nosini anglab yetganlaridagina ularning bilimlari chuqur va mustahkam bo'lib, o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanib qoladi. Bunga erishish uchun, o'quvchilarning faol e'tibori va mustaqil ishi muhim ahamiyatga ega.

Yaratilgan tasviriy san'at asarlarida ilmiylik prinsiplaridagidek, ularda ham perspektiva, rangshunoslik, yorug'-soya qonunlari, plastik anatomiya haqida ba'zi bilimlarning mavjudligi bilan bog'liq. Bu qonuniyatlarni o'zlashtirmasdan turib, o'quvchilar tasviriy faoliyatini to'g'ri bajara olmaydi.

Tasviriy san'atdan qonuniyatlarning o'zaro bog'liqligini tushunish juda muhimdir. Qonuniyatlar o'rganayotganda, ularning rivojlanishi nuqtai nazaridan qarama-qarshilik sabablarini ham tushuntira olish kerak.

O'quvchilarning faolligini oshirishda maqsadli, muammoli topshiriqlardan foydalanish katta yordam beradi. Tasviriy san'atni o'qitishda olingan bilim va ko'nikmalar o'quvchilarni tasviriy savodxonligini shakllantiradi.

O'quvchilar atrof-muhitni tuzilishi, uni tushunish, hodisalarning sabablari, oqibatlarini ko'rishlari va bilishlari kerak. Bu dialektik fikrlash va xulosalarning shakllanishiga yordam beradi.

O'quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini faollashtirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida bilimlarni muammoli shakllantirish usulidan keng foydalanish hamda ilmiy va tadqiqot usullaridan foydalanish lozim.

Muntazam va ketma-ket bayon etish prinsipi boshqa fanlar qatori tasviriy san'at darslarida muhim ahamiyatga ega.

Ushbu prinsip o'quv materiallarining o'quv yili davomida mantiqiy tartibga solinganligini va har bir mavzu ilgari olingan bilim, ko'nikma va tajribaga asoslanishi, yangi materiallar esa oldingilari bilan bog'liq bo'lishi kerakligini anglatadi.

Tasviriy san'at davlat ta'lim standarti nafaqat materiallarning ma'lum bir ketma-ketlikda bajarilishini, balki uning muntazamligini ham nazarda tutadi. O'quv jarayonida bu muhim prinsipni to'g'ri baholay olish zarur. O'quvchilarga berilgan topshiriqlarda avval olgan bilim va ko'nikmalarni hisobga olish zarur. O'quvchilar vazifalarni bajarishda qiynchiliklarga duchor bo'lmasligi uchun ish rejalari shunday tuzilishi kerakki, o'quvchilar har bir darsda yangi masalalarni yechishi kerak.

Tasviriy san'at darslarida narsaning o'ziga qarab tasvirlash, san'atshunoslik asoslari, kompozitsiya darslari bilan oson bog'lash mumkin. Tasviriy san'at mashg'ulot turlarining har birini bir-biriga bog'lab o'rgatish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bir o'quv predmetining boshqa o'quv fanlari bilan bog'lanishi tasviriy san'atni o'qitishda yagona tizimni o'rnatish imkonini beradi.

Masalaga bunday yondashuv bilan materiallarni taqdim etishda takrorlanish va qaytarilishga yo'l qo'yilmasligi zarur. Tasviriy san'at darslarida o'qituvchi o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lagan holda taqdim etishi zarur. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik o'quvchilarning barcha tasviriy san'at turlari va janrlari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, tasviriy san'atni o'qitishda uning barcha mashg'ulot turlarida ham o'rgatib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qitishning o'quvchilar yoshiga va kuchiga mos bo'lishi prinsipi berilayotgan bilim yoki o'zlashtirilayotgan

materiallarning murakkablik darajasi bolalarning yoshi va kuchiga mos kelishini nazarda tutadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ayrim o'qituvchilar 5-7-sinflarda ham 3-4 sinfdagi mavzulardan farq qilmaydigan kvadrat va doira ichidagi naqshlar ishlash, doskaga chizilgan tayyor rasmlarni yoki kitoblardagi tayyor illyustratsiyalarni ko'r-ko'rona ko'chirib chizib olishlarni davom etadilar. Bunday topshiriqlarning osonligi, ko'chirmachilik orqali o'quvchi oldiga qo'yilgan masalani hal etish, tasviriy savodxonlikni rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin. Biroq, vazifalarning haddan tashqari ko'p va murakkab bo'lishi ham yaxshi emas, birinchidan, bunday murakkablik bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini zaiflashtiradi, ikkinchidan, ularning rivojlanishini to'xtatadi.

Sinfda o'quvchilar individual psixologik va fiziologik va qobiliyat jihatidan bir-biridan farq qiladilar. Bu holat o'qituvchidan o'quvchilar bilan yakkama-yakka, individual yondashib ishlashni talab qiladi, ya'ni o'qituvchi bolalarning bilim va ko'nikmalar darajasini hisobga olgan holda turli xil murakkablikdagi vazifalarni berishi tavsiya etiladi.

O'quvchilarning yoshiga qarab o'qitish prinsipi qadim zamonlardan beri qo'llanilgan. U yaqindan uzoqqa, ma'lumdan noma'lumga, oddiydan murakkabga, osondan murakkabga, konkretan mavhuma tamoyillariga asoslanadi. Pedagogikada bu tamoyil qadimdan sinovdan o'tganligi sababli o'qituvchining o'z faoliyatida ko'zlangan maqsadga erishish uchun shu yo'ldan borishiga asos bo'ladi. Vaqti kelganda shuni ta'kidlash kerakki, hamma oson narsalar ham tushunarli bo'layvermaydi. Bunda o'quvchilarning yoshi, pedagogik-psixologik xususiyatlari, bilim darajasi, tayyorgarligi, qobiliyatlari muhim o'rin tutadi.⁵

⁵ Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. -T.: Fan. 2004.-250 b.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, maktabda tasviriy san'at darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda didaktik prinsip tamoyillarga rioya qilish nihoyatda muhim masaladir. Didaktik prinsiplarini to'g'ri qo'llagan tasviriy san'at o'qituvchisi o'qitish jarayonida dars samaradorligini yuqori pog'onalariga ko'tarishi shubhasizdir.

Takrorlash uchun savollar:

1. Didaktik prinsiplar deganda nimani tushunasiz?
2. Didaktik prinsiplarining mohiyati nimada?
3. Tasviriy san'at ta'limida qo'llaniladigan qanday prinsiplarni tushunasiz?
4. Tasviriy san'atni o'qitishdagi didaktik prinsiplar qaysi pedagog-olimlar tomonidan ishlab chiqilgan?
5. Ta'lim va tarbiyaning borligi prinsipini qanday tushunasiz?
6. Ilmiylik prinsipining mazmuni nimalardan iborat?
7. Ko'rgazmalilik prinsipining mohiyati nimalarga asoslanadi ?
8. Onglilik va faollik prinsiplarini qo'llanilishi maqsadini yoriting.

2.4. Boshlang'ich 1-4 sinflarda va 5-7 sinflarda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi

Reja: 1. Milliy o'quv dasturida tasviriy san'at fani mazmuni.
2. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at fanini o'qitish mazmuni va (borliqni idrok etish, naturaga qarab rasm ishlash, rangtasvir, dekorativ va haykaltaroshlik kompozitsiyalari) o'qitish metodikasi. 3. 5-7 sinflarda tasviriy san'at mazmuni va (naturaga qarab tasvirlash, rangtasvir, dekorativ, haykaltaroshlik kompozitsiyasi, san'atshunoslik asoslari) o'qitish metodikasi.

Tayanch iboralar: O'quv dasturi, mashg'ulotlar, sinf, kompozitsiya, tasvirlash, amaliy san'at, badiiy loyihalar, dizayn san'ati, haykaltaroshlik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan o'rta umumta'lim maktablarini isloh qilish masalasi mamlakatimiz xalq ta'limi xodimlari oldiga mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish munosabati bilan xalq ta'limini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-134-sonli "2022 - 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish, deb belgilangan.

Milliy o'quv dasturida ushbu fanga 1 soat vaqt ajratilgan bo'lib, bu fanni tasviriy va amaliy san'at rassom-pedagoglari o'qitadilar. Bu o'quv fani har bir sinfga yiliga 34 soat vaqt ajratilgan. Bu rejalar o'quvchilarga zamon talablari darajasida grafik bilim va ko'nikmalar berish, o'quvchilarni har tomonlama takomillashtirish va ularga yuksak estetik tarbiya berishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at fanini o'qitish mazmuni va metodikasi. Ta'lim – tarbiya nazariyasidan ma'lumki, umumiy o'rta ta'limning asosiy bosqichi boshlang'ich 1-4-sinflar maktab davri bo'lib, aynan shu davrda bola asosan shakllanadi. Bu davrda bola jismonan, aqliy va ruhiy jihatdan juda tez rivojlanadi. Aynan shu davrda bolalar barcha bilim asoslarini o'rganadilar va turli fanlar bo'yicha asosiy ta'lim oladilar. Shu bilan birga, ular atrof olamni juda tez o'rganadilar, bu dunyoni ko'radilar, kuzatish asosida dastlabki tahlillar qiladilar, atrof

muhitni o'rganadilar. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan fanlarni chuqur o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

1-sinf o'quvchisi uchun tasviriy san'at fanidan, oddiy chiziq nima, uni qanday chizish, shakl nima, u qanday tasvirlangan, naturadan olib, uni daftar yuzasiga tasvirlash; barglar, o'simliklar, daraxtlar, qushlar va hayvonlar, ularning tuzilishi va ranglari haqida asosiy bilimlar beriladi. 1-sinf o'quvchilari avval sxematik tasvirlar, alohida obyektlar, so'ng asosan xotiradan "xayolan" kompozitsiyalar ishlaydilar. Bolalar obyektlarning asosiy rangi va shaklini yetkazishga, o'lchamlari bo'yicha taqqoslashga, ular chizgan rasmlari "chiroyli" bo'lishiga harakat qilishadi.

Bu jarayon 2-3 va 4-sinflarda ham davom yetib, takomillashib boradi. Yangi milliy o'quv dasturi boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at dasturiga grafika, haykaltaroshlik, rangtasvir, kompozitsiya kabi turlari kiritilgan. 2022 yilgi Milliy o'quv dasturida 1 va 2-sinflar uchun 1-choragi 9 soatdan iborat bo'lib, uning 1-bobi "Grafika" deb nomlanadi, 2-chorak 7-soatdan iborat bo'lib, uning 2-bobi "Haykaltaroshlik" deb nomlangan. 3-choragi 10 soatdan iborat bo'lib, bu bob "Rangtasvir" deb nomlanadi, 4-chorakda 8 soat ajratilgan bo'lib, bu bob "Kompozitsiya" deb ataladi. (9-jadval)

9-jadval

Chorak va soatlar	Avvalgi o'quv dasturi mazmuni	Milliy o'quv dasturi mazmuni
1-chorak (9 soat)	I. Bob. Borliqni idrok etish	I bob. Grafika
2-chorak (7 soat)	II. Bob. Tasviriy san'atning ifodaviy vositalari	II bob. Haykaltaroshlik
3-chorak (10 soat)	III. Bob. Naturaga qarab tasvirlash va haykal ishlash	III bob. Rangtasvir

4-chorak (8 soat)	IV. Bob. Kompozitsion faoliyat	IV. Bob. Kompozitsiya
----------------------	-----------------------------------	--------------------------

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 1 va 2 sinf darsliklarida avvalgi va yangi milliy o‘quv dasturlari asosida tasviriy san’at fanining dasturi mazmunida o‘zgarishlar keltirilgan. (10-jadval)

Milliy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan 1 va 2 sinf darsligida grafika (qalam bilan chizish), haykaltaroshlik, rangtasvir, kompozitsiya kabi 4 ta yo‘nalish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar berish rejalashtirilgan. Ushbu yo‘nalishlarning o‘quv-tarbiyaviy vazifasi: san’atshunoslik asoslaridan (faoliyatidan); 2) tasviriy faoliyat (naturaga qarab va tasavurlar asosida rasm ishlashdan); 3) kompozitsiya faoliyati (mavzuli va dekorativ kompozitsiya) dan iborat bo‘ladi. Bu vazifalarning bajarilishi rangtasvir, qalamtasvir (grafik), haykaltaroshlik mashg‘ulotlari mazmunida o‘z ifodasini topadi.

1-2-sinflarda badiiy asarlarni o‘rganish uchun alohida dars vaqti bo‘lmasa-da, bir nechta tasviriy san’at asarlari darslarda alohida tahlil etiladi va ko‘rib chiqiladi. Ikkinchi sinfda 2 soat suhbat o‘tkaziladi. Bunda “Chiziq turlari”, “Qiziqarli shakllar”, “Rang va gullar” mavzulari o‘rganiladi. Bu mashg‘ulotlarda o‘qituvchi bolalar bilimiga, yoshiga qarab tasviriy san’at asoslari bo‘lmish, chiziq, shakl va rang haqida umumiy elementar, bilimlarni beradi. Unda atoqli rassomlarning manzara, portret, turmush janrida yaratgan asarlari haqida ham qisqacha tanishtirilib o‘tiladi. Suhbatda tabiatda rang, ularning turlanishi, issiq va sovuq ranglar, san’at asarining yaratilishida ularning tutgan o‘rni, shuningdek, san’at asarlarining janrlarga, turlarga bo‘linishi, undagi ranglarning ishlatilishi haqida ma’lumotlar beriladi.

Milliy o'quv dasturi 1-4 sinf o'quvchilariga quyidagi bilim va ko'nikmalarni beradi:

1) borliqning go'zalligi, tuzilishi va ranglarini ko'rish va ularni ifodalash qobiliyati;

2) natura va obyektlarning qalamtasvir va rangtasvirlarini yaratish qobiliyati;

3) qog'oz, karton, yog'och, loy va plastilinda unchalik murakkab bo'lmagan mexanik buyumlarni ishlash ko'nikmalari;

4) tasviriy san'at asarlarining asosiy tahlilini o'tkazish, tasviriy san'atning so'z va atamalarini o'rgatish kabi asosiy o'quv vazifalarni.

Maktabda tasviriy san'at o'qituvchisi 1-2-sinflarda tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi va didaktikasini pedagogikaning asosiy prinsiplariga tayanadi. Shu bilan birga, dars materialini o'qituvchi tomonidan 1-2-sinf o'quvchilarining individual psixologik va fiziologik xususiyatlari, bolalarning qiziqishini hisobga olgan holda o'quv materiallarini tanlaydi.

3-sinflarda hajmli predmetlarni chizishni boshlaydilar. Uchinchi sinfda bolalarda idrok etish psixologik xususiyatining eng muhimi shakllanadi - bu atrofimizdagi dunyoni bilish, rassomning g'oyasini anglash va shundan hayotning o'zini chuqurroq bilishga harakatlari namoyon bo'ladi.

4-sinf o'quvchilari bo'yoq va mo'yqalamlar, grafik tasvirlash ashyolari bilan ishlashni faol ravishda o'zlashtiradilar, chiziq, nuqtalardan unumli foydalanishni o'rganadilar, ya'ni tasviriy san'at darslarida o'zlarini yanada ishonchli his qilishlariga imkon beradigan mahorat asoslari kurtaklarini o'zlarida ishlab chiqadilar. 4-sinfda tasviriy san'at darslari amaliy mashg'ulotlarida chiziq, kompozitsiya, shakl, hajm, fazo, natura haqida asosiy ma'lumotlarni berish davom ettiriladi.

5-7 sinflarda tasviriy san'at mazmuni va o'qitish metodikasi. Pedagogika nazariyasi va tarixidan ma'lumki, har bir darsning metodikasi jahon pedagogikasi tajribasiga asoslanadi. O'qitish usullarini to'g'ri tanlash birinchi navbatda tasviriy san'at o'qituvchisiga bog'liq. Har bir o'qituvchi o'qitishning didaktik tamoyillaridan kelib chiqib, dars materialini o'quvchiga oson, ixcham, ilmiy jihatdan yetkazishning eng samarali usulini tanlaydi.

5-7-sinf o'quvchilari tasvirning syujetli tomoniga ayniqsa kuchli e'tibor berishadi, badiiy asardan hayratda qolishadi. Bu yoshdagi o'quvchilarning ishlagan rasmlarida ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari rasmlariga xos bo'lgan ijodkorlik, samimiylik bo'lmasligi mumkin. Ammo ularning ishlarida ko'pincha real tasviriy san'at tilini tushunishga harakatlarini payqash mumkin. Bundan tashqari, 5-7 sinf o'quvchilarning turli darajadagi qobiliyatlari bu yoshda juda aniq namoyon bo'la boshlashadi. Bu hol 5-7 - sinflardagi ko'plab bolalarda tasviriy san'at bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy qiziqishlar, didlar va sevimli mashg'ulotlari allaqachon mavjudligidan dalolat beradi. Kompozitsiya darslarida har bir bolaga topshiriqning, mavzu asosida bir necha variantlarini ishlab chiqishini tavsiya etish mumkin. Badiiy qurish-yasash, naturaga qarab tasvirlash, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida, sinfdagi barcha o'quvchilar bajarayotgan topshiriqdan farqli, ularning qobiliyati, layoqatiga mos murakkablikda topshiriqni bajartirish mumkin. O'quvchilar uchun ishlab chiqilgan tasviriy san'at ta'lim mazmuni va metodikasi bilan bog'liq bo'lgan maxsus ko'rgazmali va didaktik materiallar bazasini yaratish lozim.

Yangi dasturga muvofiq tasviriy san'at darslari 5 - 7 - sinflarda darslar rangtasvir, grafika (qalamtasvir), haykaltaroshlik, arxitektura, amaliy va dizayn san'ati bo'yicha olib boriladi. Ushbu

darslarda o'quvchilar tasviriy san'at, amaliy san'at, badiiy loyihalar, dizayn san'ati, haykaltaroshlik va san'at asarlarini ham tahlil qiladilar. Shuningdek, ular qalamtasvir, rangtasvir, grafika va ularning janri, syujeti, kompozitsiyasi, hajm, fazo (perspektiv), chiziq, yorug'lik va soya, rang, ranglar uyg'unligi, dog', mazmun, shakl, g'oya haqida ma'lumot oladilar.⁶

Tasviriy san'atni o'qitishda og'zaki bayon, savol-javob, amaliy ishlarni tashkil etish va ko'rgazmali usullaridan foydalaniladi. Maktab tasviriy san'at kursining o'ziga xos jihati shundaki, darsda o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilayotgan rasm, buyum, hodisa yoki asar haqida og'zaki bayon yetib beradi.

Umumta'lim maktablarning 1-7-sinflarida tasviriy san'at darslarida pedagogik o'qitishning barcha turlari qo'llaniladi. 1-7-sinflarda natura, natyurmortlarni chizish va mavzuli kompozitsiyalar yaratish bo'yicha ishlarning mazmuni sinfdan-sinfga murakkablashib boradi. Bu esa o'qituvchidan dars davomida qo'llaydigan metodlarni o'zgartirib turishni talab qiladi. Lekin har bir darsda og'zaki bayon va savol-javob usulidan ham keng foydalaniladi.

Tasviriy san'at darslarini tashkil etishda didaktikani o'qitish, o'rganish, ilmiy, tizimli, izchil, dalillarga asoslangan, nazariya va amaliyotning birligi kabi tamoyillarga asoslanadi. Chunki o'qitishning barcha usullari, o'qitish didaktikasiga asoslanadi. Didaktika sinf-dars tizimining ilmiy asosi bo'lib, tasviriy san'atning har bir darsi fanlararo aloqa tamoyili asosida olib boriladi.

Fanlararo aloqa ilmiy, tizimli, amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlaydi, o'quv materialini boshqa o'quv fanlari bilan bog'laydi. Boshqa fanlardan olingan bilim va ko'nikmalarni

⁶ Oripov B.N.Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, didaktika va tasviriy san'at o'qitish metodikasi. - N. : "NamDU", 2012. - 124 b.

tasviriy san'at fanida qo'llashni o'rgatadi. Bu aloqa tufayli ular dars materialini osonroq o'zlashtiradilar.

Takrorlash uchun savollar:

1. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at mashg'ulotlari materiallarini o'ziga xos xususiyatlari nimada?
2. 1-4-sinf tasviriy san'at fanida nimalar o'rganiladi?
3. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atdan grafika yo'nalishida nimalar o'rganiladi?
4. Boshlang'ich sinflar tasviriy san'atdan rangtasvir yo'nalishida nimalar o'rganiladi?
5. Milliy o'quv dasturida 1-4 sinf o'quvchilariga tasviriy san'atdan qanday bilim va ko'nikmalar beriladi?
6. Boshlang'ich sinflarda kompozitsiya yo'nalishi mashg'ulotlari metodikasi qanday?
7. 5-7-sinflarda rangtasvir mashg'ulotlari metodikasi boshlang'ich sinflardagiga qaraganda qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
8. 5-7-sinflarda natyurmort ishlashda ko'proq nimalarga e'tibor beriladi?
9. 5-7-sinflarda tasviriy san'atning har bir darsi fanlararo aloqa tamoyiliga asoslanishi nimada?

2.5. Tasviriy san'at fanidan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baholash.

Reja: 1. Maktab o'quvchilariga tasviriy san'atdan beriladigan topshiriqlarning shakllari. 2. Sinf yoki auditoriyada va uyda bajariladigan topshiriqlarning o'ziga xos xususiyatlari. 3. O'quvchilarning bilim va malakalarini nazorat qilish va baholashning mohiyati. 5. O'quvchilar tasviriy faoliyatlarini nazorat qilish turlari.

Tayanch iboralar: Mashq, test, uy vazifasi, mustaqil ish, joriy, oraliq, yakuniy, so‘rov, ijodiy ish, yozma.

Tasviriy san’at fani bo‘yicha topshiriqlar. O‘quvchilarning tasviriy faoliyati o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlar asosida amalga oshiriladi. Bu topshiriqlar sinf va uy vazifalari shaklida ifodalanishi mumkin. O‘quvchilarning darsda bajaradigan ishlari ushbu darslikning “Maktabdagi tasviriy san’at darslari mazmuni” bo‘limida keltirilgan. Darsda bolalarga beriladigan topshiriqlarning mazmuni, asosan, yangi bilim va malakalar berish maqsadida amalga oshiriladi. (10,11-jadval) Dars davomida topshiriqlarning quyidagi ikki shakli ko‘pincha qo‘llaniladi.

10-jadval

Mashg‘ulot turlari:	Sinfda bajariladigan topshiriqlar mazmuni
Borliqni idrok etish mashg‘ulotlarida:	Yil fasllarida tabiatdagi o‘zgarishlarni;
	go‘zallikni, turli fasllardagi kishilarning mehnat jarayonlarini kuzatish;
	tabiat manzaralarining go‘zalligi;
	hayvonlarning hayotini ko‘rsatuvchi filmlarni tomosha qilish va o‘rganish;
	Kompozitsiya mavzusi yuzasidan borliqni, hayotdagi voqea va hodisalarni kuzatish.
Badiiy - qurish-yasash mashg‘ulotlarida:	o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mavzuda tabiiy, badiiy va tashlandiq materiallardan badiiy qurish ishlarini bajarish;
	avvalgi darsda boshlangan va yakunlanmay qolgan ishni davom ettirish;
	qurish-yasash ishlari uchun material to‘plash;
	qurish-yasash ishlari uchun tayyorgarlik

	bosqichini bajaruvchi rasm ishlash.
Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarida.	-Naturaga qarab rasm ishlash bo'yicha o'qituvchi tomonidan sinfda o'rnatilgan naturaning rasmini ishlash;
	Avvalgi darsda boshlangan va yakunlanmay qolgan ishni davom ettirish;
	Sinfda bajarilgan ishlarni ko'rgazmaga qo'yish uchun tayyorlash;
	Kelgusi darsda ishlanadigan mavzusi yuzasidan tayyorgarlik ko'rish.
Kompozitsiya mashg'ulotlarida.	O'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan yoki erkin mavzularda mustaqil ravishda kompozitsiyalar ishlash;
	Avvalgi darsda boshlangan va yakunlanmagan topshiriqni davom ettirish;
	Kompozitsiya mashg'ulotlari bilan bog'liq eskiz, ranglama va qoralamalar ishlash.
San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida:	Tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlarining nazariy asoslari, tarixi, san'atkorlarning hayoti va ijodi yuzasidan suhbatlar o'tkazish;
	O'quvchilarning o'zlari ishlagan rasmlari yuzasidan insholar yozdirish;
	San'atshunosliklikka oid krossvord, chaynvord yechish, viktorina o'yinlarini o'ynash.

11-jadval

Mashg'ulot turlari:	Uyda bajariladigan topshiriqlar mazmuni
Borliqni idrok etish	Yil fasllari davomida tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish;
	Yil fasllari haqida she'rlar yodlash;

mashgʻulotlari boʻyicha	Bahor, kuz faslidagi mehnatkashlarning mehnat jarayonlarini kuzatish;
	Yil fasllari va mehnat jarayonlari haqida, ularning goʻzalligi haqida insholar yozish;
Badiiy qurish-yasash mashgʻulotlari boʻyicha.	Mavzuga doir tabiiy, badiiy, tashlandiq materiallarni toʻplash;
	Sinfda boshlangan va yakunlanmay qolgan ishni davom etdirish;
	Sinfda bajarilgan mavzuda yangicha kompozitsiya ishlash;
Naturaga qarab rasm ishlash mashgʻulotlari boʻyicha.	Naturaga qarab qoralama, ranglama natyurmort va boshqa rasmlar ishlash;
	Turli materiallar (sangina, sous, pastel, ugol, retush v.b.) bilan mashqlar bajarish;
	Sinfda ishlangan mavzu boʻyicha uyda naturaga qarab rasmlar ishlash, dars uchun oʻquv qurollarini tayyorlash.
Kompozitsiya ishlash mashgʻulotlari boʻyicha.	Sinfda ishlangan mavzu boʻyicha yangi kompozitsiya ishlash.
	Ishlanadigan kompozitsiya mavzusi yuzasidan materiallar toʻplash;
	Kompozitsiya mavzusiga aloqador qoralama va ranglamalar ishlash;
	Kompozitsiya mavzusiga doir (tsirk, televidenie, musobaqalar, bayramlar, oʻyinlar, spektakllar, kinofilmlarda koʻrganlarni eslab kelish.
Sanʼatshunoslik asoslari mashgʻulotlari	Sanʼat asarlarining reproduksiyalari, fotolari, rasmlarini toʻplash;
	Sanʼat va sanʼatkorlar haqida kitoblar, hikoyalar, maqolalar oʻqish;

bo'yicha.	San'at va san'atkorlar haqida viktorina, chaynvord, krossvordlar yechish, to'qish, topishmoqlarni topish;
	Muzey, ko'rgazma va san'at yodgorliklariga borish.

O'quvchilar tasviriyl faoliyatini nazorat qilish. Maktabda tasviriyl faoliyat samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilarning muvaffaqiyatini nazorat qilishdan iborat bo'lib, u davlat ta'lim standartlari asosida amalga oshiriladi. Bu birinchidan, o'qituvchining faoliyatini baholash, ikkinchidan, bolalar tomonidan materialni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, bolalarning fanga qiziqishini oshirish, ular faoliyatidagi yutuq, no'qson va kamchiliklarni aniqlashga xizmat qiladi.

Tasviriyl san'at fanidan o'quvchilar faoliyatini nazorat qilib borish va baholash juda muhimdir. Chunki o'qituvchi tomonidan berilgan vazifalarni o'quvchilar ancha kuch va vaqt sarflab bajaradilar, ularni imkon qadar sifat darajasiga yetkazishga harakat qiladilar. Shuning uchun, o'qituvchi topshiriqlarni o'z vaqtida tekshirishi va qayd yetib borishi lozim. Topshiriqlarni nazorat qilishning quyidagi shakllari mavjud: joriy, oraliq va yakuniy nazoratdir.

Joriy nazorat muntazam ravishda har bir darsda nazariy yoki amaliy mashg'ulotlarda olib boriladi. U yangi materiallarni taqdim etish jarayonida, shuningdek, dars oxirida amalga oshiriladi. Yangi materialni tushuntirish jarayonida bolalarning darsdagi faolligi va berilgan topshiriqlarni bajarishga intilishi baholanadi. Nazoratning bu turida o'quvchining amaliy ishlarini baholash bevosita bolalar tomonidan bajariladigan tasviriyl ishlar (rasm, modellashtirish, loyihalash) asosida, nazariy bilimlarni

baholash esa savol-javob, suhbat shaklida amalga oshiriladi. Nazoratni shunday tashkil qilish kerakki, har bir bola chorakda kamida 4-5 ta baho olgan bo'lishi kerak. Shuni ham yodda tutish kerakki, haftada bir marta bir soatdan o'tkaziladigan tasviriylar san'at darslari bolalar faoliyatini to'liq nazorat qilish uchun yetarli emas. Eng kichik chorak olti hafta davom etadi va chorak oxirida har bir bola bitta baho olishi kerak. Natijada, choraklik baholari obyektiv chiqmasligi mumkin.

Har bir bolani amaliylar ishlarini har bir darsda nazorat qilish va baholashning imkoni bor. Ularni ma'lum qismini darsning boshlang'ich qismida, yangi mavzuni e'lon qilib va tushuntirib berilganidan so'ng, qolgan qismini dars davomida tekshirsa bo'ladi.

O'quvchilarning darsdagi faolligini baholash hamda qiziqishini oshirish maqsadida bajarilgan ishlarnigina emas, topshiriqlarni bajarishdagi faolligi, harakati uchun ham baholar qo'yish mumkin. Har qanday baho qo'yganda butun sinfni nima uchun shunday baho qo'yilganligidan xabardor etilsa, o'quvchilar baholanish mezonlarini tushunib etadilar.


Oraliq nazorat. Dastur yoki biron bir bo'limning tugashi, chorak yakunida oraliq nazorati o'tkaziladi. Oraliq nazorat amaliylar tasviriylar ishlarini, suhbat, savol-javob, test, insho, tahlil etish kabi shakllarda amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat baholarini qo'yishda o'qituvchi o'quvchilarni tasviriylar san'atdan xarakatlari, faolligi, yutuqlarini hisobga olishi lozim va u o'quvchilarni tasviriylar san'atdagi yangi ijodiy ishlarga ilhomlantiradi, baholarni obyektivligini ta'minlaydi.

Yakuniy nazorat. O'quv yilida o'quvchilarning tasviriylar faoliyatlari natijalarini aniqlash va umumlashtirish maqsadida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat baholari bolalarni choraklar, sinfdan

va maktabdan tashqari olib borgan ishlari, qayta tekshiruv natijalari, fanga qiziqishlari, faolligi asosida qo'yiladi.

Nazorat turlari va baholash mezonlari. O'qituvchi o'quvchilar faoliyatlarini baholash maqsadida nazoratning quyidagi turlari qo'llaniladi (43-rasm):



43-rasm. Nazorat turlari

Og'zaki so'rov. Bu nazorat turida o'quvchilarning tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlaridan nazariy bilimlari, tasviriy san'at turlari va janrlari, tasviriy san'at asoslari: kompozitsiya, yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva, atamalar, rassom va haykaltaroshlarning ishlatadigan asosiy ish qurollari va materiallari, mashhur rassomlar va ularning asarlari haqidagi tushunchalari aniqlanadi. Og'zaki so'rov individual va guruhli tarzda amalga oshirilib, u o'quvchilarni tez-tez nazorat qilib turish imkonini beradi. Nazoratning bu turida hikoya qilish, tavsif berish, sharhlash va boshqa usullardan foydalanish samaralidir.

Mashqlar. Nazoratning bu turida o'quvchilarning qalam, mo'yqalam, stek va boshqa ish qurollari, badiiy materiallar bilan ishlash malakalari va ko'nikmalarining darajasi aniqlanadi. Bu ish

ko‘proq naturaga qarab rasm ishlash va kompozitsiya mashg‘ulotlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Tasviriy-ijodiy mustaqil ishlar. Nazoratning bu turida o‘quvchilarni badiiy tafakkuri va qobiliyatlari, rivojlanish darajalari aniqlanadi. Bu ish ko‘proq rangtasvir, dekorativ ishlar va haykaltaroshlikdan kompozitsiyalarni bajarishda qo‘llaniladi.

Yozma (matnli) mustaqil ish. Mustaqil ishning bu turida o‘quvchilar tomonidan olingan bilimlarni qanchalik o‘zlashtirilganligi aniqlanadi. U bevosita tasviriy san’atning san’atshunoslik asoslari kursi bilan bog‘liq bo‘lib, unda o‘quvchilar chaynvord, krossvordlar yechadilar, viktorina savollariga javob qaytaradilar, tasviriy san’atdan insho va referatlar yozadilar.

Test sinovlari. Nazoratning bu turida o‘quvchilar tomonidan tasviriy san’atning nazariy asoslari, maxsus atamalar, rassom, haykaltaroshlar va ularning asarlari, ish qurollari va ishlatadigan materiallari, bolalar tomonidan rang nomlarini o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi. Testlardan foydalanish tasviriy san’at darslarining barcha turlari (naturadan rasm ishlash, kompozitsiya, san’atshunoslik asoslari) bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Uy vazifasi. Uy vazifalari sinfda o‘tilgan mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy ishlarni bajarish, naturaga qarab ranglama va qoralamalar ishlash, mashqlarni bajarish, sinfda tugallanmay qolgan ishni tugatish, tevarak-atrofdagi ko‘rinish va hodisalarni kuzatish, sinf ishiga doir adabiyotlar o‘qish, muzey va ko‘rgazmalarga, san’at yodgorliklariga borish, kelgusi dars uchun materiallar to‘plash yoki tayyorgarlik ko‘rish, sinfda o‘tilgan mavzular bo‘yicha viktorina savollariga javob qaytarish, san’atkorlar, ota-onalar bilan topshirilgan mavzuda suhbatlar qilish, san’at asarlarining reproduksiyalari va foto nusxalarini,

illyustratsiya va rasmlarni to'plash yo'nalishlarida namoyon bo'ladi.

Uy vazifalari tasviriy san'at mashg'ulotlarining barcha turlariga taaluqli bo'lib, u nafaqat yangi materiallarni o'zlashtirish, balki o'tilganlarni mustahkamlash, bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, malakalar va ijodiy qobiliyatlarni o'stirishga xizmat qiladi.

Bolalarning tasviriy ishlari va bilimlarini baholashda bir qator mezonlar qo'llaniladi. Tasviriy faoliyatning har bir turida alohida baho mezonlari ishlatiladi. Xususan:

1. Borliqni idrok etish

- borliqni mustaqil kuzata olishi;
- narsalarning rangi va tuzilishi haqidagi tasavvuri;
- tevarak-atrofdagi mavjud narsalarning turlari haqidagi tasavvuri;
- narsalarni o'lchovlari va shakli haqidagi tasavvuri;
- tabiat va borliqdagi narsalarni go'zalligini sezishi;
- tevarak-atrofnii bilishga qiziqishi;
- narsalarning xarakteri (yuradi, uchadi, o'rmaydi v.b.) ni bilishi;

2. Badiiy qurish-yasash

- badiiy qurish-yasashga oid ish qurollarini bilishi;
- tasvirni qog'oz yuzasida joylashuvi (komponovka);
- tasvirni mustaqil bajarilganligi;
- ishda tasvirlangan narsalarning shakllari;
- ishning toza va tartibli bajarilishi;
- ishni bajarishdagi estetik didi;
- kompozitsiyadagi narsalar o'lchovi va o'lchov nisbatlari;
- kompozitsiya uchun materiallarni (badiiy, tabiiy, tashlandiq materiallar v.b.) to'g'ri tanlanganligi.

3. Rangtasvir kompozitsiyasi

- rasmni qog‘oz yuzasida joylashuvi (komponovka);
- ishni mustaqil bajarilishi;
- rasm mazmunini uning mavzusiga mosligi;
- bajarilgan ishdagi badiiy-estetik did va kompozitsiyasi;
- narsa va hodisalarning o‘lchov va o‘lchov nisbatlari;
- narsa va hodisalarning shakli;
- rasmda ranglar va narsalar tuzilishining yechimi;
- qalam va mo‘yqalam bilan ishlash malakalari;
- ishda perspektiva qonunlariga rioya qilinganligi;
- rasmni toza va tartibli bo‘lishi.

4. Namunadan ko‘chirilgan dekorativ kompozitsiya.

- tasvirni qog‘oz yuzasida joylashuvi (komponovka);
- bezak elementlarining shakli;
- bezak elementlarining o‘lchami va o‘lchov nisbatlari;
- qalam va mo‘yqalam bilan ishlash malakalari;
- bezak elementlarining stilizatsiyasi;
- bezak rang yechimi va elementlarining shakli;
- ishini mustaqil bajarilish darajasi;
- ishning toza va tartibli bajarilishi.

5. Ijodiy ishlangan dekorativ kompozitsiya.

- ishni mustaqil bajarilish darajasi;
- rasmni qog‘oz yuzasida joylashuvi (komponovka);
- bezak elementlarining o‘lchov va o‘lchov nisbatlari;
- bezak elementlarining stilizatsiyasi;
- ranglar yechimi va ish kompozitsiyasi;
- o‘quvchini ishga ijodiy yondashganligi;
- ishni bajarishdagi badiiy-estetik did;
- dekorativ ishlarning asosiy vositalaridan savodli foydalanish (ritm, simmetriya);
- qalam va mo‘yqalam bilan ishlash malakalari;
- ishning toza va tartibli bajarilganligi.

6. Naturaga qarab ishlangan rasmlar

- rasmni qog‘oz yuzasida joylashuvi (komponovka);
- ishni mustaqil bajarilish darajasi;
- naturaning o‘lchovi, o‘lchov nisbatlari;
- qalam va mo‘qalam bilan ishlash malakalari;
- natura va natura bo‘laklarining shakllari;
- narsalardagi yorug‘soyalarni tasvirlanishi;
- narsalar rangini tasvirlanishi;
- ishning toza va tartibli bajarilishi.

7. Naturaga qarab ishlangan haykallar

- ishni mustaqil bajarilganligi;
- haykal o‘lchovlari va o‘lchov nisbatlari;
- haykal va uning bo‘laklarining shakllari;
- haykaltaroshlik asboblari va qo‘l bilan ishlash malakalari;
- haykaldagi hajmning tasvirlanishi;
- ishning toza va tartibli bajarilishi;
- ishning mustaqil bajarilishi;
- haykalni mavzuga mosligi va haykal kompozitsiyasi;
- haykaltaroshlik asboblari bilan ishlash malakalari;
- ishni bajarishdagi badiiy-estetik did;
- haykal bo‘laklari va ularning o‘lchovlari hamda o‘lchov nisbatlari;
- ishning toza va tartibli bo‘lishi.

8. San’at asarlarining tahlili.

asarning nomi va muallifi;

- asarning mazmuni va kompozitsiyasi;
- asarning yaratilgan yili va asar saqlanayotgan joy;
- maxsus atamalar;
- asarning tasviriy savodxonlik darajasi (rang, perspektiva, yorug‘soya qonunlari, anatomiya, o‘lchov va o‘lchov nisbatlari v.b.)

-asarni yaratishda rassomning qoʻllagan tasviriyl texnikasi;
-asarni yaratishda rassom qanday tasviriyl materiallardan foydalanganligi.⁷

Takrorlash uchun savollar:

1. Oʻquvchilarda bilim va malakalarni nazorat qilish va baholashning mohiyati qanday?
2. Oʻquvchilar faoliyatlarini baholash maqsadida nazoratning qanday turlari qoʻllaniladi?
3. Borliqni idrok etish yuzasidan bolalarni bilimlarini baholashda qanday mezonlardan foydalaniladi?
4. Naturadan ishlangan haykallarda-chi?
5. Rangtasvir kompozitsiyasi boʻyicha ishlangan ishlarda-chi?
6. Haykaltaroshlik kompozitsiyasi yuzasidan bajarilgan ishlarda-chi?
7. Sanʼatshunoslik asoslari yuzasidan bolalar bilimlarini baholashda qanday mezonlarda foydalaniladi?
8. Sanʼatshunoslikdan bolalar bilimlarini baholashning qanday yoʻllari bor?

Bobni mustaqil oʻrganish boʻyicha tavsiyalar:

Bobdagi yangi atamalarga alohida eʼtibor berib, ularni tahlil eting. Umumtaʼlim maktablarida tasviriyl sanʼat fanini mazmunini oʻrganing. Kasb-hunar maktablarda tasviriyl sanʼatni oʻqitishning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganing. Glossariyl va izohli atamalar tuzing. Tasviriyl sanʼat taʼlimida didaktik prinsiplar bilan tanishish tavsiya etiladi.

⁷ Hasanov R. Maktabda tasviriyl sanʼatni oʻqitish metodikasi. -T.: Fan. 2004.-250 b.

3-bob. TASVIRIY SAN'AT FANI O'QITUVCHISI, UNING TASHKILIY, METODIK VA IJODIY ISHLARI

3.1. Tasviriy san'atni o'qitishda o'qituvchi - tashkilotchi, metodist va ijodkor.

Reja: 1. Mahoratli o'qituvchi - dars tashkilotchisi, ilhomlashtiruvchisi. 2. Tasviriy san'at o'qituvchisi - san'atshunos - rassom - pedagog, uning funksional vazifalari. 3. O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatdagi o'rni. 4. O'qituvchining ma'naviy va kasbiy sifatlari. 5. Mahoratli o'qituvchi va zamonaviy innovatsion va interfaol usullari, axborot va pedagogik texnologiyalar. 6. Tasviriy san'at o'qituvchisining kompetentlik vazifalari va pedagoglik qobiliyatlari.

Tayanch iboralar: Pedagog, kasbiy, mutaxassis, iste'dod, kompetentlik, tajriba, qobiliyat, tashkilotchi, metodist.



44-rasm. *O'qituvchi kasbi barcha kasblar orasida eng faxrli va jamiyat uchun zarurli hisoblanadi.*

Pedagog va o'qituvchi haqida buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida to'la va asosli ta'rif bergan.

O'qituvchi kasbi jamiyat hayoti, uning barcha jumboqlari haqida yoshlarga, ularni butun hayoti davomida kerak bo'ladigan bilimlarni beradi. O'sib kelayotgan avlodni yuksak va oliyjanob fazilatlar bilan qurollantiradi, kishilardagi nodonlik va yomon illatlar bilan kurashishga o'rgatadi. Kishilarning o'tmishdagi tajribalarini yoshlarga o'tkazadi. Bu borada jamiyatimiz uchun vositachilik qiladi. Natijada jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zamin yaratiladi.

O'qituvchilik kasbi hamma zamonlarda ham sharaflil va ma'suliyatli kasb bo'lib kelgan. Yangi O'zbekistonning hozirgi taraqqiyot bosqichida bu kasb yanada katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Chunki, o'zbek xalqi chet el bosqinchilarining ko'p yillik zulmi ostida o'zining ma'naviyati, madaniyati, an'anasi va urf-odatlarini unutmadi. O'zbek xalqi va ziyolilari oldida turgan muhim vazifalaridan biri o'z-o'zini anglash, milliy istiqlol mafkurasi asosida o'z Vatani va xalqiga sodiq bo'lgan, yangi barkamol avlodni shakllantirishdan iborat. Bu borada o'qituvchining roli benihoya kattadir (*44-rasm*).

Boshqa mutaxassislardan farqli, o'qituvchilik kasbi shunday kasbki, u moddiy boyliklar ishlab chiqarishi bilan emas, yosh avlodni ichki dunyosini, ma'naviyatini shakllantirish bilan shug'ullanadi. Bundan bu kasbni qiyin, biroq mas'uliyatli va sharaflil ekanligini bilishimiz mumkin. Boshqa kasb mutaxassislari singari, o'qituvchi o'z faoliyatida xato qilishi mumkin mumkin emas. Chunki bu xato yoshlar kelajagini barbod qilishi yoki mamlakatda bilimsiz kishilarning avlodini vujudga keltirishi mumkin.

Zamonamizning atoqli pedagoglaridan biri professor R.Hasanov maktab tasviriy san'at o'qituvchisiga ta'rif berar ekan, u quyidagilarni alohida ta'kidlaydi, - mahoratli o'qituvchi bo'lish uchun yuksak odobi namunasiga ega bo'lishi, har qanday og'ir sharoitda ham o'zini tuta bilishi sabr - toqatli, saxovatli, muruvvatli, ijodkor, mehnatsevar, halol, pok, insofli, iymonli, o'rganuvchi va o'rgatuvchi kabi yuksak ma'nodagi, xislatlarni o'zida mujassam etgan pedagog - rassom bo'lishi kerakligini bildiradi.⁸

Tasviriy san'at fani o'qituvchisining birovlarini o'qishga majbur yetib o'rgatishi ham, o'zini-o'zi majbur etishi ham oddiy ish emas. Chunki, maktabda xususan har bir sinfda, o'quvchilar bir xil emas. Birovlari o'qishga o'zlari harakat qilsalar, boshqalar uchun motivatsion holat kerak bo'ladi. Ko'pchilik hollarda bir emas, butun bir sinfga innovatsion metodlar yordamida yondashish zarur bo'ladi. Bunday hollarda o'quvchilarni o'qishga jalb etish, intizomli bo'lishga erishish ayniqsa og'ir kechadi. Maqsadga erishish uchun eng avvalo, shu sinfda obro' qozonmoq zarur. O'qituvchilik kasbining yana bir muhim xususiyati shundaki, u o'z tengqurlari bilan emas, bolalar bilan ishlaydi. Shuning uchun, o'qituvchi bolalarni yoshlik fiziologiyasini, individual psixologik xususiyatlarini, qiziqishlari, bilim darajalarini yaxshi bilishi kerak bo'ladi. Faqat shular orqali uning ishi samarali kyechishi mumkin.

⁸ Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. -T.: Fan. 2004. -158 b.



45-rasm. Tasviriyy san'at o'qituvchisining mahorati, avvalo o'z sohasini yaxshi bilishiga bog'liq.

Tasviriyy san'at fani o'qituvchi kasbining yana bir muhim tomoni shundaki, bu kasb kishiga mamnunlik va xursandchilik keltiradi. Bu mamnunlik, unga o'z pedagogik faoliyati natijalarini ko'rganida, o'z shogirdlarini ilmu-fan va cho'qqilarni zabt etganida, hayotda o'z yo'llarini topganliklarida namoyon bo'ladi. Shunda, o'qituvchi o'z mehnatini zoye ketmaganligini his etadi.

O'qituvchilik kasbida iste'dod muhim o'rin egallaydi. O'qituvchi o'z kasbiga mehr, qiziqish, uni egallashga intiluvchan bo'lishi lozim. Bu kasbiy sifatlar ko'pchilik hollarda o'quvchilarga mehr qo'yganida, bolalarning shovqin-suronidan, jovdiragan ko'zlaridan zavqlangandagina namoyon bo'ladi. (45-rasm).

O'qituvchining muhim sifatlaridan biri bu bolalarga namuna, ibrat bo'lish shogirdlariga mehribon bo'lishni taqoza etadi. Aytaylik, o'qituvchi soch-soqoli o'sib ketgan, kiyimlari tozalanmay, yoqasining yag'iri chiqib ketsa so'zsiz bolalarga ibrat

bo'la olmaydi. Bulardan tashqari o'qituvchi bolalarga nafaqat tozalik borasida, balki hamma sohada ham ibrat bo'lishi kerak. Ya'ni, u o'zining odobi, halolligi, bir so'zligi, sof vijdonliligi, adolatparvarligi, mehribonliligi bilan ajralib turishi lozim.

Ma'lumki, bolalar o'qituvchilarga o'xshashga harakat qiladilar, o'z xislatlariga ko'ra o'quvchilar kuzatuvchan, qiziquvchan, taxlitchan bo'lib, o'qituvchilarni doimo kuzatib yuradilar. O'qituvchilar buni hech qachon unutmasligi kerak. O'quvchilardagi bu sifatlar o'qituvchini o'ziga nisbatan talabchan bo'lishni taqozo etadi. O'qituvchi doimo o'zi ustida mustaqil ishlashi kerak. U ilmiy-metodik adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni doim o'qib borish zarur. O'qituvchi respublikamiz va jahonning madaniy hayotini kuzatib borishi, tasviriy san'at ko'rgazmalari, kontsertlar, madaniy oqartuv tadbirlariga doimiy ravishda borib turishi zarur bo'ladi. O'qituvchi uchun eng muhim talablardan biri bu o'qitiladigan fanlardan ta'lim mazmunini, uni o'qitish metodikasini yaxshi bilishi hisoblanadi. Bugungi kunda, ta'lim mazmuni va o'qitish metodlari ham borgan sari takomillashib bormoqda.

Xorijiy va mamlakatimiz ta'lim sohasida ilg'or tajribalarni o'rganib borish bilan birga bu tajribalarda uning o'zining ham ishtirok etib borishi muhimdir. Bunda o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida to'xtovsiz izlanish, tajriba-sinov ishlarini olib borishi, yetakchi pedagog olimlarning ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganib va amalda qo'llab borishi kerak bo'ladi.⁹

Bugungi kun o'qituvchisi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or pedagog olimlarning tajribalarini tinimsiz o'rganib, pedagogik amaliyotda uni qo'llay olishi zarur. Bu quyidagilarni nazarda tutadi:

⁹ Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. -T.: Fan. 2004. -168 b.

1. Ta'limni ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dastur talablari va spiralsimon o'qitish metodologiyasi asosida qurish. 2. Ta'limni pedagogik tashxis asosida tashkil etish. 3. Axborot kommunikativ texnologiyalar va texnik vositalaridan keng foydalanish. 4. Modulli o'qitish metodlarini qo'llash. 5. STEAM - o'quv rejasi o'quvchilarga fanlararo va amaliy yondashuvdan foydalangan holda o'qitish tizimidan foydalanish. 6. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish, o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish. 7. O'quvchilarga individual va tabaqalashtirilgan ta'lim prinsiplari asosida yondashish. 8. Darslarni munozarali o'yin va musobaqa tarzida o'tkazish. 9. O'qituvchi o'zining kasbiy-metodik kompetentlik malaka darajasi ustida tinimsiz ishlash v.b.

Ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, undan ko'r-ko'rona o'z pedagogik faoliyatida foydalanish degan ma'noni bildirmaydi. Uning samarali jihatlaridan foydalanish mumkin. Chunki, har bir maktabni, har bir sinfni, har bir o'quvchini, u yerda olib borilayotgan kasbiy-metodik kompetentlikning o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi.

Kasbiy-metodik kompetentlik aniq ifodalangan amaliy xususiyatga ega va o'z mohiyatiga ko'ra tasviriy san'at fanini o'qitishning aniq qurish masalalari bo'yicha kengaytirilgan bilimlar tizimini aks ettiradi. O'qitish metodikasini yaxshi egallagan, metodikada o'zining individual uslubiga ega, innovatsion texnologiyalardan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lgan o'qituvchini **kasbiy-metodik kompetentli**, deb hisoblanadi. **Kompetentlik** - bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini pedagogik faoliyatda mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasi, u o'qituvchining pedagogik faoliyatida shakllanib boradi. (12-jadval)

12-jadval

№	Tasviriy san'at o'qituvchisining kompetentligi mazmuni.
1.	-tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlarining tarixi va nazariyasini bilish;
2.	-o'zbek san'atining milliy, badiiy an'analari yuzasidan chuqur bilimlarga ega bo'lish;
3.	-tasviriy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish hamda uni muntazam takomillashtirib borish;
4.	-tasviriy san'atning pedagogik-psixologik asoslari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish;
5.	-tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir ilg'or zamonaviy texnologiyalarni chuqur egallagan bo'lish;
6.	-tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlarining u yoki bu turi yoki janrlari bo'yicha ijodiy ishlar bilan shug'ullanish;
7.	-o'quvchilarning tasviriy faoliyatiga doir to'xtovsiz tajriba-sinov, ilmiy-metodik ishlar bilan shug'ullanish;
8.	-tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir ilg'or tajribalarni muntazam o'rganib borish;
9.	-tasviriy san'atni o'qitish metodikasi, san'atshunoslikka doir adabiyotlarni va tadqiqot natijalarini muntazam o'rganib borish;
10.	-maktabda o'qitiladigan barcha fanlardan (ayniqsa, adabiyot, tarix, matematika, biologiya, chizmachilik, texnologiya v.b.) ta'lim mazmuni bilan tanishgan bo'lishlik.

O'qituvchi boshqa bir o'qituvchi metodikasini o'rganib, shu asosda to'liq ish olib borishi mumkin emas, chunki har bir o'qituvchi o'zining shaxsiy o'qitish metodikasiga ega bo'lishi lozim. Ta'lim jarayonida yagona bir "retseptdan" foydalanib bo'lmaydi. Har bir ta'lim-tarbiya jarayoni, uni tashkil etish har bir tuman, maktab, o'qituvchining ish sharoiti va o'ziga xos xususiyatlari asosida belgilanadi (*46-rasm*).

Tasviriy san'at o'quv fanning dars va ta'lim texnologiyasi talabiga ko'ra o'qituvchi tez harakat qiladigan, tez gapiradigan bo'lmasligi, aksincha aniq nutq, baland tovushda emas, mazmunli, imo – ishoralaridan me'yorida foydalana oladigan bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.



46-rasm. Tasviriy san'at o'qituvchisi yaxshi tinglaydigan, mantiq chiqara oladigan, o'qishni, yozishni, gapirishni va o'z fanini yuksak darajada bilishi zarur.

Umumiy o'rta ta'lim maktabida tasviriy san'at fani o'qituvchisi o'zining tashabbukorligi, adolatli va ijodkorligi bilan boshqa fan o'qituvchilaridan farq qiladi. U doimo etyud ishlashi, rasm solishi, o'zi san'at asari yaratishi, kreativ fiklashi bilan ajralib turadi. U har kuni biron yangilik yaratish taraddudida bo'lib, u o'z tashabbusi bilan tasviriy san'at xonasini tashkil etadi. Har kuni biron didaktik, metodik materiallar, ko'rgazma

qurollarini tayyorlaydi. Pedagogik mahoratini oshirib borishda o'z ustida tinimsiz ishlaydi.

Umumiy pedagogika fanidan bizga ma'lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyaning loyihachisi ham, uni amalga oshiruvchisi ham pedagog deb ko'rsatilgan.¹⁰ O'qituvchi - pedagogik texnologiyaning davlat buyurtmasiga mos keladigan ta'lim - tarbiyasi maqsadini belgilovchi va uni amalga oshiradigan didaktik sharoitini yaratatuvchisidir. O'qituvchi har bir dars mavzusiga ko'ra didaktik jarayonni hosil qiluvchisi, ta'lim - tarbiya berishni jadallashtirish, tezlashtirish, o'quvchilarning bilim, malaka ijodiy izlanish, faoliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini kafolatlay oladigan mexanizmni yaratadi. O'qituvchi - o'qitishning tashkiliy shaklidan foydalanuvchi, o'quvchilardagi ta'lim mazmunini va tarbiya ta'sirini qay darajada bo'layotganini nazorat qilish kabi vazifalarni loyihalovchi va bajaruvchi;

Maktab tasviriyy san'atini mahoratli o'qituvchisi o'z darslarini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida ishlashga moslashtirib boradi.

Bugungi kun tasviriyy san'at fanini o'qitishda o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyadan foydalangan holda: modulli o'qitish, tezlashtirib o'qitish, muammoli o'qitish, tabaqalashtirib o'qitish texnologiyasi kabi prinsiplardan foydalanib, o'z darslari samaradorligini oshirib boradi.

Chunki, tasviriyy san'at fanining besh turdagi mashg'ulotlarining har bir darsida, o'qituvchi o'quvchilarni yangi darsga, yangi o'quv materialiga olib kirishi, tayyorlashi uchun motivatsiya - deb ataladigan didaktik jarayonidan foydalanadi.

Motivatsiya - tasviriyy san'at fanini o'qitishda eng asosiy didaktik jarayon bo'lib, bu o'qituvchidan o'z fani va boshqa o'quv fanlari materiallaridan foydalanib, har bir dars mavzusi

¹⁰ Oripov B.N. Tasviriyy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. – N.: "NamDU", 2012. -124 b.

materialiga o'quvchilar qiziqishini oshirish imkoniyatlarini ifoda etadi. Bunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishi yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Tasviriy san'at darslarida yangi pedagogik texnologiyadan unumli foydalanish: o'qituvchining mahoratiga, ilmiy - ijodiy tafakkurining zamonaviy bo'lishiga, uning tabbuskorligiga ko'p holda bog'liq bo'ladi. Bunday o'qituvchi albatta yangi pedagogik texnologiyaning mazmun - mohiyatini o'rganib, uni o'zining pedagogik faoliyatiga olib kiradi. Buning uchun tasviriy san'at o'qituvchisi qobiliyati muhim rol o'ynaydi. (13-jadval)

13-jadval.

Pedagogik qobiliyatlar	Tasviriy san'at o'qituvchining pedagogik qobiliyatlari.
Bilish qobiliyati	Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi o'quv kursidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, ilmiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi
Tushuntira olish qobiliyati	O'quv materialini tushunarli qilib bayon eta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda to'g'ri fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyati. O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olish, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib yetkaza olishi lozim
Kuzatuvchanlik qobiliyati	O'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushunchaga ega bo'lish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlik

Nutq qobiliyati	Nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati.
Tashkilotchilik qobiliyati	Birinchidan, o‘quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish, ikkinchidan, o‘z ishini uyushtirishni biladi
Obro‘ ortira olish qobiliyati	O‘quvchilarga bevosita emotsional-ifodaviy ta’sir ko‘rsatish va shu asnoda obro‘ qozona olishdir
To‘g‘ri muomala qila olish qobiliyati	Bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata olish, pedagogik nazokatning mavjudligi
Kelajakni ko‘ra olish qobiliyati	O‘z harakatlaring oqibatini ko‘ra bilishda, o‘quvchining kelgusida qanday odam bo‘lishida, tarbiyalanuvchiga qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi.
Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati	O‘qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari – hajmi, kuchi, ko‘chuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etgan bo‘lishi muhimdir.

Yuqorida qayd qilingan fikrlardan: o‘qituvchilik kasbini murakkab, og‘ir, mushkul kasb ekan, degan xulosa kelmasligi kerak. O‘z ishini sevuvchi, unga mas’uliyat bilan qaragan har bir o‘qituvchi mahoratli o‘qituvchi bo‘lib yetishishi muqarrardir. Shuningdek, o‘qituvchilik kasbi qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin, uning sharaflilik kasb ekanligini unutmaslik lozim.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'qituvchining mahorati deganda nimani tushunasiz?
2. Darslarda motivatsiya holatini yaratish, deganda nimani tushunasiz?
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qaysi ko'rinishlari bor?
4. Ilg'or tajribani mohiyati nimada, undan qanday foydalanish mumkin?
5. O'qituvchilik kasbini boshqa kasblardan farqi nimada?
6. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy sifatlar deganda nimani tushunasiz?
7. O'qituvchiga xos psixologik sifatlar qaysilar?
8. Tasviriy san'at o'qituvchisining kompetentligi deganda nimalar tushuniladi?

3.2. Tasviriy san'atdan darsdan tashqari ishlar

Reja: 1. Tasviriy san'atdan tashqari ishlarning mazmuni, ahamiyati. 2. Tasviriy san'atdan tashqari tadbirlar mazmuni va rejasi. 3. To'garaklar, qo'shimcha darslar, suhbat, ma'ruza, munozaralar, ekskursiya, tanlovlar, san'at kechalarini tashkil etish. 4. Maktabda matbuot ishlari, ko'rgazma, stend va albomlar tashkil etish.

Tayanch iboralar: Texnika vositalari, prezentatsiya, videorolik, ssenariya, fakultativ, plener, muzey, studiya, seminar, reproduksiya, gazeta.

O'quvchilarning tasviriy san'at faniga bo'lgan qiziqishini oshirishda, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni yuqori o'zlashtiruvchilar qatoriga yetkazishda, iqtidorli o'quvchilarning ijodiy o'sishida, darsda olgan bilim va malakalarni amaliyotda qo'llashga o'rgatishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar

muhim ahamiyatga ega. Tasviriy san'at fanidan amalga oshiriladigan darsdan tashqari ishlarni yo'lga qo'yish uchun o'qituvchi o'z fanini nazariy, metodik va amaliy jihatdan puxta bilishi, maktabda tasviriy san'at honalarini tashkil etishi, texnika vositalari bilan yaxshi ishlay olishga to'la imkoniyat yaratgan bo'lishi lozim.

Tasviriy san'at o'qituvchisi amalga oshirishi lozim bo'lgan har qanday tadbirni aniq va real maqsadi bo'lishi va uni amalga oshirish yo'llarini to'g'ri belgilay olishi zarur. Tasviriy san'at fani bo'yicha olib boriladigan sinfdan tashqari ishlar to'garak, ekskursiya, suhbat, ma'ruza, kecha, uchrashuv, konferensiya o'tkazish, rassomlar va o'quvchilar ishidan ko'rgazmalar tashkil etilgan, prezentatsiyalar va videoroliklarni tomosha qilish, fan bo'yicha matbuot ishlarini tashkil etishdan iborat.

Tasviriy san'at o'quv fani bo'yicha tashkil etiladigan darsdan tashqari ishlarning barcha turlari maxsus belgilangan reja asosida va o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning taxminiy ish rejasi: (14-jadval)

14-jadval

№	Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning taxminiy ish rejasi	Muddati
1.	Maktabda cxizmatasvir, rangtasvir, grafika, tasviriy san'at tarixini o'rganish, dekorativ amaliy san'atning turlari bo'yicha (naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, badiiy bezash) to'garaklar tashkil etish va uning ish faoliyatini yo'lga qo'yish.	Sentyabr oyi
2.	Tasviriy san'at tarixi yoki san'atshunoslik bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar tashkil etish va o'tkazib borish.	Har chorakda
3.	Darsda past o'zlashtiruvchi va tasvirlashga	O'quv yili

	qiynalayotgan o'quvchilar uchun qo'shimcha darslar tashkil yetib borish.	davomida
4.	Plenerga chiqish, tabiat manzaralarini kuzatish va tasvirlash maqsadida ekskursiya uyushtirish.	Oktyabr, aprel, may oyida
5.	San'at muzeylariga, studiyalarga, rassomlarning ustaxonalariga, qadimiy san'at obidalariga va zamonaviy inshootlarga ekskursiya uyushtirish.	Aprel, may oyida
6.	Tasviriy san'at ustalari ijodi va tasviriy san'at nazariyasi bo'yicha ma'ruzalar, seminarlar, konferensiyalar, san'at kechalari, viktorina va savol-javoblar tashkil yetib borish.	Noyabr, dekabr oyida
7.	Tasviriy san'at asarlari reproduksiyalaridan ko'rgazmalar tashkil yetib borish. Atoqli rassomlar ijodiga bag'ishlangan stendlar tayyorlash.	Oktyabr oyida
8.	O'quvchilar ishidan muddatli va doimiy ko'rgazmalar, stendlar, o'quv yilining yakunlanishi munosabati bilan hisobot ko'rgazma tashkil etish.	Dekabr, may oyilari
9.	O'quvchilarning eng yaxshi ijodiy ishlari bo'yicha tanlovlar o'tkazib borish.	O'quv yili davomida
10.	Rassomlarning ijodiy faoliyati, tasviriy san'at tarixi va nazariyasiga bog'liq videofilm va prezentatsiyalarni ko'rib borish.	O'quv yili davomida
11.	Tasviriy san'atga oid teleko'rsatuvlarni, o'quv eshittirishlarini jamoa bo'lib ko'rib borishni tashkil etish.	Yanvar, fevral oylari
12.	Tasviriy san'at fani bo'yicha chiqariladigan devoriy gazetalar faoliyatini muntazam yo'lga qo'yib borish kabilar kiritiladi.	O'quv yili davomida

To‘garaklar. Tasviriyl san‘at bo‘yicha tashkil etiladigan to‘garaklarning maqsadi o‘quvchilarning bilimi va malakalarini chuqurlashtirish, ularga tasviriyl san‘atning biron turi bo‘yicha kengroq bilim va malakalarni berish, berilgan bilim va malakalarni amaliyotda, hayotda qo‘llay olishga o‘rgatish va kasb-hunar tanlashga yordam berishdan iboratdir.



47-rasm. To‘garak mashg‘ulotlari.

To‘garak faoliyatini tashkil etishda avvalo xona, kabinet sharoiti talab darajasida jihozlanadi. So‘ngra to‘garakda ishtirok etuvchi o‘quvchilar a‘zo bo‘lishadi. To‘garakka a‘zo bo‘lish ixtiyoriyl bo‘lib, unda o‘quvchilarning qiziqishiga qarab, grafika, rangtasvir, naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, badiiy kulolchilik, badiiy bezash, loy va plastilin bilan ishlash, san‘at

asarlarni o‘rganish va rassomlar ijodini o‘rganish bo‘limlariga taqsimlanadi. (47-rasm)

To‘garaklar 1-4, 5-7, 8-9-sinflar bo‘yicha mikroguruhlarga ajratiladi, har bir mikroguruhda 10-12 tadan o‘quvchilar a‘zo qilinadi. To‘garak mikroguruhlarida o‘quv mashg‘ulotlari bosqichlar asosida tashkil etiladi. I guruhni tugatganlar II-guruhga, II-guruhni tugatganlar III-guruhga qabul qilinadi. To‘garak rahbari ish rejasini tuzganidan so‘ng, shu reja asosida haftada bir marta mashg‘ulot o‘tkaziladi. To‘garak mashg‘ulotlari birinchi guruh (1-4-sinf o‘quvchilari) uchun 1-1,5 soat, ikkinchi

guruh (5-7-sinf o'quvchilari) uchun 2-2,5 soat, uchinchi guruh (8-9-sinf o'quvchilari) uchun 3-3,5 soatdan oshmasligi kerak.

Tasviriy san'at asarlarini o'rganuvchi guruhlar bundan mustasnodir. Birinchi guruh mashg'ulotlari asosan loy, plastilindan oddiy predmetlar shaklini yasashdan boshlanib, asta-sekin oddiy narsalar rasmini chizishga o'tiladi. Ikkinchi guruhda ko'proq qalamtasvir va rangtasvir mashg'ulotlari rejalashtiriladi. Buning uchun rasm chizishning barcha mashg'ulotlari natura bilan ishlash xarakterida bo'lmog'i lozim. Bu guruhlar uchun tanlanadigan mavzular 4-6 soatdan oshmaydigan vaqtda mo'ljallanishi mumkin. Bu ish 2 soatdan ikki yoki uch mashg'ulotda bajariladi. Har qanday mashg'ulot uchun u necha soatga mo'ljallanganligidan qat'iy nazar, bir konspekt tuziladi. To'garak mashg'uloti uchun tuzilgan dars ishlanmasining namunasi quyidagicha bo'lishi mumkin (uchinchi guruh).

Mashg'ulot mavzusi: "Mevalar natyurmorti" rasmini ishlash. Mashg'ulot 6 soat davom etadi. Mashg'ulotning maqsadi: To'garak a'zolarini natyurmort va uning kompozitsiyasini tuzish, bo'yoq bilan ishlash malakalarini o'stirish. Mashg'ulotning jihozlanishi: I. Xrutskiyning "Gul va mevalar" natyurmorti, R. Ahmedovning "Mevalar", V. Ufimtsevning "Patnis" va S. Abdullayev, N. Kashina, A. Yunusovlarning mevalar natyurmortlari bo'yicha yaratgan asarlari, natyurmort predmetlari: tarelka, pichoq, anor, olma, nok va fon uchun rangli material.

Mashg'ulotning rejasi: birinchi mashg'ulot ikki soat. Mashg'ulotni tashkil etish (5-10 minut) o'quvchilarning o'rinlarini moslashtirish, o'quvchilar ishtirokida natyurmortni tuzish, natyurmort o'rnini tanlash, o'quvchilarni ishga hozirlash (suv, palitra va bo'yoq, qalam, o'chirgichlarni tayyorlash).

Yangi mashg'ulot mavzusini bayon etish va mashg'ulotdagi vazifani tushuntirish (15-20 minut). Yangi mavzu I. Xrutskiy, R.

Ahmedov, Z. Kovalevskaya, V. Ufimtsev, S. Abdullaev kabi rassomlarning “Natyurmort” mavzusidagi san’at asarlari reproduksiyasi asosida boshlanib, sinf doskasida natyurmort kompozitsiyasi, uni tasvirlash bosqichlari ko’rsatib beriladi. Natyurmortga tushayotgan yorug’lik manbalari soyalar, ularning bo’yoqda tasvirlanishi haqida tushuncha beriladi. O’quvchilarning mustaqil ishlari (1-1,5 soat).

Mustaqil ish davrida o’qituvchi o’quvchilarni ishlarini nazorat qilib boradi, mashg’ulotda yoki tasviriy san’at darslarida ishlangan eng yaxshi ishlar barcha o’quvchilarga ko’rsatib turiladi. Agar ayrim o’quvchilar biror elementni tasvirlashda yoki biror rangni topishda qiynalsalar, o’quvchilarga tasvirlash qobiliyatidan kelib chiqib, ularga individual yondashish mumkin. Umuman olganda mashg’ulot uchun topshiriqlarni tabaqalashtirish mumkin. O’qituvchi mashg’ulotning ikkinchi qismida uy vazifalarini ko’rib, so’ngra yangi mashg’ulotning vazifasini qisqa qilib tushuntirib, kerakli o’rinlar takrorlanib, eslatib, mustaqil ishga o’tiladi. O’quvchilarning asosiy e’tiborini bo’yoq bilan ishlashga, naturalarning real tasvirlanishiga, yorug’-soyalarning to’g’ri berilishiga, reflekslarni joylanishiga qaratiladi. Suvlar, palitralar tez-tez almashtirib turiladi. Natyurmortni bosqichma-bosqich ishlanishida, uning tugallanishiga e’tibor berilishi ta’kidlanadi. Ertaroq tugallangan ishlar quritishga to’planadi.

Mashg’ulotning oxirida 10-15 minutlar chamasida bajarilgan ishlardan namunalar olinib, o’quvchilar ishtirokida ko’rib chiqiladi. Ko’rilgan ishlar baholanadi. Eng yaxshi ishlar ko’rgazmaga tanlab olinadi. Mashg’ulot yakuniga 5-10 minut qolganida o’quvchilarni bajargan ishilaridan 6-8 tasi tahlil uchun tanlab olinadi. To’garak a’zolari bajargan ishlarning xato va kamchiliklari ko’rsatib o’tiladi. To’garak mashg’uloti mavzusi

yuzasidan qovun va olmadan iborat natyurmort tuzib, akvarelda ishlash uyga vazifa beriladi.

Qo'shimcha darslar (konsultatsiyalar). Tasviriyl san'at o'quv fani bo'yicha olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning biri qo'shimcha darslar yoki konsultatsiyalardir. Qo'shimcha darslar odatda dars va to'garak mashg'ulotlaridan bir oz farq qiladi. Ularning maqsadi dars materiallarini o'zlashtirishda qiynalayotgan yoki past o'zlashtiruchi o'quvchilarni yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchilar qatoriga yetkazib olish, dastur materialini bo'yicha oz vaqt berilgan mavzularni kengroq o'zlashtirishi uchun tashkil etiladi. Qo'shimcha darslar ikki shaklda o'tkazilishi mumkin. Birinchisi, darsda qiyinchilik tug'dirayotgan masalalar yoki mavzular bo'yicha umumiy shakldagi suhbat, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar barcha o'quvchilari uchun o'tkaziladi. Bu mashg'ulotlar ayrim vaqtlarda bir sinfning bir necha guruhlarini uchun ham o'tkazilishi mumkin. Bunday mashg'ulotlarni bir oyda bir marta o'tkazsa ham bo'ladi.

Ikkinchisi, individual yondashuv shaklda tashkil etilib, o'tkaziladigan mashg'ulotlar tasviriyl san'at fani bo'yicha qiynalayotgan, dastur materiallariga qobiliyati sust, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga mo'ljallanadi. Agar bunday o'quvchilar maktabda 4 va 7-sinflar bo'yicha 15 tadan oshmasa, guruh tashkil etilib reja asosida mashg'ulot olib borish mumkin. Bu mashg'ulot shunday uyushtiriladiki, guruhdagi o'quvchilar uch kichik guruhga bo'linib, har qaysi guruh uchun o'z dastur materialini asosida reja tuzilib, har bir o'quvchiga individual yondashilib, qobiliyatidan kelib chiqib topshiriqlar beriladi. Bunday mashg'ulot haftada bir marta maxsus reja bo'yicha o'tkaziladi va o'quvchilar materialni yaxshi o'zlashtirib olgunlaricha davom ettiriladi.

Suhbat, ma'ruza, munozaralar. Darsdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlarning eng qiziqarli shakli suhbat, ma'ruza bo'lib, quyi sinf o'quvchilari uchun suhbat; yuqori sinf o'quvchilari uchun ma'ruza va munozaralar shaklida uyushtirish mumkin. Mashg'ulotning bu turlari biron mavzu bo'yicha o'quvchilarni qiziqishi bo'yicha tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Agar o'quvchilar biror rassomning hayoti va ijodini kengroq mavzuda o'rganish ishtiyoqini bildirsa yoki dasturda ko'rsatilmagan rassomlar ijodini o'rganish haqida so'rasalar, bu vaqtda shu mavzu bo'yicha suhbat yoki ma'ruza uyushtiriladi. O'quvchilarga mashg'ulotlarning qiziqarli, ularning talabiga muvofiq chiqishi uchun o'qituvchi mashg'ulotga kerakli ko'rsatma materiallar, prezentatsiyalar, munozaralarni tayyorlab olishi, texnika vositalaridan foydalanib, puxta tayyorlanishi lozim. Suhbat va ma'ruzalarni iloji boricha rassomlar, haykaltarosh yoki san'atshunoslar ishtirokida o'tkazilsa, ancha qiziqarli bo'ladi. Ma'ruzalar, munozaralar, asosan, yuqori sinflarda o'tkaziladi..

Ekskursiya. Tasviriy san'at darslarida beriladigan bilim va malakalarni mustahkamlashda o'quvchilar ular bilan ekskursiyalar o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Tasviriy san'at fani bo'yicha keng manzarali bog'larga, san'at muzeylarga, tarixiy obidalarga, rassomlarning ijodiy ustaxonalariga, ko'rgazma zallariga, kasb-hunar maktablariga, oliy o'quv yurtlariga, badiiy akademiyalariga ekskursiyalar uyushtirilishi mumkin.

Ekskursiyani oldindan rejalashtirib, uni o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'riladi. Ekskursiya natijasida o'quvchilar o'zlari chizadigan tabiat manzaralarini, san'at na'munalarini, obyektlarni, turmush va hayotdagi voqealarni kuzatishadilar. Tarixiy obidalarga, san'at muzeylariga ekskursiya qilinadigan bo'lsa, o'quvchilar bu yerlarda ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan madaniyat va san'at asarlari bilan yaqindan tanishadilar. San'at

maskanlarining bezatilishi, xalq amaliy san'atining na'munalarining kompozitsion tuzilishi va bezatilishini tahlil etadilar.

O'qituvchi ekskursiyaning muvaffaqiyatli o'tishi uchun unga qanday tayyorgarlik ko'rganligiga bog'liq. O'qituvchi tomonidan ekskursiya obyektni belgilash, u erni sinchiklab o'rganish, ekskursiya davrida o'quvchilarga ko'rsatib, gapirib beradigan asosiy elementlarni belgilab olish, rejasini mukammal, har tomonlama o'ylab tuzish, stsenariysini tayyorlash, tanishiladigan har bir obyekt, na'munalar hisobga olinmog'i lozim. Ekskursiya davrida o'quvchilar daraxtlar, o't-o'lanlar, qushlar va hayvonlarning xomaki rasmlari, etyudlarini chizish maqsadga muvofiqdir.

Tanlovlar. Maktabda tasviriy san'at fani bo'yicha turli xil mavzularda o'quvchilar ishlari namunalari yuzasidan tanlovlar o'tkaziladi. Tanlovlar o'quvchilarning darslarda va to'garak mashg'ulotlarida olgan bilim, ko'nikma hamda malakalarini aniqlashning asosiy vositasi bo'lishi bilan birga, ularning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Tanlovda narsaning o'ziga qarab, mavzu asosida ishlangan kompozitsiyalar, ijodiy ishlar, plakatlar, modellar na'munalari ishtirokida o'tkaziladi. O'quvchi tanlov uchun ishlayotgan rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik tasviriy san'at turlari uchun natura, obyekt, voqea va hodisalarni o'rganadi, bir necha naturalarning xomaki tasvirlarini chizadi, fotografiyadan foydalanadi, bir qator rasmlarni umumlashtiradi, yangi kompozitsion syujet qidiradi. Tanlovning yuksak saviyada o'tishi unga tayyorgarlik ko'rish va uning qanday tashkil etilishiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Odatda, tanlovlar o'quv yilining boshida maktab ma'muriyati va yoshlar tashkilotlari bilan kelishilgan holda, maktab sharoiti barcha imkoniyatlar hisobga olinib, biror

tantanali kunga yoki biron bir bayram kuniga bag‘ishlangan holda o‘qituvchining sinfdan tashqari ishlar rejasiga kiritiladi.

Tanlov rejasi maktab pedagogika kengashida ko‘rib chiqiladi va kengashda tanlov hakamlar hayiyati tayinlanadi. Hakamlar hayiyati maktab ma‘muriyati yoshlar tashkiloti vakillari adabiyot, texnologiya, tasviriy san‘at o‘qituvchilaridan iborat bo‘ladi. Tanlov o‘tkazilishidan bir, bir yarim oy avval quyidagi mazmunda e‘lon chiqarilishi mumkin: Maktabimizning tasviriy san‘at xonasi “Kamoliddin Behzod izdoshlari” mavzusida yaxshi ishlangan rasmlar tanlovini e‘lon qiladi. Tanlovda qalamtasvirda va rangtasvirda ishlangan rasmlar, modellar qabul qilinadi. Tanlovga yakka o‘quvchi yoki sinf jamoasi ishtirok etish mumkin.

Tanlov shartlari:

1. Rasmlar narsaning o‘ziga qarab, mavzu asosida va miniatyura janrida ishlanadi. Shuningdek, badiiy asarlar asosida illyustratsiyalar, original naqsh namunalari tayyorlanadi va dekorativ bezak ishlari bajariladi.

2. Rasmlar A4 va A3-formatda, akvarelda, guashda, flomaster, oddiy yoki rangli qalamlarda ishlanadi.

3. Modellar qog‘oz, yog‘och, gips, parafin yoki plastilindan tayyorlanadi. Konkurs muddati 30 kun.

G‘oliblar uchun mukofotlar:

1. O‘quvchilar birinchiligi uchun uch mukofot (I-II-III o‘rin).

2. Sinflararo birinchilik uchun ikki mukofot (I-II o‘rin).

Tanlov haqidagi e‘lon bir oy oldin, chiroyli qilib yozilib, maktabning ko‘rinarli joyiga osib qo‘yiladi. E‘lonning mazmuni maktab telegram kanalida ham berib boriladi. Tasviriy san‘at xonasida tanlov uchun topshirilgan ishlarni ro‘yxatga olish daftari tashkil etilib, fan o‘qituvchisi yoki massul shaxs topshirilgan ishlarni qabul qilib, ro‘yxatga olib boradi. Tasviriy san‘at to‘garagi yoki sinf faollaridan tanlovning tashkiliy qo‘mitasi

tuziladi. Qo‘mita a‘zolari tanlovning barcha tashkiliy ishlarini amalga oshirib borishadi. Tanlovga topshirgan ishlarni hakamlar hayiyati ko‘rigiga tayyorlab beradilar. Tanlov muddati tugagach, hakamlar hayiyati hamma ishlarni ko‘rib chiqib, ularni baholaydi. Tanlovda yaxshi deb topilgan ijodiy ishlarning mualliflariga maktab tomonidan tashakkurnomalar bildirilib, g‘oliblarga mukofotlar topshiriladi. Mukofotlar maktab lineykalarida, san‘at kechalarida yoki alohida maktab yig‘ilishida tantanali suratda topshirilishi mumkin. Maktabda o‘tkaziladigan tanlovlarning taxminiy mavzusi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. “Yosh musavvir va sirli qalam”
2. “Biz go‘zallik va ezgulik uchun yashaymiz”.
3. “Rasmlarda ona-Vatan tasviri”.
4. “Bolalarga bering dunyoni”.
5. “Navqiron O‘zbekiston”.
6. “So‘zsiz so‘zlashaylik”.

San‘at kechalari. Tasviriyl san‘atdan o‘tkaziladigan san‘at kechalari bu fan bo‘yicha uyushtiriladigan sinfdan tashqari ishlarning bir turi bo‘lib, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirishda, ularning bilim va malakalarini mustahkamlashda muhim vositalardan biridir. San‘at kechasi, maqsadi va vazifasidan kelib chiqib, tashkil etilayotgan boshqa kechalardan farq qilib, ilmiy va badiiy jihatidan farq qilib, o‘quvchilarning badiiy va estetik hissiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi lozim. San‘at kechasi, albatta biron tantanali kunga, taniqli rassom yoki san‘atshunosning yubileyiga bag‘ishlangan bo‘lib, reja asosida o‘tkaziladi. Kechaning o‘tkazilishi o‘qituvchining darsdan tashqari va kabinet ish rejasida ko‘rsatiladi. Bir oy avval maktab yoshlar tashkilotlari bilan birgalikda kechaning rejasi tuziladi. Reja maktabning pedagogika kengashida ko‘rib chiqilib, u ikki bo‘limdan iborat bo‘ladi.

Birinchi bo‘limda bitta ma’ruza chiqishi qilinadi, ma’ruza yuzasidan ikki-uch o‘quvchi munozara qilishadi. Ikkinchi bo‘lim - badiiy qismdan iborat bo‘lib, bunda viktorina, savol-javob yoki mushoira va konsert uyushtiriladi. Kechani o‘tkazishdan kutilgan maqsadga erishish uchun kechaga jiddiy tayyorlanish lozim. Buning uchun kechani o‘tkazish tadbirlari belgilanadi. Bular taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin: (15-jadval)

15-jadval

№	San’at kechalarini o‘tkazish mazmuni
1.	Kechaning mavzusini belgilab, shu mavzu bo‘yicha ma’ruzachi va muzokaraga chiquvchilarni tanlash, ularga ma’ruza matnlarini tayyorlatish.
2.	Kechada ishtirok etuvchilar uchun maxsus taklifnoma tayyorlash va kechani o‘tkazilishiga 5-6 kun qolganda ularni tarqatish.
3.	Badiiy qism uchun viktorina, savol-javoblar yoki mushoira savollarini tuzib chiqish, shuningdek, maktab badiiy havaskorlari ijrosida ko‘rsatiladigan konsert dasturini tayyorlash.
4.	Kechada faol ishtirok etganlarga, viktorina yoki savol-javoblarga, agar konkurs e’lon qilingan bo‘lsa, beriladigan mukofotlarni tayyorlash.
5.	Kabinet faollaridan va o‘qituvchilardan iborat tashkiliy qo‘mita tuzish va ularga bajarilishi lozim bolgan ishlarni bo‘lib berish.
6.	San’at kechalari haqida e’lon chiqarish.
7.	Kechani o‘tkazish ssenariysini tuzib chiqish, bu ssenariy asosida tayyorgarlikni boshlab yuborish va h.k.

Matbuot ishlari. Maktabda har bir fanning o‘qitilishida uni chuqurroq o‘rganishda va bu fanga o‘quvchilar qiziqishini orttirishda mazkur fan bo‘yicha olib boriladigan matbuot ishlari muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi interent davrida o‘quv fanlarining matbuot ishlarini tashkil etish o‘zining dolzarbligini yo‘qota olmadi. Tasviriy san‘at o‘quv predmeti matbuotning devoriy gazeta shaklidan to‘la foydalanish imkoniyatiga ega. Devoriy gazetalarning vazifasi tasviriy san‘atni keng targ‘ib qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, o‘quvchilarga tasviriy san‘at nazariyasi, grafik ishlarni bajarish yuzasidan nazariy va amaliy ko‘rsatmalar berishdan iboratdir. Bayram va tantanali kunlar, taniqli rassomlarning yubiley kunlariga atab devoriy gazetalar chiqarish mumkin. Tasviriy san‘at fanining devoriy gazetasi “Yosh rassom”, “Kamoliddin Behzod izdoshlari”, “Mo‘yqalam jilvasi”, “Nafosat davrasi”, “Rangtasvir va qalamtasvir” kabi nomlarda chiqarilib, bir necha rukndan tashkil topishi mumkin:

15a-jadval

№	Devoriy gazeta ruknlari
1.	Bosh maqola rukni. Gazeta chiqarilayotgan kunga yoki mavzuga bog‘liq materiallardan iborat bo‘lib, gazetaning har bir sonida, barcha illyustrativ va bezaklar materiallari berib boriladi.
2.	Nazariy materiallar rukni. Rassomlar, haykaltaroshlar ijodi, san‘at asarlarining tahlili, o‘quvchilarga mo‘ljallangan nazariy, amaliy va metodik ko‘rsatmalarga bag‘ishlanadi.
3.	Kabinet ovozi rukni. Maktabda tasviriy san‘at fanining holati, bu fan bo‘yicha o‘quvchilarning o‘zlashtirishlaridagi yutuq-kamchiliklar, ayrim o‘quvchilarning ijodiy ishlari haqidagi materiallar bayon qilinadi.
4.	Eng yaxshi rasm. O‘quvchilarning yaxshi ishlangan

	ishlaridan namunalar, ularning tahlili berilib boradi. Bundan tashqari, shu bo‘limda o‘quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini o‘stirish maqsadida savollar, viktorina, krossvordlar ham berib boriladi.
5.	Yumoristik va hajviy maqolalar rukni. “Rassom xandasi”, “Keling, kulishaylik”, “Mo‘yqalam postidan”, “Fotoapparat bilan sayohat” kabi maqolalar beriladi. Bu bo‘limda tasviriy san’atga oid hajviy maqolalar, habarlar beriladi.

Devoriy gazetadagi har bir maqola mavzulari va mazmuni jihatdan to‘g‘ri tanlanishi, berilayotgan illyustratsiya va materiallar turli xil, qiziqarli, foydali va bir-biriga mos bo‘lishi kerak. Bu gazetaning originalligini oshiradi va uning muxlislarini ko‘paytiradi. *(15a-jadval)*

Ko‘rgazma, stend va albomlar tashkil etish. O‘quvchilarning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirishda, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashda tasviriy san’at xonasida tashkil etiladigan rassomlar va o‘quvchilar ishidan stend, ko‘rgazma, albomlarning ahamiyati katta. Tasviriy san’at predmeti bo‘yicha o‘quvchilar ishidan ko‘rgazmalar tashkil etishning bir necha turi bor bor. O‘quvchilarning dars davomida yoki to‘garaklarda ijodiy ishlari, umumiy holatda tanlab olingan rangtasvir ishlari, cxizmatasvir, haykallar va modellardan iborat bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, maktabda eng yaxshi rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik ishlari uchun tanlov e‘lon qilinib, bu tanlovga kelgan ishlardan ma‘lum muddatli ko‘rgazma tashkil yetib borish mumkin. Ko‘rgazmalar o‘quv yilining choraklar bo‘yicha, yarim yilliklari bo‘yicha tashkil etiladi. Agar topshirilgan ishlar ko‘payib ketsa, ko‘rgazma materiallari bir, bir yarim oyda almashtiriladi. O‘rniga yangi ijodiy ishlar qo‘yib boriladi.

Stendlar aniq bir mavzu yoki biron nazariy ma'lumotlar asosida tayyorlanadi. Stendlar tuzilishi jihatidan ko'rgazmaga o'xshab ketsa-da, mazmuni va maqsadiga ko'ra undan farq qilib, ma'lum bir mavzu asosida, bir o'quv yiliga yoki bir necha yillarga mo'ljallangan holda tayyorlanadi. Stendlar "Rangtasvir", "Grafika", "Haykaltaroshlik", "Me'morchilik obidalari", "Tasviriy san'atda perspektiva va ufq chizig'i", "Rangshunoslik asoslari", "Jahon tasviriy san'at muzeylari", "Tasviriy san'atning nazariy asoslari", "Buyuk rassomlar ijodidan", "Natyurmort va portret ishlash bosqichlari", "O'zbekiston manzarachi rassomlari" kabi mavzularda tayyorlanishi mumkin. Dars davomida va to'garaklarda yaxshi ishlangan o'quvchilarning tasviriy san'at sohasidagi ishlari ham stendga qo'yilishi mumkin. O'quvchilar ishidan ko'rgazma va stendlar tashkil etish bilan birga, ularning eng yaxshi ishlaridan albomlar tayyorlash ham o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Tasviriy san'at fanidan tashkil etiladigan papka va albomlar biror sinf yoki biror o'quvchining grafik ishlari bo'yicha tashkil etilib, uning ichiga yigirmadan ortiq ishlar joylashtiriladi. Agar papka yoki albom sinf ishlari bo'yicha tashkil etilsa, uning birinchi varog'iga sinf haqida ma'lumot, o'quvchi ishidan tashkil etilayotgan bo'lsa, o'quvchi haqidagi ma'lumot yoziladi.¹¹

Albomlar esa biror davr tasviriy san'ati, ikki-uch rassomning ijodiy yo'li yoki dastur materiallari bo'yicha tashkil etilib, uning ichiga 25-50 asarlar reproduksiyalari faylga joylanadi. Albom biror rassom ijodi bo'yicha tashkil etilsa, albomning birinchi varog'iga rassomning ijodiy faoliyati va tarjimai holi haqidagi ma'lumotlar yoziladi. Umuman, maktabda tasviriy san'at bo'yicha olib boriladigan sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning

¹¹ Oripov B.N. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. – N.: "NamDU", 2012. -98-112 b.

o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularning dunyoqarashini kengaytiribgina qolmay, balki ularni estetik jihatdan tarbiyalaydi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tasviriyy san'at fanidan darsdan tashqari ishlarning mazmuni nimalardan iborat?
2. O'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladigan darsdan tashqari ishlar qaysilar?
3. Fakultativ mashg'ulotlar deganda nimani tushunasiz?
4. O'quvchilarning bilimi va malakalarini chuqurlashtirishda darsdan tashqari qaysi tadbirlar muhim rol o'ynaydi?
5. Tasviriyy san'at o'quv fani bo'yicha o'tkaziladigan konsultatsiyalarning mazmunini yoriting.
6. Tasviriyy san'atdan suhbat, ma'ruza, munozaralarni o'tkazishdan maqsad nima?
7. Tasviriyy san'atdan ekskursiyalar qayerlarga uyushtirilishi mumkin?*
8. Tasviriyy san'at fanidan tanlovlar qanday mazmunda o'tkaziladi?

3.3. Tasviriyy san'at fanini o'qitishning zamonaviy ta'limi

Reja: 1. O'qituvchi faoliyatida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarning o'rni. 2. Tasviriyy san'at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish. 3. O'qituvchi faoliyatida innovatsion va interfaol usullar. 4. Moduli o'qitish. 5. O'qituvchi faoliyati psixologik sifatlarining ahamiyati va kreativ fikrlashni shakllantirishda STEAM tizimi.

Tayanch iboralar: Kreativ, innovatsion, zamonaviy, texnologiyalar, didaktik o'yinlar, kreativ fikrlash, STEAM, muammo, PISA, intellektual, noananaviy, ijodiy qobiliyat.

Zamon shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Ziyo tarqatuvchi muallimlarning taraqqiyotdan bir soniya ortda qolishi bu millat bolalarining rivojlanishdan sekinlashishiga, ya'ni dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'lishi kunday a'yon haqiqatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.¹² O'tgan fursatda muallimlarning nufuzini oshirish bo'yicha bir qancha huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga "O'zbekiston sharoitida bugundan boshlab jamiyatdagi eng hurmatli inson muallimdir", deya barchani pedagoglarni hurmat qilishga chaqirdi, yurtimiz rahbari.

Jamiyatimizda o'qituvchini eng hurmatli inson sifatida e'zozlanishi demakki, pedagoglar zimmasiga katta mas'uliyat yuklandi. Bu mas'uliyatni his qilish uchun o'z ustimizda ishlashimiz, o'qishimiz, izlanib, dunyoqarashimizni kengaytirishimiz, madaniyatimiz, ma'rifatimiz bilan nafaqat o'quvchilar, balki xalqimiz mehriga sazovor bo'lishimiz kerak bo'ladi.

Darslarda kreativ fikrlashni shakllantirish va uning samarasi. Kreativlik - bugun dunyoda yuz berayotgan jadal su'ratdagi ilmiy texnologik o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuchdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, raqamlashtirilgan reallik, robotlar, sun'iy intellekt, smart xizmatlarini ko'ramiz. Bularning barchasi inson intellekti va tafakkuri mahsulidir. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan telefon,

¹² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592.

televizor, kompyuter, internet qachonlardir orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan.

Kreativ yondashuvlar jahonda texnologiya, san'at va ijtimoiy fanlar kabi sohalarda insoniyat taraqqiyotini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berish emas, u insonga murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq bilim va tajribalarni beruvich real ko'nikmadir. Butun jahonda barcha jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikni hosil qilishga harakat qilmoqda, bu holat o'z navbatida, kreativ va innovatsion fikrlash ahamiyatini kuchaytirmoqda.

Kreativlik - bu bir vaqtning o'zida yangi va qadrlig'oyalarni yaratuvchi ijodkorlik qobiliyatidir.

Kreativlik inglizcha **“create”** so'zidan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini anglatib, insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning negizida originallik, amaliylik, noodatilik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli yo'nalishdan yondashishni anglatadi.

Ta'limda kreativ fikrlashning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan sohalarga moslashishga ko'maklashadi. Ma'lumki, bugungi o'quvchi kelajakda hozir xatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora

murakkablashayotgan muammolarni kreativ yondashuv orqali yangi muammolarni hal etish imkonini beradi.

Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirish bugungi va ertangi kun uchun ahamiyatlidir. U faqatgina mehnat bozori bilan cheklanib qolmaydi. Kreativ fikrlash o'quvchilarda ta'lim olishning xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etishi bilan belgilanadi. O'quvchining qiziquvchanligi, ijodiy fikrlashi, nostandart vaziyatlarda uni ta'lim jarayonida qo'llashi qo'l keladi. Maktabda o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllarini yo'lga qo'yilishi kerak. Bunda ta'lim jarayonida qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin. Bu holat ularni o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda, xususan tasviriy san'at fanida zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash, undan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shu bilan birga, o'quvchilarga ta'lim jarayonida mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish, kreativ fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish zarur.

Tasviriy san'at fani jarayonida o'quvchining mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, madaniyatli va ma'rifatli bo'lishga, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish, san'at asarlari go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, ularga rioya qilishga o'rgatiladi.

Tasviriy san'at fanida o'quvchilarda kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishda didaktik, ta'limiy, innovatsion o'yinlarning o'rni beqiyos.

Didaktik o'yinlar o'quvchining his-tuyg'usiga ta'sir yetib, unda o'qishga bo'lgan motivatsiya va qiziqish hislatini tarkib toptiradi. O'quvchi didaktik o'yinlarda zo'r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar. O'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Maktab o'quvchilarining individual psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o'qitishda g'oyat samarali bo'lgan qator o'yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Pedagog olimlarning fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko'rinish: mehnat faoliyati, o'yin faoliyati, o'quv faoliyatida shakllanadi. Ularning barchasi o'zaro bog'liq holda sodir bo'ladi va kreativlik bilan bog'liq holda uyg'unlashadi. Ma'lumki, o'quvchilarning maktabdagi o'quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarini shakllanish qonuniyatlari bevosita o'yin faoliyatida tarkib topadi. Ammo o'yinli ta'limni o'quvchilar bilan ishlashdagi asosiy ta'lim shakli deyish to'g'ri emas. U o'quvchida bilish qobiliyatlarini to'liq shakllantirmaydi, biroq ularning bilish, kreativlik, ijodiy faolligini oshiradi, qiziqish uyg'otadi. O'quvchilarda qiziqish bo'lsa, ta'lim sifati yaxshilanadi.

Darslarda o'quvchilarning qiziqishini, kreativlik qobiliyatini rivojlantiruvchi didaktik ta'limiy o'yinlardan misollar keltiramiz.

“Axromatik va xromatik ranglarni top” didaktik o'yini.
(48-49-rasm)

Didaktik topshiriq: O'quvchilarning fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

O'yin qoidasi: O'quvchi rasmlarga qarab axromatik va xromatik ranglarni topishi kerak bo'ladi va soat strelkalarini ularga yo'naltiradi.

Masalan: oq-ko'k, kul rang-zarg'aldoq, qora-pushti, oq-moviy.

“Asosiy va hosila ranglar” ta’limiy, didaktik o‘yini. (50-51-rasm)

O‘yin maqsadi: ranglar bo‘yicha o‘yin o‘quvchilarning ranglar haqida yanada chuqurroq bilim olishlarida, ularning fikrlash qobiliyatlarini, qiziqishini, mantiqiy tafakkurini o‘stirishga, topqirlik, ziyrakliklarini rivojlantirishga yordam beradi;

Tarbiyaviy ahamiyati: o‘quvchilarga o‘yin orqali rangshunoslik asoslari, ranglar munosabatini aniqlash, estetik didni tarbiyalash;

O‘yin qoidasi: bu o‘yinni kichik guruhlar bilan ishlashda darsni mustahkamlash qismida olib borilsa, bo‘ladi. O‘quvchilarga o‘yinni boshlashdan oldin asosiy va qo‘shimcha ranglarni tabiatda uchrashi, ulardan hosila ranglar kelib chiqishi haqida suhbatlashib, tasviriy san’at darslarida bo‘yoqlardan qanday foydalanish haqida tushuncha beriladi. Shu sababli o‘yin qoidasi bo‘yicha o‘quvchilar har bir rangni tabiatda qayerda uchrashini aytib beradilar. Duskada ranglar jadvali bilan birga misollar yozilgan kartotekalar bo‘ladi. Har bir guruhdan o‘quvchilar chiqib, misollar javobini yechishadi. Qaysi guruh o‘quvchilari misollarni xatosiz yechsa bu guruhga ball beriladi.



48-rasm. Axromatik va xromatik ranglarni toping.




49-rasm. Axromatik va xromatik ranglarni aniqlash.

Misollarni o'qituvchi mavzularga moslashtirib olishi mumkin. Har bir guruh ishi ranglarni doskada tasvirlab berishi mumkin. Ranglar jadvalida asosiy va qo'shimcha ranglar tayyorlab qo'yilishi lozim. Xatoga yo'l qo'yilsa, ranglarning nomlari noto'g'ri aytilsa o'qituvchi tomonidan jarimalar aytiladi.



50-rasm. Asosiy ranglar didaktik o'yini.



51-rasm. Hosila ranglar didaktik o'yini.

Ranglarni to'g'ri topgan guruh o'quvchilari g'olib hisoblanadi. Shu o'yin oxirida o'quvchilarga kreativ va tanqidiy fikrlash bo'yicha savollar beriladi. Ranglarni nomlarini to'g'ri aytish uchun uchun nimalar zarur? Ranglarni asosiy va hosila ranglar deyilishiga sabab nima? Nima uchun? kabi savollarga o'quvchilar ijodiy yondashib tanqidiy fikrlashadi.

Kreativ fikrlashning yana bir muhim omillaridan biri hamkorlik. Hamkorlikdagi kreativ fikrlash borasidagi tadqiqotlarga ko'ra, guruh a'zolari maqsadli, opportunistik vaziyatdan kelib chiquvchi va tartibsiz murakkab jarayonlarda ishtirok etgan holda, maqsad qo'yadi va uning ro'yobga chiqishini kuzatadi, bunda guruhning turli a'zolari o'zining kuchli tarafiga asoslanib, guruhda yetakchilikni oladi.

Kreativ fikrlashni shakllantirishda STEAM tizimi va PISA dasturidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda

ushbu tizim va dastur tomonidan taqdim etilayotgan komplekslar va samarali baholash vositalari dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida qo'llanilmoqda.

O'quvchilarning o'qish, matematika, tabiiy hamda tasviriy san'at fanlaridan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan.

STEAM so'zi ingliz tilidan 5 ta so'zning bosh harflaridan tashkil topgan abreviatura bo'lib, unda:

S – Science – Fan;


T – Technology – Texnologiya;

E – Engineering –Muhandislik;

A – Art – San'at;

M – Mathematics – Matematika.

STEAM - ta'lim tizimida o'quvchining kreativlik, qiziquvchanlik, qunt va bugungi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat - muammoni noanaviy usulda hal qilish yoki “problem-solving skills” – inglizchadan “muammoni hal qilish ko'nikmalari” shakllanadi. (52-rasm)



52-rasm. STEAM - ta'lim tizimi.

Shu bilan birga, PISA tadqiqoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Organization for Economic Cooperation and Development(OECD)

tomonidan amalga oshiriladi.

Tadqiqot ilk bora 2000-yili o'tkazilgan va 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi.

Topshiriqni bajarish uchun talab etiladigan intellektual va fikrlash qobiliyatiga ko‘ra ular uchta kognitiv darajaga ajratiladi:

1. Quyi daraja – bir bosqichli amallar.
2. O‘rta daraja – hodisalarni tavsiflash.
3. Yuqori daraja – murakkab ma’lumotlarni tahlil qilish.

O‘zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llash, o‘z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Tizimning har to‘rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda ishtirok etish global miqyosda mamlakatimiz ta’lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O‘zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetentsiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ta’limda kreativlik nimani anglatadi?
2. Tasviriyy san’at darslarida didaktik o‘yinlarning ahamiyati?
3. O‘quvchilarni tasviriyy san’atga qiziqtirish deganda nimani tushunasiz?
4. O‘quvchilarni fanga qiziqtirishni qanday yo‘llari bor?
5. O‘quvchilarni rag‘batlantirish shakllari qaysilar?
6. O‘yin va sarguzasht tarzida o‘tiladigan qanday mashg‘ulotlarni bilasiz?
7. Ko‘rgazmalarni qanday turlari bor va ular bolalarni tasviriyy san’atga qiziqtirishda qanday rol o‘ynaydi?
8. STEAM ta’lim tizimida asosiy xususiyatlari nimada?

3.4. Tasviriyy san'at darslarida tabaqalashtirib o'qitish va individual yondashuv

Reja: 1. Tabaqalashtirilgan ta'limning mazmuni mohiyati. 2. Tabaqalashtirilgan ta'limning turlari. 3. Pedagogik tashxis. 4. Individual yondashuv. 4. Dars ishlanmalar.

Tayanch iboralar: Tabaqalashtirish, daraja, pedagogik tashxis, individual ta'lim, guruh, o'quvchi, natyurmort, dars ishlanma.

Umumiy o'rta ta'limi tizimi o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan, ta'lim berishning innovatsion usullarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday texnologiyalardan biri tabaqalashtirilgan ta'lim turidir. Ta'limda defferentsial (tabaqalashtirilgan) tushunchalari ko'p yillardan beri jahon pedagogika fanida o'rganib kelinadi, hamda bu borada bir qancha ilmiy va amaliy ishlar mavjud

Tabaqallashtirilgan ta'lim o'quvchilarni individual tarzda, shuningdek, guruhlariga ajratib o'qish, ularning mustaqil ishlarini to'g'ri va maqsadga muvofiq tashkil etish orqali barcha o'quvchilar bilim va malakalarini dinamik rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, layoqatini hisobga olib, mashg'ulotlarni tashkil etish orqali dars samaradorligini oshirishiga erishadi.

Ma'lumki, barcha o'quvchilarning qobiliyatlari, fan qiziqishlari, psixologik va estetik xususiyatlari turlicha bo'lganligi sababli berilayotgan bilimlar va shu asosida tashkil etilayotgan metodika hamma o'quvchilarga bir xil ta'sir ko'rsatmaydi. Natijada, ular o'quv materiallarini bir xil o'zlashtirmaydilar. Bunda o'quvchilarga qanday pedagogik ta'sir ko'rsatilganda ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligi muammosi paydo

bo'ladi. Uning samarali yo'llaridan biri ta'limga tabaqallashtirilgan yondashuvdir.

Pedagogika nazariyasi pedagog olimlar tomonidan tabaqallashtirilgan ta'limni ikki turi qayd qilinadi:

1. Darajali tabaqallashtirish.
2. Ixtisoslashtirilgan tabaqallashtirish.

O'z navbatida darajali tabaqallashtirish ikki turga bo'linadi:

1. Individual ta'lim. Bunda o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab har bir o'quvchi bilan alohida-alohida ish olib boriladi.

2. Guruhli ta'lim. Bunda o'quvchilarni qobiliyati va imkoniyatlariga qarab ularni ikki va undan ortiq guruhlariga ajratib o'qitiladi.

Ixtisoslashtirilgan tabaqallashtirish esa u yoki bu fanni chuqur o'rgatish, o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Bular qatoriga tasviriyy san'atni chuqur o'rgatadigan fakultativlar, to'garaklar kiradi.

O'quvchilarni har jihatdan bilish uchun o'qituvchi tomonidan o'quvchilar orasida pedagogik va psixologik tashxis o'tkazishi zarur bo'ladi. Bu ish bivosita quyidagilar bilan bog'liq: o'quvchining umumiy qobiliyati, uning xarakteri, qaysi fanga qiziqishi, tasavvur, tafakkur va ijodiy fikrlash darajasi, faolligi va fantaziyasi, xotira va kuzatuvchanligi, diqqati, tashabbuskorligi, mustaqilligi, uyda mashg'ulotlar uchun bo'lgan shart-sharoitlari v.b. Tashxisda o'quvchilar sog'ligi va fiziologik o'sishini bilish ham foydadan holi emas.

Shuningdek, o'quvchilarni qush va hayvonlarga, kasb-hunarlariga, san'at turlariga, sport qiziqishlarini bilish ham muhim. Chunki, o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ularni ana

shunday qiziqishlariga qarab ta'lim berishning samarali ekanligi fanimizda anchadan buyon ma'lum.

Darajali tabaqalashtirib o'qitishning yagona bir ko'rinishi mavjud bo'lib, unda o'quvchilarni fanlar bo'yicha bilim va malakalarining darajasiga qarab emas, balki umumiy tarzda tabaqalashtirishidir. Bunda o'quvchilarni temperamenti asosiy rol o'ynaydi. Bunday sifatlar bo'yicha tabaqalashtirilganda o'quvchilar xoleriklar, sangvinlar, flegmatiklar va melonxoliklar guruhlaridan tashkil topadi.

Chunki, o'qituvchi jarayonida o'quvchilarga topshiriqlar berganda biror narsani talab qilganda, ularni psixologik xususiyatlariga tayanish samarali kechadi. Ishning saviyasi ko'p jihatdan o'quvchilarni ana shu sifatlarini bilib, to'g'ri munosabatda bo'lishlikka bog'liqdir.

O'quvchilarning bilim va malakalari, ijodiy qobiliyatlari, qiziqishlari, idroklarini hisobga olib o'tkaziladigan pedagogik tashxis ishlari quyidagi tashkiliy ishlab bilan bolliq:

- o'quvchilar bilimlarini aniqlash uchun test materiallarini tayyorlash;
- o'quvchilarning bilim va malakalarini aniqlash uchun anketa savolnomalar tayyorlash;
- o'quvchilarning bilim va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- o'quvchilarning bilim va malakalarini aniqlashga doir didaktik materiallar tayyorlash;

Tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirish uchun psixologik-pedagogik tashxisdan so'ng o'quvchilarni shartli ravishda uch guruhga ajratib olinadi:¹³

- Birinchi guruh (bo'sh o'zlashtiruvchilar); bu guruhda tasviriy faoliyati sust, bo'sh o'zlashtiruvchi, bajargan ishlarida

¹³ Qodirov K.B. Tabaqalashtirilgan ta'limda psixologik-pedagogik tashxis. Maktab o'qituvchilari hamda oliy o'quv yurt talabalari uchun ilmiy-metodik tavsiyalar. –Toshkent: O'zPFITI 2005. -27 b.

qo‘pol xatoliklar mavjud, Qo‘yilgan maqsadga to‘laligicha erisha olmaydilar. Bu guruhga ijodkorlik faoliyati va badiiy didi shakllanmagan bolalarni kiritishimiz mumkin.

- Ikkinchi guruh (o‘rta o‘zlashtiruvchilar); bajargan ishlarida qo‘pol xatoliklar yo‘q, ammo ifodalilik, jonlilik sezilmaydi. Qo‘yilgan maqsadga har doim to‘laligicha erisha olmaydilar. Bu guruhga ijodkorlik faoliyati va badiiy didi sust bolalarni kiritishimiz mumkin.

- Uchinchi guruh (yuqori o‘zlashtiruvchilar); badiiy qobiliyatlariga ega, hamda tasviriy faoliyatga ko‘nikma va malakalarga ega bolalar tashkil etadi. Bu guruhdagi bolalarning ishlari kompozitsion va originalligi bilan qiziqarlidir. O‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishda maqsadga to‘liq erishadilar. Tassavuri kuchli, boy fantaziyaga ega bu bolalar erkin mavzularda ijod etishni va rasm ishlashni yaxshi ko‘radilar.

Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi bo‘yicha darslarni tashkil etilishi uch xil variantda bo‘lishi mumkin:

1-variant:

Dars barcha o‘quvchilar uchun yangi materiallarni namoyish etish bilan boshlanadi, so‘ngra past o‘zlashtiruvchi guruhga kartochka-topshiriqlari beriladi. Dars davomida o‘rta va yuqori o‘zlashtiruvchi guruh o‘quvchilariga individual maslahatlar beriladi. Dars o‘quvchilarning ishlarini tahlil qilish bilan yakunlanadi.

Variant 2:

Vazifaning mavzusi e‘lon qilingandan so‘ng, yuqori va o‘rta o‘zlashtiruvchi guruh o‘quvchilariga mustaqil ish uchun topshiriq beriladi, past o‘zlashtiruvchi guruh bilan individual ish olib boriladi. Dars o‘quvchilarning ishlarini tahlil qilish bilan yakunlanadi.

3-variant:

Yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchilari yangi mavzuni tinglangandan so'ng topshiriqni darhol bajarishni boshlashadi. Past va o'rta o'zlashtiruvchi guruhlariga esa kartochna-topshiriqlarini berish bilan individual ish olib boriladi. Dars oxirida bolalarning ishlari tahlil qilinadi.

Shu bilan birga tabaqalashtirilgan ta'limning murakkab tomonlarini mavjudligini ham alohida qayd qilish lozim. Murakkab tomonlaridan biri o'qituvchining uch xil darajadagi dasturlar¹⁴ asosida mashg'ulot olib borishi bilan bog'liq. Buning uchun har bir guruh uchun tasviriy san'atdan alohida darsliklar, metodika, didaktik va tarqatma materiallar, texnika vositalari kerak bo'ladikim, ularsiz mashg'ulotlarni talablar darajasida tashkil yetib bo'lmaydi.

Tabaqalashtirilgan ta'lim mazmunini, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, u uch toifaga bo'linadi:

1. Dasturning minimum darajasi. U tasviriy san'at o'quv predmetidan ta'limning davlat standartlarida belgilangan bilimlarni nazarda tutadi. Ta'lim mazmunining bu toifasida o'quvchilarning bilim va malakalari, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish minimum darajada bo'ladi.

2. Dasturning o'rtacha darajasi. Tasviriy san'atdan beriladigan bilimlar va malakalar ta'limning davlat standartlarida ko'rsatilgan minimum darajadan yuqoriroq bo'ladi. O'quvchilarda ijodiy fikrlash va fantaziyani talab etadigan topshiriqlar minimum darajada qoladi.

3. Dasturning yuqori darajasi. Tasviriy san'atdan o'quvchilarning idroki, qobiliyatini hisobga olgan holda ularga keng bilim va chuqur malakalar beradigan, ularning ijodkorligini, iste'dodini ro'yobga chiqaradigan mashg'ulotlardan tashkil topadi.

¹⁴ Xayrov R.Z. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga individual yondashuv. Monografiya. – T.: Ilm Ziya Zakovat. 2021 yil. - 102 b.

Tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishda birinchidan, o'quvchilarga tasviriy san'atdan beriladigan bilim va malakalarning dozasi, topshiriqni bajarishga ketadigan vaqt, o'quvchining bu topshiriqni bajarishga bo'lgan layoqatini o'qituvchi tomonidan aniq tasavvur etilishi lozim. Ikkinchidan ta'lim mazmunini tinglovchilar ongiga singdirish uchun metodikani to'g'ri tanlash hamda bu metodikani amalga oshirishga xizmat qiladigan moddiy-texnikaviy asosning yaratish muhimidir.

Tasviriy san'at darslarida o'quvilarga individual yondashuv.

Individual o'qitish deganda tabaqalashtirib o'qitishning bir turi sifatida yuqorida qayd qilingan sifatlarni hisobga olib o'quvchilar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ta'limiy ishlar tushuniladi. O'quvchining ta'lim jarayonida individual tomonlarini hisobga olish juda uzoq davrlarga borib taqaladi, chunki ta'lim olishda o'quvchilar bir-biridan farq qiladilar. Ushbu talablar pedagogik nazariyada individual yondashuv prinsipi deyiladi. Individualizatsiya deganda o'zi individual o'quv jarayonini tashkil etishda, ta'lim oluvchilarning rivojlanish ko'rsatkichi, ularning qobiliyatlariga qarab o'quv yo'llari, usullari tanlanib olinishi tushuniladi.

Tasviriy san'atdan o'quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish yuzasidan o'tkaziladigan psixologik-pedagogik tashxisning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, psixodiagnostik metodlari, bolaning tasviriy qobiliyatlarini aniqlash usullari aks ettirilgan.

Qayd qilingan mezonlar asosida o'qituvchi o'quvchilarni tashxislash orqali ularning o'quv imkoniyatlarini aniqlaydi va uni uch toifaga bo'lish mumkin: yuqori, o'rta va kuyi daraja. Shu bilan birga o'quvchilarga individual yondashish uchun o'qish

jarayonida olgan bilim va malakalari hajmi; o'quv materiallarini tahlil qilish, umumlashtirish malakalarining mavjudligi; mustaqillik, o'quv ko'nikmalari; o'quvchilarning o'qishga, o'rganishga tayyorgarlik darajasi; ularning ishchanlik darajasi; o'qishga bo'lgan havasi, qiziqishi va qat'iyatlik darajasi kabi sifatlarga e'tibor qaratiladi. (16-jadval)

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga individual yondashuvda topshiriqlarni o'quvchilarning tayyorgarligini hisobga olgan holda quydagilar tavsiya etiladi:

- a) topshiriqlar dozasini o'quvchilarning individual tasviriy qobiliyatlaridan kelib chiqib taqsimlash;
- b) ta'lim oluvchilar uchun topshiriqlar kartochkasini tayyorlab qo'yish;
- v) bajarilishi shart bo'lgan frontal topshiriqlarni bajargandan so'ng qo'shimcha topshiriqlar berish;
- g) o'quvchilarni individual xususiyatlaridan kelib chiqib, suhbatlar o'tkazish.

16-jadval

O'quv- chining FISH	rasmning qog'oz yuzasida joylashuvi (komponovka)	ishning mustaqil bajarilish darajasi	rasm mazmunining mavzusiga mosligi	bajarilgan ishdagi badiiy-estetik did	rasm kompozitsiyasi, yechimi, ishga ijodiy yondashuv	narsa, hodisalarning o'lchov va o'lchov nisbatlari	ishda perspektiva qonunlariga rioya qilinganligi	rasmda ranglar yechimi	qalam va mo'yqalam bilan ishlash malakalari	ishning toza va tartibli bajarilishi
------------------------------------	---	--------------------------------------	------------------------------------	---------------------------------------	---	---	---	------------------------	--	---

Mashg'ulotlar asosan yangi materialni bayon etish bilan boshlanib, so'ng guruh o'quvchilariga topshiriqlar beriladi.

Yuqori o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga ularning individual qobiliyatlaridan kelib chiqib, murakkab tuzilgan kompozitsiyalar taklif etiladi. Dars davomida bolalarning ishlari kuzatilib, individual maslahatlar berilib borildi. Bajarilgan ishlarni tahlil etish bilan dars yakunlandi.

Quyida biz tasviriy san’at darslarida ayrim mavzular asosida o‘quvchilarga individual yondashish bo‘yicha metodlarini taklif etmoqdamiz.

Quyida shunday metod asosida loyihalangan darsni ko‘rib chiqamiz (17,18-jadval).

Mavzu: Rang tushlari jihatidan qarama-qarshi (kontrast) buyumlardan tashkil topgan natyurmortni grafik usulida ishlash. Texnologik xarita

17-jadval.

Mavzu:	Rang tushlari jihatidan qarama-qarshi (kontrast) buyumlardan tashkil topgan natyurmortni grafik usulida ishlash
Maqsad va vazifalar	<i>Maqsad:</i> Natyurmort chizish tartibini tushuntirish. Naturaning xarakterli jihatlarini ko‘rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetenttsiyasini shakllantirish. <i>Vazifalar:</i> Natyurmort chizish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish va amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarishni o‘rgatish.
O‘quv jarayonining mazmuni	O‘quvchilarga natyurmort janri haqida tushuncha berish. Ko‘rgazmali o‘quv plakatlar, proyektordan va doskadan foydalanish, natyurmort chizilgan namunalar orqali tushuntirish. “Samimiy muloqat”.

	Topshiriqlarni murakkabligiga qarab o'quvchilarga taqsimlash 1,2,3-guruh. Pedagogik rasm. "Master-klass". "Muvaffaqiyat qozonish" holatini yaratish.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<i>Uslub:</i> So'zlab berish, interfaol usullar "Aqliy hujum," "Guruhlarga bo'lish", "Palitra", "Klaster" texnologiyasi. <i>Shakl:</i> Suhbat, munozara. Mustaqil ishlash, amaliy ish bajarish. <i>Vosita:</i> Tasviriy san'atdan o'quv qurollari, tarqatma materiallar, reproduksiylar, sinf doskasi, AKT. <i>Usul:</i> Individual yondashuv, "Rassom husnixati". <i>Nazorat:</i> Savol-javoblar, chizilgan rasmlar (grafik ish) <i>Baholash:</i> Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash
Kutiladigan natijalar	<i>O'qituvchi:</i> Berilgan vaqt ichida mavzu o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga to'liq erishish. O'quvchilar faolligi oshadi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'onadi. Yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchilar murakkab topshiriqni yakunlay olishadi. <i>O'quvchi:</i> Qalam va bo'yoqda ishlash bo'yicha bilimlarni egallaydi. Savol javoblarga qatnashib mustaqil fikrlashni o'rganadi, yakka holda mustaqil ishlaydi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi va baholar oladi. Ma'suliyat va yutuq quvonchini his qiladi, o'z qobiliyatini anglaydi, o'ziga ishonch hosil qiladi.

Darsning tuzilishi		
1	Tashkiliy qism: a. Salomlashish b. Davomatni aniqlash c. O‘quvchilarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish	3
2	O‘tilgan mavzuni takrorlash.	7
3	Yangi materialni bayon etish, mustaqil ish, o‘quvchilarning mustaqil ishlari.	22
4	O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Savol - javob.	7
5	Darsni yakunlash. Uyga vazifa berish.	6

Darsning borishi: O‘quvchilar davomatini aniqlash, xonani darsga hozirlash hamda tozaligini nazorat qilish va shu bilan barcha o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini ta’minlash, qisqacha yangiliklar bilan tanishtirish maqsadida o‘zaro savol-javob tashkil etish.

O‘tilgan dars: Milliy idish-tovoqlardan tuzilgan mavzuli natyurmort (2-3 ta buyum) ni rangtasvirda ishlash.

Barcha o‘quvchilarning uy ishlari orasidan guruhlardan 3-tadan tanlab olib doskaga ilinadi. O‘quvchilarning o‘zidan tuzilgan ijodiy guruh tomonidan bildirilgan fikr takliflar maxsus xona taxtasiga yozib boriladi. O‘quvchilar ishidagi kamchiliklarni ko‘rsatib, keyingi ishlarda shu kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatiladi.

Yangi mavzu: Rang tuslari jihatidan qarama-qarshi (kontrast) buyumlardan tashkil topgan natyurmortni grafik usulda ishlash.

Darsning jihozlanishi: L.Salimjonovanning “Qora kofe”, X. Yakupovning “O‘zbekiston dasturxonlari” nomli asarlarining reproduksiyasi yoki slaydi. “Paxta” chinni servizi (bir necha (!) lagan, bir nechta choynak, tarelka, piyola). Xorijiy mamlakat natyurmortchi rassomlarining serviz tasvirlangan asarlarining reproduksiyalari.

Darsning mazmuni: Yangi mavzuga bag‘ishlangan darsning boshlanish qismida natyurmort haqida qisqacha suhbat o‘tkaziladi. U taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin:

“Bolalar, siz turli buyumlar, mevalar va sabzavotlar, gullardan tashkil topgan natyurmortlarning bir necha bor rasmini ishlagansiz. Bu mavzuda rasm ishlagan ko‘pgina rassomlarni ham bilasiz. Qani, eslab ko‘ring-chi, qaysi rassomlar ro‘zg‘or buyumlaridan natyurmortlar ishlagan. Rassomlarimizdan Yu.Elizarov. Z.Kovalevskaya, N.Kashina, L.Salimjonova, M.Toxtaev, chet el rassomlaridan Sharden, Kalf, Snayderslar ham bu sohada shuhrat qozonganlar. Bu rassomlar o‘z natyurmortlarida turmushda ishlatiladigan buyumlarni tasvirlar ekanlar, ularning nihoyatda go‘zalligini, maqsadga muvofiq tuzilganligini, rang va shakllarining betakrorligini tasvirlab berganlar.”

L.Salimjonovanning “Qora kofe” nomli natyurmortida asosan kofe ichiladigan idishlar tasviri berilgan. Kuzatish orqali bu asarning kompozitsiyasi, ranglari va boshqa tomonlari bolalar ishtirokida quyidagicha tahlil qilinadi:

- Bu predmetlar qanday materiallardan tayyorlangan?
- Natyurmortni umumiy eni kattami yoki bo‘yimi? Har bir predmetningchi?
- Qaysi predmetlarda perspektiv qisqarish bor?
- Servizning badiiy bezagida qanday naqsh unsurlari ishlatilgan? Ularning shakli, o‘lchovi qanday?
- Servizda ranglar qanday berilgan?

- Predmetlarda blik, yorug‘soya, yarimsoya, reflekslar bormi? Bo‘lsa ular qaysi buyumda, qanday o‘lchovda va qanday shaklda?

Bolalarga mustaqil kuzatish uchun ajratilgan vaqt tugaganidan so‘ng ana shu savollar asosida natura tahlil qilinadi, o‘qituvchi savol beradi, bolalar javob qaytaradilar.

Savol-javob, o‘quvchilarning uyda bajargan ishlari bo‘yicha o‘quvchilar sinfda qobiliyati va layoqatiga qarab guruhlanadi. O‘quvchilarning individual tasvirlash qobiliyatlaridan kelib chiqib, sinfdagi o‘quvchilarni quyidagi 3ta guruhlariga ajratish mumkin:



1-guruh

2-guruh

3-guruh

53-rasm. “Paxta”servizini tasvirlash

birinchi guruh (bo‘sh o‘zlashtiruvchi) o‘quvchilar, tasviriy faoliyatga sust tayyorgarlik ko‘rgan o‘quvchilar. Ularning ishlarida qo‘pol xatolarni ko‘rishimiz mumkin. Bu guruhga badiiy did va ijodiy tasavvuri rivojlanmagan bolalarni ham kiritish mumkin.

ikkinchi guruhga (o‘rta o‘zlashtiruvchi) o‘kuvchilar, ishlarida qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yilmagan, ammo ishlari ifodali ko‘rinishga ega emas. O‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan masalalar har doim to‘liq bajarilmaydi. Bu guruhga sust rivojlangan badiiy did, ammo ijodiy tasavvurga ega bolalarni kiritishimiz mumkin.

uchinchi guruh (yuqori o‘zlashtiruvchi) o‘quvchilar, tasviriy faoliyatga malaka va layoqatlari yuqori, qobiliyatli bolalar tashkil etadi. Bu guruhdagi bolalarning ishlari kompazitsion va

rangtasvirli xarakterga ega. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlar to'liq bajariladi. Yorqin ranglarda rasm ishlashni yoqtiradilar, boy tasavvur va fantaziyaga egadirlar.

O'qituvchi bolalarning navbatdagi vazifalarini tushuntirish uchun rang tuslari jihatidan qarama-qarshi (kontrast) buyumlardan tashkil topgan natyurmortni ishlash maqsadida "Paxta" servizini tanlaydi. Natyurmortni tasvirlashda taglik ustiga chizish uchun o'rnatadi. Taglik sifatida stuldan foydalanish mumkin.

Natyurmortni uchta joyga o'rnatish mumkin. Bunda bolalarning tasviriy san'atga bo'lgan qobiliyati va layoqatlaridan kelib chiqib, natyurmortni sodda, o'rtacha va murakkab tarzda tuzib o'rnatilishi mumkin. (53-rasm)

Natyurmortni o'rnatishda bolalar ham ishtirok etadilar. Chunki, u ma'lum vaqtni talab etadi va bu vaqt davomida bolalarni bu ishga jalb etish sinfda tartib-intizomni saqlash va bolalarni natura bilan kengroq va chuqurroq tanishishlariga imkon beradi.

Natyurmortni sinfning 3 ta erga o'rnatilishining yana bir sababi, natyurmorti sinfning orqa tomonidagi o'tirgan bolalar uchun yaxshi ko'rinmasligidadir.

Natyurmort o'rnatilib bo'lingach, sinfdagi o'quvchilarga xohlagan natyurmortni chizishlari tavsiya etiladi va shu natyurmort to'g'risiga joylashish imkoni beriladi. Bunda past o'zlashtiruvchilarga "Sen yaxshi chiza olmaysan, shuning uchun faqat piyolani chizasan!" degan so'zlar aytilmaslik kerak, chunki bunda bola o'zini kamsitilgan sezishi mumkin. Aksincha, kim piyolani chiroyli chizadi? kabi qiziqtirish yo'llari bilan bolalarni birinchi natyurmortga jalb etish mumkin. Ikkinchi natyurmortda ham bolalarga, sen buni chizgansan oldin, kabi so'zlar bilan bolalarni joylash mumkin. Uchinchi natyurmortni tasvirlashga kuchli 2-3 bola jalb etiladi, sen yaxshi chizasan, kabi so'zlar


orqali shu joyga joylashtiriladi. Bunda uchinchi guruhga manmanlikga berilib ketmasligini nazorat etish kerak.

O'quvchilar joylashgandan so'ng ularning e'tibori natyurmortga qaratilib, uni bolalar mustaqil kuzatishlari uchun imkon beriladi. Kuzatish jarayonida o'quvchilar quyidagi savollarga javob topishlari lozim:

- Natyurmortni qanday nomlash mumkin?
- Natyurmort qanday predmetlardan tuzilgan?
- Natyurmortdagi predmetlarni boshqacha joylashtirsa bo'ladimi?
- Bu predmetlar qanday materiallardan tayyorlangan?



1-bosqich



2-bosqich



3-bosqich

53-rasm. Natyurmortning rasmini ishlash yo'li uchala guruh uchun ham doskada bosqichma-bosqich chizib ko'rsatiladi

-Natyurmortning umumiy eni kattami yoki bo'yimi? Har bir predmetnikichi?

-Servizning badiiy bezagida qanday naqsh unsurlari ishlatilgan? Ularning shakli, o'lchovi, rangi, qanaqa?

-Predmetlarda blik, yorug'soya, yarimsoya, reflekslar bormi?

Birinchi bosqich: Natyurmortni umumiy balandligi va kengligi, naturada qo'yilgan predmetlarning o'zaro nisbatlari hisobga olingan holda qog'ozga kontur chiziqlar yordamida geometrik shakllar joylashtiriladi.


Ikkinchi bosqich: Naturaga karab narsalarning shakllari aniq tasvirlanadi va yorug‘ soyalar belgilab olinadi.

Uchinchi bosqich: Narsaning o‘ziga qarab eng to‘q joylari shtrixlanadi.


Har bir chiziqni hajm yo‘nalishlariga qarab (undagi yorug‘ soya, shaxsiy soya, refleks) tuslanadi, 4, 5, 6 va so‘ngi bosqichgacha tushuntiriladi (proyektorsiz o‘qituvchilar maxsus tayyorlangan plakatdan ham foydanishi mumkin).

Tasviriy san‘at o‘qituvchisi tomonidan qo‘yilgan natyurmortni to‘liq tasvirlanish yo‘llari va bosqichlari shu tarzda tushuntiriladi. (54-rasm)


Rasm ishlash yo‘llari bolalarga tushunarli bo‘lganidan so‘ng u doskadan o‘chirib tashlanadi. Aks holda bolalar naturaga qaramasdan rasmni doskadan ko‘chirib oladilar. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, bolalarni rasmdan ko‘chirib olishga emas, naturadan chizishga o‘rgatish lozim. Tayyor rasmdan ko‘chirish naturadan chizishga nisbatan ancha oson. Qolaversa, sinfdagi natyurmort turli tomondan turlicha ko‘rinadi, ya‘ni bolalarning biriga natura to‘g‘risidan, boshqasiga yonboshidan, yana biriga ma‘lum burchak ostidan ko‘rinadi. Shuning uchun har bir bola o‘zi o‘tirgan joydan qanday ko‘rinsa shunday chizishi lozim.



1-guruh



2-guruh



3-guruh


55-rasm. Natyurmortni kichiraytirilgan tarzda albomning burchagida qalamda tasvirlash.

Bolalar mustaqil ishlash jarayonida ko‘pincha tasvirlashni qaysi joyidan, qanday boshlashdan qo‘rqishadi. Buni **“Toza qog‘oz”**dan qo‘rquvi, deb olamiz. Bunday vaziyatda o‘quvchilar uchun avvalo natyurmortni qog‘oz yuzasiga komponovkasini ko‘rsatib berish kerak. Ya’ni qog‘ozning yoki albomning burchagiga natyurmortni kichiraytirilgan tarzda qalamda tasvirlab berish mumkin. (55-rasm) Dars yakunida sinfda bajariladigan ishlardan kichik ko‘rgazma tashkil etiladi va ularni tahlil qilinadi.

Uyga vazifa, rassomlarning jurnal va kitoblarda berilgan natyurmortlar reproduksiylari va otkritkalarini yig‘ish va albomga yopishtirish vazifa qilib topshiriladi.

Mavzu: “Koinotga sayohat” mavzusida kompozitsiya ishlash. 3-sinf.

Jihozlanishi: rasm daftari, oddiy qora qalam va akvarel bo‘yoqlari, mo‘yqalam, o‘chirg‘ich, bahogi manzara reproduksiylari.



56-rasm. “Koinotga sayohat” mavzusida kompozitsiya ishlash.

Darsning mazmuni: O‘quvchilarga koinot olami, kosmonavtika haqida ma’lumot berish hamda uni idrok etishda koinot ko‘rinishi, undagi ranglar haqida suhbat o‘tkaziladi, “Koinotga sayohat” mavzusida kompozitsiya ishlashda kosmik

kemalar, planetalar, kosmonavtlarni tasavvur etishi haqida ma'lumot beriladi. Sinf doskasida o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan koinot olamiga oid manzara na'munalarini namoyish yetib, o'quvchilarning koinot olamiga bo'lgan qiziqishlaridan chiqib, quyidagi tarzdagi variantlarni tavsiya etadi. (56-rasm)

1.Birinchi guruh o'quvchilari uchun: "Koinot olamiga sayohat qilish uchun sizga yoqadigan kosmik kemani tanlang va rasm daftarga rangli qalamlarida tasvirlang"

2.Ikkinchi guruh o'quvchilari uchun: "Koinot olamidagi Saturn, Yupiter, Mars, Venera sayyoralarni rangli qalamlar va flomasterlar yordamida tasvirlang"

3.Uchinchi guruh o'quvchilari uchun: "Turli xil koinot olamida yashovchi robot va mavjudotlarni tasvirlang: Vall-I, BYorn-I, "Xazinalar planetasi", "Qizil planeta siri", "Kosmik qaroqchi Xarlok" va boshqa multfilmlar personajlarini guash yoki akvarelda tasvirlang" (56-rasm).

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga individual yondashishning metodik usullaridan mohirona foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, chunki barcha o'quvchilar, istisnosiz, o'qituvchining diqqat va e'tiborida bo'lishadi; maktab o'quvchilarining individual xususiyatlariga asoslanib, o'qituvchi barcha o'quvchilariga nafaqat tasviriy san'at sohasidagi bilim, ko'nikmalarning minimal zaruriy bilimlarni berishi, shu bilan birga ularning ijodkorligi, badiiy qobiliyatlarini, ma'lum darajada mahoratlarini maksimal darajada oshirishga imkon beradigan tarzda mashg'ulotlarni tashkil qilishi mumkin; tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga individual yondashish tufayli maktab o'quvchilarining o'quv va ijodiy faolligi faollashadi, topshiriqlarni bajarishda mustaqil ishlash darajasi, yangi bilimlarni o'rganishga, fanga qiziqishi yanada oshadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tabaqalashtirilgan ta'lim mazmuni nimada?
2. Tabaqalashtirilgan ta'lim turlari?
3. Dasturning minimum darajasi nima?
4. Topshiriqlarni tabaqalashtirish, deganda nimani tushunasiz?
5. Tasviriy san'at darslarida individual yondashuv deganda nimani tushunasiz?
6. Darslarda pedagogik tashxis qanday amalga oshiriladi?
7. Darsning texnologik xaritasi nima?
8. Tasviriy san'at darslarida yana qanday texnologiyalarni qo'llash mumkin.

3.5. Tasviriy san'at xonasi, uni tashkil etish va jihozlash

Reja: 1. Maktabda tasviriy san'at xonasini bo'lishligi ahamiyati. 2. Tasviriy san'at xonasining jihozlari va o'quv qurollari bilan ta'minoti. 3. Tasviriy san'at xonasida olib boriladigan ta'limiy va tarbiyaviy ishlar. 4. Tasviriy san'at xonasiga qo'yiladigan talabalar. 5. Xonani zamonaviy ko'rgazmali badiiy vositalar bilan jihozlashda o'quvchilarning ishtiroki. 6. Tasviriy san'at xonasining ish rejasi.

Tayanch iboralar: Reproduksiya, natura, mulyaj, modellar, drapirovka, safit, molbert, etyudnik, ekspozitsiya, planshet, podramnik, stend, albom.

Tasviriy san'at fani darslarini davlat ta'lim standartlari talablari darajasida o'tkazish uchun tasviriy san'at xonasini tashkil etish va uni jihozlash zarur. Bugungi kunda tasviriy san'at fani darslarida ko'rgazmali didaktik va metodik materiallar, turli xil texnika vositalari shunchalik ko'p ishlatiladi, ularni maxsus xonalarga to'plash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tasviriy san'at fani bo'yicha ta'lim jarayonini tashkil etish ishlarining hajmi va turlari xilma-xildir. Maktablarda tasviriy san'at xonasining zaruriyatini quyidagilar belgilaydi:

- tasviriy san'at fani darslarining sifati va samaradorligini oshirish;



57-rasm. Tasviriy san'at xonasi.

- tasviriy san'at fanidan sinfdan tashqari ishlarni (ko'rgazma, suhbat, munozara, uchrashuv, tanlov, kecha v.b.) tashkil etish;
- tasviriy va amaliy san'atdan to'garak ishlarini o'tkazish;
- o'quvchilarning darsdan tashqari mustaqil ishlarini o'tkazish;
- jamoa bo'lib tasviriy san'atdan taqdimotlarni tomosha va munozara qilish v.b.

Tasviriy san'at asarlarini, kompozitsiya, perspektiva, rangshunoslik, yorug'-soya qonunlarini, rassomlarning hayoti va ijodini o'rganishda maxsus xonaning ahamiyati kattadir. (57-58-rasm)

Tasviriy san'at xonasining bo'lishligi yana shu bilan ham izohlanadiki, unda o'zbek va chet el tasviriy san'ati namoyondalari, amaliy san'at va me'morchilik asarlarining reproduksiyalari, perspektiva, kompozitsiya, rangshunoslik

qonunlariga oid chizish va bo'yash usullarini ko'rsatuvchi jadvallar borki, ulardan unumli foydalanish zarur bo'ladi.



58-rasm. Tasviriy san'at predmetining o'qitilishini talablar darajasiga ko'tarish uchun har bir maktabda maxsus xona bo'lish shart.

Tasviriy san'at fani darslarini sifatli tashkil etish, rasm chizish uchun molbert yoki maxsus partalar, natura qo'yish uchun ekspozitsiya stoli, naturani sun'iy ravishda yorug'lantiruvchi safitalar kerak bo'ladi. Tasviriy san'at fani xonasi bo'lmasa bu ko'rsatilgan jihozlarni o'qituvchi sinfdan-sinfga ko'tarib yurishiga to'g'ri keladi. (59-rasm) Bugungi kunda, boshqa fanlar qatori tasviriy san'at fani darslarini kompyuter texnikasi vositalarisiz tasavvur yetib bo'lmaydi. Chunki, san'atshunoslik asoslari kursini o'tishda ko'plab prezentatsiya, filmlar, roliklar namoyish etilishi kerak. Maktablarni kompyuterlashtirish davrida maxsus xonaning bo'lishi yanada oydinlashadi.



59-rasm. Tasviriy san'at xonasi jihozlanishi.

Tasviriy san'at fani darslarining qiziqarli va sermazmun bo'lishi uchun xonaning maxsus shkaflarida qalamlar, guash, akvarel bo'yoqlar, sous, pastel, rangli tushlar, plastilin, rangli qog'ozlar, gazlama parchalari, sabzavot va meva urug'lari, haykaltaroshlik uchun maxsus loy, tabiiy materiallarni saqlash maqsadga muvofiqdir. Ko'rgazmali qurollarni yig'ish uchun o'qituvchi reproduksiya, otkritkalar, turmushda qo'llaniladigan buyumlar, uy-ro'zg'or buyumlari, musiqa asboblari va boshqalardan ham unumli foydalanadi.

Tasviriy san'at fani o'qituvchilari, ta'lim va tarbiyadagi imkoniyatlaridan samarali foydalanishda tasviriy san'atga oid kitoblar, broshyura, albom, diafilm, diapozitiv, san'at asarlari reproduksiya, otkritkalarining roli kattaligini tushunib yetadilar va bunga yetarlicha e'tibor qaratadilar. Ko'rgazmali qurollarni tasviriy san'at xonasida shkaflar va stol ostlarida alohida-alohida o'rinlar


ajratib va ulardan maqsadga muvofiq foydalanadiladi. Ko'rgazmalar xonada shunday joylashtiriladiki, tasviriy san'at o'qituvchi ishlatish vaqti kelganda har qanday sharoitda xohlagan ko'rgazmasini hech qiynalmasdan bir zumdayoq topa olishi zarur. Xonada ko'rgazmali qurollarni doimo toza va bejirim saqlanishiga harakat qilish kerak. Ishdan chiqqan yoki shikastlangan ko'rgazmalarni o'quvchilar bilan birgalika ta'mirlab qo'yiladi. (60-rasm)



60-rasm. Tasviriy san'at darslari uchun gips modellar.

Bugungi kun tasviriy san'at fani xonalariga qanday talablar qo'yiladi, uning faoliyati qanday tashkil etiladi?! Tasviriy san'at xonasini tashkil etishda, kengroq va oftob nuri tushmaydigan, xonaga kirish va chiqish yo'llariga xalaqit bermaydigan xona tanlanadi. Maxsus xona uchun joy tanlash yoki ajratish haqida gap borganda, natura va metodik fond uchun uning yonida kichik bir xona bo'lishiga e'tibor bermiq lozim. Xonasini talablar darajasida jihozlash uchun kerak bo'ladigan o'quv qurollari va jihozlar yetarli bo'lishi kerak. Bunda, rasm chizish uchun maxsus molbert, loy va bo'yoqlar bilan ishlangan ishlarni quritish uchun etajerkalar, texnika vositalari, natura uchun taglik, naturani

yorug‘lantiruvchi asboblari, suvni tez-tez tozalab turish uchun chelaklar shular jumlasidandir. Shu qatori, xonada suv krani bo‘lishi ham shart, chunki o‘quvchilar bo‘yoq bilan ishlash darslarida ifloslangan suvni tez-tez tozalab turishlari kerak bo‘ladi.



61-rasm. Tasviriy san‘at darslari uchun gipsli rozetkalar va vazalar.

Xonaning jihozlaridan, derazalarga och ranglardagi pardalar tutilishi va ular derazaning butun yuzasini egallashi lozim. Tutilgan pardalar sinf derazalaridan to‘g‘ri tushadigan quyosh yorug‘ligini to‘sib turadi. Bu o‘z navbatida esa chizish uchun qo‘yilgan naturada yorug‘soyani kun davomida kechgacha bir xil soyada saqlanishiga imkon beradi. Bundan tashqari, xonada katta to‘q rangdagi pardalarning ham bo‘lib, u naturaning o‘ziga qarab rasm chizish mashg‘ulotlarida juda kerak bo‘ladi. Dars davomida naturaga yorug‘lik faqat birgina nuqtadan tushishi talab etiladi. Agar yorug‘lik ikki va undan ortiq nuqtadan tushgan taqdirda, soyalar soni ham ortib boradi. Natijada birinchi manba yorug‘ligiga qarashli soyani, ikkinchi manba yorug‘ligi yo‘qotib, yorug‘lantirib yuboradi va soyalar butunlay ko‘rinmay qoladi.

Tasviriy san‘at xonasida darsdan tashqari ishlarni o‘tkazish katta o‘rinni egallaydi. Bu xonada san‘at haftaliklari va kechalar, ma’ruza va suhbatlar, tanlov va ko‘rgazmalar, uchrashuv va

olimpiadalar o‘tkazish, devoriy gazetalar chiqarish, albomlar tayyorlash mumkin. Bunday ishlarni xonada muntazam reja asosida o‘tkazilib turilsa samarali natijalarga erishish mumkin, xonani maktabda estetik tarbiya markaziga aylantirsa bo‘ladi. Darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda rasm ishlashi, xonaga kirgan har bir o‘quvchi, u yerda o‘zi uchun tegishli sharoitni his etishi maqsadida xonada ish joyi to‘g‘ri tashkil etilishi lozim.



62-rasm. Meva va sabzavotlar mulyaji.



63-rasm. Tasviriy san’at fanidan rangli modellar.

Narsaning o‘ziga qarab rasm ishlash mashg‘ulotlarida iloji boricha uni tabiiy kunduzgi yorug‘likda ishlash lozim. Tasvirlanayotgan naturani tasvirlash keiyingi darslarga qoldirilgan taqdirda ham o‘zining yorug‘ soyasini yo‘qotmaydi. Agar oddiy lampochkalar orqali yorug‘lantirilsa u natura ranglariga ta’sir ko‘rsatib, ularni rangini o‘zgartirib yuboradi, ya’ni naturaning haqiqiy rangi buziladi.

Havo bulutli paytlar yoki kechqurun vaqti naturaning o‘ziga qarab rasm chizish mashg‘ulotlarida sinfni normal yorug‘lantirish mumkin, naturani yorug‘lantirishda maxsus yoritgich asboblardan foydalaniladi. Bu moslama safit deb yuritiladi (59-rasm). Safit orqali yorug‘lantirishda naturadagi yorug‘, soya,

yarimsoya, refleks, blik kabilar bolalarda aniq va ravshan ko‘rinadi. Safitlar - yorug‘lantiruvchi lampochka, yorug‘lik qaytaruvchi va oyoqlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning oyog‘ini yog‘ochdan, shuningdek, metall dan oson tayyorlash mumkin. Safitlar osongina vertikal, gorizontal, pastga, yuqoriga bimalol harakat qiladigan bo‘lishiga e‘tibor berish lozim.



63-rasm. Tasviriy san‘at xonasida mebellarning joylashishi.

Tasviriy san‘at xonasini jihozlanishida narsaning o‘ziga qarab rasm chizish darslari uchun tagliklar yoki ekspozitsiya stoli kerak bo‘ladi. Odatda ularning bir necha xillari bo‘ladi. Ko‘p tarqalgan turlaridan oyoqli va devorga osiladiganlari hisoblanadi. Taglik uchun stol ikki gorizontal va vertikal holatdagi planshetlardan iborat bo‘lib, ular o‘zaro oshiq-moshiq bilan mahkamlanadi. Ekspozitsiyalar, asosan doska oldiga naturalarni qo‘yish, namoyishi uchun mo‘ljallanadi. (62,63-rasm) Bunday ekspozitsiya stollarining gorizontal qismi naturani qo‘yish, vertikal qismi esa fonga mo‘ljallangan drapirovkalarga xizmat qiladi.

Tasviriy san‘at darslarida naturani bir yerga qo‘yish yetarli bo‘lmaydi. Natura o‘quvchining ufq chizig‘idan pastga o‘rnatilgani uchun barcha o‘quvchilarga bir xil ko‘rinmasligi

mumkin. Shu sabali natura sinfda partalar orasiga ham qo'yilishi mumkin. Bunda oyoqli tagliklarni ishlatish lozim bo'ladi.

Oyoqli tagliklarni yasalishi juda oson bo'lib, ular polga qo'yish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Oddiy taburetkaning oyog'ini 20-25 santimetrga uzaytirish va fon uchun vertikal planshetni uning ustki tomoniga mahkamlash orqali yasash mumkin. Darslar maxsus xonada o'tkazilmaydigan maktablarda bunday tagliklardan foydalanib bo'lmaydi. Ikkala turdagi tagliklarni ham yog'ochdan, shuningdek, metall dan maktab ustaxonalarida osonlik bilan yasash mumkin.



64-rasm. Tasviriy san'at darslarida kompyuterning o'rni beqiyosdir.



65-rasm. Videoprektor va ekran darslarning samaradorligini oshiradi.

Bunday tagliklarni bir nechta bo'lishi, tasviriy san'at darslarida naturalarni bir nechta joyga qo'yish imkoniyati paydo bo'ladi. Bir nechta joyiga naturalarni qo'yish orqali berilgan topshiriqlarni tabaqalashtirish ham mumkin. Ya'ni, naturani murakkabligiga qarab taqsimlash mumkin. Sodda natura yoki natyurmortni past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga, o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilarga o'rtacha murakkablikdagi natura va murakkab naturani yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchilarga tavsiya etish mumkin. Shu bilan birga bu topshiriqlar bir mavzuga

qaratilgan bo‘ladi. Shuningdek, bunday tagliklar orqali topshiriqlarni o‘quvchilarni qiziqishlariga qarab ham tabaqalashtirish mumkin. Quyidagi jihozlarni tasviriy san’at xonasida bo‘lishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Zamonaviy tasviriy san’at fani xonalarida quyidagi jihozlarni bo‘lishi tavsiya etiladi:

1. O‘qituvchi va o‘quvchilar uchun maxsus mebellar (maxsus partalar, molbertlar). 2. Oddiy va magnitli sinf doskasi. 3. Ko‘rgazmali qurollar uchun shkaflar. 4. O‘quvchilar ishlagan rasm va haykallarni quritish uchun stelajlar. 6. Kompyuter, videoprojektor, smart-televizor, internet tarmog‘i v.b. (64-65-rasm) 7. Prezentatsiya va filmlarni namoyish etish uchun ekran. 8. Naturani namoyish etish uchun tagliklar, ekspozitsiya stoli. 9. Sinf xonasini qorong‘ulatishda kerak bo‘ladigan pardalar. 10. Drapirovkalar. 11. Gipsli geometrik modellar. 12. Meva va sabzavotlar mulyajlari. 13. Yorug‘lantiruvchi elektr safitlari. 14. Haykal ishlash uchun tagiga linoleum qoplangan planshetlar. 15. Toza suv va mo‘yqalamni bo‘yoqdan tozalash uchun ishlatiladigan chelaklar. 16. Akvarel, guash bo‘yoqlari uchun suv idishlar. 17. Oq va rangli bo‘rlar. 18. Haykaltaroshlik ishlari uchun katta hajmli idishda loy. (59-60-rasm).

Ayniqsa, turmushga yaroqsiz singan yoki chekkasi uchgan buyumlardan natura sifatida foydalanish ham mumkin. Bunday buyumlarni o‘qituvchi natura fondi uchun yig‘adi. Ro‘zg‘orda bu buyumlar ishlatilmay yotganligi sababli iflos va ko‘rimsiz bo‘lishi mumkin, ammo tasviriy san’at darslari uchun ulardan foydalanish yaxshi samara beradi. Albatta ishlatishdan avval iflos buyumlarni tozalash va ishga yaroqli ko‘rinishga keltirib qo‘yish lozim.

Tasviriy san’at darslarida juda ko‘p asarlarining reproduksiyalari va otkritkalaridan foydalaniladi. Ko‘plab jurnallarda tasviriy san’atga oid rangli reproduksiyalar beriladi.

Ularni yig'ish dars va darsdan tashqari vaqtlarda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. To'garaklarda bunday san'at asarlari reproduksiyalari va otkritkalarini yig'ishga o'qituvchi jiddiy va maqsadga muvofiq holda yondashgandagina yaxshi natijalar olishi mumkin. Reproduksiyalarni ma'lum mavzu asosida yig'ish va ularni albomga yopishtirish, olib borilayotgan tadbirning samarali bo'lishini ta'minlaydi.



66-rasm. Tasviriy san'atdan didaktik ko'rgazmali stendlar.

Tasviriy san'at xonasini badiiy bezagi alohida ahamiyat kasb yetib, uni to'g'ri tashkillashtirish maqsadga muvofiq amalga oshiriladi. Xonaning badiiy bezagiga, xona jihozlarini tartibli joy-joyiga qo'yish, buyumlarni, xona devorlarini tegishli ranglarga bo'yash, xonaning to'g'ri yorug'lantirilishi bilan ham bog'liqdir. Badiiy jihatdan to'g'ri bezalgan xona o'quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantiradi, tasviriy faoliyatlarga samarali ta'sir ko'rsatadi. (66-rasm)

Ammo tasviriy san'at xonasini haddan tashqari bezash ham yaramaydi. Xonada o'quvchilarning juda ko'p rasmlarini, turli ko'rgazmali qurollarni, san'at asarlari reproduksiyalarini devorlarga osib qo'yish, geometrik va gipsli shakllar, qush tulumlari va meva sabzavotlarning mul'ajlarini ochiq saqlash, turli reklama va chaqiriqlarni osib qo'yish, xona yuqori qismini

buyuk rassomlarning portretlari bilan to'lg'azib tashlash xonani haddan oshiq og'ir bezakdorlikka olib keladi.

Tasviriy san'at xonasining badiiy bezagi va uning jihozi yillab o'zgarmay turishi o'quvchilarni me'dasiga tegadi va ularni mutlaqo fanga qiziqitirmay qo'yishi mumkin. Shunga ko'ra tasviriy san'at xonasida ortiqcha narsalarning bo'lmasligi, sinfda mashhur rassomlardan birontasining portreti, texnika vositalari (u ham usti yopiq holda), tuvakli gullarni sinf burchagining bo'lishligi yetarlidir. (63-rasm)

Tasviriy san'at fani xonasining o'quv-metodik, tashkiliy, tarbiyaviy ishlari shunchalik ko'p va turli-tumanki, ularni faqat reja asosida olib borish mumkin (19-jadval). Rejada tadbirning mazmuni, o'tkaziladigan vaqti, unga javobgar shaxslar, tadbirning o'tkazilishi, ish tartibi uchun joylar ajratilgan bo'ladi. O'qituvchida bunday rejaning tayyorlanmaganligi, tasviriy san'atdan xonada olib boriladigan ishlarining chala, tartibsiz bo'lishiga olib keladi. Shuningdek, rejaning bo'lmasligi tadbirlarning epizodik xarakterda bo'lishiga olib kelishi mumkin. Chunki, uni o'tkazishga ajratilgan vaqt nihoyatda chegaralangan bo'ladi va natijada ish sifati pasayadi, ular bolalarda yaxshi taassurot qoldirmaydi. Quyida tasviriy san'at xonasida olib boriladigan ish rejaning namunasi berilgan. (19-jadval)

19-jadval.

Tasviriy san'at xonasining o'quv yili uchun ish rejasi			
Ish mazmuni	O'tkaziladigan vaqti	Mas'ullar	Tadbirni o'tgan yoki o'tmaganligi haqida belgi
1	2	3	4
Xonani jihozlash (stol, stul, taglik, plans)		Xo'jalik ishlari bo'yicha direktor	

het, pardalar, gul, texnika vositalari v.b.)	May-avgust	o‘rinbosari, tasviriy san’at o‘qituvchisi, mehnat o‘qituvchisi.	
Xonani badiiy bezash	avgust	Tasviriy san’at o‘qituvchisi, faol o‘quvchilar.	
Ko‘rgazmali qurollar yig‘ish	Yil davomida	Hamma o‘quvchilar, tasviriy san’at o‘qituvchisi.	
Rassomi hayoti va ijodi haqida kecha o‘tkazish	Dekabr	Tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, adabiyot, musiqa, o‘qituvchilari, faol o‘quvchilar.	

Takrorlash uchun savollar:

1. O‘quvchilar ta’lim faoliyatini shakllantirishda tasviriy san’at xonasining ahamiyati nimada?
2. Tasviriy san’at xonasini qanday jihozlash tavsiya etiladi?
3. Tasviriy san’at honalariga qo‘yiladigan talablarni sanab o‘ting?
4. Tasviriy san’at xonasiga qanday texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilish zarur?
5. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi o‘quv xonasini texnik qurilmalar va jihozlar bilan jihozlashga qo‘yiladigan talablarni bilasizmi?
6. Tasviriy san’at xonasini badiiy bezagida nimalarga e’tibor berish kerak?
7. Tasviriy san’at xonasidagi mebellarning joylashuvi tartibi qanday?

8. Sizda tasviriy san'at xonasi bo'lganida, uni qanday jihozlar edingiz?

Bobni mustaqil o'rganish bo'yicha tavsiyalar:

Bob yuzasidan yangi atamalarni o'rganish. Tasviriy san'at darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish. O'qitish vositalari va ko'rgazmali qo'llanmalar, ko'rgazmali modellar (maket, mulyajlar, plakat va h.k.) multimediali taqdimotlar tayyorlang. Mavzuli krossvordlar tuzing. San'at muzeylariga, studiyalarga, rassomlarning ustaxonalariga ekskursiyalarni uyushtirish. Tasviriy san'at darslarida tabaqalashtirilgan ta'lim va individual yondashuv yuzasidan topshiriqlar mazmunini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

4-bob. TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI TASHKILLASHTIRISH VA REJALASHTIRISHDA AMALIY MASHG'ULOTLAR

4.1. Tasviriy san'at fani dasturini o'rganish va rejalashtirish

Reja: 1. Mustaqillik yillarida tasviriy san'at fanidan dasturlarining ishlab chiqilishi. 2. Dastur – davlat hujjati. 3. Yangi Milliy o'quv dasturining qabul qilinishi.

Tayanch iboralar: Reja, dastur, o'quv soatlari, yuklama, loyiha.

Mustaqillikga qadar O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida sobiq Ittifoq maktablari uchun tayyorlangan o'quv reja va dastur asosida faoliyat ko'rsatib kelindi. 1991-yil Mustaqillikga erishganimizdan so'ng, O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yangi o'quv rejalari tayyorlandi, barcha ilm maskanlari, shu o'quv reja asosida ish yurita boshladi. Ushbu rejaga asosan maktablarda tasviriy san'at o'quv fani 1-7-sinflar uchun 1 soatdan o'quv soati belgilandi.

2000-yillarda bir qator o'quv rejalari ishlab chiqilgan. Ularda ayrim fanlarni chuqurlashtirib o'tish imkoniyati berilgan holda, tasviriy san'atni chuqurlashtirib o'tish ham ko'zda tutildi. Shunga asosan, 1-4-sinflarda 2 soatdan mashg'ulotlar belgilandi. Yana ayrim o'quv rejalarda 1-7-sinflarda tasviriy san'at 2-3 soatdan mashg'ulot o'tkazish ham nazarda tutildi. Hozirgi barcha o'quv rejalarda maktab ixtiyoriga 3-4 soatdan haftalik soatlar beriladi. Bu o'quv soatlaridan maktabda chuqurlashtirib o'tiladigan fanlarni o'qitish uchun foydalanildi. Shunga ko'ra, 1999-yilda tayyorlangan o'quv rejasida ta'lim sohalari, o'quv fanlari, sinflar, haftalik umumiy soatlar va jami soatlar ko'rsatilgan.¹⁵ Shunga

¹⁵ Oripov B.N. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. – N.: "NamDU", 2012. -124 b

ko'ra, bu o'quv soatidan maktabda tasviriy san'atni chuqurlashtirilgan dars mashg'ulotlari uchun ham foydalanish mumkin. Faqat buning uchun maktabda mutaxassis tasviriy san'at o'qituvchisi bo'lishi lozim. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar maktablarida zamon talabiga javob bera oladigan, chuqurlashtirilgan tasviriy san'at darslarini o'tish uchun yuqori darajadagi o'quv-didaktik shart-sharoit yaratilgan tasviriy san'at xonalari va jihozlari bo'lishi kerak.

2017-yilda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi Farmoniga asosan o'rta umumiy ta'lim maktablari ishi va uning o'quv rejalari qayta ko'rib chiqildi. Shunga ko'ra, 1-4-sinflar va 5-9-sinflar uchun yangi o'quv rejalar tayyorlandi. Bu rejaga asosan, 1-4-sinflarda tasviriy san'at o'quv faniga haftasiga 1 soatdan, 5-7-sinflar bo'yicha ham haftasiga 1 soatdan vaqt tasviriy san'at faniga ajratildi. O'quv reja davlat me'yoriy hujjati hisoblanib, u Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi.

Tasviriy san'at dasturlari. Dastur – ma'lum bir fan (tasviriy san'at fani)ning o'quv materiallarini o'z ichiga oladigan, uni tizimli o'qitishda yordam beradigan didaktik, metodik va nazariy mavzular, ularning mazmunini yoritadigan ilmiy qo'llanma hisoblanadi. O'quv dasturlari umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar maktablarining boshqaruvchilari va o'quv fanining o'qituvchilari uchun mo'ljallanadi. Dastur davlat o'quv rejasidagi o'quv soatlari asosida o'qitiladigan fanning to'la mazmunini "tizimli" asosida ta'lim jarayonini tashkil eta oladigan davlat hujjati hisoblanadi. Dastur o'qitiladigan fan sohasidagi tajribali metodistlar, uslubchi olimlar va mutaxassislar tomonidan ishlab chiqiladi. O'tgan asrda Respublikamizda mustaqillikka qadar fanlar Rossiya federatsiyasi umumiy o'rta ta'lim maktablari

uchun tayyorlangan dasturlar asosida o'qitilar edi. Bugungi kunda mahalliy va milliy materiallar asosida yangi dasturlar ishlab chiqilib, ular asosida ta'lim jarayonida o'qitila boshlandi. 1990-yildan boshlab R.Hasanov, X.Egamov, N.Abdullaev, S.Boymatovlar tomonidan bir necha dasturlar tuzildi.¹⁶ Lekin bu dasturlar bugungi kunga kelib bir muncha o'z dolzarbligini yo'qotdi. Bu o'quv dasturlarida tasviriyy san'at fanidan materiallar mazmuni 90% nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan edi.

2020-yil oktyabr oyida Yangi Milliy o'quv dasturi loyihasi taqdim etildi. Bu milliy o'quv dasturiga asosan 2025 yilga qadar barcha umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar maktablari to'liq milliy o'quv dasturiga o'tadi, shu asosda yangi darsliklar ham yaratiladi, deyildi. Respublika ta'lim markazi ma'lumot berishicha, barcha fanlardan milliy o'quv dasturlari loyihalarini yaratishga malakali ekspert, shu jumladan, uslubchilar, maktab o'qituvchilari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari hamda UNICEF va USAID tashkilotlaridan xalqaro ekspertlar jalb qilindi.

Yangi milliy o'quv dasturi mazmuni 50% nazariya 50% amaliyotdan iborat bo'lib, o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Avvalgi o'quv dasturlarida baholash asosan eslab qolish hajmida aniqlangan. Yangi dastur asosida o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi. O'quv yuklamalari optimallashtirilib, o'quvchilar qiziqishi bo'yicha fanlarni tanlab o'qish imkonini beruvchi variativ o'quv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoni ishlab chiqildi.

Eng asosiysi, milliy o'quv dasturda tasviriyy san'at fanidan bilimlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladigan bo'ldi. Ya'ni mavzular takrorlanuvchan emas, balki bir-birini

¹⁶ Oripov B.N. Maktab tasviriyy san'atini o'qitishda predmetlararo bog'lanish. –T.: “Fan va texnologiya” 2013. - 112 b.

mantiqan davom ettiruvchi, soddadan murakkabga qarab yoʻnaltirilgan shaklda taqdim etildi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Oʻzbekistonda mustaqillik yillarida tasviriy sanʼat dasturlarining ishlab chiqilishi ahamiyati nimada?
2. Mustaqillik yillarida tasviriy sanʼat dasturlarini ishlab chiqishda qaysi olim, pedagoglarni bilasiz?
3. Yangi milliy oʻquv dasturi mazmuni nimadan iborat?
4. Milliy oʻquv dasturida tasviriy sanʼat fanidan bilimlar qay tarzda oʻqitiladigan boʻldi?
5. Yangi oʻquv dastur asosida oʻquvchilarda qanday koʻnikmalar baholanadi?
6. Milliy oʻquv dasturlar asosida oʻquvchilarni hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoni, deganda nimani tushunasiz?
7. Maktabda tasviriy sanʼat yuklamasi nima?
8. Tasviriy sanʼat fanidan yillik oʻquv rejasi nima?

4.2. Tasviriy sanʼat fani mashgʻulot turlariga dars bayonini va ishlanmasini tayyorlash

Reja: 1. Dars ishlanmalarining ahamiyati. 2. Dars ishlanmalarining tuzilishi va mohiyati. 3. Dars oʻtishning metodlari va usullari.

Tayanch iboralar: Dars, mashq, sifat, bosqich, munozara, vaziyat, maket, material, texnologiya, predmet.

Oʻqituvchi faoliyatida dars ishlanmasini tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Dars ishlanmasi – taʼlimiy mazmunga ega loyiha hamda oʻqituvchi tomonidan tuzililadigan hujjat. Uni tuzishda oʻqituvchining dars jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, dars

mazmunini boyitish, ta'lim samaradorligini oshirish maqsadi ko'zlanadi. Dars ishlanmasini yildan-yilga takomillashtirib va mukammallashtirib borish, yangi metodlarni qo'llash, yangi materiallarni kiritish bilan yangilab turilishi lozim. Binobarin, ta'lim jarayoniga yangi DTS, o'quv dasturlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarning joriy etilishi, o'qituvchi tomonidan yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik vositalarining qo'llanishi bilan dars ishlanmalariga qo'yilgan talablar ham o'zgarib boradi. Dars ishlanmasi uchun tayyor, standart qolip mavjud emas. Chunki dars "jonli" tashkil etilishi zarur. Darsning bu xususiyatiga ko'ra uni hech qanday qolipga solib bo'lmaydi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin.¹⁷

Ma'lumki, maktab tasviriy san'ati mashg'ulotlarini tashkil etish ancha murakkab. Chunki tasviriy san'atning dars mashg'ulotlari uchun bir qator didaktik va ko'rgazmali materiallar (rasm daftar, qalam, o'chirg'ich, akvarel bo'yog'i, palitra qog'ozlari kabilar) zarur bo'ladi. Shuningdek, natura va natyurmort qo'yilmasini qo'yish uchun taglik, fon uchun material, yorug' - soyani me'yorda ko'rsatish uchun yoritish reflektorlari va hokazolar zarur bo'ladi. Shuningdek, rasm chiziladigan predmet-natura yoki obyektlar haqida ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Bularning hammasi bo'ladigan dars ishlanmasida o'z ifodasini topmog'i darkor. Shunga ko'ra tasviriy san'at o'quv predmetining har bir mashg'uloti uchun mukammal holda, ilmiy asosda yozilgan dars ishlanmasi bo'lishi kerak.

Tasviriy san'at dars ishlanmalari:

1. Darsning turi – tasviriy san'at mashg'ulotlari 4 turga bo'linadi. Bulardan qaysi biri bo'yicha dars o'tishi ko'rsatiladi.

¹⁷ Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.Q., Sayfurov D.M., To'raev A.B. - T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. - 81-b.

2. Darsning mavzusi – darsda qanday mavzu o‘rganilishi, o‘qitilishi bayon etiladi.

3. Darsning maqsadi – darsning ta’limiy va tarbiyaviy maqsadi.

Davlat dasturi va standarti asosida ko‘rsatib beriladi.

4. Darsning jihozlanishi – tasviriy san’atning har bir mashg‘uloti uchun o‘nlab o‘quv-didaktik materiallar – jihozlar ro‘yxati bayon etiladi.

5. Darsning boshqa o‘quv fanlari bilan bog‘lanishi – ma’lumki, tasviriy san’at hamma fanlarni o‘qitishda eng asosiy manba va didaktik material hisoblanadi.

Dars mashg‘ulot ishlanmasini tuzilishi.

Tasviriy san’atdan dars mashg‘ulot ishlanmalari psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik o‘quv adabiyotlarni chuqur o‘rganish asosida va shu bilan birga o‘rta maktabning tasviriy san’at dasturlari doirasida va o‘quv qo‘llanmalari orqali bajariladi.

Dars mashg‘ulot ishlanmasida quyidagilar bo‘lishi shart:

- darsning turi; - darsning mavzusi; - darsning tipi; - darsning ta’limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari; - darsning tuzilishi (qurilishi);

- og‘zaki takrorlash uchun savollar; - o‘quv materialini ketma-ketlik bayoni va uning hajmi; - darsning tushuntirish va mustahkamlashga ajratilgan vaqti;

- ijodiy xarakterdagi mashqlarni sifati va bosqichlari; - mustaqil ishlarning mazmuni va bajarish usullari; - texnika vositasi va o‘quv ko‘rgazmali qurollardan foydalanishi.

Dars ishlanmasi matninng so‘ngida darsga tayyorgarlik ko‘rishda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ko‘rsatiladi (kitobning muallifi, nomi, nashr etilgan yili, nashriyoti va hajmi).

Dars ishlanmasi illyustratsiyali bo‘lishi mumkin. Unda sinf taxtasidan, sxemalardan, bosqichma-bosqich bajarilgan

tasvirlardan, o'quv-buyumlar namunalaridan, o'quvchilarni tjodiy ishlaridan va boshqalardan foydalanish nazarda tutiladi.

Dars ishlanmasini kompyuterda yozishda iloji boricha qog'oz varog'ini o'ng tomonidan ko'proq joy qoldirish maqsadga muvofiqdir. Chunki dars muhokamasi vaqtida bildirilgan mulohazalar va takliflar bilan to'ldirishlar kiritish mumkin. Muqova va titul varaqasi o'quv ishlari bo'yicha maktab direktori o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga dars ishlanmasi namunasini keltiramiz.

1. Dars (mashg'ulot) turi: _____

Masalan, a) Grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik, kompozitsiya.

2. Dars mavzusi: _____

3. Dars maqsadi: _____

Masalan, a) o'quvchilarga _____ haqida (umumiy, to'liq, qisman) ma'lumot berish;

b) berilgan bilimlar asosida o'quvchilarda badiiy estetik dunyoqarashni shakllantirish;

d) o'quvchilarda turli ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

e) bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish;

f) o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, ularning estetik hislarini rivojlantirish;

g) yosh avlodni kelgusida kasb tanlashga to'g'ri yo'llash va hokazo.

4. Dars o'tishning metodlari va usullari.

Perspektiv metodlari:

a) og'zaki (bayon qilish, tushuntirish, ma'ruza, suhbat);

b) ko'rgazmali (illyustratsiya, namoyon qilish);

d) amaliy (tajribalar, mashqlar va h.k.).

Mantiqiy (logik) metodlar:

- a) induktiv – aniq faktlardan umumiylikka;
- b) deduktiv – umumiy tushunchalardan faktlarga;
- d) analitik – faktlar asosida mavzuni chuqur o‘rganish va h.k.

Gnostik (ilmiy bilish) metodlari:

a) reproduktiv (gapirib berish, namunaga qarab mashq qilish, instruksiya bo‘yicha laboratoriya ishlari).

B) qisman izlanish (evristik metod: evristik suhbat, disput va h.k.).

d) muammoli o‘qitish va hokazo.

Ta’limni boshqarish metodlari:

- a) o‘qituvchi rahbarligidagi o‘quv ishlari;
- b) o‘quvchilarning mustaqil ishlari (kitob bilan ishlash, ijodiy ishlar, laboratoriya ishlari va h.k.).

O‘qishga qiziqishlarni rag‘batlantirish metodlari:

- a) bilishga doir o‘yinlar;
- b) ta’limiy munozaralar;
- d) qiziqarli vaziyatlar yaratish, yangiliklarni bilishga qiziqtirish va h.k.;

Og‘zaki tekshirish metodlari:

- a) individual so‘rash;
- b) frontal so‘rash;
- d) og‘zaki sinov.

Ma’lumki, o‘qitishning har bir metodi o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikdagi faoliyatida sodir bo‘ladigan ko‘pgina usullardan iborat bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan dars berish metodlari va usullaridan qaysi birini dars berish davomida (darsning qaysi bosqichida yoki vaziyatda) ishlatilishi lozim deb belgilanganligi haqida shu yerda yoki darsning bosqichlari yozilgan joyida aniq ko‘rsatilishi kerak.

Darsning jihozlanishi:

O'qituvchi uchun:

a) _____ naturasi yoki maketi;

b) _____ bosqich rasmlari;

Ko'rish qatori: diapozitiv, slayda, rassom asarlarini reproduksiyalari.

Adabiy qator: yozuvchilar she'rlaridan parchalar.

Musiqqa qatori: qo'shiqlar, kuylar _____

O'quvchilar uchun: albom yoki format qog'ozi, qalam, o'chirgich, bo'yoqlar (akvarel, guash), suv idish, mo'yqalamlar, latta va hokazolar.

Sinf taxtasidan foydalanish: o'ng tomonda - tasvir chizilgan plakatlari; o'rtasida - videoprojektor ko'rsatish uchun ekran; chap tomonda - material bayon qilishda bo'r yordamida tushuntirish uchun bo'sh qoldiriladi.

6. Darsning tuzilishi:

1. Tashkiliy qism -1-2 daqiqa,
2. O'tgan mavzuni so'rash - 7-10 daqiqa,
3. Yangi mavzuni bayoni - 13-15 daqiqa,
4. Mustaqil ishlar - 22-25 daqiqqa,
5. Dars yakuni va uyga vazifa berish - 3-4 daqiqa.
7. Darsning borishi.

1. Tashkiliy qism - 1-2 daqiqa.

Sinfga kirish, salomlashish, ma'lum intizomni vujudga keltirish, davomatni aniqlash va jurnalga belgilash.

2. O'quvchilardan o'tgan mavzuni so'rash - 7- 10 daqiqa.

Savol avval o'rtaga tashlanadi, keyin qo'lini ko'targan o'quvchilardan bittasini javob berishga sinf taxtasiga chiqariladi.

1-savol _____ o'quvchi A. Siz javob beringchi _____

2 savol _____ o'quvchi V. Siz aytingchi _____

Z savol _____ va hokazo.

3. O‘tgan mavzuni yakunlash va yangi mavzuga bog‘lash – 3 daqiqa.

- a) o‘tgan mavzuni yakunlash;
- b) o‘tilgan mavzuni yangi mavzuga bog‘lash;
- d) yangi darsning mavzusi: “_____” doskaga yozib qo‘yiladi va bu darsning maqsad va vazifalari bayon etiladi.

4. Yangi mavzu materialini o‘quvchilarga bayon qilish - 12-15 daqiqa.

- Diqqat qiling aytingchi?....
(1 - savol, 2 - savol, 3 - savol va hokazo) turlicha javob.

-to‘g‘ri lekin

-nima uchun?

-ha, endi e‘tibor bering ... materialni tushuntirish davomida yangi terminlar doskaga yozib qo‘yiladi, vaqti-vaqti bilan pauza qilinadi.

-barcha o‘quvchilarning faolligini oshirish maqsadida muammoli vaziyat yaratiladi, ularning bilib olishlari zarur bo‘lgan vazifa aytiladi,

- qani kim aytib beradi?

-turlicha javoblar

Savollarga javobni ma‘lum maqsadga yo‘naltirishga harakat qilinadi. Bu vazifani turlicha hal qilish mumkin. Ular orasida quyidagilar eng muhim ahamiyatga egadir: Tushuntirilayotgan materialni sermazmun, yangiliklarga tayangan holda ifoda etish, amaliy hayot bilan bog‘lash, o‘quvchilarning bilim va tajribalariga e‘tiboran munozarali masalalarni obrazli hamda jonli ifodalash, ularni faol fikr yuritishga undaydigan, izlanishga majbur etadigan vaziyatlar yaratish va hokazo.

Shunday qilib, yangi material mazmunini oldindan, tayyorlangan dars ishlanmalari tarzida ko‘rgazmali qurollar bilan

birgalikda bayon etiladi. Yangi mavzu o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun ilg'or nazariyalarga, oldindan belgilangan usul va metodlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Yangi mavzu dars ishlanmalarida to'la yoki tezis tariqasida beriladi.

5. O'quvchilarning amaliy mashg'uloti - 22 - 25 daqiqa.
O'quvchilar ijodiy mustaqil ishlaydilar.

O'qituvchi mashg'ulot mobaynida oralab yurib o'quvchilarga individual yondashadi. Agarda yangi mavzuni to'liq tushunmagan yoki e'tiborsiz tinglagan o'quvchilar bo'lsa, savollar o'rtaga tashlanadi. O'quvchilarning javoblari qoniqarsiz bo'lsa, a'lochi o'quvchilar yordamga chaqiriladi. Shu bilan birgalikda yangi dars ham mustahkamlab boriladi.

Darsni yakunlashga qadar o'quvchilarning ishlaridan bir nechitasi olib bir-biriga taqqoslanib, tahlil etiladi va baholanadi.

6. Uyga vazifa berish - 3 - 4 daqiqa.

a) kelgusi yangi darsga tegishli terminlarni adabiyotlardan topib o'qiysiz mavzuda rasm chizasiz va h.k.

7. Foydalanilgan adabiyotlar: masalan: 1. Xudayberganov. R. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari. O'quv qo'llanma. - T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. - 192 b. 2. Darsliklar. 3. Ayrim nashrlar, ensiklopediya, maqola va h.k.

Albatta, tasviriy san'at darslarini slaydlar, rangli lavhalar, musiqa, ashula, ertak, afsona, rivoyat va xalq naqllari bilan boyitiladi. Natijada darsni mazmunini tashkil qilish imkoniyatlari yuzaga keladi. O'qituvchi nutqida chiroyli so'zlarni topib, qo'llay bilishi, o'rni kelganda milliy o'zbek xalq maqollaridan foydalana bilishi shart. Darsga bunday yondashish, o'quvchilarni xalq amaliy san'ati an'alariga yaqinlashtiradi, kamolot sari yetaklaydi, o'quvchilarning shaxsiy fikrlashlarini takomillashtiradi. O'qitish metodikasi - bu nima? Ilmmi yoki san'atmi? O'qitish metodikasini nazariyasi - ilmdir, uning ma'lum

mazmunlari va tavsiyalarining samaradorligi ilmiy asoslanib isbotlangan. O'qitishning o'zi esa, o'quv-tarbiyaviy jarayonga ta'sir qilib o'ziga jalb qila olish bu san'atdir. Nazariy va amaliy tomonlarining farqini bilib, metodikaga bir tomonlama qarashlar bo'lishi mumkin emas.¹⁸

O'qitish san'ati, dars ishlanmalaridagi nazariy bilimlarni ta'lim amaliyotida ijodiy foydalanishni talab etadi. Shuning uchun dars ishlanmalari tuzishda asosiy e'tiborni bayon qilish shakliga emas, balki o'quv materialini mazmunini yoritilishiga qaratilishi lozimdir.

Takrorlash uchun savollar:

1. Dars ishlanmasining tuzilishini so'zlab bering.
2. Bo'lajak o'qituvchining didaktik va tarbiyaviy vazifalarini sanab o'ting?
3. O'qituvchi rahbarligidagi amaliy ishlar qanday yo'nalishlarda bajariladi?
4. Dars ishlanmasi nechta asosiy qismdan iborat?
5. Darsning tuzilish qismi qanday tashkil qilinadi?
6. Darsni o'tkazish metodlarini sanab o'ting?
7. Tasviriy san'at mashg'ulotlarining qanday turlari bor?
8. Kompozitsiya mashg'ulotlarining mohiyati nimada?
9. Grafika mashg'ulotlarining mazmuni nimadan iborat?

4.3. Tasviriy san'at fani mashg'ulot turlariga ko'rgazmali qurollar tayyorlash


Reja: 1. Tasviriy san'at darslarida ko'rgazmali qurollarning tarbiyaviy va pedagogik ahamiyati. 2. Ko'rgazmali qurollarning

¹⁸ Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. –T.: Fan. 2012. -232 b.

turlari. 3. Ko'rgazmali qurollarni tayyorlashda qo'yiladigan talablar.

Tayanch iboralar: Eskiz, chizma, estetik, reproduksiya, tablitsa, badiiy-bezak, shrift, naqsh, hoshiya, titul, obyekt.

Tasviriy san'at fanini o'qitishda dars sifatini yanada oshirish vositalaridan biri ko'rgazmali qurollardan foydalanishdir. O'quvchilarni bilim darajasi o'sishida ko'rgazmali qurollar katta ahamiyatga egadir. Darsni loyihalashda dars mavzusining yoritilishini ko'rgazmali qurollar bilan boyitilsa, uning metodik g'oyasini eskizi chizib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.



67-rasm. Tasviriy san'atdan ko'rgazmali qurollar

Dastlabki ko'rgazmali qurol eskizlari metodist o'qituvchi bilan bir fikrga kelib tasdiqlangandan so'ng, belgilangan materialga did bilan tayyorlanib, u darsning maqsadini to'liq yoritib berishi kerak bo'ladi. (67-rasm)

Dars jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanishda bir qator qoidalarga rioya qilinish kerak. Ko'rgazmali qurollarning u yoki bu xilini tanlashda darsning maqsadini hisobga olinishi

kerak. (20-jadval) Ko'rgazmali qurollar bilan ishlaganda o'qituvchi o'quvchilarning bu qurollarini idrok etishga yo'naltirishi, ularning diqqat e'tiborini o'rganilayotgan mavzuning muhim tomonlariga qaratishlari, o'quvchilarning mumkin qadar ko'proq faol va mustaqil ravishda ishlashlari uchun sharoit yaratishlari kerak. Tasviriyy san'at darslarida ko'rgazmali qurollarni cheklangan va zarur bo'lgan miqdorda ishlatish lozim. Ba'zida, darsda bir necha ko'rgazmali qurolni ko'rsatishga to'g'ri kelsa, ularning hammasini bir vaqtning o'zida emas, balki ehtiyojga qarab ko'rsatish lozim. O'qituvchi ko'rgazmali qurollarni tayyorlashda quyidagi pedagogik talablarni e'tiborga olishi zarur:

- umumiy o'rta ta'lim maktabi dasturidagi tasviriyy san'at faniga muvofiq bo'lishi;
- umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlarni, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishi;
- o'quvchilarning estetik rivojlanish xususiyatlarini faol shakllantirishga yordam berishi;
- didaktik prinsip va qoidalari asoslariga rioya qilgan holda ishlash.

20-jadval

№	Tasviriyy san'at fanidan ko'rgazmali qurollarni guruhlari va ta'lim tarbiyadagi maqsadlari.
1.	Naturaga qarab rasm ishlash darslarga bog'liq bo'lgan ko'rgazmalar (yassi predmetlar, daftar, kitob, bayroqchalar) hajmga ega bo'lgan predmetlar, meva va sabzavot mahsuloti, geometrik jismlar, maktab va o'quv qurollari, uy va ro'zg'or buyumlari, odam, qush va hayvon turlari va boshqalar;
2.	Narsa, predmetlarni konstruktiv qurilishlari jihatdan hamda perspektiv va rang qoidalari asosida ishlangan ko'rgazmali qurollar;
3.	Pedagogning chizma rasmlari. Turli geometrik jismlar konus,

	silindr hamda to'g'ri burchakli shakllardan tashkil topgan predmetlarda yorug'-soyalarni belgilash;
4.	Odam, qush va hayvon kabi boshqa murakkab narsalarning konstruktiv qurilishlari bo'yicha ishlangan rasmlar;
5.	Jadval va sxemalar. Perespektiva qoida va qonunlarini tushuntirish uchun ishlangan poyezd yo'li, katta ko'chalar, metro ichi va boshqalarga qarab, metodik tomondan ishlangan chiziqli yoki rangli ko'rgazmlar;
6.	Kartina reproduksiyalari. O'quvchi haykaltaroshlik, grafika, rangtasvir asarlarini yaratgan taniqli rassomlar haqida ma'lumot.

Ko'rgazmali qurollarning samarali natijalar berishi uchun uning didaktik xususiyatlari ham inobatga olinishi lozim. Birinchidan, ko'rgazmali qurollar har bir sinf o'quvchilarining yoshi, saviyasi, umumiy xarakter xususiyatlariga mos keladigan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, o'tilayotgan dars mavzusining xarakter xususiyatlariga mos keladigan, uning mazmunini yoritib berishga yordam beradigan bo'lishi kerak. Ko'rgazmali qurollarga rasmlar, lavhalar, hayvonlar va qushlarning tulumlari, reproduksiyalar, geometrik gips modellar, pedagogik rasmlar, fotosu'ratlar va mulyajlar va boshqa ko'rgazmali qurollar kiradi. Ro'yxatda keltirilgan ko'rgazmali qurollar quyidagi guruhlariga bo'lingan: (21-jadval)


21-jadval

Guruhlar:	Ko'rgazmali qurollar:
Mehnat va turmush buyumlari	Bu guruhga geometrik shakllar, sabzavotlar, mevalar, qushlar, hayvonlar, gullar va o'simliklar, amaliy san'at buyumlari.
Modellar va boshqa ko'rgazmalar	Buyumlarning tuzilishi, perspektiva qonunlari, yorug'-soya, rangshunoslik, dekorativ stilizatsiyaga doir, geometrik shakldagi simdan yasalgan

	modellar va boshqa ko'rgazmalar.
Rasmlar, metodik tablitsalar	Unda rasm va naqsh chizishdagi ketma-ketlilik, atrof-muhitning perspektiv ko'rinishlari, amaliy san'at asarlarining tasvirlari.
Tasviriy va amaliy san'at asarlarining tasvirlari	Bunday ko'rgazmali qurollar yordamida yorug'-soya va rangshunoslik, perspektiva turlari, kompozitsiya qonunlari tushuntiriladi.
Pedagogik, didaktik rasmlar va boshqalar	Bolalarga naturani chizishda ketma-ketlilikni, har xil eksponatlar bilan ishlash uslubini, buyumlarning qurilishini, tasvirlanayotgan predmetlar va obyektlarning fazoviy holatini ko'rsatuvchi pedagogik rasmlar va boshqalar
Namoyish qilinadigan ko'rgazmali qurollar	Filmlar, roliklar, slaydlar. Bular orqali o'quvchilar turli rassomlar, xalq amaliy san'ati ustalari bilan, tasviriy san'at asarlarini yaratish texnikasi va texnologiyasi.

Ba'zi o'qituvchilar ko'rgazmalilikning rolini yetarlicha baholay olmaydilar va bu masalada qo'pol xato qilishadi. Ko'p hollarda ko'rgazmali qurollarning yetishmasligi tufayli o'quvchilarga natura va buyumlarning tasvirlarini xotiradan tasvirlash vazifasi beriladi. Xotiradan chizishni suiste'mol qilish atrof-muhit obyektlarining shakli, tuzilishi, rangi, yorug'-soyasini noto'g'ri qabul qilishga olib keladi.

Bugungi kunda ko'rgazmali qurollarni tayyorlashda turli xil material va bo'yoqlardan foydalanish mumkin. Ularni tayyorlashda guash, akvarel, sangina, pastel, tush, rangli bo'r, flomaster kabilardan foydalaniladi. Agarda ko'rgazmali qurollar qog'ozga ishlansa, tasvirlarning bosqichlari, suv bo'yoqda ishlash sirlari, perspektiv qisqarish sirlari va qonunlari, amaliy ishlarning bosqichma-bosqich bajarilish yo'llari ko'rsatilishi mumkin.



68-rasm. Ko'rgazmali qurollarga qo'yiladigan talablar

Bunda oq vatmandan foydalanish maqsadga muvofiqdir, shu bilan birga oq vatman qog'ozi planshetga tortilgan holatda o'quvchilar ko'z o'ngida ishlab ko'rsatilgan ko'rgazmali qurolar orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. Darslar uchun ko'rgazmali qurollarni tayyorlash va tanlashda ularga quyidagi talablar qo'yiladi: (68 -rasm)

Tasviriy san'at fanidan ko'rgazmali qurollarning badiiy bezagi o'z funksional vazifasiga loyiq bo'lishi kerak. Aytaylik, ko'rgazmali qurolning kompozitsion yechimi, tasvirlarning lo'nda va aniq, o'quv jadvali "bosiqlik" ranglar bilan bajarilishi lozim. Ko'rgazmalilikda har xil ortiqcha bo'lgan tasvirlar bilan to'ldirishning ham hojati yo'q. O'quv qurollarining sarlavhalari qisqa va aniq bo'lishi, uning asosiy g'oyasini ko'rsata olishi lozim. Harflar ravon, tekis yozilgan, o'qiganda tushunarli shrift

tanlangan bo'lishi kerak. Ko'rgazmali qurolning sarlavhasi undagi tasvirlarga nisbatan joylashtiriladi.

Tasviriy san'at darslarining barcha turlari (borliqni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash, badiiy qurish-yasash, kompozitsiya asoslari, san'atshunoslik asoslari) da ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Vazifalariga ko'ra, tasviriy san'at fanidan ko'rgazmali qurollar qo'llanish bir necha turlarga bo'linadi. Darslarda tasvirlarni bosqichma-bosqich ishlash, rangshunoslik, perspektiva, yorug'-soyalarni ko'rsatuvchi plakatlar qo'llaniladi. (22-jadval)

22-jadval

1-bosqich.	2-bosqich.	3-bosqich.	4-bosqich.	5-bosqich.
Ma'lum mavzu bo'yicha tasvirlanadigan rasmlarning variantlarining tuzilishlari ko'rsatiladi	Kompozitsiyaning asosiy elementlarini tasvirlash.	Katta va kichik o'lchamlardagi ko'rinishlarning aniq tuzilishini tasvirlash.	Narsalarning yorug' va soylarini bo'yoq bilan ishlash usullarini ko'rsatish.	To'liq mazmunan va texnik jihatdan tugallangan kompozitsiya.

Bunday ko'rgazmali qurollarni bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi borliqni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, dizayn kabi darslariga mo'ljallab tayyorlashi mumkin.¹⁹

Mavzu asosida kompozitsiya ishlash mashg'ulot turlarida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar tasvirlash ketma-ketligi bo'yicha bir necha bosqichlarda ko'rsatiladi. Mavzu asosida kompozitsiya ishlash mashg'ulotlaridagi ko'rgazmalilikning yana bir turi - rangtasvir asoslarini tasvirlash orqali ko'rsatilishidir. Asosiy va hosila ranglar, turli xil bo'yoqlar yordamida rasm ishlashni o'quvchilarga og'zaki tushuntirib berish mutlaqo

¹⁹ Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. –T.: Fan. 2012. -232 b.

mumkin emas. Shuning uchun tasviriy san'at fani o'qituvchisi alohida planshetga tortilgan torshon-qog'oz chetida suvbo'yoqlar yordamida ishlash usullarini ko'rsatishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

San'atshunoslik asoslari mashg'ulot turi darslarida tasviriy san'at asarlari reproduksiylarini ko'rgazmali qurol sifatida qo'llash mumkin. Buning uchun sinfda katta ekranga kompyuter va proyektor orqali uni kattalashtirib ko'rsatish mumkin. Elektron doskalarda ham katta o'lchamdagi reproduksiylarni o'quvchilarga badiiy tahlil yetib namoyish etilsa, darslarning sifatini yanada oshiradi. Darslarda tasviriy san'at ko'rgazmali qurollaridan foydalanish uning samaradorligini oshirib, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda yordam beradi.

Takrorlash uchun savollar:


1. Darsni loyihalashda ko'rgazmali qurollarning pedagogik ahamiyati nimada?
2. Dars jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanishda qanday qoidalarga rioya qilinish kerak?
3. Nima uchun tasviriy san'at darslarida ko'rgazmali qurollarni cheklangan va zarur bo'lgan miqdorda ishlatish lozim?
4. Ko'rgazmali qurollarning didaktik xususiyatlari, deganda nimani tushunasiz?
5. Ko'rgazmali qurollarni tayyorlashda qanday material va bo'yoqlardan foydalanish mumkin?
6. Ko'rgazmali qurollarni tayyorlashda qanday talablar qo'yiladi?
7. Ko'rgazmali qurolning kompozitsion yechimi nimada?
8. Elektron doskada ko'rgazmali qurol sifatida qanday foydalanish mumkin?

4.4. Pedagogik tasvirlar ishlash. Sinf doskasida bo‘r bilan ishlash.

Reja: 1. Pedagogik tasvirlarning darslardagi ahamiyati. 2. Sinf doskasida bo‘r bilan ishlash pedagogik talablari. 3. Sinf doskasida rasm solish texnikasi. 4. Sinf doskasida rasm chizish turlari.

Tayanch iboralar: Tasvir, uslub, pedagog tasvirlar, qalamtasvir, bo‘r, sinf doskasi, chiziq, shtrix, tus, shrift.

Tasviriy san‘at fani o‘qitish metodikasi ko‘rgazmalilik prinsiplaridan muhim vositalaridan biri - sinf doskasida o‘qituvchining bo‘r bilan rasm chizib ko‘rsatishi hisoblanadi. Pedagogik tasvirning qiymati bu o‘qituvchi fikrlarini o‘quvchilarga oson, sodda, tez, ishonarli tarzda hamda uning tushuntirish so‘zi bilan to‘ldirilgan holda bajarilishi mavzuni aniq, to‘liq tushunib olish uchun ishlanadi.



69-rasm. Sinf doskasida rasm chizish bo‘lajak rassom-pedagoglar uchun muhim ahamiyatga egadir.



70-rasm. O‘qituvchi tomonidan chizilayotgan tasvirlar uslubiy yo‘naltirilganligi bosh o‘rinni egallaydi.

Pedagog tasvirlar - mustaqil ahamiyatga ega bo‘lgan rassom-pedagogning o‘y-fikrlarini so‘z bilan bir qatorda grafik holda namoyish etish vositasidir. Bunda mavzu yuzasidan o‘quv

materialini tushuntirib berish asosiy o'rinni egallaydi, pedagog tasvirlar esa uni to'ldiruvchisidir. Sinf doskasida rasm ishlash mashg'ulotlari orqali o'quvchilarda tasviriy san'atdan bilim, ko'nikma va malakalari shakllanadi. (69-rasm).

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi rasm ishlash malakalarini puxta o'zlashtirgan bo'lishiga qaramay, sinf doskasida talablar darajasida rasm ishlay olmasligi mumkin. Shuning uchun ham bo'lg'usi pedagog-rassom sinf doskasida rasm ishlash malaka va ko'nikmalari hosil qilish kerak bo'ladi. (69-rasm) Buning uchun tasviriy san'at bakalavr kurslarida qalamtasvir darslarida olgan bilimlarini amalda namoyish etish zarur. Duskada rasm ishlash malakalarini bir seansli mashqlar bilan o'rganib bo'lmaydi. Talaba birinchi kursdan boshlab dars va darsdan tashkari vaqtlarda bunday mashqlarni o'tkazib turishi lozim bo'ladi. Qalamtasvir darslarida chiziladigan barcha naturalar ma'lum bosqichlar asosida tasvirlanadi. Sinf doskasida rasm chizish ham xuddi, shu bosqichlarda ishlashni talab etadi. Demak, tasvirni qurish usullarini yaxshi biluvchi chizuvchining duskada rasmni ishonchli, tez va aniq chiqishini ta'minlaydi.

Duskada va qog'ozga rasm ishlash texnikasi orasida ancha farq bor. Duskada ishlangan tasvirlar ancha kam vaqt, bo'yoqlar va materiallarni talab etadi. Ishlangan tasvirlar asosan umumiylikka qaratilgan bo'lib, qog'ozda ishlanadigan tasvir bosqichlari prinsiplari qo'llanilmaydi. O'qituvchi duskada rasm ishlash jarayonida uni og'zaki nutq bilan birgalikda ham ohang olib boradi. Ish jarayonida duskada rasm ishlayotgan shaxs tinglovchilar e'tiborini tasvirlashning asosiy va muhim jihatlariga qaratib, uni metodik jihatdan tupi va bolalar idroki mos holda bajarish kerak bo'ladi. Duskada rasm ishlash faqat oq bo'r bilan emas, balki rangli bo'rlar bilan ham ishlanishi mumkin, Bunda

rangli boʻrlardan faqat chiziqli chizishda emas, narsalarning ayrim jihatlariini ajratib koʻrsatish maqsadida ham foydalaniladi.²⁰

Oʻquvchilar oʻqituvchining fikrini bir vaqtning oʻzida ham eshitib, ham koʻrish orqali tasvirlanayotgan obyekt haqida toʻliq tushunchaga ega boʻladilar. Daskada rasm ishlashning eʼtiborli tomonlaridan shuni aytib oʻtish kerakki, sinf doskasida boʻr bilan qisqa vaqt ichida ishlangan tasvirlar, avvalo oʻqituvchining gʻoya va fikrlarini oʻquvchilar ongiga tez va obrazli tarzda yetkazish imkonini beradi.


Tasviriy sanʼat oʻqituvchisiga dars paytida juda koʻp buyum va obyektlarni sinf doskasida xotira va tasavvur asosida chizishga toʻgʻri keladi. Bular turli buyumlar, oʻsimliklar, qushlar, hayvonlar va odam rasmlari boʻlishi mumkin. Xotira va tasavvur asosida chizganda tasvirlar ixcham, ifodali va savodli boʻlishi kerakki, oʻquvchilar u yoki bu predmet tasvirini timsoliy qabul qila olsin. Aksincha, mavhumiy buyumlarni tasvirlash bolalar ongida naturani tasvirlash bosqichlarini egallashda noqulayliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun har bir boʻlajak oʻqituvchi bakalavr kurslarida sinf doskasida pedagogik rasm chizish texnikasini egallab olishi zarur. Xotira va tasavvur asosida rasm chizish koʻnikma va malakalarini egallash bu oʻrinda muhim ahamiyatga egadir. Sinf doskasida rasm chizishda uning quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin: 1.Chiziqli rasm. 2. Shtrixli rasm. 3. Rangli rasm. 4. Tusli rasm.

Chiziqli rasmlarda tasvir bir xil qalinlik soya-yorugʻ aks ettirilmay koʻrsatiladi. Shtrixli rasmlar esa chizilayotgan tasvirni chiziqlar yordamida, hajmlarni soya yorugʻliklar vositasida berishga, yaʼni asosiy soya-yorugʻliklar koʻrsatiladi. Rangli rasmda chiziqli rasm rangli boʻrlar yordamida asosiy rang

²⁰ Hasanov R. Maktabda tasviriy sanʼatni oʻqitish metodikasi. -T.: Fan. 2004.-250 b.

holatlari ko'rsatiladi. Tusli rasmda esa tasvirning yorug' joylari qo'l, ho'llangan latta yordamida yorug' joylari olinadi. (71-rasm)

Bakalavr kurslarida albomlarda bajarilgan qisqa muddatli rasmlar kuzatuvchanlikni o'stiruvchi, atrofimizdagi borliqdan tipik va xarakterli bo'lgan belgilarni topa olishni rivojlantiradi. Bu hol qisqa muddatli, shtrixli, ancha yirik o'lchamli turli predmetlarning xomaki rasmlarini sinf doskasida ham chizish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa xayolan bajarilgan biron bir motiv xomaki rasm kompozitsiyasini hal etishda asosiy rol o'ynaydi.



71-rasm. Doskada chizilayotgan rasm bolalarning ko'z o'ngida boskichma-bosqich bajariladi.

Atrof go'zalligi, hayot sahnalari va tabiat hodisalarining xilma-xilligi rassomdan doimo kuzatish va chizish, xomaki rasmlarda timsollilikka erishish uchun turli rangli bo'rlardan foydalanish dekorativ kompozitsiya (naqsh ishlash) darslarida keng foydalaniladi.²¹

²¹ Qobilov Sh.R. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (Pedagogik tasvirlar ishlash). –T.: Fan va texnologiya. 2014. -16 b

Doskada rasm ishlashga bir qator talablar qo'yiladi. Bu ish tasviriyl san'at o'quv fani bilan bo'lganligi sababli avvalo u to'g'ri, savodli bajarilishi lozim. Bu kompozitsiya, perspektiva, narsalarning konstruktiv tuzilishi, ifodaviligi jihatdan to'g'ri bajarilganligi katta ahamiyat kasb etadi. Tasviriyl san'at darslarida ko'p o'quvchilar tasvirlash qonun va qoydalaridan xabardorlar. Tasvirda chiziqlarning turli yo'g'onlikda bo'lishi, shtrix, tus nuqtalardan foydalanish doskada rasm chizishning muhim bir jihatlaridan hisoblanadi. Pedagogik rasm chizish nafaqat sinf doskasida, balki qog'ozda qalam, ko'mir, sous, pastel, akvarel, tush kabi materiallarda ham chizib ko'rsatish katta ahamiyat kasb etadi.

Doskada rasm chizishni ayrim qoidalariga to'xtalib o'tsak. Narsa va buyumlarni doskada rasm chizganda ularni xarakterli holatda, tipik belgilarini o'ziga xos jihatlarini bo'rttirish va ikkinchi darajali, muhim bo'lmagan joylarini tushirib qoldirish mumkin. Doskada rasm ishlaganda ko'proq bo'r, xo'l va quruq latta, ayrim hollarda paralondan foydalaniladi. Bo'rlarni to'rt yoqli prizma shaklidagi o'rtacha yumshoqlikda foydalanish mumkin. Qattiq bo'rlar doskada aniq tasvir bermaydi, yumshoq doskada uvalanib ketishi mumkin. Sifali va yaxshi tasvirlar bajarish uchun doskani yaltiroq bo'lmagani ma'qul, aks holda bo'r unga yopishmaydi.

Doskada rasm chizuvchi bo'rni bosh va ko'rsatkich barmog'i bilan ushlab doskadagi rasmni to'smasdan, o'quvchilarga chap yondan turib tasvirlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda doskada rasm chizuvchi unga yaqin turmasligi va qo'lini uzatib ishlashi to'g'ri bo'ladi. Shundagina, u doskadagi rasmni kuzatib turish imkoni bo'ladi. Chizish uchun murakkabroq bo'lgan shakllar, aylana, oval, to'lqinsimon chiziqlar tez va yengil ingichka chiziqlar bilan chizib olinadi, so'ngra noaniq chiziqlar

qalinroq chiziqlar bilan to'g'rilab ishlanadi. Duskada rasm chizganda ham qalamtasvir qoydalaridan foydalangan holda simmetriya o'kidan va boshqa yordamchi chiziqlardan foydalaniladi.

Mavzu yuzasidan rasm chizganda, o'quvchilarga o'quv materiali tushunarliroq bo'lishi uchun yozuv shriftlaridan ham foydalansa bo'ladi. Shriftlar bir xil o'lchovda rasmning yuqori va pastki qismlariga yozilishi mumkin. Duskada rasm ishlaganda shriftlarni yozish uchun chizmachilik asboblaridan chizg'ich, tsirkullardan foydalanilmaydi. Tasvir va shriflar faqat qo'l bilan chamalab ishlanadi.

Tasviriy san'at darslarida va darsdan tashqari ishlarda duskada bajariladigan amaliy ishlar nafaqat o'quv materialini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga ko'mak beradi, u dars samaradorligini va o'quvchilarning fanga nisbattan qiziqishini oshiradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Pedagog tasvir deb nimaga aytiladi?
2. Pedagog tasvirlash metodlari mazmuni nimada?
3. Sinf doskasida rasm ishlash mashg'ulotlari talablari nimada?
4. Duskada va qog'ozga rasm ishlash texnikasida qanday farqlar bor?
5. Sinf doskasida rasm chizishda uning qanaday turlari mavjud?
6. Duskada rasm ishlashga qanday talablar qo'yiladi?
7. Yozuv shriftlari nima?
8. Rangli bo'rlardan qanday foydalanish mumkin?

Bobni mustaqil o'rganish bo'yicha tavsiyalar:

Bob yuzasidan yangi atamalarni o'rganish. Kasb-hunar maktablarda qalamtasvir uchun konspekt tuzish. Kasb-hunar

maktablarda rangtasvir uchun konspekt tuzish. Kompozitsiya mashg'ulotlari uchun konspekt tuzish. San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlari uchun referat tayyorlash. Kasb-hunar maktablarda haykaltaroshlik mashg'ulotlari uchun konspekt tuzish. Ko'ogazmali stendalar eskizini yaratish. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida naqqoshlik mashg'ulotlari uchun konspekt tuzish tavsiya etiladi.

5-bob. TASVIRIY SAN'AT FANI DARSLARINI LOYIHALASH VA AXBOROT-TAHLILIY MATERIALLAR BILAN ISHLASH

5.1. Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish

Reja: 1. Tasviriy san'at fanidan suhbat darslari. 2. Badiiy asarni tahlil etish talabalari. 3. Kartinalarni idrok etish va tahlil qilishni o'rgatish metodikasi. 4. Asarlarni idrok etish va tahlil qilish bo'yicha suhbat darsiga misollar.

Tayanch iboralar: Monolog, ifoda vositalari, mazmun, estetik, obraz, ekspressiv, ekskursiya, stilistika, realizm, impressionizm.

Maktab o'quvchilarini tasviriy san'at bilan tanishtirishning yo'llaridan biri - bu o'qituvchining san'atshunoslik asoslari haqida suhbatidir. Suhbat biror bir tasviriy san'at asarining mazmuni va qurilishi bilan belgilanadi. San'atshunoslik asosidagi suhbatning tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Asarning nomi va rassomning ismi haqidagi xabar;
- Asar nima haqida?
- Asardagi eng muhim narsa nima (kompozitsion markazni tasvirlanishi, uning rangi, konstruktsiyasi, joylashuvi);
- Asarda asosiy narsa atrofida nima tasvirlangan va u bilan tavsilotlar qanday bog'langan (asar mazmuni va uni ifodalash vositalari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatishda asarning mazmunini chuqurlashtirish shu tarzda boradi);
- Rassom o'z asarida nimani ifodali ko'rsata oldi;
- Ushbu asarni tomosha qilganingizda nima haqida o'ylaysiz?

Hikoya shunday tuzilish kerakki, o'quvchilar asarning mazmuni haqidagi hikoyadan keyin berilgan savollarga mustaqil

ravishda va batafsil javob bera olishi kerak. Savolga javob berishda monolog tarzida o‘tkazish mumkin. Ushbu uslubdan so‘ng, o‘quvchiga dars mavzusidan kelib chiqib asardagi hayratlanarli narsalarni sanab o‘tishga, uni batafsil ko‘rib chiqishga qaratilgan aniq savollarni taklif qilish mumkin. Masalan: “Asarda nima ko‘rsatilgan? Sizningcha, asardagi eng muhim narsa nima? va hokazo”. Bu usullarni bolalar mustaqil ravishda asarni batafsil o‘rganganidan so‘ng qo‘llash mumkin. Keyin ularga asar mazmunini tushunishni, olingan bilimlarni mustahkamlashingiz, rassom tomonidan ishlatiladigan ifoda vositalarini ajratib olish qobiliyatini shakllantirish uchun savollar berishingiz mumkin.



72-rasm. Asarning mazmuni, asar g‘oyasini, syujetini, personajlarini tahlil qilish.

Badiiy asarni tahlil qilishda o‘qituvchi badiiy ijod qonuniyatlaridan birini va badiiy mahoratning zarur shartini hisobga olishi muhim: san’at durdonalari badiiy shakl va mazmun o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatish mumkin. (72-rasm) Bolalar san’at tarixidan hikoya qilish, tasviriy san’at asarlarini tahlil qilish mahoratini o‘zlashtirish orqali nutqi shakllanadi. Dars davomida o‘qituvchi savollar bilan asarlarni tahlil etadi. Masalan:

5-sinfda P.Benkovning “Xivalik qiz” rangtasvir asari yuzasidan “Asar nima haqida? Asarni nima deb atagan bo‘lardingiz? Nima uchun u shunday nomlangan?”, “Asar nechanchi yillarda yaratilgan?” kabi savol-javob tarzida o‘tkazish mumkin. Shunday qilib, o‘qituvchi o‘quvchining e’tiborini mazmun va ifoda vositalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish va tushuntirishga qaratadi. Bunday usul bolani mantiqiy fikrlash, isbotlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. (73-rasm).



72-rasm. P.Benkovning “Xivalik qiz” rangtasvir asari yuzasidan badiiy tahlil.

“Tasviriy san’at” fanini o‘rganishdan ko‘zlangan maqsadlardan biri badiiy obrazni rivojlantirish, ya’ni badiiy asardagi asosiy tasvirni anglay bilish, rassomning tavsiflash uchun ishlatadigan ifoda vositalarini farqlay bilishdir. Bunda tasviriy san’at asarlarini idrok etish orqali shaxsning axloqiy va estetik fazilatlarini rivojlantirishning muhim vazifasi bajariladi. Keling, badiiy asarlarni idrok etish va tahlil qilishni o‘rgatish metodikasini ko‘rib chiqishga harakat qilaylik.

Kartinalarni idrok etish va tahlil qilishni o‘rgatish metodikasi.

O'quvchilarni tasviriy san'at asarlari bilan tanishtirishda qo'llaniladigan usullar og'zaki, ko'rgazmali va amaliy usullarga bo'linadi.

Og'zaki usullar.

1. Savollar:

- a) tasvir mazmunini tushunish;
- b) kayfiyatni aniqlash;
- v) ekspressiv vositalarni aniqlash.

Savollar o'quvchilarni tasviriy san'at asarini diqqat bilan o'rganishga, uning tafsilotlarini ko'rishga, shu bilan birga badiiy asarning yaxlit tuyg'usini his etishga undaydi.

2. Suhbat:

- a) darsning kirish qismi sifatida;
- b) asar bo'yicha suhbat;
- c) yakuniy suhbat.

Suhbat usuli o'quvchilarning o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'qituvchining suhbat davomida o'quvchining bayon yetib berish xususiyatlari shakllanadi.

3. O'qituvchining hikoyasi.

Ko'rgazmali:

- ekskursiyalar (virtual ekskursiya);
- mashhur rassomlarning asarlar reproduksiyalari albomlarini ko'rish;
- taqqoslash (asardagi yoki kartinalardagi kayfiyat, ifoda vositalari).

Amaliy:

- asar yoki kartina ustida insho yozish;
- referat, tezislar tayyorlash;


Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning tayyorgarligini hisobga olgan holda, u yoki bu uslubga e'tibor qaratib, badiiy

asarlar bilan ishlashning turli usullarini birlashtirish olib borish tavsiya etiladi.

Tasviriy san'at asarini tahlil etish. Rassom-pedagoglar fikriga ko'ra bolaning asarni idrok etishni boshlang'ich sinfdan o'rgatish kerak, deb hisoblaydilar. Asardagi alohida obyektlarni (odamlar, hayvonlar) tanib olishni talab qiladi; asarning umumiy plandagi har bir figuraning holatlari va pozitsiyalarini ajratib ko'rsatish; bosh qahramonlar o'rtasidagi aloqalarni aniqlash; tavsilotlarni ko'rsatish: yorug'lik, fon, odamlarning yuz ifodalari va boshq. (74-rasm).



Rafael. Sikstin madonnasi.
(vertikal - romb)



Pol Sezann. Noklar va shaftolilar.
(gorizontal - oval)

74-rasm. Taniqli rassomlar asarlarini kompozitsion qismlarga ajratish.

Asarni badiiy tahlil etish bir necha yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1) Tasvir san'at asoslarini o'rganish.

Darslarda o'quvchilar tasviriy san'at turlari, janrlari, badiiy ifoda vositalari bilan tanishadilar. O'quvchilarga tasviriy san'at terminologiyasi va atamalari: soya, yarim soya, kontrast, refleks, ufq chizig'i, perspektiva, kompozitsiya, rangshunoslik kabi qonuniyatlari o'rgatiladi.

2) Rassom hayoti va ijodi bilan tanishish.

O'quvchilarni rassomlarning hayoti va ijodi bilan tanishtirganda odatda rassom haqida ma'lumot, asarning yaratilish tarixi haqida bo'lishi mumkin. Rassom hayoti haqida bayon etilganda, uning ijodining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan, yo'nalish bergan ana shunday epizodlarga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Rassomning hayoti va ijodi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirganda: o'qituvchining hikoyasi, ilmiy film, taqdimotlar orqali amalga oshiriladi.

3) Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish.

Tasviriy san'at asarini badiiy idrok etishda *mavzui asar mazmuniga yaqin bo'lgan adabiy asarlarga murojaat qilinishi mumkin*. Asar syujetini tushunish uchun o'rganilayotgan asarni yaratilishi tarixi, ma'lum bir davrning stilistik xususiyatlarini bilish ham katta ahamiyatga ega.

4) Tasviriy san'at asarlarini kuzatish.

Kartinalarni kuzatish jarayonida o'quvchilar birinchi navbatda, o'ziga hamohang uyg'un, uning fikrlari va his-tuyg'ularini ko'radi. O'quvchi asarga qarab, uni nima tashvishga solayotganiga, egallaganiga, u uchun yangi, kutilmagan narsalarga e'tiborini qaratadi. Shu orqali o'quvchilarning badiiy asarga nibattan munosabati aniqlanadi, badiiy obraz haqida individual tushunchasi shakllanadi.

5) Tasviriy san'at asarini tahlil qilish.

Asarning tahlili suhbat yoki o'qituvchining hikoyasi jarayonida amalga oshiriladi, asta-sekin o'quvchilar mustaqil ravishda tahlil qila boshlaydilar. Suhbat bolalarga badiiy asarni yanada nozik, chuqurroq ko'rish, his qilish va tushunishga yordam beradi.

Tahlil qilish metodlari

Asar bo'yicha savollar:

1. Ushbu rasmni qanday nomlagan bo'lardingiz?
2. Asar qanday taassurot qoldirdi?
3. 2. Asar sizga yoqdimi yoki yo'qmi?
4. Ushbu asar sizda qanday his-tuyg'ularni, kayfiyatni uyg'otadi?
5. Sizningcha, muallif ushbu asar bilan nima demoqchi bo'lgan? Uning asosiy g'oyasi nima, uni nima uchun aynan shunday chizgan?
6. Rassom qanday tasviriy vositalar orqali bunga erishdi?
7. Asarda obyektlar qanday joylashtirilgan?
8. Masshtab, format, qismlarning gorizonta, vertikal yoki diagonal joylashuvi, asarda ma'lum ranglardan foydalanish asarning hissiy taassurotiga qanday yordam beradi?

Asarni tahlil qilish rejasi.

1. Muallif, asar nomi.
2. Badiiy uslub \ yo'nalish (realizm, impressionizm va boshqalar)
3. Rangtasvir dastgohli yoki monumental (freska, mozaika), material: moybo'yoqlar, guash, tempera va boshqalar.
4. Badiiy asar janri (portret, natyurmort, tarixiy, maishiy, marina, mifologik, manzara va boshqalar).
5. Ifodaviylik vositalari (rang, kontrast, kompozitsiya, tasvir markazi)
6. Shaxsiy taassurotingiz (his-tuyg'ular).

7. Rasm syujetining asosiy g'oyasi. Muallif nimani "aytmoqchi edi", nima uchun u bu asarni tasvirlagan.
8. Asarga o'zingiz nom bering.

Asarlarni idrok etish va tahlil qilish bo'yicha suhbat darsiga misollar.

M.Nabievning "Amir Temur portreti" rangtasvir asari haqida suhbat. Mustaqillik yilllarida ijod qilayotgan rassom va haykaltaroshlarimizning yutuqlari shundaki, ular birinchidan erkin ijod yo'liga o'tdilar, ikkinchidan milliy badiiy an'analarni davom ettirish, milliylik va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlash borasida yangi, zamonaviy, ilg'or tasviriy texnologiyalarni qo'llab, muvaffaqiyatli asarlar yaratmoqdalar.

Milliy istiqlol g'oyalari bilan sug'orilgan portret janridagi bir qancha tarixiy shaxslarni obrazlari yaratildi. Bu asarlar qatoriga Amir Temur, Alisher Navoiy, Jaloliddin Manguberdi, Kamoliddin Behzod, Nodirabegim, Bibixonim, Spitamen portretlarini kiritish mumkin. Tarixiy shaxslar obrazini yaratishda rassom asosida



75-rasm. M.Nabiev "Amir Temur portreti" 1994 y.

mushkul vazifa turadi. Chunki kamdan kam holatlardan mustasno tarixda ularning tashqi qiyofalari haqida hech qanday dalillar saqlanib qolmagan. Buning natijasida o'zida zamonasi ruhini timsollashtiruvchi, umumlashma tarzda ramziy portretlar vujudga keldi.

Amir Temurning

jahon tarixida va xizmatlari beqiyosdir. U Markaziy Osiyo xalqlarini mo'g'ullar istilosidan ozod etgan. Amir Temur o'zining ham ma'naviy, ham jismoniy kuchini jonajon xalqining og'irini yengil qilishga, shahar va qishloqlarni obod qilishga, chanqab yotgan yerlarga suv chiqarishga, bog'lar yaratishga safarbar qilgan. Hozirda Sohibqironning xalqimiz uchun ko'rsatgan beqiyos xizmatlari biz minnatdor avlodlari tomonidan munosib taqdirlanmoqda. Uning hayoti va ijodini aks ettiruvchi o'nlab badiiy tasviriy asarlar yaratilmoqda. Tasviriy san'atda Amir Temur timsolini ifodalagan bir qator asarlar ishlangan. Toshkentda Temuriylar muzeyi tashkil etilgan.

Amir Temur timsoli tasvirlangan asarlarda asosan uning harbiy ishlari, ziyofat, ov, qabul marosimlari qolaversa, diniy tadbirlardagi ishtiroki ifodalangan.

Amir Temurning serqirra faoliyati va u haqda bitilgan bir qator asarlarda o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, bu borada Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Xotifiyning "Temurnoma", Salohiddin Toshqandiyning "Temurnoma", Fosiq Havoiyning "Majmul-I Fasohiy" asarlari e'tiborga loyiqdir. Bu asarlarni o'sha davrning mashhur rassom va xattotlari rang-barang tasvirlar bilan bezatganlar. Ularda asosan Sohibqironning jangu jadallari, qabul va yurishlari, diniy mavzular o'z ifodasini topgan.

Tasviriy san'atda tarixiy shaxslar obrazini Malik Nabiye v ijodisiz to'liq tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, sohibqiron Amir Temur obraziga rassomning murojaat qilishi sabablari xususida to'xtalib o'tamiz. Rassom ellik yildan ortiq vaqt ichida Amir Temur obrazini har tomonlama o'rgangan, tadqiqotlar olib borgan. Rassom bu haqida so'zlab bayon qildilar: " Shu davr ichida Amir Temur haqida ko'plab asarlar bilan tanishdim. Mavjud miniatyuralarni, qayerda bo'lmasin, imkoniyat darajasida

qidirib topdim. Men Hindistonning Kalkutta, Bombay shaharlaridagi muzeylarda, Eronning Tehron, Isfaxon, Turkiyaning Istanbul, Ko'nyo, Izmir va boshqa shaharlarida, Angliyaning "Britaniya" muzeyidagi Amir Temur siymosi turlicha tasvirlangan. Hindistonning Bobur miniatyura maktabi, Behzod (Hirot) minatyura maktabi vakillari chizgan Amir Temur qiyofasi bir - biridan tubdan farq qiladi. Istanbul muzeyidan joy olgan Temur portreti ham butunlay boshqacha. Xullas Amir Temur siymosini yaratish uchun bir emas, bir necha miniatyura maktabini o'rganib chiqdim. Tarixiy asarlarni yaratishda avvalo men bobolar ruhidan madad so'rayman, ana shu narsa menga doimo dalda berib turadi..." Haqiqatdan ham rassom bu portret asarini yaratish borasida astoydil izlanishlar olib borgan, yutuqqa yuksak mahorati, mo'yqalamning kuchi tufayli erishgan.

Asar tasviriy san'atning - realizm yo'nalishida, portret janrida tasvirlangan. Rassom portreti hajm jihatidan dastgohli turiga kiradi. Rangtasvir ishi uchun rassom moybo'yoqlardan foydalangan. San'at ixloslari e'tiborini o'ziga jalb qilgan Amir Temur portretida Sohibqiron sarkarda qiyofasida gavdalantirilgan. Boshiga oltin toj kiygan Temurning nigohi bir nuqtaga qaratilgan. Va jiddiy xayol og'ushida ekanligi chap qovog'ini bir oz ko'tarilib, qoshi tepaga chimirilganidan sezilib turadi. Ulug'vor fikri bilan bandligidan dalolat beradi. Yuz qiyofasi asosan bug'doyrang tuslar orqali tasvirlangan. Peshona, yuz qismida paydo bo'lgan chiziqlar, shuningdek, burun, lab, quloq, soqol, mo'ylov kabi joylaridagi holatlar Temurning yoshi bir oz o'tganligini ko'rsatsa-da, uning tetik va baquvatligi saqlanganligi yaqqol sezilib turibdi. Ayniqsa bu holat yuzda ko'zga tashlanayotgani pishqlik, chayirlikni tasvirlanishida yanada aniqroq ko'rinadi. Jiddiy fikr va xayol bilan bandligi esa Sohibqironni yanada salobatli qilib ko'rsatadi. Elkador, qo'llari

esa bamaylixtir qilichga tayangan holda tasvirlangan. Portretida qo‘l barmoqlari shunday xarakterli tasvirlanganki, bu Sohibqiron Temurning mashaqqatli jangu-jadallardan mardonavor o‘tganini yana bir bor tasdiqlab turibdi. Kompozitsiya statik, Sohibqiron Temurning o‘zi kompozitsiyaning tasvir markazidir, uning bizga qaratilgan nigohi tomoshabin nigohini o‘ziga tortadi. (75-rasm)

Interer sifatida sharqona bezatilgan shoh saroyining bir bo‘lagi, derazadan Samarqand shahrining manzarasi ko‘rinadi. Devordagi fonda naqshin bezaklar, sohibqiron o‘tirgan saltanat kursisining badiiy boyligi, shuningdek Amir Temur egnidagi liboslarining o‘ziga xos qimmatbaho ko‘rinishiga ega bo‘lishi tomoshabinga zavq ulashadi.

Portret asarini badiiy idrok etish va tahlil qilish bo‘yicha mustahkamlovchi savollar:

1. Portretida kim tasvirlanagan?
2. Rassom e’tiboringizni qanday narsaga jalb etadi?
3. Portret asosida qanday g‘oya yotadi?
4. Portret qanday tasvirlangan, odatdagidekmi yoki tantanali?
5. Rang portret g‘oyasini qanday ochadi?
6. Asarda rang hajm va perspektivani qanday ko‘rsatadi?
7. Portret foni qanaqa, uning roli nimadan iborat?
8. Tasvirlanayotgan obrazning xarakteri (vazmin, aqlli, ziyrak, beg‘am) qanday?
9. Portret sizda qanday taassurot va fikrlar uyg‘otadi?
10. Nima uchun dastgohli rangtasvir deb ataymiz?
11. O‘zbekistonda tarixiy portret janri taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan rassomlardan kimlarni bilasiz?

Malik Nabiyeu buyuk inson Amir Temur obrazini tasvirlash borasida katta muvaffaqiyatni qo‘lga kiritdi. Temurni ilm, san‘at ahllariga homiylik qilgan ma‘rifat homiysi ekanini ham ifodalay oladi. Xullas, Malik Nabiyeu sharqona xarakterga ega bo‘lgan

Temurni uzoq va mashaqqatli jangu jadallardan so‘nggi holatdagi obrazini tasvirlashga erishgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tasviriyy san’at fani o‘qitish metodikasida suhbat darslaring ahamiyati nimada?
2. Suhbat darslaring tuzilishi haqida ma’lumot bering.
3. O‘quvchilarni tasviriyy san’at asarlari bilan tanishtirishda qanday metodlar qo‘llaniladi?
4. Tasviriyy san’at asarlarini tahlil etishda asosan nimalarga e’tibor beriladi?
5. Tasviriyy san’at asoslariga nimalar kiradi?
6. Tasviriyy san’at asarini tahlil qilish metodlariga nimalar kiradi?
7. Badiiy asarni tahlil qilishda savollar namunalarini keltiring.
8. Asarlarni idrok etish va tahlil qilish bo‘yicha suhbat darsiga misollar keltiring.

**5.2. Tasviriyy san’at darslarini metodik jihatdan ta’minoti.
Darsliklar bilan tanishish va tahlil qilish.**

Reja: 1. O‘zbekistonda tasviriyy san’at fanidan darsliklarni yaratilish tarixi. 2. Darsliklarga bo‘lgan didaktik talablar. 3. Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilayotgan 1-7-sinf tasviriyy san’at darsliklari mazmuni.

Tayanch iboralar: O‘zbekiston, Sinovli, nashr, tipografiya, qo‘llanma, dizayn, illyustratsiya .

Ma’lumki, o‘tgan asrning 70-yillarigacha O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun tasviriyy san’at fanidan darsliklar yaratilmagan. Mamlakatimizga sobiq Ittifoq maktablari uchun tayyorlangan tasviriyy san’at fani o‘quv va metodik qo‘llanmalarigina kelar edi. Sobiq Ittifoq umumiy o‘rta ta’lim

maktablari uchun ham tasviriy san'at fanidan darsliklar asosan 1961-yildan boshlab yaratila boshlandi.

O'zbekistonda darsliklar yaratilishi 1970-yildan boshlab tasviriy san'at fanidan dastlabki "sinovli" darsliklar yaratila boshlandi. 1-sinf uchun "Tasviriy san'at" fani darsligi R. Hasanov va A. Jiltsovalar tomonidan 1970-yili nashr etildi. Bu hol tasviriy san'at fani va uni o'qitish metodikasi uchun yaxshi natija berdi. Uning davomi sifatida 1974-yili R. Hasanov, A. Jiltsovalaning 2-sinflar uchun darsligi chiqdi. Keyinchalik 1976-yili shu mualliflar tomonidan 3-sinf darsligi chiqdi. 1977-yili R. Hasanov, B. Oripov, A. Isoxo'jaevlarning 4-sinf uchun "Tasviriy san'at" darsligi nashr etildi. Bu darsliklar ko'p yillar mobaynida qayta-qayta chop etildi. Bu darsliklar qoraqalpoq tilida ham nashr etildi.

Darslik dastur asosida tizimli bilim berishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan holda o'quvchining o'zi undan foydalana olishi lozim. Shu bilan birga, tasviriy san'at darsligida amaliy ishlar xarakterida bo'lgani uchun uchinchi shaxs tilida o'quvchi uchun tavsiyalar asosida yoziladi. Chunki darslik o'qituvchi uchun emas, o'quvchi uchun yoziladi.

Darsliklar yozish imkoniyati bo'lmagan holda uning o'rniga shu fandan o'quv qo'llanmalar ham yaratiladi. Ma'lumki, o'quv qo'llanma darslikdan farqi shundaki, unda dasturdagi o'quv mavzularining ketma-ketlik va tizimlilikka qattiq amal qilinmaydi. O'quv qo'llanmalar asosan ikkinchi shaxs tilida yoziladi, unda vazifalar ko'proq o'qituvchi vositachiligida o'quvchiga dastur talabidagi bilim va malakalar beriladi. O'quv qo'llanmalar asosan metodik xarakterga ega bo'ladi. Tasviriy san'at o'quv qo'llanmalari yaratilishi O'zbekistonda o'tgan asrning 30-yillaridan taniqli grafik rassom-pedagog I. Ikromov tomonidan nashr etilishi bilan boshlandi. O'quv qo'llanmalar ham

dasturlar asosida yoziladi. 1980-90 yillar O‘zbekiston maktablari uchun R. Hasanov, X.Egamov, B.Oripov, O.Usmonovlarning 1-2-3 va 4-sinflari uchun bir qator o‘quv qo‘llanmalari chop etilgan. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun R.Hasanov, N.Abdullayev, X.Egamov, N.Oydinov, B.Oripov, S.Bulatov, S.Abdirasilov, B.Boymetov, A.Sulaymonov, O.Xudoyorova, N.Kuziyev, O‘.Nurtoev, N.Tolipovlarning metodik qo‘llanmalarida maktab tasviriy san‘at fani darslari va darsdan tashqari ishlarini tashkil etishdan boshlab, ularni muntazam holda takomillashtirib borishning ilmiy asoslari ko‘rsatib berildi. Qo‘llanmalarda o‘quvchilar qiziqishini oshirish, darslarning samaradorligini oshirish, har bir darsni mukammal tarzda o‘tkazish, uning sifatini o‘stirish va takomillashtirib borish imkoniyatlari, yo‘l-yo‘riqlari va uslubiy yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilib berildi. Shu bilan birga bu metodik qo‘llanmalarda tasviriy san‘at xonalarining darslar samaradorligidagi o‘rni, uning rolikidan boshlanib, didaktikaning fanlararo bog‘lanish tizimi, darsda olib boriladigan ta‘lim-tarbiya tadbirlari, darsga va fanga bo‘lgan o‘quvchilar qiziqishi, ularga berilayotgan bilim va malakalarni muntazam bo‘lishining eng samarali omillariga to‘xtab o‘tilgan.

Metodik qo‘llanmalarda tasviriy san‘at fanini o‘qitilishida eng muhim qirralari turli nuqtai nazardan tahlil etiladi. Oxirgi yillarda chop etilgan metodik qo‘llanmalarda, ilmiy-metodik tavsiyanomalarda va ilmiy maqolalarda tasviriy san‘at fanidan o‘quvchilar bilimini baholash, 45 minutli dars mashg‘ulotlarini tashkil etish, o‘tkazish, ularni tizimli takomillashtirib borish asosida dars va mashg‘ulotlar pedagogik texnologiyalar, didaktika va metodikasida o‘quvchilarga berilayotgan bilim-malakalar samaradorligiga erishishning eng zamonaviy uslublari, mohiyati va mazmuni ish tajribalar, ilmiy tadqiqotlar xarakterida asoslab

berilmoqda. Shu bilan birga tasviriyy san'at darslari uchun o'quv didaktik materiallarning yaratilishi, tasviriyy san'atdan o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari, ularning darsdagi diqqati, o'quvchilar bilimni aniqlash bo'yicha pedagogik tashxis, baholash mezonlari, mahalliy va chet ellar tasviriyy san'at materiallaridan foydalanish kriteriysi, tarbiyaviy ishlarning mohiyati, mazmuni, Davlat ta'lim standarti talablari kabi ta'lim-tarbiya tizimining eng dolzarb muammolari ilmiy jihatdan tahlil qilib berilmoqda.

2021-yildan Milliy o'quv dasturi asosida yaratilayotgan 1-7-sinf Tasviriyy san'at darsliklari mazmuni va interaktivlik jihatidan avvalgilaridan farq qiladi. Bu darsliklar aynan o'quvchilarning yosh bilan bog'liq psixofiziologik va qiziqishi xususiyatlari inobatga olingan holda yaratildi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflar yangi darsliklarida o'quvchi chiza olish ko'nikmasini sodda amallardan boshlab o'rgatadi. Yangi Tasviriyy san'at darsligi "STEAM" dasturiga asoslangan bo'lib, o'quvchini mantiqiy fikrlashga undaydigan o'quv topshiriqlari berilgan. Darslik o'quvchi ish daftari, o'qituvchi kitobi, media ilovasi bilan birgalikda ta'lim jarayonida qo'llaniladi. O'quvchilarga ishchi daftarda turli chiziqlar, keyin shakllar, undan so'ng raqamlar asosida turli tasvirlarni chizish o'rgatiladi. Maktab 1-7 sinflar uchun darsliklar dizayni xalqaro tajribalarga suyanan holda mutlaqo yangicha uslubda ishlab chiqildi. Darslikda tasvir ishlash va yasash bosqichlari mavzular bo'yicha berilgan bo'lib, unda "Grafika", "Rangtasvir", "Haykaltaroshlik" va "Kompozitsiya" kabi tasviriyy san'atning asosiy bo'limlariga ajratilgan. Respublikamiz taniqli rassomlar tomonidan darslikning har bir mavzusiga maxsus rasmlar chizilgan.

Xullas, bugungi kunda maktabda tasviriyy san'atning o'qitilishi, mashg'ulotlarning takomillashtirib borilishi va darslar

samaradorligiga erishishning qator ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilmoqda, ular asosida tasviriy san'at o'qituvchilari darslar samaradorligi uchun qator texnologik, didaktik va metodik imkoniyatlarga ega.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekiston tasviriy san'at darsliklaring nashr etilishi qachondan boshlandi?
2. Tasviriy san'at fanidan birinchi darsliklar muallifi kimlar?
3. Darslik dastur asosida tizimli bilim berishda o'z oldiga vazifa qanday vazifalar qo'yiladi?
4. Darsliklarga qanday talablar qo'yiladi?
5. O'quv qo'llanmalarining xususiyati nimada?
6. Yangi tasviriy san'at darsligi qaysi dastur asosida yaratilgan?
7. Yangi tasviriy san'at fani darsligida tasviriy san'atning qaysi asosiy bo'limlariga ajratilgan?
8. O'quvchi ish daftari, o'qituvchi kitobi, media ilovasini ta'lim jarayonida qo'llanilishi, deganda nimani tushunasi?

5.3. Tasviriy san'at darslarida kompyuterdan foydalanish metodikasi.

Reja: 1. Tasviriy san'at darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning zaruriyati. 2. Kompyuter texnologiyalari vositalari. 3. Tasviriy san'at darslarini tashkil etishda kompyuter dasturlari. 4. Kompyuterlar yordamida bugungi kunda bilimlarni nazorat qilish. 5. Tasviriy san'at dars va darsdan tashqari vaqtlarida o'quvchilarning turli xil gadjetlardan foydalanishi.

Tayanch iboralar: Kompyuter grafikasi, printer, videoprojektor, interfaol doska, vizual, audio, Paint, Adobe Photoshop, Power Poit, iSpring Suite.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan texnologiyalar desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, ta'lim tizimini tashkil etishda, uning faoliyatini boshqarishda, har qanday amallar bajarmaylik, albatta, kompyuterlar bilan ish yuritamiz.

Tasviriy san'at o'quv jarayoniga kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim jarayoniga joriy etish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, o'qituvchini o'qitish metodini yengillashtiradi, mashg'ulotlarning ko'rgazmalilik tamoyillarini samaradorligini ta'minlaydi va o'quv materialining jozibadorligini yanada oshiradi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quv motivatsiyasini oshiribgina qolmay, o'quvchilarning ijodkorligini va o'qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirishga katta yordam beradi. Hozirgi kunda, maktab tasviriy san'at darslarini o'qituvchi uchun kompyuterdan foydalangan holda dars tayyorlash va o'tkazish, uni yorqin va qiziqarli qilish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Kompyuter texnologiyalari orqali ta'lim jarayonini to'liq nazorat qilish, undagi ma'lumotlarni yangilab borish imkoniyati tug'iladi. Kompyuter texnologiyalarini darslarda qo'llanilishi pedagogik texnologiyalar, tahliliy materiallar kabi ma'lumotlar to'planadi. Shuning bilan bir qatorda, videokonferensiya o'tkazish, har xil ko'rinishdagi taqdimotlarni namoyish etish, ilmiy tadqiqot ishlari haqida ma'lumot berish, seminarlar va turli mashg'ulotlarning o'tkazishda uning ahamiyati kattadir. Bular kompyuter axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari orqali amalga oshiriladi: (23-jadval)

№	Kompyuter (axborot-kommunikatsiya) texnologiyalari vositalari:
1.	Kompyuter - universal axborotni qayta ishlash qurilmasi.
2.	Printer - o'qituvchi tomonidan yaratilgan ma'lumotlarni qog'ozga yozib olish imkonini beruvchi qurilma. Tasviriy san'at darslari uchun rangli printer zarur va maqbuldir.
3.	Proeyktor – dars jarayonida o'qituvchining ko'rgazmali tasvirlarini butun sinfga taqdim etish moslamasi.
4.	Interfaol doska kompyuterga ulangan sensorli ekran bo'lib, undan tasvirlar proeyktor yordamida oq doskaga uzatiladi. Interfaol doskalar uchun maxsus dasturiy ta'minot matnlar va obyektlar, audio va video materiallar, Internet resurslari bilan ishlash , ochiq hujjatlarning tepasida to'g'ridan to'g'ri qo'lda yozilgan yozuvlar qilish va ma'lumotlarni saqlash imkonini beradi.
5.	Vizual va ovozli ma'lumotlarni yozib olish (kiritish) qurilmalari (skaner, kamera, videokamera) - o'quv jarayoniga atrofdagi axborot tasvirlarini bevosita kiritish imkonini beradi.
6.	Maktab va sinf ichidagi tarmoqlar - mavjud ma'lumotlardan, texnik va vaqtinchalik resurslardan samaraliroq foydalanish imkonini beradi, global axborot tarmog'iga umumiy kirishni ta'minlaydi.

Kompyuterlardan darsda qanday foydalanish mumkin? Kompyuterdan foydalanish uzoq vaqtdan beri tasviriy san'at darslarining hozirgi rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lgan zarurat bo'lib, o'quvchilarda bilish faoliyati faollashadi. Bunda bizga Windows dasturiy ta'minotida Paint, Adobe Photoshop, 3D

max, Power Poit, Movie Maker, Photo Story dasturlari qo'l keladi.²²

Tasviriy san'at darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko'plab didaktik imkoniyatlari mavjud:

- ta'lim oluvchilarning monitorlari va multimedia proyektorlari ekranlariga me'yorida matnli yoki grafik axborotlarni yetkaza olishi;
- grafik redaktorlari yordamida tasvirlar yaratishi;
- o'quvchilar bilan individual va differentsial ishlash imkonini beradi;
- jahon rangtasvir durdonalarini raqamli to'plamlarini yaratishi;
- bilimlarni nazorat qilishi (testlash);
- multimediali namoyishlar (prezentatsiyalar) yaratish.
- o'quv jarayonini yanada zamonaviy va jozibador qilish;
- yirik jahon va vatanimizning virtual muzeylariga tashrif buyurishi;
- tasvirlarni namoyish qilish orqali o'quv ma'lumotlarni idrokini oshirish;
- darsni ko'rgazmaliliylik va dinamikasini oshiradi.

Tasviriy san'atni kompyuter orqali o'rganish jarayonida o'quvchilar ham rassom, ham tomoshabin sifatida ishtirok etishadilar. Olimlarning fikricha, odam bir vaqtning o'zida eshitgan narsasining 20 % ni, ko'rgan narsaning 30 % ni va ko'rgan va eshitgan narsaning 50 % dan ortig'ini eslab qoladi. Kompyuter va multimedia dasturlari orqali katta hajmdagi illyustrativ va didaktik materiallarni jalb qilish imkonini beradi va o'quv jarayonini samaraliroq qiladi. Muayyan materialni o'rganish uchun zarur bo'lgan vaqtni tejash o'rtacha 30% ni

²² Xayrov R.Z. O'quvchilarning badiiy bilimlarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning o'rni // O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishning dolzarb muammolari. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. - Guliston 17-18 may 2019. -253-254 bet.

tashkil qiladi va olingan bilimlar xotirada ancha uzoqroq saqlanadi. Tasviriyy san'at darslarida kompyuterlardan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Vizual ma'lumot (illyustrativ material).
- Ko'rgazmali material (tushunchalar, ta'riflar, sxemalar, tasnif).
- O'quvchilarning malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish (testlar, topshiriqlar va boshqalar).

Tasviriyy san'at darslarini tashkil etishda Microsoft Power Point elektron taqdimotlari katta yordam beradi. Taqdimot bir vaqtning o'zida bir nechta xotira turlariga ta'sir qilish imkonini beradi: ko'rish, emotsional. Estetik jihatdan yaratilgan turli xil tasviriyy materiallar, chizmalar, kompozitsiyalar, topshiriqlar, testlar, krossvordlar - darsga bo'lgan qiziqishni oshiradi (76-rasm).

Multimediali prezentatsiyalarni yangi mavzularni o'rganishning turli xil bosqichlarida, yangi materialni tushuntirishda, mustahkamlashda, umumlashtirishda, nazorat o'tkazishda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garak ishlarida foydalanilib, u turli shakllarda, darsning mavzusiga qarab yaratiladi. Ayniksa, tasviriyy san'atdan lektsiya, viktorinalar, bellashuvlar, kechalar, mustaqil ishlar, testlash, so'rovnomalar, rassomlarning hayoti va ijodi bilan tanishtirish, yoki san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida foydalanish uchun imkoniyatlari keng.



76-rasm. Tasviriy san'atdan krossvord.




77-rasm. Darslarda prezentatsiyadan foydalanish.

Microsoft Power Point dasturidan turli xil mavzularni, masalan; 2-sinflar uchun "Rang va tuslar", "Oltin kuz", "Qish ziynati", "O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati", 5-sinflar uchun "Tasviriy san'at ifoda vositalari xaqida" (Reproduksiyalarni tahlil etish asosida), "Tasviriy san'atda animalistik janr", Tasviriy portret", 7-sinflar uchun "O'zbekiston amaliy bezak san'ati", "O'zbekiston me'moriy yodgorliklari" prezentatsiyalarini yaratishimiz mumkin (77-rasm).


Yuqorida keltirilgan dars mavzulari bo'yicha prezentatsiyalarni murakkabligini o'quvchilarning qobiliyat va layoqatlariga qarab, har bir sinfga moslab ham yaratish mumkin. Albatta, bunda har bir tasviriy san'at o'qituvchisidan kompyuter texnikasidan foydalanishni yaxshi bilishi talab etiladi.

Masalan, 6-sinfda "Tasviriy san'atda janrlar" mavzusini o'rganishda yangi materialni tushuntirishda ekranda ta'rif va tasnifni ko'rsatish hamda tushuntirishni illyustrativ material bilan birga olib borish maqsadga muvofiqdir. Ushbu formatda nazariy materialning asosiy konspekti bo'lgan bunday taqdimotni ko'rsatish avtomatik dasturlashtirilgan rejimda emas, balki sichqonchani bosish orqali bir slayddan, ikkinchisiga o'tish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab,

ma'lum bir slaydani namoyish etish vaqti turlicha bo'lishi mumkin. (77-78-rasm)



**78-rasm. Ranglarni aniqlash
(Microsoft Power Point
dasturida)**



**79-rasm. O'qituvchi uchun
metodik qo'llanma.**

7-sinfda “Kitob grafikasi” mavzusini o'rganayotganda nazariy va illyustrativ materialni to'liq idrok etish uchun darsda turli ish shakllaridan foydalanishni kompyuter taqdimoti amalga oshirishga yordam berishi maqsadga muvofiq. O'quvchilarning bilim olishida kognitivlikni oshiruvchi motivatsiya bosqichini mashg'ulot muvaffaqiyatining zaruriy shartidir. Bundan tashqari tasviriy san'at darslarda mavzu yuzasidan o'rganilayotgan materiallardan masallar, rivoyatlar, maqollar, topishmoqlarni ham taqdimot formatida tayyorlash mumkin. (78-79-rasm)

Yangi materialni tushuntirish bosqichida yangi so'z, lug'at, atamalar va ta'riflar bilan ishlashda taqdimotlarning ahamiyati katta. Dars davomida o'rta o'zlashtiruvchi o'quvchilar har doim ham murakkab, tasviriy san'atga oid atamalarni bir martada idrok etishga qiynaladi. Ekranda ta'riflar, tushunchalar, chizmalar, fotosu'ratlar namoyish etilishi, bu muammoni hal qila oladi. Bu metod “Eshitdim + o'qidim + ko'rdim + eslab qoldim” formulasi bo'yicha qurilgan. Bunda o'quvchining eshitish va vizual analizatorlari ham ishtirok etadi.

5-6-sinf tasviriy san'at darslarining mustahkamlash qismida o'quvchilariga to'g'ri javoblar qabul qilinganda to'ldiriladigan krossvordni yechishni taklif qilish mumkin.




80-rasm. Veb-saytda logotip yaratish musobaqasi.



81-rasm. Ranglarning inson hayotidagi o'rni.

7-sinfda “Tasvirning tarixiy janri” mavzusini o‘rganayotganda o‘quvchilarni Kamoliddin Behzod “Masjidning qurilishi”, “Impressionizm uslubida manzara ishlash”, “Kubizm uslubida natyurmort ishlash” mavzularning mazmunini ochishga kompyuter taqdimoti va katta ekrandagi slayd-shou namoyish etiladi. O‘quvchilar kartinaning tasvirini katta formatda ko‘rishadi, ishning barcha tavsilotlari bilan tanishib chiqishlari mumkin. Taqdimotda har bir parcha batafsil tushuntirish bilan birga keladi. O.Renuarning “J.Samari portreti” kartinasi bilan tanishib, yettinchi sinf o‘quvchilari o‘sha davrining insonlari tasvirini tushunadilar, buyuk ustaning ijodi va iste’dodini qadrlashadi. (80,81,83-rasm)



82-rasm. Tasviriy san'at festivali sayti.

Kompyuterlar yordamida bugungi kunda bilimlarni nazorat qilishning nostandart shakllaridan foydalanish mumkin bo‘ladi. Kompyuterdan foydalanib **iSpring Suite** dasturi orqali sinov testlarini yaratish mumkin. O‘qituvchining o‘zi yaratishi mumkin bo‘lgan test yordamida bilimlarni nazorat qilish imkonini beradi.



83-rasm. 7-sinfda “Kitobat san’ati” mazusiga interaktiv doskadan foydalanish.


Nazorat shakli sifatida testdan foydalanish o‘qituvchining vaqtini tejaydi va o‘quvchilarga o‘z bilimi va imkoniyatlarini mustaqil baholash imkonini beradi. Yuqori sinf o‘quvchilarning katta guruhini bir vaqtning o‘zida qamrab olish uchun test sinovlarini kompyuter sinfida o‘tkazish afzaldir. Testlar matnli yoki tasvirli shaklda bo‘lib, berilgan savoldagi bir necha javoblardan bitta to‘g‘risini tanlab olinadi.


Integratsiyalashgan darslarni o‘tkazishda “Tasviriy san’at - axborot texnologiyalari” kompyuter ko‘nikmalarini egallash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni “Grafik muharriri” (Paint) maxsus dasturi tomonidan taqdim etiladi. Ushbu dasturning interfeysi barcha o‘quvchilar tomonidan to‘liq o‘rganilib chiqilishi mumkin. U chizmalarni chizish va

loyihalash, olingan tasvirlarni diskda saqlash imkonini beradi. Masalan, “Shakl tushunchasi. Atrofdagi dunyo shakllarining xilma-xilligi” 6-sinf o‘quvchilariga kompyuter ekranida geometrik jismlar tasvirini bajarish, geometrik shakllar nisbati sifatida ikki yoki uchta ko‘za tasvirini yaratish taklif etiladi.

Grafik muharriri qalam, mo‘yqalam, marker tanlash, ularning qalinligi, rangini o‘zgartirishi hamda palitra tanlash, fon rangini o‘zgartirish va boshqa funktsiyalarni o‘z ichiga oladi. Xuddi shunday, bolalar darsda chiziq va rang bilan “Natyurmort”, “Akvarium”, “Shahar ko‘chasi”, “Tog‘ manzarasi” mavzulari bo‘yicha topshiriqlarni bajarishi mumkin. Dastur yettinchi sinf o‘quvchilariga kompyuter grafikasidan foydalangan holda 1991-yil “Mustaqillik kuni” mavzusida plakat yoki otkritka yaratishni taklif qilish mumkin.


Kompyuter texnologiyalari darsni ertak yoki qiziqarli sayohatga aylantirish, muzey va ko‘rgazmalarga virtual tashrif buyurish, ekskursiya o‘tkazish imkonini beradi. O‘quv filmlari sizga rassomning studiyasini ko‘rish, Tretyakov galereyasi, Ermitaj, Luvr, O‘zbekiston tasviriy san’at muzeyi, Temuriylar muzeyiga tashrif buyurish va san’at sohasida yangi bilimlarga ega bo‘lish, umumiy dunyoqarashingizni kengaytirish imkonini beradi.





84-rasm. Colorfy ilovasi yordamida yaratilgan tasvirlarga misollar

Torrent treklarida o‘quvchilar rassomlar haqidagi filmlarni topishi va darslarda foydalanishlari mumkin, masalan, “O‘zbek rassomlari”, “Malik Nabiev”, “Samarqand”, “Impressionist rassomlar”, “Van Gog” va boshqa filmlarni Internetga ulangan holda katta ekranda butun sinf jamoasi bilan ko‘rish mumkin. Bunda albatta o‘qituvchi tomonidan har bir film izohlanib tushuntirilib boriladi.



85-rasm. Colorfy ilovasi yordamida rasm chizish.

Kompyuterdan foydalanish bilan birga tasviriy san'at dars va darsdan tashqari vaqtlarida o'quvchilarning turli xil gadjetlarga qiziqishiga ham alohida e'tibor berish kerak. Hech kimga sir emaski, o'quvchilarimizning deyarli barchasida smartfon, planshetlar bor, o'quvchilar ulardan deyarli bo'sh vaqtlarida unumli foydalanishadi. O'quvchilarni bo'sh vaqtlarida android platformasi uchun tasviriy san'at bilan bevosita bog'liq bo'lgan qiziqarli ilovalarni yuklab olish mumkin. Shunday ilovalardan biri - Colorfy ilovasi. Ilovan Pley Marketdan to'g'ridan to'g'ri yuklanadi. (84-rasm)

Colorfy - bu rang berish o'yini bo'lib, vaqtni mazmunli o'tkazishga, fikringizni jamlashga, ijodkorlik faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Rang berish o'yini tanlash uchun bir nechta chizmalar bilan kitob shaklida keladi. Rang berishda siz manzaralar, hayvonlar, naqshlar va gullar kabi murakkab va oddiy chizmalardan foydalaniladi. (85-rasm)

Ekranning yuqori o'ng tomonida tasvir joylashgan sahifada qalamlar to'plami mavjud. Agar ulardan birini tanlansa, juda ko'p tuslar tartibi ochiladi. Rasmlarni kichiraytirib, kattalashtirish mumkin.

Colorfy ilovasida chizmalarning ko'plab bo'limlari (mavzulari) mavjud: Tabiat, O'simliklar, Hayvonlar, Qushlar, Fantastik chizmalar, Arxitektura va boshqalar. 7-sinf o'quvchilari o'quv rejasida taklif etilgan mavzularga oid me'moriy inshootlar va tarixiy obidalar tasvirlariga qiziqish uyg'otadi. (86,87-rasm)



86-rasm. Ajoyib rang palitralari.



87-rasm. Rang berish.

Kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini dars jarayonida qo'llash o'quvchilarni dars jarayoniga qiziqtiradi, badiiy bilimlarini va dars samaradorligini oshiradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tasviriy san'at o'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning zarurati nimada?
2. Kompyuter (axborot-kommunikatsiya) texnologiyalari vositalarini sanab o'ting.
3. Interfaol doska va videoprektordan darsda qanday foydalanish mumkin?
4. Tasviriy san'at darslarida kompyuter texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari haqida ma'lumot bering.
5. Microsoft Power Point elektron taqdimotlari nima?
6. Darsda "Eshitdim Q o'qidim Q ko'rdim q eslab qoldim" formulasi qaysi vaqt ishlaydi?
7. Kompyuterlar yordamida bugungi kunda bilimlarni qanday nazorat qilish mumkin?
8. Tasviriy san'atdan "Grafik muharrir" (Paint) maxsus dasturi vazifasi nimadan iborat?

5.4. Tasviriy san'at darslarini loyihalash va modellashtirish

Reja: 1. Loyiha ta'limning kelib chiqishi tarixi. 2. Tasviriy san'at darslarini loyihalashtirish mazmuni va mahiyati. 3. Tasviriy san'at darslarini modellashtirish.

Tayanch iboralar: Ta'limni loyihalash, kategoriya, maqsad, reja, bosqichma-bosqich, mezon, modellashtirish, subyekt, vosita.

Ta'limni loyihalashning ilmiy asoslari bundan 300 yil avval asoslana boshlangan. Taniqli nemis pedagogi M.Knol "loyiha" tushunchasini XVI asrda italiyalik me'morlar tomonidan arxitektura sohasining ilmiy asoslarini tizimlashtirgan holda uni fan sifatida e'tirof etilgan vaqtda shakllanganligini o'z tadqiqotlarida ko'rsatib o'tgan. Keyinchalik, Fransiya, so'ngra Germaniya, Avstriya, Shveytsariya XVIII asrda muhandislik sohasining tezkor rivojlanishi, XIX asr o'rtalarida esa AQShdagi texnika va sanoat oliy maktablarida ta'lim loyihalarining keng qo'llanilishi e'tirof etildi.

XIX asr boshlarida AQSh da loyiha metodi didaktik usul sifatida shakllangan, so'ng 1911-yil ta'lim tizimida "loyiha" tushunchasi ta'limiy kategoriya deya e'tirof etildi. Ta'limni loyihalashtirishni amerikalik pedagoglar V.Kilpatrik, E.Kollings va E.Parxerstning o'zlarining tadqiqotlarida bunga alohida to'xtalib o'tishgan.

Loyiha (lot. "projectus" – "ilgari surilagan") aniq maqsad va reja asosida natijalarni kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakatdir.

Zamonaviy ta'lim jarayonida ham loyihalar bilan ishlashga asoslangan ta'lim loyihasi keng qo'llanilmoqda.

Loyiha ta'limi - ta'limiy xarakterdagi aniq maqsad va reja asosida natijalarni kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan ta'lim

Ta'lim jarayonida loyihani ishlab chiqishda turli manbalardan foydalaniladi. Bunda maxsus adabiyotlar, monografiya, jurnal va gazeta maqolalari, internetdan ma'lumotlarni topish, maxsus va ijtimoiy so'rovnomalarni o'tkazish orqali axborotlarga ega bo'lish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim loyiha natijasi, deganimizda - buklet, nashr ishlari, qo'llanmalar, elektron o'quv-ta'lim resursi shaklida taqdim etilgan, tahlil qilingan, tanlab olingan, umumlashtirilgan hamda tizimlashtirilgan axborotlar mahsuli sanaladi.

Loyihalash - aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, ma'lumotlar orqali kutiladigan natijani taxmin qilish, rejalashtirish, bashoratlash orqali oldindan faoliyat modelini tuzish, ta'lim jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakatdir.

Tasviriy san'at darslarini loyihalashtirish - o'qituvchining pedagogik faoliyati o'quvchilarni o'quv loyihalarini bajarishga yo'naltirishdan iboratligini anglatadi. Tasviriy san'at darslarini loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan, to baholashgacha bo'lgan maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyati tushuniladi.

Tasviriy san'at darslaridagi loyihani yaratish uchun o'qituvchi quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur:

- loyihani yaratish;
- dars jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- loyiha maqsadini aniq belgilash;
- tasviriy faoliyatga mos vazifalarni aniqlash;

- tasviriy san'at fanidan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- tasviriy san'atdan o'quv materialini mazmunini shakllantirish;
- dars jarayoni yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini, qobiliyati, bilim darajasini tashxislash va uning bilim darajasini baholash.

Tasviriy san'atdan ta'lim jarayonini loyihalashda alohida olingan dars va darsdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasini ishlab chiqish tushuniladi.²³

Tasviriy san'at fani darslarini loyihalash muayyan qonuniyatlar asosida kechadi. (24-jadval)

24-jadval.

1.	Darsning loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy ta'minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta'minlanadi.
2.	Tasviriy san'at darslarini loyihalash strategiyalari o'qituvchining individual uslubiga muvofiq tanlanadi.
3.	Darslarning texnologik vositalari o'quvchilarning individual xususiyatlari va qobiliyatiga bog'liq holda tanlanadi.
4.	Darsning loyihalash sifati teskari aloqada, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ko'lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq.


Tasviriy san'at darslarini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari, vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq

²³ Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.Q., Sayfurov D.M., To'raev A.B. - T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. - 81-b.

mezonlari oldindan ishlab chiqariladi. Darsga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan mutonasib, uyg'unlashishiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

Tasviriy san'at darslariga tayyorgarlik ko'rishning asosiy bosqichi loyihalashtirish bo'lib, u quyidagi bosqichlardan tashkil topadi (87-rasm):

Tasviriy san'atda dars jarayonini loyihalashda uning maqsadi va natijasini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga dars maqsadi va natijasini belgilash o'qitish va o'qish jarayonlarining eng muhim omilidir, natija dars jarayonida aynan



87-rasm. Tasviriy san'at darsini loyihalashtirishning asosiy bosqichlari.

yetakchi o'rinni tutadi.

Darsning maqsadi va natijasi Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib aniqlanadi. E'tiborli tomoni shuki, tasviriy san'at fani darsining maqsadi o'qituvchi tomonidan o'quvchiga qanday bilim, ko'nikma va malakalarning berilishi nuqtai nazaridan emas, balki o'quvchilar tomonidan darsda qanday bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi muhimligidan kelib chiqib belgilanadi. Mazmunan bu darsning


maqsadi o'qituvchi va o'quvchilarning umumiy natijalarga qarab harakatlanishlarini ko'rsatadi. Shu bois darsning maqsadi pedagogik tashxisni ifodalanishi lozim. Bunda dars maqsadi aniq bo'lishi kerak.

Tasviriyy san'at dars maqsadining aniq bo'lishiga erishish uchun o'qituvchidan quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

- dars davomida yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum belgilangan vaqt ichida ta'lim maqsadiga erishishni to'la ta'minlay olishi;

- darsning yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dars maqsadi o'quvchilarning harakatlarida ifodalanadigan bilim natijalarida belgilanadi.



88-rasm. Tasviriyy san'at darslarida modelning ustuvor tamoyillari

Kutilayotgan natija tasviriyy san'at ta'lim jarayonining eng muhim komponenti hisoblanadi. Chunki, u o'qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va maqsadga erishish darajasini

tavsiflaydi. Tasviriyl faoliyatda o'qitish va o'qish jarayoni, natija qo'yilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi.

Tasviriyl faoliyat bo'yicha nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish darsning didaktik maqsadi, kutilayotgan natija, o'quv materialning mazmuni asosida ishlab chiqish, ularning hajmi, bajarilganlik darajasi, bajarilish sifati, vaqtiga ko'ra baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Tasviriyl san'at darslarini modellashtirish. Boshqa fanlar singari tasviriyl san'at darslarini loyihalashda odatda modellashtirishdan ham foydalaniladi.

Model - real, haqiqatda mavjud bo'lgan obyektning soddalashtirilgan, ixchamlashtirilgan va unga o'xshagan nusxasi tushuniladi. O'quv jarayonini modellashtirish esa, tizim, hodisa yoki jarayonning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi jarayoni yaratish aks ettiriladi.

Tasviriyl san'at darslarida modellashtirishda quyidagi asosiy strukturaviyl bloklarni hisobga olish kerak: (88-rasm)

Pedagogika nuqtai nazaridan modellashtirish, obyektlarni ularning modellari, tabiiyl yoki ijtimoiyl voqelikning ma'lum bir qismining analoglari bo'yicha o'rganish usuli tushuniladi.

Model ahamiyatsiz narsadan chetga chiqib, asl nusxaning tuzilishini soddalashtiradi. Modellashtirish jarayonlarni ma'lum talablarni hisobga olgan holda uning muhim funksiyalarini oqilona taqsimlashdan iborat.

Shunday qilib, tasviriyl san'at darslarini loyihalash va modellashtirish jarayonida yuqoridagi asosiy strukturaviyl bloklarni hisobga olish kerak. Tasviriyl san'at darslarini loyihalash va modellashtirishda o'qituvchi ushbu fanning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ta'limda loyihalash asoslari qachon va qayerda asoslana boshlandi?
2. Ta'lim tizimida "loyiha" tushunchasi ta'limiy kategoriya sifatida qachondan e'tirof qilindi?
3. Ta'limiy loyiha deganda nimani tushunasiz?
4. Tasviriyy san'at darslarini loyihalashtirish qanday amalga oshiriladi?
5. Tasviriyy san'at darslaridagi loyihani yaratish uchun o'qituvchilar qanday ko'nikma va malakalarga ega bo'lish kerak?
6. Tasviriyy san'at darslari loyihalashtirishning asosiy bosqichlarini aytib bering.
7. Tasviriyy san'at darslarini modellashtirish nima?
8. Tasviriyy san'at darslarida modellashtirishda nimalarga e'tibor beriladi?

5.5. Kurs ishini tayyorlash bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Reja: 1. Kurs ishini bajarilishini ahamiyati. 2. Kurs ishi mavzusini tanlash. 3. Kurs ishi tuzilishi. 3. Kurs ishini loyihalashga bo'lgan talablar. 4. Materiallarni yoritib berishga bo'lgan talablar. 5. Kurs ishini himoya qilish.

Tayanch tushunchalar: Ilmiy-tadqiqot, titul, mundarija, asosiy qism, hotima, adabiyotlar, ilova.

Kurs ishini bajarish oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash o'quv jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Kurs ishi mustaqil ish turlaridan biri bo'lib, bo'lajak tasviriyy san'at o'qituvchilarining kasbiy faoliyatidagi murakkab masalalarni yechishga tayyorlashda hal qiluvchi bosqich

hisoblanadi. Kurs ishi mustaqil ilmiy tadqiqot ishi bo'lib, talabaning institut o'quv rejasida nazarda tutilgan tasviriyl san'at fanini o'qitish metodikasini o'rganishi va ishlab chiqarish amaliyotidan o'tganligiga yakun yasovchi hisoblanadi.

Talabaning kurs ishini muvaffaqiyatli bajarishi ko'p jihatdan mavzuni ilmiy o'rganishga va tanlashga bog'liq. Talaba o'z ilmiy va amaliy qiziqishlarini hisobga olgan holda kafedra tomonidan tuzilgan va tasdiqlangan kurs ishi mavzulari ro'yxatidan kurs ishi mavzusini mustaqil tanlaydi.

Kurs ishining tuzilishi odatda kirish, asosiy bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Uning barcha qismlari o'zaro bog'langan va kurs ishi mavzusini ochish maqsadiga xizmat qilishi kerak. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqot tushunchasini, uning asosiy g'oyalarini, o'rganilayotgan muammolar va manbalarni belgilovchi batafsil kurs ish rejasini aniq belgilash maqsadga muvofiqdir.

Amaliy ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, tahlil qilish va umumlashtirish jarayonida kurs ish rejasini aniqlashtirish yoki o'zgartirish mumkin.

Kurs ishi qo'lda yozilgan matnning 25-40 bet hajmida bo'lishi kerak (ba'zan kompyuterda yoziladi, kafedra mudiri bilan roziligi bilan). Kurs ishi o'z rejasiga ko'ra alohida qismlarga (bob va paragraflarga) bo'linadi. Ushbu qismlarning sarlavhasi qisqa, mazmuniga mos va simmetrik tarzda katta harflar bilan yozilishi kerak. Sahifalar yuqori o'ng burchakda arab raqamlari bilan raqamlangan bo'lishi kerak.

Kurs ishi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi kerak:

- titul varag'i;
- mundarija;
- kirish;

- kurs ishining eng muhim masalalarini birlashtirgan asosiy qism;
- xulosa;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati;
- ilovalar.

Kurs ishi oq varaqli A4 formatning bir tomoniga 1,5 intervalda yoziladi, uni yozishda quyidagi o'lchamlarga rioya qilish kerak: chap hoshiya - 30 mm; o'ng hoshiya - 15 mm; pastki va yuqori hoshiya - 20 mm.

Kurs ishining raqamlanishi titul sahifasidan to oxirgi sahifasigacha bo'lgan barcha sahifalarni o'z ichiga olishi kerak. Titul sahifasi birinchi sahifa bo'lib, u raqamlanmaydi. Kurs ishidagi barcha illyustratsiyalar (grafiklar, chizmalar, diagrammalar va h.k.) o'z nomiga ega bo'lishi va bu sarlavha uning yuqori yoki pastki qismida yozilishi kerak.

Formulalar arab raqamlarida ko'rsatiladi.

Kurs ishining bo'limlarini yozishga qo'yiladigan talablar.

Kurs ishining barcha qismlari (kirish, bo'limlar, paragraflar, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar) mundarijada sahifa raqamlari bilan birga beriladi.

Kirish qismi hajmi 3-4 sahifa tashkil qilish qiladi. Bunda tanlangan mavzuning muhimligi yoritiladi va tadqiqot maqsadi, vazifalari, nazariy va uslubiy asoslari ko'rsatiladi.

Asosiy qismi (bob va paragraflar) kurs ishining umumiy hajmidan 80-85 % ni tashkil qiladi. Asosiy qism 3-4 paragrafdan tashkil topadi.

Asosiy qismda asosiy nazariy va uslubiy masalalar ko'riladi, statistik ma'lumotlari tahlil natijalar yoritiladi, o'rganilgan mavzular yuzasidan jarayonlar, rivojlanish tarixi, yo'nalishlar va qonuniyatlar, qoidalar aniqlanadi, belgilangan omillar o'rganiladi

va o'rganilayotgan mavzu jarayonlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan tavsiyalar keltiriladi.

Kurs ishi yuzasidan muammolarni yoritishda talabalar kurs ishi mavzusi va mazmunini umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar maktablarining "Tasviriy san'at" fani muammo va yechimlarini dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan hayotiy amaliyotlarga bog'lash maqsadga muvofiq bo'ladi. Xuddi shu bo'limlarni yozishda talaba olgan nazariy bilimlarini VM ning 2017-yil 6-aprelda qabul qilingan DTS da belgilangan tayanch kompetenttsiyalarni qo'llay olish va amaliy masalalar bilan o'zaro bog'lay olish qobiliyatini ko'rsata bilishi lozim. Unda tasviriy san'at sohasida ilg'or tajribalarni umumlashtirish, mavjud muammolarni va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash muhim o'rin egallaydi.

Kurs ishida o'rganilgan muammoni yechimini topishga qaratilgan, ilmiy-ijodiy asoslangan tavsiyalar va chora-tadbirlar bo'lishi lozim.

Kurs ishining xulosa qismi 3-4 betdan oshmasligi, unda talaba ilmiy tadqiqotining asosiy natijalarini yoritishi, xulosalar va taklif etilgan tavsiyalar yoritiladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida kurs ishini yozishda foydalanilgan manbalar ro'yxati keltiriladi.

Ilova qismi kurs ishi oxirida keltiriladi. Har bir ilova yangi sahifadan boshlanadi va sahifaning yuqori o'ng burchagida "Ilova" so'zi yoziladi. Har bir ilovaning sarlavhasi bo'lishi kerak, agar kurs ishida ikki yoki undan ortiq ilovalar bo'lsa, ular ketma-ket arab raqamlari bilan raqamlanadi, masalan: "1-ilova", "2-ilova" va hokazo. Kurs ishida illyustratsiyalarning mazmuni va taqdim etilgan matn tushunarli bo'lishi kerak. Barcha illyustratsiyalar (chizmalar, diagrammalar, eskizlar va boshqalar) rasm deb nomlanadi. Rasmlar arab raqamlari bilan ketma-ket

raqamlanadi. Ular to‘g‘ridan to‘g‘ri kurs ishi matni yozilgan joyga yoki keyingi sahifaga, yoki yozilayotgan varaqqa yaqinroq joyga joylashtirilishi mumkin.

Tugallangan kurs ishi talaba va ilmiy rahbar tomonidan imzolanadi.

Materiallarni yoritib berishga bo‘lgan talablar. Kurs ishi ravon adabiy tilda grammatik xatolarsiz yozilishi, gap va jumlar aniq ifodalangan bo‘lishi, ular bir-biri bilan bog‘lanib, bir-birini to‘ldirishi shart. Unda keltirilgan statistik ma’lumotlar nafaqat illyustratsiya, balki xulosalar chiqarish va ularni isbot uchun ham xizmat qilishi kerak. Muallif kurs ishida keltirilgan barcha faktlar va ma’lumotlarning to‘g‘riligi va ishonchliligi uchun javobgardir.

Kurs ishiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri - talaba tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarini mustaqil amalga oshirishdir. Talabaning turli manbalardan olingan dalillar, statistik ma’lumotlar, turli mualliflar fikrlaridan parchalar keltirishi imkon qadar ixcham, grammatik jihatdan to‘g‘ri, ilmiy ma’lumotlar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Kurs ishini himoya qilish. Kurs ishini himoya qilish komissiyasi tarkibi kafedra tomonidan tasdiqlanadi. Talaba 10-15 daqiqa ichida komissiyaga kurs ishining maqsadi, vazifalari, mazmuni, shuningdek o‘zining tavsiya va takliflari haqida hisobot beradi. Bundan keyin talabalar kurs ishi mavzusiga va u bilan bog‘liq bo‘lgan komissiya a’zolari savollariga javob beradi.

Kurs ishi bahosi komissiya tomonidan ilmiy rahbar taqrizi va talaba javoblari asosida belgilanadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Kurs ishi qanday ta’limiy masalalarni yechishga qaratilgan?
2. Kurs ishi mavzusi qanday mezonlar asosida tanlab olinadi?
3. Kurs ishi tuzilishiga nimalar kiradi?

4. Kurs ishini yozilishiga qanday talablar qo'yilgan?
5. Kurs ishi tarkibiy qismlarini sanab o'ting.
6. Asosiy qismda nimalar yoritiladi?
7. Kurs ishini ilova qismida nimalar yoritiladi?
8. Kurs ishi himoyasi qay tartibda o'tkaziladi?

Bobni mustaqil o'rganish bo'yicha tavsiyalar:

Bob yuzasidan yangi atamalarni o'rganish. Fan dasturi bo'yicha yillik taqvimiy rejani ishlash. Tasviriy san'at fani mashg'ulotlarini tahlil etish metodlari bilan tanishish tavsiya etiladi. Keys-topshiriqlarini bajarish. Tasviriy san'atdan darslarini loyihalashtirish va amalda qo'llash metodi. Individual va guruhliy o'quv loyihasini tuzish. Axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash. Multimediali taqdimotlar yaratish. Tasviriy san'atdan darslarini modellashtirish va amalda qo'llash metodini ishlab chiqish.

GLOSSARIY.

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Animalistik janr Animalistic genre	(lot. anima – hayvon, jonivor so‘zidan olingan). Hayvonot dunyosini jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san’at turi.	(derived from Latin anima - animal). A type of visual art that depicts animals of the animal world.
Aralash model Mixed model	Masofaviy ta’limning turli shakllari, bir necha shakllarning integratsiyasiga asoslangan model.	Model based on various forms distance learning and integration of some forms.
Aralash o‘qitish Blended learning	Onlayn o‘quv materiallari hamda o‘qituvchi rahbarligida guruhda ta’lim olishga asoslangan o‘qitish shakli.	A form of teaching based on a group learning under the supervision of a teacher using online study materials.
“Assesment” texnologiyasi “Assessment technology”	Talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, holis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami.	A set of assignments intended for comprehensive assessment of skill and competence level of students.
Axborotli loyihalar Information projects	O‘quv jarayonini tashkil etish yoki boshqa ta’limiy xarakterga ega buyurtmalarni bajarish maqsadida nazariy axborotlarni yig‘ishga yo‘naltirilgan loyihalar.	Projects intended for collecting theoretical information aiming at realization of scientific projects or organization of educational process.
Vebinar	Webtexnologiyalar asosi	Broadcasting organized

texnologiya Webinar technology	(onlayn tadbirlar va ta'lim vositalari yordami)da tashkil etiladigan seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, trening, turli voqea yok hodisalar bo'yicha Internet tarmog'i orqali tashkil etiladigan to'g'ridan to'g'ri uzatiladigan lavha (translyasiya)lar.	via Internet transmitting live seminars, conferences, debates, presentations, negotiations, meetings, trainings, various events with the help of Web technologies.
Dars Lesson	(arab. - saboq, ma'ruza) - uzluksiz ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'limning asosiy shakli; o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli, mantiqiy tugallangan, yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning aniq vaqt bilan cheklangan qismi.	(arab. - lesson, lecture) - the main form of education carried out in continuing education institutions; the main organizational form of educational work, a logically completed, time-limited part of the holistic educational process.
Dars ishlanmasi Lesson planning	Ta'limiy mazmunga ega loyiha va o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat.	An obligatory document completed by a teacher and a project that has educational essence.
Darslik Textbook	Davlat tomonidan tasdiqlangan DTS asosida muayyan fanga doir bilim asoslarini ma'lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma'naviy-g'oyaviy, ilmiy-uslubiy saviyada yozilgan	Textbook is the main and leading type of educational literature intended for pupils and students, which describes the basics of knowledge of a specific

	o'quvchi va talabalar uchun mo'ljallangan o'quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi.	subject in a certain order and is written at a high spiritual-ideological, scientific-methodical level, based on the state-approved DTS.
Dasturiy ta'lim Program education	1) o'qitishning talaba, talabalar ehtiyoji, qiziqishi, bilimi, dunyoqarashi, ular tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirishda duch kelish ehtimoli bo'lgan muammolar, o'quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim; 2) pedagogik texnologiyalaridan biri.	1) education organized considering interests and needs, outlook of students, problems that appear in assimilation of study materials by students, and opportunities of the academic subject; 2) one of the pedagogical technologies.
Didaktik o'yinlar Didactic games	O'rganilayotgan obyekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi.	A type of a study activity that increases activeness, interest of students in getting knowledge based on the modeling of processes, events, objects that are being studied.
Elektron doska Electronic board	Katta hajmdagi sensor ekran bo'lib, maxsus marker (qalam) yordamida foydalanuvchi interfeysi funksiyalarni bajarish imkoniyatini beradigan didaktik vosita.	It is a didactic tool with a large touch screen and a special marker (pen) that allows the user interface to perform functions.

Erkin tarbiya Free education	Bola shaxsini ideallashtirib, unga go‘zallik va haqiqatning asosiy manbai sifatida qarovchi hamda o‘z-o‘zini rivojlantirishi g‘oyasini ilgari suruvchi tarbiya turi.	A type of education that idealizes the child's personality, cares for it as the main source of beauty and truth, and promotes the idea of self-development.
Galereya Gallery	Tasviriy va amaliy san’at asarlari saqlanadigan va ko‘rgazmalar o‘tkaziladigan maxsus bino.	A special building where works of fine and applied art are stored and exhibitions are held.
Grafika Graphics	(yunoncha – graphika, grapho – yozaman, chizaman so‘zidan olingan). O‘zida cxizmatasvir va bosma uslubda ishlangan asarlarni mujassam etgan tasviriy san’at ko‘rinish.	(derived from Greek - graphika, grapho - to write, to draw). A fine art exhibition that combines works of art and printmaking.
Ijodiy loyihalar Creative projects	Indivuiual yoki hamkorlik asosida ijodiy xarakterga ega yangi ta’lim mahsulotlari (ijodiy hisobot, ko‘rgazma, dizayn, videofilm, nashr ishlari – kitob, almanax, buklet, albom, bosma va elektron jurnal, kompyuter dasturlari kabilar)ni yaratishga yo‘naltirilgan loyihalar.	The projects intended to creat new educational products (activity report, exhibition, design, videofilm, publishing works: books, literary miscellany, pamphlets, albums, printed and electronic journals, computer programmes) that have creative characteristics based on cooperation and individual activity.

Illyustratsiya Illustration	(lot. "Aniq tasvir" degani) Biror bir tekstni to'ldirib boruvchi yoritishni, mazmunni tushuntirishda yordam beruvchi tasvir. Badiiy va ilmiy asarlarning tasviriyl izohi, talqini.	(Lat. means "clear image") An image that fills a text and helps to explain the content. Visual explanation and interpretation of artistic and scientific works.
Imitatsion o'yinlar Imitation games	Ishlab chiqarish korxonalari, ish o'rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko'chirish) asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo'naltiradigan o'yinlar.	Activities aimed at effective preparing students for certain activities based on imitation of activity carried out by employees of organizations, companies, factories.
Individual ta'lim Individual education	Ta'lim jarayonida o'qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta'lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilan o'zaro hamkorligi asosida o'quv materiallarining o'zlashtirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim.	Education aimed at developing of mastering skills of a student in cooperatuion with a single student or educational means (literature, computer, television, redio, etc.) during educational process.
Innovatsion ta'lim Innovative	Talabada yangi g'oya, me'yor, qoidalarni	Education that allows to develop skills and qualities f a student.

education	yaratish, oʻzga shaxslar tomonidan yaratilgan ilgʻor gʻoyalar, meʼyor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan taʼlim.	
Innovatsiya Innovation	Muayyan tizimning ichki tuzilishini oʻzgartirishga qaratilgan faoliyat.	An activity aimed at changing the internal structure of a certain system.
Interfaol taʼlim Interactive aducation	Talabalarning bilim, koʻnikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni oʻzlashtirish yoʻlidagi oʻzaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi taʼlim.	The education based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knodlegde.
Kasbiy koʻnikma va malaka Professional experience and qualifications	Maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida maʼlum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasi va yuridik huquqlar asosidagi insoniy mehnat faoliyatiga layoqatlili ekanligini ifodalovchi tushuncha.	As a result of special training and work experience, it is a concept that expresses the ability of human labor based on a set of theoretical knowledge and legal rights to perform professional activities in a certain field.
“Keys-stadi” texnologiyasi “Case study” technology	Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sunʼiy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul	A technology that forms skills in earching for proper variants by analizing created or authentic dilemma

	variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya.	(problematic situation) or problems.
Komp’yuter ta’limi Computer education	Talabalarning o‘qish, mustaqil ta’lim va o‘z- o‘zini nazorat qilishni o‘z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to‘plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy- metodik ta’minot asosida tashkil etiladigan ta’lim.	The education organized based on the computer technologies, telecommunication means and programme and methodological provision as an activity model of a pedagog that comprises collecting and transferring information in controlling the activity of an independent education and self-control of students.
Ko‘rgazmali qurollar Visual aids	Ta’limning ko‘rgazmali vositalari; tasviriy san’at fani qonuniyatlari va hodisalarning tabiiy yoki badiiy ifodasi.	Visual aids of education; natural or artistic expression of laws and phenomena of visual arts.
Ekspонат Exhibit	Muzeyda ko‘rgazmaga qo‘yilgan turli xil buyum, ash’yo va san’at asarlari.	A variety of objects, objects and works of art are on display in the museum.
Ekspressiya Expression	Tasviriy san’atda shiddat, tezkorlik, ifodalilik, fikr, kayfiyat va his- tuyg‘ularning namoyon bo‘lishi.	Expression of intensity, immediacy, expressiveness, thought, mood and feelings in fine art.
Loyiha	Aniq reja, maqsad asosida	A result of an action

Project	uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.	aimed at developing the essence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its effectiveness.
Masofaviy ta'lim Distance learning	Muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'limiy mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishdai an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim.	Education aimed at using study resources based on innovational form, method and means in organizing study services, expanding and delivering study products with the help of certain information communication means (video, audio, computer, multimedia, radio, television, etc.)
Mahorat darslari Master classes	Ochiq tashkil etilib, ilg'or pedagogik tajribalarni targ'ib etishga yo'naltirilgan samarali o'qitish shakli.	An effective form of teaching organized to spread progressive pedagogical experiences.
Metodika Methodology	(yun. methodiks) - o'qitish usullari haqidagi ta'limot. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq kiladi.	(Greek: methodiks) - the teaching of teaching methods. In the field of pedagogic science, it is necessary to research the laws of teaching a certain educational subject.
Metodik ko'llanma Methodical guide	o'qituvchilar va bilim oluvchilar uchun mo'ljallangan, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish	- intended for teachers and students, it includes the purpose of a lesson, teaching tools and

	vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va b. haqida tavsiyalar bayon qilinadigan nashr.	methods of their use, content of the lesson, practical exercises, additional tasks, etc. publication with recommendations about.
Moderator Moderator	Masofaviy ta'lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbat va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog.	A gedagog leading seminars, trainings, debates and forums organized in the frames of distance learning.
Modellashtirish Modeling	Hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish.	Developing a model that discloses principal essence of an event, process and system.
Model Model	Real, haqiqatda mavjud bo'lgan obyektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi.	A simplified or lessened copy of a real and authentic object.
Modernizatsiya Modernization	Obyektning yangi talablar va me'yorlar, texnik ko'rsatmalar, sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi.	Renewal of the object according to the new requirements, quality indicators and technical regulations.
Modul Module	1) tizim ichidagi o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat tugun; 2) muayyan texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi atama; 3) o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi.	1) units that consists of interrelated elements in the system; 2) notion meaning parts that create a certain technology; 3) logically completed units of study materials.
Modul ta'limi	O'quv jarayonini tashkil	A certain form of

A study of module	etishning muayyan shakli boʻlib, unga koʻra oʻquv materiali mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda maʼlum bosqich va qadamlar asosida oʻzlashtiriladi.	organization of educational process, according to which the logically completed units of study materials are mastered based on the certain stages and steps.
Muammoli vaziyat Dilemma	Talabalarning maʼlum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bogʻliq ruhiy holati boʻlib, u hal etilayotgan masala bilan bogʻliq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi.	It is a psychological state of a student that is related with tension that occurs during a process of accomplishing the assignments, and it requires to master skills, knowledge for successful and effective accomplishment.
Muammoli maʼruza A problem lecture	Oʻqituvchi tomonidan talabani muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yoʻnaltirish orqali unda bilish faolliyatini oshirishga yoʻnaltirilgan maʼruza.	A lecture aimed at increasing students' study activity in solving an issue or dilemma.
Muammoli taʼlim Problem education	Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, maʼlum xulosalarga kelish kabi koʻnikma va malakalarni	Education aimed at developing students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some

	shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim.	conclusions.
Muammoli taʼlim texnologiyalari Problem education technologies	Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, maʼlum xulosalarga kelish kabi koʻnikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan taʼlim texnologiyalari.	The technologies that develop students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
Mustaqil taʼlim Independent learning	OTM talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida oʻquv hamda mutaxassislik fanlari boʻyicha maʼruza, seminar va amaliy mashgʻulotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil oʻzlashtirilishini taʼminlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yoʻnaltirilgan taʼlim	education aimed at preparing the students of higher educational institutions for independent organization of professional activity, self-mastering and improving skills and competence obtained in lectures, seminars and practical lessons on specialized study subjects under the supervision and control of pedagogs
Natura Nature	Rassom tasvirlaydigan borliqdagi obyekt: inson, predmetlar, manzara va h.k.	An existing object that the artist depicts: a person, objects, landscape, etc.
Novatsiya Novation	Tizimdagi ayrim elementlarnigina	An activity that serves to change certain

	o'zgartirishga xizmat qiluvchi faoliyat	elements in the system
Pedagogik muammo Pedagogical problem	Hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala.	A pedagogical issue that must be solved but has uncertain ways of solution.
Plakat Poster	(lot. Placard-elon plaguet yopishtirmoq so'zidan olingan). Grafika turi. Reklama va boshqa maqsadlar uchun bajariladigan san'at asari.	(Lot. Placard-comes from plaguet to paste). Graphics type. Artwork for advertising and other purposes.
Tasviriy san'at fanidan pedagogik tashxis Pedagogical assessment of visual arts	Pedagogik jarayon uning umumiy holati, tarkibiy qismlarining har tomonlama tekshirish va baholashni ifodalovchi tushuncha. O'quvchilarning qiziqish, layoqat, qobiliyatlari, egallagan bilim, ko'nikma va malakalari darajasi, bilish va o'quv faoliyati mayllari, shakllanganlik darajasini aniqlash va baholashdan iborat.	Pedagogical process is a concept that represents a comprehensive examination and evaluation of its general state, components. It consists in determining and evaluating the level of students' interests, abilities, skills, acquired knowledge, skills and qualifications, inclinations of knowledge and educational activities, and the level of formation.
Plener Pleasure	(it.plein air- ochiq xavo). Kartinada quyosh yorug'ligi, atrofdagi muhitning ta'siri bilan bog'liq bo'lgan ranglar	(it.plein air- open air). Thermal outdoor work, which means that the painting changes colors

	turlanishini anglatadigan termik ochiq havoda ishlash.	due to the effects of sunlight and the surrounding environment.
Repetitorlik ta'limi Tutoring	Individual ta'limning eng ommalashgan zamonaviy turi.	A modern type of popular individual learning.
Rivojlanish Development	Shaxsning fiziologik hamda intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.	A complicated process of qualitative and quantitative changes in individual's physiological and intellectual development.
Rivojlantiruvchi ta'lim Developing education	Talabalarning ichki imkoniyatlari rivojlantirish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan ta'lim.	Education aimed at revealing and developing students' inner capacities.
Tadqiqot loyihalari Projects of research works	Ilmiy izlanish xarakteriga ega loyihalar.	Projects that have scientific study characteristics.
Ta'lim jarayonini loyihalashtirish Projecting the educational process	O'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyati.	A targeted educational activity organized in order to develop students' skills in carrying out independent actions to plan and organize activities and its assessment.
Tayanch konspekt Reference cponspect	Nazariy o'quv materiali (axboroti)ni grafikli tasvir (qisqa xulosa, tushuntiruvchi su'rat, shartli ramz, sxema, javal, grafik chizma va b.)da	A conspect about theoretical learning materials (information) depicted with graphic pictures (brief

	ifodalovchi konspekt.	conclusion, explaining pictures, signs, schemes, charts).
Ta'lim innovatsiyalari Educational innovations	Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.	Forms, methods and technologies that are used for innovative solutions to existing problems in learning process or educational sphere and that guarantee effective results.
Ta'lim tizimini modernizatsiyalash Modernization of educational system	Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, jamiyat va davlatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish yo'lida uzluksiz ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi.	Improving or developing an existing mechanism in order to provide sustainable development of continuous educational system that meets students' needs and interests as well as society's social, economic and cultural and country's skilled personal needs.
Texnologik xarita Technological map	Ta'lim jarayonini bajaruvchi yoki ma'lum obyektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat.	A document that comprises all necessary information that is represented to pedagogues that lead educational process or those who carry out technical services to a certain object.
Texnologik model (passport) Technological	Ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning	A document that reveals main indicators of education or spiritual and

model (passport)	texnologik tavsifini yorituvchi hujjat.	educational events and their technological characteristics.
Uzluksiz talim Continuous training	Malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi boʻlib talimning barcha turlarini davlat talim standartlarini kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat koʻrsatish muhitini oʻz ichiga oladi.	The basis of qualified competitive personnel training includes all types of training, state training standards, the structure of personnel training system and its operating environment.
Fan Science	Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilgʻor pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi.	Subject – it can prepare high qualified cadres and use pedagogical informational technologies.
Shaxsni rivojlantirish Developing an individual	Individda vaqt nuqtai nazaridan jismoniy va ruhiy oʻzgarishlarning sodir boʻlish jarayoni.	A process of occurring physical and psychological changes in an individual.
Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim Student-centered education	Talabani fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, oʻziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim.	Education aimed at developing particular characteristics and abilities and personality of a student by considering his thinking and action strategies.
Oʻyin Game	Kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (koʻchirish, taqlid qilish) asosida oʻzlashtirish shakli.	An important type of individual's activity and a form or method of mastering by imitating the relationships by children.
Oʻyin texnologiyalari	Ijtimoiy tajribalarni oʻzlashtirishning barcha	One of the types of education (pedagogical

(o'yin ta'limi) Game technologies (game learning)	ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri.	technologies) aimed at creating a process of emotional and assessment activity as well as skills and competence that are the forms of mastering various social experiences by a student.
O'quv loyihasi Learning project	1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (yechim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylash-tirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o'quv harakati vositasi; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita.	1) a method of organizing an independent learning activity carried out by students for searching, studying and solving the problems and representing a result in the form of a product; 2) means of learning activities carried out by students for accomplishing the practical assignments based on theoretical knowledge; 3) a didactic mean that develops, educates, increases knowledge and develops skills, competence.
O'quv topshiriqlari Study assignments	O'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta'limiy vazifalar yig'indisi.	A set of learning assignments that allows to identify the level of knowledge, skills and competence of students on a certain subject.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi -T.: Lex.uz. 2019.
2. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi loyihasi. -T.: 2021
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-son qarori.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qa’tiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592.
6. Abdirasilov S., Tolipov N. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. Amaliy mashg‘ulotlar -T.: ALOQACHI.2007.-144 b.
7. Abdirasilov S. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. –T.: Fan. 2012. -232 b.
8. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san’at. T.: Cho‘lpon. 2006. -169 b.
9. Bulatov S.S. Ustoz va shogird odobi. T.: 2012, Nizomiy nom. TDPU. Metodik tavsiyanoma. - 210 b
10. Bulatov S.S. O‘zbekiston badiiy ta’limining sifatini oshirishda innovatsion g‘oyalar // “Zamonaviy uzluksiz ta’lim sifatini oshirish:innovatsiya va istiqbollar” Xalqaro ilmiy-amaliy

- masofaviy konferensiya to‘plami.T.:TDPU 2020 yil. 24 aprel. 345-350 b.
11. Boymetov B.B., Tolipov N.X. Maktabda tasviriyl san’at to‘garagi. –T.: Fan. – 154 b.
 12. Boymetov B.B., Nurtoev O‘.N. “Tasviriyl san'at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish”. –T.: Iqtisod-moliya. 2007. - 98 b.
 13. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.Q., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. - T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. - 81-b.
 14. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2004. -120 b.
 15. Жабборов О.М. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг касбий компетентлик методикасини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори. ... дисс. – Т., 2021. – 175 б.
 16. Кожина С.К. Растём и развиваемся с помощью искусства / С.К. Кожина; - СПб.: Речь, 2006. — 216 с.
 17. Қўсинов О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологияси. Пед. фан. док. дисс. – Т., 2019. – 218 б.
 18. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. –T.: Tafakkur-Bo‘ston. 2011. -304 b.
 19. Oripov B.N. Maktab tasviriyl san’atini o‘qitishda predmetlararo bog‘lanish. –T.: “Fan va texnologiya” 2013. -112 b.
 20. Oripov B.N. Tasviriyl san’atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. –N.: “NamDU”, 2012. -124 b.
 21. Oripov B.N. Tasviriyl faoliyat metodikasi. –T.: Ilm-Ziyo. 2017.

-181 b.

22. Сокольникова М.Н. Методика преподавания изобразительного искусства: учебник для студ. Учреждений высш. проф. Образования / Н. М. Сокольникова.-6-е изд., стер.-М.: Издательский центр «Академия», 2013.-256 с.
23. Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinf darsligi X.Muratov va b., – T.: Respublika ta'lim markazi. 2021. -81 b.
24. Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf darsligi K.Miraxmedov va b., – T.: Respublika ta'lim markazi. 2022. -128 b.
25. Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf darsligi A.Sulaymonov va b., – T.: Respublika ta'lim markazi. 2022. -128 b.
26. Xayrov R.Z. O'quvchilarning badiiy bilimlarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning o'rni // O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishning dolzarb muammolari. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. -Guliston 17-18 may 2019. -253-254 bet.
27. Хайров Р.З. Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларга индивидуал ёндашувнинг илмий-методик асослари: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори. ... дисс. Автореф. – Т., 2020. – 47 б.
28. Xayrov R.Z. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga individual yondashuv. Monografiya. – T.: Ilm Ziyozakovat. 2021 yil. - 102 b.
29. Xayrov R.Z. Dekorativ rangtasvir. O'quv qo'llanma. - Toshkent.: Ilm Ziyozakovat. 2022 yil. - 172 b.
30. Xudoyorova O., Nurtaev O'. Tasviriy san'at o'qitishning

- zamonaviy texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Nizomiy nom.TDPU. –T.: 2007. 54 b.
31. Xudayberganov. R. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari. O'quv qo'llanma. - T.: Cho'lpon NMIU, 2019. - 192 b.
 32. Юлдашева Н.И. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг бадиий-эстетик компетентлигини шакллантириш технологияларини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. - Тошкент, 2021. - 195 б.
 33. Qobilov Sh.R. Tasviriyy san'at o'qitish metodikasi (Pedagogik tasvirlar ishlash). –T.: Fan va texnologiya. 2014. -136 b.
 34. Qodirov K.B. Tabaqalashtirilgan ta'limda psixologik-pedagogik tashxis. Maktab o'qituvchilari hamda oliy o'quv yurt talabalari uchun ilmiy-metodik tavsiyalar. –Toshkent: O'zPFITI 2005. -27 b.
 35. Hasanov R. Maktabda tasviriyy san'atni tabaqalashtirib o'qitish. // Xalq ta'limi jurnali. 2003. № 3.-100-103 b.
 36. Hasanov R. Maktabda tasviriyy san'atni o'qitish metodikasi. - T.: Fan. 2004.-250 b.
 37. Hasanov R. Tabaqalashtirilgan ta'lim. Muammo va yechim. // Ma'rifat gazetasi. 2003. 15 noyabr.-8-9 b.
 38. Hasanov R. Tasviriyy san'at asoslari. -T.: G'ofur G'ulom. 2009.-204b.
 39. Hasanov R. Tasviriyy san'at. 1-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 15-nashri. –T.: G'.G'ulom. 2017. - 56 b.
 40. Hasanov R. O'quvchilarning tasviriyy san'atdan bilim va malakalarini o'zlashtirilishining nazorati. –T.: TDPU. 2008. - 30 b.
 41. Hasanov R., Xayrov R. O'quvchi qobiliyati, tashxis va tabaqalashtirilgan ta'lim//Maktab va hayot-2010. -№7-8 2-5 b.

Mazkur darslik tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi predmeti o'qitiladigan oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilariga mo'ljallangan bo'lib, dastur asosida tasviriy san'at fanini o'qitishning nazariy mazmuni va uni o'qitish metodikasi, didaktik masalalari yoritilgan. Shuningdek, tasviriy san'at o'qituvchisining tashkiliy, metodik va ijodiy ishlari, umumiy o'rta ta'lim maktab tasviriy san'at dasturi, uni rejalashtirish, har bir mashg'ulot turlariga dars ishlanmasini hamda ko'rgazmali qurollar tayyorlash, xonalarni jihozlash, na'munaviy darslarni tashkil etish va o'tkazish, tahlil qilish, pedagogik tasvirlar ishlash uslublari, tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish haqida metodik tavsiyalar o'z aksini topgan. Tasviriy san'at darslarida qo'llaniladigan turli materiallar va ish qurollari, o'quvchining kasbiy bilim va mahoratini oshirishga mo'ljallangan ma'lumotlar keltirilgan.

Darslik oliy o'quv yurtlaring 60111200 - "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan, shuningdek umumiy o'rta ta'lim maktablari tasviriy san'at o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Учебник предназначен для студентов и преподавателей высших учебных заведений, преподающих предмет «Методика преподавания изобразительного искусства», и на основе программы освещает теоретическое содержание преподавания изобразительного искусства, методику его преподавания, дидактические вопросы, а также организационную, методическую и творческую работу учителя изобразительного искусства, программы изобразительного искусства общеобразовательной школы, ее планирование, разработку уроков по каждому виду деятельности и подготовку наглядных пособий, оснащение кабинета, организацию и проведение уроков. Отражен анализ педагогических рисунков, методические рекомендации по художественному анализу произведений изобразительного искусства. Представлены различные материалы и средства, используемые на занятиях по изобразительному искусству, информация, предназначенная для совершенствования профессиональных знаний и навыков учащихся.

Учебник предназначен для студентов бакалавриата направления образования 60111200 - «Изобразительное искусство и инженерная графика» высших учебных заведений, а также может быть использован преподавателями изобразительного искусства общеобразовательных школ.

The textbook is intended for students and teachers of higher educational institutions specializing at "Methods of teaching fine arts", and covers on the basis of the educational programs the theoretical content of teaching fine arts, teaching methods, didactic issues as well as the organizational, methodological and creative work of a teacher of fine arts, the educational programs of a comprehensive school on fine arts, planning and development of lessons on each type of activity and the preparation of visual aids, the equipment of the classroom, the organization and conduct of lessons, the analysis of pedagogical drawings and guidelines of artistic analysis. The textbook presents various materials and tools on fine arts used in the classroom and supports with information to improve the professional knowledge and skills of students.

The textbook is intended for undergraduate students of the areas of study 60111200 - "Fine Arts and Engineering Graphics" of higher educational institutions, and can also be used by teachers of fine arts in secondary schools.

MUNDARIJA

Kirish.....	5
1-bob TASVIRIY SAN’AT FANINI O‘QITISHNING NAZARIY MAZMUNI.....	9
1.1 Tasviriyl san’at fanini o‘qitish metodikasi fani, uning maqsad va vazifalari.....	9
1.2 Chet ellarda tasviriyl san’atni o‘qitish tarixidan. Rossiyada qalamtasvir o‘qitish metodlari.....	16
1.3 O‘rta Osiyo, O‘zbekistonda va mustaqillik yillaridagi tasviriyl san’atning o‘qitilishi.....	40
1.4 O‘zbekiston tasviriyl san’atining turlari va janrlari.....	54
2-bob TASVIRIY SAN’AT FANINI O‘QITISHDA METODIKA VA DIDAKTIKA MASALALARI.....	62
2.1 Umumta’lim va kasb-hunar maktablarida tasviriyl ta’limining maqsad va vazifalari, mashg‘ulotlarining mazmuni.....	62
2.2 Tasviriyl san’at fanining davlat ta’lim standarti mazmuni.....	74
2.3 Tasviriyl san’at fanini o‘qitishda didaktik prinsiplar	83
2.4 Boshlang‘ich 1-4 sinflarda va 5-7 sinflarda tasviriyl san’atni o‘qitish metodikasi.....	95
2.5 Tasviriyl san’at fanidan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baholash.....	102
3-bob TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHISI, UNING TASHKILIY, METODIK VA IJODIY ISHLARI.....	114
3.1 Tasviriyl san’at fanini o‘qitishda o‘qituvchi - tashkilotchi, metodist va ijodkor.....	114
3.2 Tasviriyl san’at fanidan darsdan tashqari ishlar.....	129
3.3 Tasviriyl san’at fanini o‘qitishning zamonaviyl ta’limi.....	140
3.4 Tasviriyl san’at darslarida tabaqalashtirib o‘qitish va individul yondashuv.....	149
3.5 Tasviriyl san’at xonasi, uni tashkil etish va jihozlash.....	166
4-bob TASVIRIY SAN’AT DARSLARINI TASHKILLASHTIRISH VA REJALASHTIRISHDA AMALIY MASHG‘ULOTLAR.....	180
4.1 Tasviriyl san’at fani dasturini o‘rganish va rejalashtirish.....	180
4.2 Tasviriyl san’at fani mashg‘ulot turlariga dars bayonini va ishlanmasini tayyorlash.....	183

4.3	Tasviriy san'at fani mashg'ulot turlariga ko'rgazmali qurollar tayyorlash.....	191
4.4	Pedagogik tasvirlar ishlash. Sinf doskasida bo'r bilan ishlash.....	199
5-bob	TASVIRIY SAN'AT FANI DARSLARINI LOYIHALASH VA AXBOROT-TAHLILY MATERIALLAR BILAN ISHLASH.....	206
5.1	Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish.....	206
5.2	Tasviriy san'at darslarini metodik jihatdan ta'minoti. Darsliklar bilan tanishish va tahlil qilish.....	217
5.3	Tasviriy san'at darslarida kompyuterdan foydalanish metodikasi.....	221
5.4	Tasviriy san'atdan darslarni loyihalash va modellashtirish.....	233
5.5	Kurs ishini tayyorlash bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.....	240
	GLOSSARIY.....	246
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	261

ОГЛАВЛЕНИЕ

	Предисловие.....	5
Глава 1	ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ.....	9
1.1	Предмет методики обучения изобразительному искусству, его цели и задачи.....	9
1.2	Из истории преподавания изобразительного искусства за рубежом. Методика обучения рисованию в России.....	16
1.3	Преподавание изобразительного искусства в Средней Азии, в Узбекистане и в годы независимости.....	40
1.4	Виды и жанры изобразительного искусства Узбекистана.....	54
Глава 2	МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ПРЕПОДАВАНИЕ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА.....	62
2.1	Цели и задачи изобразительного образования в общеобразовательной и профессиональной школе, содержание занятия.....	62
2.2	Содержание государственного образовательного стандарта по предмету изобразительное искусство.....	74
2.3	Дидактические принципы в обучении изобразительному искусству.....	83
2.4	Методика обучения изобразительному искусству в начальных 1-4 и 5-7 классах.....	95
2.5	Задания по предмету изобразительного искусства, их контроль и оценка.....	102
Глава 3	УЧИТЕЛЬ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА, ЕГО ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКАЯ И ТВОРЧЕСКАЯ РАБОТА.....	114
3.1	Учитель в обучении изобразительному искусству - организатор, методист и творец.....	114
3.2	Внеклассная работа по изобразительному искусству.....	129
3.3	Современное образование преподавания изобразительного искусства.....	140
3.4	Дифференцированное обучение и индивидуальный подход на занятиях изобразительным искусством.....	149
3.5	Организация и оборудование методического кабинета обучения изобразительному.....	166

Глава 4	ОРГАНИЗАЦИЯ И ПЛАНИРОВАНИЕ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ УРОКОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА.....	180
4.1	Изучение и планирование программы изобразительного искусства.....	180
4.2	Подготовка отчета и разработки об уроке по видам обучения изобразительному искусству.....	183
4.3	Подготовка наглядных пособий для занятия по предмету изобразительного искусства.....	191
4.4	Выполнение педагогических рисунков. Выполнение рисунков мелом на доске.....	199
Глава 5	ПРОЕКТИРОВАНИЕ ПРЕДМЕТА ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА И РАБОТА НАД ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКИМИ МАТЕРИАЛАМИ.....	206
5.1	Художественный анализ произведений изобразительного искусства.....	206
5.2	Методическое обеспечение занятий изобразительного искусства. Знакомство и анализ учебников.....	217
5.3	Способы применения компьютеров на уроках изобразительного искусства	221
5.4	Проектирование и моделирование уроков изобразительного искусства.....	233
5.5	Указания и рекомендации по подготовке курсовой работы.....	240
	ГЛОССАРИЙ.....	246
	СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.....	261

TABLE OF CONTENTS

	Foreword.....	5
Chapter 1	THEORETICAL CONTENT OF TEACHING FINE ARTS.....	9
1.1	The subject of teaching fine arts, its goals and objectives.....	9
1.2	From the history of teaching fine arts abroad. Methods of teaching drawing in Russia.....	16
1.3	Teaching fine arts in Central Asia, in Uzbekistan and during the years of independence.....	40
1.4	Types and genres of fine arts in Uzbekistan.....	54
Chapter 2	METHODOLOGICAL AND DIDACTIC ISSUES OF TEACHING ART.....	62
2.1	Goals and objectives of fine education in general education and vocational schools, the content of the lesson.....	62
2.2	The content of the state educational standard on the subject of fine arts.....	74
2.3	Didactic principles in teaching fine arts.....	83
2.4	Methods of teaching fine arts in primary grades 1-4 and 5-7.....	95
2.5	The subject of fine arts: Tasks, Control and Evaluation.....	102
Chapter 3	ART TEACHER, HIS ORGANIZATIONAL-METHODOLOGICAL AND CREATIVE WORK.....	114
3.1	A teacher in teaching fine arts is an organizer, methodologist and creator.....	114
3.2	Extracurricular work on visual arts.....	129
3.3	Modern education in teaching fine arts.....	140
3.4	Differentiated instruction and individual approach in the classroom of fine arts.....	149
3.5	Organization and equipment of a methodical study for teaching fine arts.....	166
Chapter 4	ORGANIZATION AND PLANNING OF PRACTICAL LESSONS ON FINE ARTS.....	180
4.1	Studying and planning a visual arts educational program.....	180
4.2	Preparation of a report writing and lesson planning on teaching the types of fine arts.....	183
4.3	Preparation of visual aids for a lesson on the subject of fine	191

	arts.....	
4.4	Execution of pedagogical drawings. Making chalk drawings on the blackboard.....	199
Chapter 5	DESIGNING A FINE ART OBJECT AND WORK ON INFORMATION AND ANALYTICAL MATERIALS.....	206
5.1	Artistic analysis of fine art works.....	206
5.2	Methodological support for fine art classes. Acquaintance and analysis of textbooks.....	217
5.3	Ways of using computers in art classes	221
5.4	Designing and modeling art lessons.....	233
5.5	Instructions and recommendations for the preparation of the course work.....	240
	GLOSSARY.....	246
	REFERENCES.....	261

XAYROV RASIM ZOLIMXON O‘G‘LI

**TASVIRIY SAN‘AT FANINI O‘QITISH
METODIKASI**
Darslik

Toshkent - “METHODIST NASHRIYOTI” - 2023

Muharrir: Xolsaidov F.B.

Bosishga 20.10.2023.da ruxsat etildi.
Bichimi 60x90. “Times New Roman” garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 18. Nashr bosma tabog‘i 17,25.
Adadi 285 nusxa.

“METHODIST NASHRIYOTI” MCHJ matbaa bo‘limida chop etildi,
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy ko‘chasi, 5-uy.



+99893 552-11-21

Nashriyot roziligisiz chop etish ta‘qiqlanadi